

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

SUYUN KARIMOV

NUTQ MADANIYATI VA MUTOLAA SAN‘ATI

O‘QUV QO‘LLANMA

*Qo‘llanma Samarqand davlat
universiteti Kengashi tomonidan
nashrga tavsiya etildi
(№ 9-bayonnoma, 2020-yil 30 aprel)*

Samarqand – 2020

UDK 494.3
BBK 81.2Uz
K 25

Karimov S.A. Nutq madaniyati va mutolaa san'ati. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2020. – 240 bet.

Mazkur qo'llanma oliy filologik ta'lim o'quv rejasiga kiritilgan va filologiya fakultetlarining 2-bosqich talabalariga «Nutq madaniyati va mutolaa san'ati» predmetini o'qitishda foydalanish uchun yozilgan. Unda imkoniyat darajasida o'zbek tilshunosligida nutq madaniyati va stilistikaga oid yaratilgan ilmiy, o'quv-metodik manbalardan hamda mutolaa madaniyati bo'yicha to'plangan tajribalardan foydalanilgan.

Mas'ul muharrir – filologiya fanlari doktori,
dotsent **Azamat Pardayev.**

Taqrizchilar – filologiya fanlari doktori,
professor **Yormat Tojiyev.**
– filologiya fanlari nomzodi,
dotsent **Orziboni Yusupova.**

ISBN 978-9943-6648-5-2

© Samarqand davlat universiteti, 2020

KIRISH

O'zbek xalqining tarixiy yutug'i bo'lgan mustaqillikning qo'lga kiritilishi ona tiliga bo'lgan munosabatning tubdan o'zgarishiga mustahkam zamin yaratdi. O'zining baquvvat ildizi va qadimiy an'analariga ega bo'lgan o'zbek davlatchiligi tobora barqarorlashib va rivojlanib bormoqda. Xalqimiz esa ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarida bugun dunyo hamjamiyatining teng sherigiga aylanmoqda.

Mana shunday bir yuksalish va taraqqiyot bosqichida xalqimizga o'z ona tilini mukammal bilish va muloqot jarayonida umuminsoniy hamda umummilliy nutq madaniyati tamoyillari va qadriyatlariga asoslanish chuqur mazmun va ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bugun muloqotlar bir millat yoki bir davlat chegarasida qolib ketayotgan emas. Jahonga yuz tutgan xalqimizning dunyo xalqlari bilan bo'ladigan barcha turdagi munosabatlarida milliy madaniyatimiz, jumladan til madaniyatimiz ham aks etib turishi aniq. Buning ustiga, til savodxonligi har qanday bilimni egallashning asosi ekanligi hammaga ma'lum. Shunday ekan, tilimiz va nutqimiz madaniyatiga har qachongidan ham jiddiy munosabatda bo'lishimizga to'g'ri keladi.

Bu esa ozmuncha mehnatni talab qilmaydigan, nihoyatda og'ir ishdur. Shunday bo'lgani uchun ham ta'lim tizimidagi islohotlar qiyinchilik bilan kechyapti, shevachilik illatlaridan hamon qutulgan emasmiz. Tobora globallashib borayotgan olamning tazyiqlariga bardosh berishimiz qiyin kechyapti. Vaholanki, millat ravnaqi uchun milliy tafakkur kerak. Milliy tafakkur esa faqat ona tilida va shu tilda yaratilgan ilmiy-badiiy asarlarni mutolaa qilish va mag'zini chaqish bilan rivoj topadi.

Masalaning mana shu jihatlarini davlatimiz rahbariyati chuqur tahlil etdi va 2017-yil 13-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi PQ-3271-son qarori qabul qilindi.

Ushbu hujjatda jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishda, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga

ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu yo'nalishda tashkiliy-amaliy ishlarni zamon talablari asosida olib borish, jamiyatimizda mutolaa madaniyatini yuksaltirish bilan bog'liq muhim masalalarni hal etish lozimligi ta'kidlandi.

Ushbu qaror ijrosi yuzasidan mamlakatimizda kitob mahsulotlarini nashr etish, o'zbek va dunyo adabiyotining eng yaxshi namunalarini internet tarmoqlariga joylashtirish va ularni targ'ib qilish hamda keng kitobxonlar ommasiga etkazish, axborot-kutubxona faoliyatini kuchaytirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Qaror ijrosi yuzasidan qabul qilingan Dasturda maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalari o'quvchilari, oliy o'quv yurtlari talabalarining mutolaa madaniyati va kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilandi.

Ana shu tadbirlarni amalga oshirish jarayonida oliy filologik ta'lim o'quv rejalariga «Nutq madaniyati va mutolaa san'ati» predmeti kiritildi. Talabalarning nutq madaniyati sirlarini chuqur o'rganishi va kitobga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirish ko'zda tutilgan ushbu fanning o'qitilishi ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ona tili va adabiyoti ta'limini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

«Nutq madaniyati va mutolaa san'ati» fani bo'yicha yaratilgan ushbu o'quv qo'llanma Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan va 42 soat ma'ruza va __ amaliy mashg'ulotga mo'ljallangan «Namunaviy o'quv dasturi» asosida, shuningdek, ayrim mavzularga o'zgarishlar kiritilgan holda yozildi. O'quv qo'llanmani tayyorlashda ingliz olimi Tomas Fosterning «Mutolaa san'ati» kitobi va o'zbek tilshunoslarining nutq madaniyati va stilistikaga oid yaratgan asarlaridan foydalanildi.

Qo'llanma yuzasidan aytilgan tanqidiy fikr-mulohazalarni muallif mamnuniyat bilan qabul qiladi. Manzil: Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: 99-592-78-89.

«NUTQ MADANIYATI VA MUTOLAA SAN'ATI» FANIGA KIRISH

Reja:

1. *Nutq madaniyati* tushunchasi.
2. Nutqiy madaniyatni shakllantiruvchi omillar.
3. Nutqiy savodxonlik o'lchovlari.
4. O'zbek nutqidagi kamchiliklar va ularni tuzatish yo'llari.

Tayanch so'z va iboralar: *nutq, madaniyat, me'yor, to'g'rilik, aniqlik, ta'sirchanlik, maqsadga muvofiqlik, adabiy til me'yorlariga mos kelish, mukammallik, muammolar bilan shug'ullanish, Praga, Moskva, o'zbek tilshunosligi, til madaniyati, nutq madaniyati, ruhshunoslik, etika, estetika, pedagogika, til tarbiyasi, til taraqqiyotida omma va mutaxassislarining roli, merosiylik, badiiy adabiyot, yozuv, me'yor va davr, kalka.*

1. *Nutq madaniyati tushunchasi.*

Nutq madaniyati nima, uni yetarli darajada egallash uchun qanday vazifalarni amalga oshirish lozim va bunda adabiy til me'yorlarining o'rnini qanday bo'ladi? Bu savollarga javobni tilshunos olimlarning asarlaridan topamiz. E'tiborimizni dastlab ikkita fikrga qaratamiz:

Ojegov S.I.: «Yuqori nutq madaniyati nima? Yuqori nutq madaniyati – bu o'z fikrlarini til vositalari bilan to'g'ri, aniq va ta'sirchan qilib bera olishdir. To'g'ri nutq deb esa hozirgi adabiy til me'yorlarga rioya qilib tuzilgan nutqqa aytiladi. Ammo yuqori nutq madaniyati faqatgina me'yorga rioya qilishidan iborat emas. U yana fikrni ifodalashning aniq vositasini topishdangina iborat bo'lib qolmasdan, birmuncha ta'sirchan va maqsadga muvofiq vositalarni topish uquvini ham o'z ichiga oladi»¹.

Skvorsov L.I.: «Nutq madaniyati» tushunchasi bir tomondan nutqning adabiy til me'yorlariga mos kelish darajasini bildirsa, ikkinchi tomondan tilshunoslik fanining madaniyat quroli bo'lgan adabiy tilni mukammallashtirish maqsadida me'yorlashtirish muammolari bilan shug'ullanuvchi sohadir»².

Demak, nutq madaniyati, agar masalaga til nuqtayi nazaridan qaraladigan bo'lsa, bu dastlab nutqning grammatik to'g'riligi demakdir.

¹ Ожегов С.И. Лексикология. Лексикография. Культура речи. – М., 1974. -С.287-288

² Основы культуры речи. Хрестоматия. – М.: Высшая школа, 1984. -С.29

Ikkinchidan esa, u uslubiy jihatdan ham to'g'ri bo'lishi kerak, ya'ni yaxshi nutqda noaniqlikka, ikki ma'nolilikka, uzundan uzoqlikka yo'l qo'yilmasligi, qisqalik, aniqlik va soddalik uning o'lchovi bo'lishi lozim. Keng ma'noda esa nutq madaniyati nutqiy ta'sirchanlikni, ijodiy yorqinlikni, o'tkirlik va obrazlilikni ifoda etadi.

Nutq madaniyati muammolari bilan olimlar qadimdan shug'ullanib kelishgan. Bu sohada Praga lingvistik to'garagi, rus tilshunosligi katta yutuqlarga erishgan. Keyingi 40-50 yil ichida bu sohada o'zbek tilshunosligida ham ma'lum ishlar amalga oshirildi va bu ishlar davom ettirilmoqda.

Bu borada o'tgan asrning 70-yillarida O'zFA Til va adabiyot institutida tashkil etilgan Nutq madaniyati sektorining, ayniqsa, unda uzoq yillar sektor mudiri bo'lib ishlagan professor E.A.Begmatovning xizmatlari katta bo'ldi.

Olimning qalamiga mansub «Nutq madaniyati problemasining paydo bo'lishi va asoslanishi» (1973), «Tilshunoslikning muhim sohasi» (1973), «Nutq madaniyati tushunchasi haqida» (1975), «Nutq madaniyati mezonlari» (1976), «O'zbek nutqi madaniyati masalalari» (1980), «Notiqning nodir boyligi» (1980), «Adabiy norma va nutq madaniyati», «O'zbek nutq madaniyati ocherklari» (1989), «O'zbek nutqi madaniyati asoslari» (1991), «Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari» (1992), «Adabiy norma nazariyasi» (1997, 1998, 1999) singari asarlarida nutq madaniyatiga oid ko'plab ilmiy-nazariy fikrlar bayon etilgan.

Nutq madaniyatini yuksaltirishning oldida turgan muammolarni aniq ko'ra bilgan E.Begmatov bundan 30 yil muqaddam quyidagilarni yozgan edi: «Bizning fikrimizcha, nutq madaniyati sohasi o'z o'rnini va fandagi mavqeyini to'la egallashi uchun u nazariy jihatdan asoslangan bo'lishi lozim. Birinchidan, bu tushunchaning til hodisasi va ilmiy problema sifatida tarixi yoritilmog'i kerak. Ikkinchidan, nutq madaniyati sohasini o'rganuvchi asosiy obyekt bo'lgan til hodisasi aniqlanishi kerak. Uchinchidan, nutq madaniyatining ilmiy-tadqiqiy obyekti bilan bog'liq problemalar belgilanishi lozim. To'rtinchidan esa, nutq madaniyatini o'rganish aspektlari (lingvistik va ekstralingvistik) chegaralanishi zarur»³.

XXI asrga kelib bu masalalarning ko'plari hal bo'ldi. Bu borada yana E.Begmatovning xizmatlari katta ekanligini ta'kidlashimiz zarur.

³ Бегматов Э. Нутқ маданияти проблемасининг пайдо бўлиши ва асосланиши / Нутқ маданиятига оид масалалар. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 1973. -Б.156

Birgina «til madaniyati» va «nutq madaniyati» tushunchalarini chegaralash masalalarini olib qaraylik. Olimning fikrlarini keltiramiz: «...**nutq madaniyati** tushunchasi bu, avvalo to'g'ri, shu bilan birga, yaxshi so'zlash, ya'ni madaniy nutqiy protsess demakdir. Ammo madaniy gapirish uchun nutqda xizmat qiluvchi madaniy vositalar, ya'ni aniqrog'i madaniy til vositalari lozim bo'ladi. Shunga ko'ra aytish mumkinki, madaniy nutq ikki faktor asosidagina yuzaga chiqa oladi: a) madaniy til (adabiy til) vositalarining mavjudligi, ushbu madaniy til vositalaridan gapirganda yoki yozganda maqsadga muvofiq ravishda foydalana olish.

Til madaniyati tushunchasi nutq madaniyati sohasida til sistemasining o'zini, masalan, o'zbek adabiy tilining vosita va imkoniyatlarini, «madaniylashtirishni» ko'zda tutadi. Demak, til madaniyati termini bilan ataluvchi tushuncha til sistemasining madaniylik darajasini, ya'ni uning qanchalik ishlanganligi, normalanganligini ko'rsatadi»⁴.

Demak, *til madaniyati* va *nutq madaniyati* – so'zlashuv madaniyati tushunchalarini bir-biridan farqlash lozim bo'ladi.

2. Nutqiy madaniyatni shakllantiruvchi omillar.

Til madaniyati va *nutq madaniyati* tushunchalari tilga oid atama sifatida bir-birlaridan farqlansa ham, aslida ularning birini ikkinchisidan ajratib bo'lmaydigan, biri ikkinchisini taqozo qiladigan tushunchalardir.

«Nutq madaniyati» aniq ma'noda til birliklarini nutq jarayonida qo'llashning me'yori, maqsadga muvofiqligini anglatrsa ham, umumiy ma'noda ma'lum millatning umumtil doirasida qaraladi. To'g'ri, nutq til va tildan tashqaridagi (lingvistik va ekstralingvistik) omillarni o'z ichiga oladigan murakkab jarayon bo'lib, u mantiq, ruhshunoslik, pedagogika, etika, estetika masalalari bilan ham bog'liq. Ammo nutq uchun tilning birinchi darajada turishini inkor etib bo'lmaydi.

3. Nutqiy savodxonlik o'lchovlari.

Muayyan tilga oid birliklarning me'yorlashtirilishi va adabiy til shakliga keltirilishi savodxonlikning asosiy mezoni sanaladi. Til birliklari hamma uchun umumiy va tushunarli bo'lgan bir qolipga keltirilgandan keyingina undan foydalanish osonlashadi. Bu borada nutq madaniyatini takomillashtirish borasida olib borilgan ishlar ham

⁴ Бегматов Э. «Нутқ маданияти» тушунчаси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1975. -№5. -Б.50-58

ahamiyatli bo‘ladi. Shu boisdan me‘yor muammolari hamisha ushbu sohaning tadqiqot obyekti bo‘lib qolaveradi.

Nutq madaniyati tilda ma‘lum me‘yorga keltirilgan til birliklarining nutqda qo‘llanish shart-sharoitlarini, qonuniyatlarini nazariy jihatdan asoslaydi hamda bu me‘yorga amal qilishni ma‘lum ma‘noda nazorat ham qilib boradi. Binobarin, nutqdagi nuqsonlar tahlil qilinib, ularni tugatish yo‘llari ko‘rsatib turiladi.

Til elementlarining me‘yorlashishi jarayonida eskilik bilan yangilik o‘rtasida kurash boradi. Me‘yorlasha olmagan birliklar adabiy til doirasidan tashqarida qolib ketadi.

Itskovich V.A.: «Biz yangi me‘yorlarning grammatika va lug‘atlarda qoidalashtirilishi (kodifikatsiya) va joylashish vaqtini qayd qilishimiz mumkin. Ammo eski me‘yorni yangisining siqib chiqarishi uzoq va ko‘p bosqichli jarayondir. Yangi birlik adabiy qo‘llanishning tashqarisida – jonli so‘zlashuvda, kasb-hunarga oid va kundalik maishiy nutqda paydo bo‘lib, faqat asta-sekinlik bilangina adabiy tildan o‘rin oladi»⁵.

Umumxalq tili o‘zbek tilida uchraydigan barcha elementlarni o‘z ichiga oladi va ishlanmagan shaklda bo‘ladi. Adabiy til esa undan o‘zbek millati uchun tushunarli bo‘lgan va foydalanishda qulay deb topilgan variantlarini tanlab oladi hamda ularni millat vakillari uchun me‘yor sifatida tavsiya etadi. Kodifikatsiyalashtirilgan, ya‘ni ma‘lum qoidalarga kiritilgan me‘yorlarga faqat adabiy tilga xos xususiyatdir. Shuning uchun ham adabiy tilning umumxalq tilidan farq qiluvchi tomoni unda yagona me‘yorning qat‘iy amal qilishi hisoblanadi.

Tilning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi xalq hisoblansa ham, uning taraqqiyotida olimlarimizning, shoir va yozuvchilarimizning, davlat va jamoat arboblarning, pedagoglar va matbuot xodimlarining, kino, teatr san‘ati ustalari va nashriyot xodimlarining hamda jurnalistlarning xizmatlarini qayd qilish lozim. Ular tildagi ifoda imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qilsa, tanlangan ushbu til boyliklarining adabiy nutqda mustahkamlanishida jamiyatdagi yana bir kuch – o‘qituvchilar yordamga keladi.

Til birliklarining adabiy shaklda me‘yorlashuvida badiiy adabiyotning o‘rni ham alohida. Ammo bu o‘rinda o‘ziga xos murakkabliklar ham bor. Chunki badiiy matnda adabiy me‘yor doirasidan tashqarida bo‘lgan til shakllari ishlatilishi ham mumkin.

⁵ Ицкович В.А. Языковая норма. - Москва, 1968. –Б.47-48.

Badiiy ijod jarayonida shoir va yozuvchilar o'z fikr va hissiyotlarini favqulodda original ifodalarda berishga intiladilar. Bu yo'lda ular yangi so'z va iboralar yaratadilar. Yaratiladigan birliklar o'sha matnning o'zida qolib ketaverishi, ommalashmasligi, adabiy tildan o'rin olmasligi, bir so'z bilan aytganda, tilda me'yorlashmasligi mumkin. Ularning me'yorlashishini sharoit, vaqt va ommaning qabul qilishi kabi omillar belgilaydi.

Ammo bu birliklar o'zi qo'llangan matnda badiiyat uchun, obrazli tasvir va ifoda uchun xizmat qiladi. Shunday ekan ularni bir uslub doirasida me'yoriy deb hisoblashga asos bor. Masalan:

Abdulla Oripovda:

Shovillaydi tun bo'yi shamol.

*Qaldirqlar uchdi **larzakor*** («Shovilladi tun»),

Pirimqul Qodirovda:

*Lekin faqirga eng ulug' tuyulgan fazilatlari – Hazrat Mirning **iste'dodshunosliklari**-yu, **zakovatparvarliklari** edi* («Yulduzli tunlar») kabi.

4. O'zbek nutqidagi kamchiliklar va ularni tuzatish yo'llari.

Til tadqiqotchilarining tasdiqlashicha, davlatchilik darajasida, ya'ni rasmiy muomalada tildan foydalanish uning me'yorlashuvini, binobarin, adabiy tilning shakllanuvini tezlashtirgan. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, qayerda davlatchilik taraqqiy etgan, mustahkamlangan va bu davlatning boshqa davlatlar bilan munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan va rivojlangan bo'lsa, shu yerda tilning me'yorlashuvi va madaniylashuvi ham tezroq amalga oshgan. Xuddi ana shu fikrni dunyo sivilizatsiyasiga o'zlarining munosib hissasini qo'shgan xalqlarning badiiy va ilmiy tafakkuri haqida aytish mumkin.

Darhaqiqat, davlat olib borgan ijtimoiy siyosatning til rivoji va uning me'yorlashuviga ta'siri sezilarli bo'lishini quyidagi fakt isbotlaydi: sobiq SSSR davridagi «Rus tili – ikkinchi ona tilimiz» degan sun'iy shior bir asrga yaqin vaqt mobaynida asta-sekinlik bilan tilimizga rus yoki u orqali boshqa tillardan so'z qabul qilish va ularning me'yorlashib borishiga olib keldi. Biz hech ikkilanmasdan, xuddi shunday bo'lishi kerakdek, *absolyut, avangard, avtobiografiya, avtonom, avtor, agitator, aktiv, aktual, arxaik, ataka, attestat* singari o'nlab so'zlarni qo'llayverdik va ularni shunday qo'llashga ko'nikdik. Ularning tilimizda muqobillari yo'qmikan deb o'ylab ko'rmadik.

Xayriyatki, keyingi paytlarda biz bu kamchiliklardan asta-sekinlik bilan qutulib boryapmiz.

O'zbek adabiy tilining qanchalik me'yorga keltirilganligi va unga qay darajada amal qilinishi umummilliy o'zbek madaniyatining taraqqiyot darajasini belgilovchi omillardan sanalar ekan, bu muammo bilan shug'ullanish ziyolilar, xususan, tilshunoslarning bundan keyin shug'ullanishi va hal qilishi lozim bo'lgan **dolzarb** vazifasi bo'lib qolaveradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

- 1.«Nutq madaniyati» deganda nimani tushunasiz?
- 2.Nutq madaniyati qoidalarini o'rganish nima uchun kerak?
- 3.Nutq madaniyatiga rioya qilish nimalarni talab etadi?
- 4.Savodxonlik nimalarga asoslanishini tushuntiring.
- 5.Kitob mutolaasi ham san'atmi?

NOTIQLIK SAN'ATI – RITORIKA TARIXIDAN

Reja:

1. *Ritorika* tushunchasi.
2. Ritorikaning predmeti, maqsad va vazifalari.
3. Notiqlik san'atining ilk manbalari.
4. Aristotelning «Ritorika» asari haqida.

Tayanch soʻz va iboralar: *ritorika, jonli soʻz san'ati, til va tafakkur yaxlitligi, ritorikaning predmeti, muloqot qonuniyatlari, amaliy imkoniyatlar, ta'sir o'tkazish, ishontirish, chiroyli soʻzlash, nutqni bezash, notiq tarbiyasi, ritorikaga oid bilimlar, ommaviy chiqishlar rejasi, aniqlik, talaffuz ko'nikmalari, Yunoniston, Gomer, sinigor va logograflar, sofistlar, hind notiqligi, O'rta Osiyo notiqligi, Aristotel, «Ritorika», ijtimoiy fikr taraqqiyoti.*

1. *Ritorika tushunchasi.*

Notiqlik san'ati ilmiy terminologiyada *ritorika* deb ham yuritiladi va bu termin qadimdan jonli soʻz san'atining rasmiy nutq ko'rinishini ifodalab kelgan. Ayni paytda, *ritorika* soʻzi notiqlik san'atining nazariy asoslari haqidagi fan degan tushunchani ham anglatadi. Shuningdek, notiqlik san'atining nazariy asoslarini yorituvchi ilmiy-tadqiqot va metodik ishlar ham *ritorika* deyiladi.

Ammo keyingi paytlarda bu termin koʻproq nazariy aspektda qoʻllanmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, **ritorikaning predmeti rasmiy jonli soʻz san'ati jarayoni boʻlib, uning vazifasi mafkuraning muhim quroli boʻlgan notiqlik san'atining nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.**

Notiqlik san'atining rivojlanish borishi bilan uning tamoyillari va metodlarini nazariy jihatdan anglash yoʻlida harakatlar boshlangan va **notiqlik nazariyasi haqidagi fan – ritorika** tugʻilgan.

Demak, ritorika deganda ikki ma'no anglashiladi: ham notiqlik san'atining amaliy miqyosi, ham uning nazariyasiga oid ilmiy adabiyot. Ritorika til va tafakkur yaxlitligining ogʻzaki nutqdagi namoyishidir.

G.Z.Apresyan «Notiqlik san'ati» kitobida notiqlikning olti turini keltirgan: ijtimoiy-siyosiy notiqlik, akademik notiqlik, sud notiqligi, ijtimoiy-maishiy notiqlik, diniy notiqlik.⁶ Ular yana oʻz navbatida quyidagilarga boʻlingan:

⁶ Апресян Г.З. Ораторское искусство. – М.: изд-во МГУ, 1972. -С.62-63.

-ijtimoiy-siyosiy notiqlik: ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy mavzulardagi ma'ruzalar, konferensiya, syezd kabi yig'ilishlardagi hisobot ma'ruzalari, siyosiy nutq, diplomatik nutq, siyosiy sharh, harbiy-vatanparvarlik nutqi, miting nutqi, tashviqot nutqi;

-akademik notiqlik: oliy ta'limdagi siklik va epizodik ma'ruzalar, ilmiy ma'ruza, ilmiy sharh, ilmiy axborot;

-sud notiqligi: prokuror yoki qoralov nutqi, ijtimoiy-ayblov nutqi, advokat yoki himoya nutqi, ijtimoiy-himoya nutqi, ayblanuvchining o'zini himoya qiluvchi nutqi;

-ijtimoiy-maishiy notiqlik: yubiley yoki maqto'v nutqi, stol atrofidagi nutq yoki tost, motam nutqi.

-diniy notiqlik: va'z, amru ma'ruf, cherkov nutqi.

2. Ritorikaning predmeti, maqsad va vazifalari.

Turli sohalarda, vaziyatlarda amal qiladigan muloqot qonuniyatlari va ularning amaliy imkoniyatlarini o'rganish **ritorikaning predmeti** sanaladi. Shuningdek, til vositalari yordamida auditoriyaga ta'sir o'tkazish va ishontirish san'atini, og'zaki nutqning badiiy-tasviriy tuzilishini o'rganish ham notiqlik san'atining predmetidir.

Antik davrda ritorikasida ishontirish, chiroyli so'zlash, nutqni bezash singari san'atlarning ustuvor bo'lganligi bevosita muloqot qonuniyatlarini belgilaydigan omillar edi.

Ritorika insonni teran tafakkur qilishga, eng zarur va ta'sirli so'zni qo'llashga o'rgatadigan mumtoz fan bo'lganligidan, uni mumkammal egallaganlar komillik darajasiga ko'tarilishgan. Shu sababdan, so'zning ekspressiv imkoniyatlarini eng oliy maqomda namoyish eta olishi bilan ritorika notiqlik san'ati va chiroyli so'zlash haqidagi fan sifatida tilshunoslikka yaqin turadi.

Ritorikaning maqsadi. Chiroyli va ta'sirli so'zlash notiqlik san'atining markazida turishini inobatga olsak, ana shu san'atni puxta egallagan notiqni tarbiyalash ritorikaning asosiy **maqsadi** sanaladi. Jamoat arbobi va fidoyi, bilimli va mulohazali, xushfe'l va jamiyatga nafi tegadigan kishilarning ko'pchiligi ana shunday notiqlar bo'lishgan.

Buyuk Aristotel o'zining «Ritorika» asarida nutq uslubiga alohida e'tibor qaratgan va notiqlik san'atining vazifalarini belgilab bergan.

Muallif nutq uslubi past ham emas, yuqori ham emas, balki mavzu mazmuniga mos kelishi kerakligini ta'kidlagan. Bu uslubning asosi bo'lgan to'g'rilik so'z tanlash, ularning gap tarkibida joylashishini

ta'minlash, talaffuziga e'tibor berish, urg'uni kerakli o'rinlarda qo'llash kabi qator vazifalarni o'z ichiga oladi. Nutqning ritmi va tasviriy vositalari o'ziga xos bo'ladi. Metaforalar, o'xshatishlar, epitetlar, mubolag'alar va boshqa troplar qo'llanilishida me'yor bo'lishi zarur. Nutqqa xos bo'lgan ana shu jihatlarni ochib berish «Ritorika» fanining vazifasidir.

Demak, notqlik san'atining o'z oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqib, ritorika predmetining o'qitilishida quyidagi **vazifalarni** amalga oshirish lozim bo'ladi:

- notqlik san'ati tarixini o'rganish jarayonida talabalarda ritorik bilimlar asosini shakllantirish va bunda e'tiborni O'rta Osiyo notqligi tarixiga qaratish;

- ommaviy chiqishlar rejasini tuzishga o'rgatish va bunda auditoriyani hisobga olish;

- talaffuz ko'nikmalarini hosil qilish. O'z ovozi boshqara olishga, ohang yordamida so'zlarning ma'nolarini farqlashga o'rgatish;

- tinglovchini ishontirish va til yordamida ta'sir ko'rsatish borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish kabi.

Bu vazifalarni amalga oshirish jarayonida talabalar mumtoz va zamonaviy notqlikning asosiy tamoyillarini, notqlik san'atining falsafiy, axloqiy va stilistik jihatlarni anglab yetadilar, turli xil nutqlarni tuzish va bahs olib borish usullarini, nutq uslublarini farqlashni, olgan nazariy va metodik bilimlarini amaliyotda qo'llay olishni, nutqni hosil qilishning samarali vositalarini qo'llashni o'rganadilar.

3. Notqlik san'atining ilk manbalari.

Notqlik san'atining sarchashmalari qadimgi Yunonistonga borib taqaladi va bunga oid ilk ma'lumotlarni Gomerning (e.a.XII asr) «Iliada» va «Odissey» dostonlaridan olish mumkin. Buyuk tarixchining ta'kidlashicha, u zamonlarda Nestor, Menelay, Odissey, Axill singari mashhur notqlar bo'lgan. Chunki bir qadar demokratiya ustuvor bo'lgan antik jamiyat anjumanlari – xalq majlislari, senat majlislari va sud majlislarida o'z platformalarini isbotlab, himoya qila oladigan bilimdon va notiq kishilarga ehtiyoj katta bo'lgan. Shuning uchun notqlar tayyorlaydigan maxsus maktablar faoliyat ko'rsatgan.

Sinegorlar va logograflar o'sha paytlarda yetishib chiqqan. Sinegorlar sud jarayonida jabrlanuvchilarning manfaatini ko'zlab nutq so'zlaydigan professional notqlar bo'lgan va ular hozirgi advokatlarga to'g'ri keladi. Logograflar nutq matnlarini tuzib beruvchi iqtidorli

kishilar bo'lgan va o'zlari ham nutq so'zlashgan. Keyinchalik davlat arboblari ham ana shunday kishilar orasidan chiqqan.

Professional notqlik san'ati Afinada va Rimda, O'rta Osiyoda va Hindistonda ham o'zining uzoq tarixiga ega bo'lib, notqlik san'ati asoslarini o'rgatuvchi mustaqil maktablar, professional ustodlar bo'lgan.

Notqlik san'ati atamalarining asosiy qismi Afina notqlik maktabining faoliyati bilan bog'liq.

Sofistlar. Yunonistonda demokratik tuzum mustahkamlana borishi barobarida davlat arboblari oldiga qo'yiladigan talablar ham o'zgardi.

Avvallari davlat arboblari nasl-nasabiga qarab tayinlanib kelingan bo'lsa, eramizdan oldingi V asrlarga kelib, Xalq majlislari va «Besh yuzlar kengashi»da so'zini o'tkaza oladigan kishilargina davlat arbobi darajasiga loyiq ko'rildi.

Shuning uchun ham davlat arbobliligiga da'vo qiluvchi har bir kishi notqlik san'ati asoslarini o'rganishga majbur edi. Ana shunday katta ijtimoiy-siyosiy ehtiyoj tufayli madaniyat tarixida **sofistlar** deb ataluvchi kishilar toifasi maydonga keldi. **Har bir dono, fozil kishi sofist** deb ataladigan bo'ldi. Masalan, Gerodot Solon va Pifagorni sofist deb atagan.

Eramizdan oldingi V asrning o'rtalaridan boshlab bu atama yanada torroq va konkretroq ma'no kasb eta boshladi. Bu paytlarga kelib **professional o'qituvchilar toifasi** ajralib chiqa boshladi va bunday kishilarni **sofist** deydi bo'ldilar. Shunday qilib, **sofist** so'zi olim, faylasuf, dono o'qituvchi, ya'ni yuqori professional saviyadagi kishilar toifasini anglatdi.

Sofistlar jahon madaniyati tarixida birinchi marta pullik o'qishni joriy etganlar. O'qituvchilar etika, ritorika, grammatika, mifologiya, tarix, siyosat va kosmologiya kabi fanlardan saboq berganlar. Ular asosiy e'tiborni shogirdlarining notqlik san'ati bobida kuchli mutaxassislar bo'lib yetishishlariga qaratganlar. Shuning uchun ham sofistlar notqlik san'ati bobidagi ilk murabbiylar sanaladilar.

Sofistlar ta'limoti uch yo'nalishni qamrab olgan:

1. Ritorikaning umumiy qonunlarini nazariy va amaliy jihatdan ishlab chiqish.

2. Siyosiy va huquqqa oid matnlarni tuzish va uni talqin etish uslublari.

3. Bahs qoidalari.

Notiqlik san'atining **nazariy asoslarini ishlab chiquvchi va shu sohadan dars beruvchi o'qituvchilar ritor** deb atalgan.

Notiqlik san'atining yana bir manbasi **hind notiqligi**dir. Chunki qadimgi madaniyatga ega bo'lgan xalqlardan biri hindlar hisoblanadi. Bu buyuk xalq yaratgan «Maxabxarata», «Ramayana» asarlari shundan dalolat beradi. Ularda insoniy fazilatlar ulug'langan, g'ayriaxloqiy harakatlar qoralangan. Vedalar tilini o'rganish jarayonida tovushlar tovlanishi, so'zlardagi ma'no taraqqiyotini tahlil qilishgan. Qadimgi hind tilshunosligining nodir namunasi Paninining «Grammatik qoidalarining sakkiz bo'limi» asaridir. Unda veda tilining fonetik, morfologik, so'z yasalishi va sintaktik tizimiga oid 4000 ga yaqin qoidalar jamlangan bo'lib, ularda so'z va uning ma'nosi, ma'no taraqqiyoti, ohang, urg'u, tovush hodisalariga e'tibor berilganligi hindlarda nutq madaniyati ham rivojlanganligini ko'rsatadi.

Notiqlik san'ati tarixida **O'rta Osiyo notiqligi** alohida o'rin tutadi. Bu yerda qadimda notiqlik san'ati – *voizlik*, notiq – *voiz*, nutq – *va'z* deb nomlangan. O'rta Osiyo xalqlari hayotida oltin davr hisoblangan X-XI asrlar dunyo tamadduniga Beruniy, Xorazmiy, Farg'oniy, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Imom al-Buxoriy, Moturudiy singari ko'plab buyuklarni berganligini dunyo biladi. Bu davrda boshqa fanlar qatori notiqlik san'ati ham yuqori darajada bo'lgan. Masalan, Ibn Sinoning «O'tkirlik sintaksisda ekanligi kitobi», «Arab tili kitobi», «Tovushlarning chegaralanishi sabablari» singari tilshunoslikka bag'ishlab yozilgan kitoblari notiqlik san'atiga ham tegishlidir. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur qoldirgan ilmiy-badiiy meros nutqiy madaniyatning XV-XVI asrlarda ham yuksak darajada bo'lganligidan dalolat beradi.

O'rta Osiyo notiqligining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning islom ta'limotiga va undan kelib chiqadigan odob-axloq me'yorlariga asoslanganligi edi. O'rta asrlar ijtimoiy hayotida ana shu ta'limotga asoslangan ma'naviy-ma'rifiy muhitning ustuvor bo'lganligidan xalqimiz dunyo tamadduniga buyuk iste'dodlarni berdi. O'sha davrlarda nutqiy san'at ustalarining *nadimlar*, *qissago'ylar*, *masalgo'ylar*, *badihago'ylar*, *qiroatxonlar*, *muammogo'ylar*, *voizlar*, *go'yandalar*, *maddohlar*, *qasidaxonlar* kabi nomlar bilan yuritilishi ham ma'naviy-axloqiy targ'ibotning ilmiy asoslangan tizim holida bo'lganligidan dalolat beradi.

4. Aristotelning «Ritorika» asari haqida.

Aristotel (384-322) ritorika nazariyasi va amaliyotining buyuk namoyandasidir. Uning notqlik san'ati haqidagi fikrlari deyarli barcha asarlarida, ayniqsa, «Organon» («Analitiklar»), «Poetika» asarlarida uchraydi. Mantiq fanining asoschisi bo'lgan Aristotel tadqiqotlarida tafakkurni birinchi o'ringa qo'ydi. Shuning uchun ham u ritorikaga inson tafakkurining mahsuli sifatida alohida e'tibor qaratdi va «Ritorika» nomli maxsus asar yozdi.

Aristotel «Ritorika»si (335) qadimgi yunon notqligi tarixi haqida to'la ma'lumot bera oladigan va bizgacha yetib kelgan yagona asardir. Shu ma'noda u notiqshunoslik poydevoriga qo'yilgan ilk g'isht hisoblanadi. Kitob notqlik san'atiga bag'ishlangan til, uslub, nutq qismlaridan iborat.

Aristotel Empedoklni ritorikaning asoschisi deb hisoblagan.⁷ Empedoklning asarlari bizgacha yetib kelmagan. Uning shogirdi Koraks ritorika haqida kitob yozgan. U notqlikni ishontirish san'ati deb hisoblagan. Aristotel notqlikda ishontirish emas, haqiqatni aytish bosh masala ekanligini anglamaganlik uning xatosi bo'lganligini aytgan. Sofistlar ham ishontirishni asosiy maqsad deb bilishgan. Aristotel nutqning mazmuniga juda e'tibor bergan va shuning uchun asosiy e'tiborni ishontirishga qaratgan sofistlarni ham tanqid qilgan. Ayni paytda, Aristotel ritorikada ishontirish omilining ustuvorligini inkor etmagan.

«Ritorika»da ijtimoiy fikr uyg'otish notqlik san'atining ustuvor vazifasi sifatida belgilangan. Buning uchun fikrni isbotlash, rad etish hamda xursand bo'lish, qo'rqinch, g'azab va boshqa his - tuyg'ularni qo'zg'atish lozimligi aytilgan. Aristotel inson his - tuyg'usiga ta'sir o'tkazmasdan turib, unda ijtimoiy fikr uyg'otish mumkin emas, deb hisoblagan.

Aristotel fikricha, aniqlik nutqning asosiy fazilatidir. Nutq noaniq bo'lsa, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Og'zaki ifodaning aniq bo'lishi nutqning ko'rkidir. Nutq faqatgina umumiste'moldagi so'zlardan iborat bo'lishi kerak emas. Chiroyli va ulug'vor so'zlar ishlatilishi va jarangdor bo'lishi kerak. Tushunarlik notqlik san'atida muvaffaqiyatning asosiy shartidir.

Shuningdek, Aristotel nutqning tabiiy bo'lishi kerakligini, nutq tugallangan va mazmunli bo'lishi lozimligini aytadi. Epitet, o'xshatish,

⁷ Адамов Е.А. Выдющиеся ораторы древнего мира и средних веков / Из истории ораторского искусства. - М.: изд-во «Знание», 1961. -С.10.

metafora singari tasviriyy vositalardan, ma'qul kelmaydigan so'z va iboralardan, ko'rgazmalilikdan, zidlash usulidan foydalanishda ehtiyot bo'lishlikka chaqiradi. Chunki tinglovchi ehtiros bilan gapirayotgan notiqqa hamisha e'tibor qiladi, deydi u.

Aristotel noo'rin so'z va iboralarni qo'llashga qarshi bo'lgan. Notiqlik uslubi emotsional va ilhomlantira oladigan bo'lishi kerak, ana shundagina notiq tinglovchilarning qalbini zabt eta olishi mumkin, deb hisoblagan. Uning fikricha, nutqning chiroyli va ta'sirli bo'lishi birlamchi vazifa emas. Asosiy maqsad – tinglovchiga bilim berish, ijtimoiy fikr uyg'otishdir. Bunday paytda fikrlash, mulohaza yuritish asosiy bo'lib qoladi.

Aristotel yozma nutq haqida ham fikr bildirgan. Bunday nutq aniq, ammo quruq, e'tiborni kam tortadigan bo'ladi. Og'zaki nutq esa jonliligi va artistizmi bilan ustunlik qiladi. Yozilgan nutqni o'qib berish jonlilikdan mahrum bo'ladi. Aristotel notiq va tinglovchi o'rtasidagi munosabatga nozik masala deb qaragan.

Aristotel notiqlik san'atining material tanlash va uni joylashtirish rejasi, materialni eslab qolish va og'zaki ifodalash, nutq talaffuzi kabi besh jihatini ko'rsatib o'tgan.

Shu boisdan «Ritorika» qadimgi grek tamadduni va fuqarolik jamiyati yetukligining oynasi bo'lgan notiqlik san'ati haqida ma'lumotlarni mujassam qilgan va buyuk faylasufning ijtimoiy fikr taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi haqidagi bebaho manba hisoblanadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. *Ritorika* so'zi nimani anglatadi?
2. Ritorika san'atmi yoki fanmi?
3. Ritorikaning turlarini sanab va tushuntirib bering.
4. Ritorikaning predmeti nima?
5. Ritorika o'z oldiga qanday maqsadni qo'yadi?
6. Ritorikaning maqsadidan kelib chiqib qanday vazifalarni amalga oshirish lozim?
7. Notiqlik san'ati dastlab qayerlarda paydo bo'lgan?
8. Sofistlarning notiqlik san'atiga qo'shgan hissasi nimalardan iborat edi?
9. Aristotelning «Ritorika» asari haqida gapirib bering.
10. Aristotel notiqlik san'atida nimalarni ustuvor hisoblagan?

G'ARBDA – ANTIK DUNYO VA O'RTA ASRLARDA NOTIQLIK SAN'ATI

Reja:

1. Qadimgi yunon-rim notiqdigi.
2. Qadimgi Afina (yunon) notiqdigi.
3. Qadimgi Rim notiqdigi.
4. O'rta asrlarda notiqlik.

Tayanch so'z va iboralar: *ritorika, ritor, sofistlik, sofistlar ta'limoti, Aristotel, Protagor, Prodik, Korak, Perikl, Kleon, Isokrat, Demosfen, Mark Antoniy, Sitseron, diniy notiqlik, universitet notiqdigi.*

1. Qadimgi yunon-rim notiqdigi.

Qadimgi Yunonistonda notiqlik san'ati rivojlanishiga sabab bo'lgan omillar bor edi. Afina davlatchiligida hokimiyat uchun kurash avj olgan, sinfiy ziddiyatlar keskinlashgan bir davrda ko'plab ijtimoiy-siyosiy omillar qatorida notiqlik mahoratiga ham zarurat paydo bo'ldi. Ko'plab siyosatchilar va davlat arboblarning taqdiri inson faoliyatining ana shu turiga ham bog'liq bo'lib qoldi. Buyuk Sitseronning insonni eng yuqori pog'onaga olib chiqishning ikki vositasi – sarkardalik va notiqlik haqidagi gapi o'sha davrlarda paydo bo'lgan.

2. Qadimgi Afina (yunon) notiqdigi.

Sinfiy kurash Gretsiyada notiqlik san'atining rivojlanishiga asosiy sabab bo'ldi. Siyosiy arboblarning yig'inlarda o'zlarining sinfiy manfaatlarini ochiq himoya qilishgan. Gapirish olish, nutq so'zlash mahorati ularning siyosiy taqdiriga aylangan edi. Shu tarzda quldorlik jamiyati siyosiy notiqlikning rivojlanishiga olib kelgan.

Antik davrda maishiy notiqlik ham rivojlangan. Birovlarga nutq yozib beruvchi logograflar paydo bo'lgan. Maqtov nutqlari rivojlangan. Bezak epitetlar maqtov nutqlarida ko'p qo'llangan. Maxsus notiqlik san'ati maktablari vujudga kelgan. Notiqlik san'ati nazariyasi – *ritorika* yaratilgan.

Urug'chilik davrlarida harbiylar oldida chiqishlar qilish boshlangan paytlardan so'z san'ati qadrlana boshlagan. Gomer «Iliada»sidagi Odissey va Menelay kabi dohiylar notiq bo'lishgan. Birinchisi, batafsil va shiddat bilan gapirgan. Ikkinchisi kam, ammo mantiqli so'z aytgan.

Qadimgi grek notioqlari Perikl, Gorgiy, Antifan, Lisiy, Isokrat, Demosfen, Aristotel kabilar notioqlik san'ati tarixida o'chmas iz qoldirishgan.

Protagor (e.a 481-411) – antik dunyoning mashhur faylasuf va sofist-ritori. Qirq yildan ko'proq ritorlik qilgan, notioqlik maktabi ochgan. Jahon tarixida birinchi bo'lib nutqni tasnif qilgan. Nutqni to'rt toifaga ajratgan: *iltimos, savol, javob, buyruq*. Protagor shogirdlarini yaxshi so'zlay olish san'atiga o'rgatgan. Katta bilim bilangina notioqlik san'atida yuksaklikka erishish mumkin, deb hisoblagan. Ortoepiyaga (fikrni grammatik jihatdan aniq ifodalash haqidagi bilim) alohida e'tibor bergan.

Prodik (e.a.V asr) ritor sifatida sinonimlar haqidagi ta'limoti bilan tanilgan, ma'nodosh so'zlarni yonma-yon ishlatish va bu uslubdan keng foydalanishning ustasi bo'lgan.

Korak (e.a.466) notioqlik san'atiga ishonitirish san'ati deb qaragan va shu fandan dars bergan. Jahon notioqligi tarixida birinchi marta qo'llanma yaratgan.

Perikl (e.a.500-429) – davlat arbobi, harbiy qo'mondon. Afinani 15 yil boshqargan Perikl davrida quldorlik demokratiyasi rivojlangan. U nafaqat atoqli davlat arbobi, ayni paytda, ajoyib notiq bo'lgan. Afsuski, uning bironta nutqi matni hozirgi zamonlargacha yetib kelmagan.

Donishmand notioqligiga, yuksak mahoratga ega ekanligiga qaramay, puxta tayyorgarlik ko'rmaguncha minbarga chiqmagan. U nutqida qo'llanadigan fakt va hujjat, misol va dalillarni shunday joylashtirganki, natijada uning nutqini eshitgan tinglovchida notiq pozitsiyasining to'g'riligiga hech qanday shak-shubha qolmagan. U iloji boricha fikrini obrazli ifodalashga harakat qilgan. Minbarda mag'rur va xotirjam turgan. Kulmagan, kuldirishga ham harakat qilmagan, qo'lini harakatlantirmagan. Uning nutqlari oddiyligi va chuqur mazmunliligi bilan ajralib turgan.

Kleon – Perikldan keyingi mashhur notiq. Munozara bobida tengsiz, so'zi o'tkir va fantaziyasi kuchli bo'lgan.

Demosfen (e.a.384-322) – davlat arbobi va yirik notiq. Falsafani Platondan, notioqlik asoslarini Isokratdan o'rgangan. Isey to'rt yil davomida faqat Demosfen bilan shug'ullangan. Demosfen birinchi marta xalq majlisida so'zga chiqqanda, olomon uni kalaka qilib minbardan tushirib yuborgan. Keyin yerto'lada mashq qilishni boshlagan. Boshini mag'rur tutishni, talaffuzni, nafasni ushlab turishni,

yelkasini to'g'ri tutishni, mimika bilan so'zlay olishni o'rgangan, oynadan foydalangan.

Demosfen uslubining ibratli jihatlari quyidagilar bo'lgan: arxaizmlardan qochgan, latif va jozibali so'zlarni qo'llamagan, yangi so'z, ibora va atamalarni to'qimagan, ba'zan xalq maqollaridan foydalangan; sinonimlarni ko'p qo'llagan; uzun, cho'ziq bo'g'inlarni qo'llashni xush ko'rgan; gapning boshi va oxiriga mantiqiy urg'u tushuvchi, muhim ma'no kasb etuvchi so'zlarni qo'ygan; musiqiylik va ta'sirchanlikka erishish uchun jummalarning oxirini she'r bilan tugatgan; kompozitsion yaxlitlik va mutanosibllikka harakat qilgan; so'zlarni ongli ravishda takrorlashni yoqtirgan; so'z va jummalarni qarama-qarshi qo'yish usulidan foydalangan; ritorik savollarni ko'p bergan; jestikulyatsiya va mimikadan unumli foydalangan.

3. Qadimgi Rim notiqligi.

Rim notqlik san'ati grek va ellinizm notiqligining davomi va nutq san'ati rivojida yangi davr bo'lgan. Bu yerda ham sinfiy kurash notqlik san'atida yorqin iz qoldirgan. E.a. II asrda ijtimoiy-siyosiy keskinliklar tufayli notqlik ham rivojlangan.

Rim sud notiqligi bilan shuhrat qozongan. Buning uchun qulay sharoit bo'lgan. Chunki Rim qonunchiligida sudda himoyachilarning chiqishlari nazarda tutilgan bo'lgan. Rimda nutqning uch ko'rinishi amalda bo'lgan: sud nutqi, siyosiy nutq, o'quv (maktab) nutqi. Ba'zi manbalarda maqto'v nutqining rivojlanganligi ham aytiladi.

Mashhur notiqdari quyidagilar: Mark Portius Katon, aka-uka Tiberiylar, Kay Grakx, Mark Antoniy, Mark Tuli Sitseron, Kvintilian.

Mark Portius Katon – davlat arbobi, e.a.III-II asr. Katon nutq san'ati nazariyasi va amaliyoti bilan maxsus shug'ullangan. Nafis nutq sohibi va o'ta madaniyatli, maqsadga intiluvchan kishi bo'lgan. Muloyim gapirgan, nutq jummalarini to'g'ri tuzgan, antiteza va takror usullaridan mohirlik bilan foydalangan va hamisha ko'tarinki ruhda gapirgan. Masalani keskin qo'yishi va juda qisqa bayon eta olishi, stilistik nazokat Katon nutqining asosiy sifatlari bo'lgan.

Katon omma oldida chiqishga jiddiy tayyorgarlik ko'rgan, mavzuni chuqur o'rgangan va bosh notiqlardan ham shuni talab qilgan. Shiori shunday bo'lgan: «Ishni yaxshi bilib ol, so'zning o'zi keladi». Uning nutqlari qisqaligi va ishonchliligi bilan ajralib turgan. U nutqlarida Karfagen urushida g'alaba qozonishga da'vat etgan. Uning «Ammo men Karfagen vayron bo'lishi kerak, deb o'ylayman», degan gapi o'sha davr odamlariga yod bo'lib ketgan.

Katon davlat, siyosat va sud masalalariga doir 150 ga yaqin nutq soʻzlagan. Oʻzidan keyingi Rim notiqclariga katta ijobiy taʼsir koʻrsatgan.

Mark Antoniy (e.a.143-87) – davlat arbobi va yirik notiq. Eksprompt tarzida nutq soʻzlagan. Ammo zamondoshlarining guvohlik berishicha, chiqishlarga jiddiy tayyorlargik koʻrgan. Tinglovchini hayajonlantirishning uddasidan chiqqan. «Tarixning birlamchi qonuni – har qanday holatda ham yolgʻon aralashtirmaslik, qiziqqonlikdan ham, qahr-u gʻazabdan ham biror nishona boʻlmasligi kerak». «Mening nutq uslubim va uni talqin etish mahorati uchta asosga tayanadi: birinchisi – tinglovchilarni jalb etish, ikkinchisi – oʻtkirlikni, uchinchisi – qudratni», degan fikrlar Mark Antoniyga tegishlidir.

U koʻproq xalq yigʻinlarida va senatda chiqish qilgan. Rim notiqclariga quyidagicha maslahat bergan: «Notiqning tinglovchilarni oʻziga rom etishdan muhim vazifasi yoʻq. Tinglovchilar nutqqa shunchalik maftun boʻlsinki, ularni kuchli ruhiy hayajonlanish boshqarsin, aql bilan mulohaza qilishdan koʻra oʻzini yoʻqotadigan darajada zavqlansin. Chunki odamlar huquqiy meʼyorlar haqiqatidan koʻra, koʻpincha muhabbat, nafrat, qiyinchiliklar, azoblanishlar, motam, quvonch, qoʻrqinch, adashish – umuman ruhiy taʼsir ostida hukm chiqaradilar, xulosa qiladilar».⁸

Mark Antoniydan notiqclar yana ikki narsani oʻrganadilar: nutqning emotsional tomoniga eʼtibor berish va tinglovchilarning hissiyotiga taʼsir oʻtkazish.

Mark Tuliyy Sitseron (e.a.106-43) Qadimgi Rimning buyuk davlat arbobi, siyosatchisi va notigʻi. Antik davr notiqqligining klassigi va nazariyotchisi. Sud notiqqligida shuhrat qozongan. Zodagonlarni himoya qilgan, demokratik guruhlarining ashaddiy dushmani boʻlgan.

Notiqlikka oid ishlab chiqqan nazariyalarini amaliyotga mahorat bilan tatbiq etgan. Uning notiqlik sanʼatiga bagʻishlab yozgan uch traktati – «Notiq haqida», «Brut yoki mashhur notiqclar haqida», «Notiq» – antik ogʻzaki nutq nazariyasining nodir yodgorliklari hisoblanadi.

Sitseronning notiqlik nazariyasiga uning falsafiy qarashlari asos boʻlgan. U donishmandlikni, adolatparvarlikni, mardlikni va oʻrtamiyonalikni komillikka yetaklovchi fazilatlar, deb hisoblagan.

Sitseron quyidagi gʻoyalarni ilgari surgan: «Har qanday notiqning asosiy maqsadi – tinglovchining zavqini uygʻotib, oʻziga moyil

⁸ Адамов Е.А.Коʻrsatilgan asar. -С.23.

qilishdan iborat». «Kishi shoir bo'lib tug'iladi, ammo notiq bo'lib yetishadi» Nutqlarida balandparvoz so'z va jumlar, iboralar ko'p uchragan, yuqori uslubga moyil bo'lgan, artistizmdan foydalangan (tahdid solish, yig'lash, xo'rsinish). Matnning ravonligi, go'zalligi, ifodaliligi va musiqiylikiga alohida ahamiyat bergan.

Sitseron «Notiqlik haqida» traktatida ta'kidlashicha, u falsafiy bahsda erkin yo'lni tanlagan. Uningcha, qiyin ish bo'lganligidan haqiqiy va yaxshi notiqlar kam uchraydi. Notiqlik ko'p bilish va uddaburonlikdan tug'iladi.

Sitseron shunday degan: «Faqat so'zni tanlash emas, balki joylashtirish ham nutqqa zeb beradi. Notiqlikning butun qudrati va san'ati tinglovchi qalbini tinchlantirish yoki larzaga solishda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, tarixni, qonunlarni va inson huquqlarini yaxshi bilish lozim. Nutq ijrosi-chi? Tana harakatlari, jestlar, yuz ifodalari, tovushlar, ovoz ottenkalari-chi? Bularni ham esga solishim kerakmi? Va nihoyat, barcha bilimlar xazinasi bo'lgan xotira-chi? Agar bizning fikrlarimiz, o'ylab topilgan so'zlarimiz xotirada qolmasa, notiqning barcha urinishlari va obro'si bekorga ketadi».

Sitseron fikricha, notiqlik san'atining asosi, eng avvalo, predmetni chuqur bilishdir. Agar uni anglab yetmasa, notiqning barcha urinishlari behudadir. Inson tabiatini, qalbini chuqur tushungan kishigina notiqlikka da'vo qilishi mumkin.

Notiq bo'lishning qanday shartlari bor, deb savol qo'yadi Sitseron. Bu, birinchidan, tabiat in'om etgan iste'dod, aql va hissiyotning, idrok va xotiraning jonliligi. Ikkinchidan, notiqlik san'ati nazariyasini o'rganish. Uchinchidan, amaliyot, mashq.

Sitseron «Notiq haqida» asarining birinchi qismida bilimli notiq – notiq-siyosatchi idealini chizib berishga harakat qiladi. Agar notiq falsafani, tarix va huquqni yaxshi bilsa, u faylasufdan ustun bo'ladi, deydi u.

Sitseron boshqa asarlarida ham fanlarning o'zaro hamkorligi masalasini o'rta qo'yadi va bu yerda ham fikrini notiqlikka olib kelib bog'laydi. Barcha fanlar o'z doirasida amal qiladi. Notiqlik esa chegara bilmaydi, ularning hammasiga ham xizmat qilaveradi.

Sitseron o'sha davr an'alariga ko'ra nutqni uchga bo'lgan: majlislarda, sudda aytiladigan nutqlar va maqto'v nutqi. Uningcha, so'zning imkoniyatlarini muttasil rivojlantirib borish kerak.

Sitseron sud nutqini tahlil qilgan. Himoya qilinayotgan kishining haq ekanligini isbotlash, kimning oldida chiqish qilayotganini his qilib

turish va zarur tomonga qarab nutqni yoʻnaltirish, dalillarni joy-joyiga qoʻyish haqida mulohaza yuritgan. Notqlikka psixologik yondashuv haqida gapirgan.

Sitseron yumorga qiziqmagan. U tabiatdan beriladi, unga oʻrganib boʻlmaydi, deb hisoblagan. Oʻylab topishni, topganni tartib bilan joylashtirish va aytishni, unga nutqiy shakl berishni va xotirada saqlashni hamda ijro etishni notiqning asosiy vazifasi deb bilgan. Buni «nutqda fikrlashdan yuzaga chiqarishga qadar boʻlgan mashaqqatli yoʻl», deb izohlagan.

Sitseron fikricha, yana quyidagilar notiqning vazifasiga kiradi: tinglovchilarni oʻziga jalb qilish, masalaning mohiyatini bayon qilish, bahsli savol qoʻyish, oʻz mavqeyini mustahkamlash, raqibning fikrini rad etish va oxirida yana oʻz mavqeyiga eʼtibor berish. Notiq uchun eng muhimi fikrni ogʻzaki ifoda etish va talaffuzga eʼtibor berish. Notiqqa qoʻyiladigan birinchi talab – nutqning tozaligi va aniqligi. Bu oʻqish-oʻrganish bilan shakllanadi. Tinimsiz soʻz va morfologik vositalar ustida ishlash kerak. Notiq nutq organlarini va tovushlar talaffuzini boshqara bilishi zarur.

Haqiqiy notiq, – deydi Sitseron. – kuzatuvchan boʻlishi, nutqni qayta eshitishi va qayta oʻqishi, muhokama qilishi va hal etishi, inson hayotida uchraydigan hamma narsani sinab koʻrishi kerak. Bularning barchasi notiq uchun material boʻlib xizmat qiladi. Notqlik inson axloqining oliy darajada namoyon boʻlishidir. Bilimga asoslangan notqlik ham bizning ongimizga soʻz yordamida shunday kuch bilan taʼsir oʻtkazadiki, uning bosimi tinglovchini har qanday tomonga bura oladi.

Sitseron notiq obrazini shunday tasavvur qiladi. Chunki soʻz, notqlik sanʼati soʻzlovchining shaxsi – aqli, salohiyati, bilimi, tajribasi, tinglovchiga nutq orqali taʼsir oʻtkazadigan irodasi bilan bogʻliq, deydi u.

Sitseron fikricha, notqlik nutqining kuchi halollik va yuksak aql bilan bogʻlanadi. Ana shundagina nutq odamlarni qanoatlantirish mumkin. Agar soʻzning kuchidan nopok odamlar foydalansa, ularning qoʻliga tushgan qurol yovuzlikka yoʻnaltiriladi.

Sitseron nutq jozibali boʻlishi kerakligini bir necha marta qayd etgan. Nutqning umumiy ohangi tinglovchilarning diqqatini jalb etadigan boʻlsin, deydi u. Sitseron koʻngilga uradigan va lanj nutqqa qarshi boʻlgan. Uningcha, nutq joʻshqin, chiroyli, yoqimli, ammo jiddiy boʻlsin. Oddiy soʻzlar ham saralanishi, ularning talaffuzi yaxshi

tasavvur qoldiradigani, jarangdori, ko'chma ma'noda qo'llaniladigani tanlanishi zarur.

Sitseron «Notiq haqida»gi traktati bilan ritorika nazariyasini yaratdi.

«Brut» va «Notiq» traktatlari attistik oqim vakili Brutga murojaat usulida yozilgan va ularda ham Sitseron o'z nuqtayi nazarini himoya qilgan. «Notiq haqida»gi traktatdagi notqlik idealining qonuniyatlari va ustunlik jihatlarini asoslagan. «Brut»da millat faxri bo'lgan 200dan ortiq notiqlar haqida ma'lumot berilgan.

Sitseron uchun notqlik birdan-bir maqsad emas, balki gap uning siyosiy faoliyat shakli ekanligida edi. Uning qarashlarida notqlik taqdiri davlat taqdiri bilan uzviy bog'langan. U rim notqligi taraqqiyoti ichki sabablarga – grek madaniyatining o'zlashtirilgani va rim madaniyatining rivojlanganligi bilan bog'liq bo'lganligini aytadi.

«Notiq» asari ritorik trilogiyaning yakunlovchisidir. Muallif bu asarda mukammal notiq qanday bo'lishi kerakligini, ammo hali hech kim bu darajaga yetmaganini aytadi. Notqlikning uch uslubi haqidagi ellinistik ta'limot haqida gapiradi. Oddiy uslub – ishontirishga, o'rta uslub – rohatlantirishga, yuqori uslub – hayajonlantirishga qaratilgan bo'ladi, deydi u.

Sitseron nutqning chiroyliligini uning sofligida, shiraliligida, nozikligida, ilmiyligida, aslligida, jozibaliligida, nafisligida, ehtirosiligida ko'radi.

Sitseron nutq kompozitsiyasining namunasini ishlab chiqqan va bunda u: nutqning kirish qismi; ishning mohiyatini ochish; keyingi qismlarning rejasi; asosiy qism (dalillar); oxirgi qism, ya'ni nutq davomidagi asosiy masalalarni qisqa-qisqa eslatib o'tish va yakun yasash; xulosa kabilarni qayd etgan. U asosiy e'tiborini ishontirish, isbotlash, nutqqa puxta tayyorgarlik ko'rish, materialni joylashtirish, mavzuni yaxshi bilish kabi holatlarga qaratgan. Haddan tashqari yorqin bo'yoqlarda ifodalangan nutq tez esdan chiqadi, deb hisoblagan.

Shu tarzda Sitseron notqlikda o'zining betakror uslubini yaratdi, boy tajribasiga tayanib, notqlik nazariyasini yangi tamoyillar bilan boyitdi.

Mark Fibiy Kvintilian (35-96 yy.) yirik notiq va notqlik san'ati nazariyotchisi. Rim notqlik maktabining asoschisi. Imperator Domitsian davrida yozgan «Notiqning paydo bo'lishi haqida» («Об образовании оратора») traktati bizning davrimizgacha yetib kelgan. Unda notiq bo'lib shakllanishning asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan.

Kvintilian ham notiq, birinchi navbatda, chuqur bilimga ega bo'lishi kerakligi haqidagi qarashni ma'qullaydi. Shu bilan birga, u notiq uchun zarur bo'lgan axloqiy tamoyillarni ilgari suradi. Notiq fazilatli kishi bo'lishi kerak, deydi u. Agar inson yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lmasa, u haqiqiy notiq bo'la olmaydi.

Kvintilian Rim notqlik san'ati davlat maktablarining asoschisi, birinchi o'qituvchisi va ajoyib ma'ruzachi bo'lgan. Rim imperatori Vespasian bu maktab o'qituvchilariga juda yuqori darajali maosh belgilagan. Maktab ko'plab notiqlar tayyorlab bergan.

Uning nutq oldiga qo'ygan talablari quyidagilar bo'lgan: material tanlash, uni joylashtirish, fikrni so'zda ifodalash, eslab qolish va talaffuz qilish.

Kvintilian bo'lajak notiq'larga ko'plab maslahatlar bergan. Jumladan, shunday degan: *Shunday gapirki, seni tushunmaslikning iloji bo'lmasin*. U notiq'larning keng doiradagi bilimga ega bo'lishini istagan, qadimgi notqlik san'ati an'analarini tiklashga harakat qilgan. Afsuski, vujudga kelgan yangi tuzum – imperiya bunga imkon bermagan.

4.O'rta asrlarda notqlik. (V-XVII asrlar)

Bu davrga kelib quldorlik tuzumi tugatiladi, uning o'rnini feodalizm egallaydi. Feodal davlatni boshqarishning mutlaq monarxiya davri boshlanadi. Kapitalizmga yo'l ochiladi. Bu o'zarishlar davr mafkurasiga, binobarin, notqlik san'atiga ham muayyan ta'sir ko'rsatadi.

V-XI asrlar notqlik san'ati rivoji uchun eng noqulay davr bo'lgan. Notqlik san'ati o'zining siyosiy mavqeyini yo'qotgan va uning o'rnini diniy aqidalar egallagan. Masalan, cherkov notqligining yirik vakili Avreliy Avgustin antik ritorikani din va ilohiyot talablariga moslashtirishga qaror qiladi. Dunyoviy ritorika yolg'on ritorika, unga xizmat qilish iblisga xizmat qilish demakdir. Haqiqiy notqlik – bu diniy notqlikdir. Ritorika haqiqatni anglashga xizmat qilishi kerak, haqiqat esa xudoni anglashdan iboratdir, deydi u.

XI-XII asrlarda universitet notqligi paydo bo'lgan. Unga sxolastika (diniy aqidalarga asoslangan idealistik ta'limot) salbiy ta'sir ko'rsatgan. Universitet notqligi qanday edi? Professor kafedraga ko'tariladi. Unda turgan kitobni ochib talabalarga o'qib beradi. Kerakli joylarini izohlab beradi. U paytlarda kitob kam bo'lgan, talabalarning qo'liga deyarli berilmagan. Iqtibos – sitata keltirish kuchli bo'lgan.

Bu davrda eng atoqli notiq Praga universiteti o'qituvchisi Yan Gus (1369-1415) bo'lgan. Oddiy xalq tilida, auditoriyaga moslab nutq so'zlagan.

Ta'lim jarayonida munozaraga keng o'rin berilgan. Agar talaba ilmiy daraja olishga da'vogar bo'lsa, ochiq munozarada ishtirok etib, o'z fikrini himoya qila olishi zarur bo'lgan.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1.Yunon-rim notiqligining rivojlanishiga sabab bo'lgan ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlarni tushuntirib bering.

2.Antik davrda notqlikning qanday turlari mavjud bo'lgan?

3.Protagor va Periklning notqlik san'atiga qo'shgan hissasini gapirib bering.

6. Demosfen va Sitseronning notqlik tarixida tutgan o'rni qanday bo'lgan.

7. Mark Portius Katon va Mark Antoniy notiqligining yaqqol ko'zga tashlanib turgan jihatlari qaysilar edi?

8.Buyuk Rim notig'i Mark Tuliya Sitseron haqida ma'lumot bering.

9.Sitseron traktalarida notqlik mahorati haqida nimalar deyilgan?

10. Mark Fibiya Kvintilianning Rim notiqligiga qo'shgan hissasi nimalardan iborat edi?

11. O'rta asrlar notqlik san'atining xarakterli belgilari haqida so'zlab bering.

SHARQDA – QADIMGI SHARQ VA O‘RTA OSIYODA NOTIQLIK SAN’ATI

Reja:

1. Sharq va O‘rta Osiyo mamlakatlari haqida.
2. Misrda notiqlik san’ati.
3. Xitoyda notiqlik san’ati.
4. Hindistonda notiqlik san’ati.
5. Qadimgi turklarda notiqlik.
6. O‘rta Osiyoda notiqlik.
7. «Qobusnoma»da nutq va notiqlik fazilatlar.
8. Alisher Navoiy voizlik haqida.
9. Mavlono Voiz Koshifiy nutq odobi va notiqlik san’ati haqida.

Tayanch so‘z va iboralar: *Sharq, Yaqin Sharq, O‘rta Osiyo, xalqlar, turmush tarzi, madaniyati, notiqligi, mushtarakligi, Misr, piramida matnlaridagi yozuvlar, Xitoy, Xo Shi, tuzoq, nayrang, vedalar, xunlar, Xelyan Bobo, Mahmud Koshg‘ariy va Yusuf Xos Hojib asarlari, islom dini, inqiroz, «Qobusnoma», so‘z – hunar, suxango‘y, kamgaplik, Navoiy, «Mahbub ul-qulub», «Nasoyim ul-muhabbat», Mavlono Voiz Koshifiy, men so‘zniki va so‘z menikidir.*

1. Sharq va O‘rta Osiyo mamlakatlari haqida.

Dunyo xaritasida g‘oyat katta hududni egallaydigan Sharq mamlakatlari soni 40 ga yaqin. Ular yana Yaqin Sharq, Shimoliy-sharqiy Osiyo, Janubiy-sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo, Markaziy Osiyo, O‘rta Osiyo singari kichik guruhlariga bo‘linadi. Bu mamlakatlarda yashaydigan xalqlarning tili ham, turmush tarzi ham bir-birlaridan farq qiladi. Ularda ana shu turmush tarziga bog‘liq holda qadimdan o‘z madaniyati, jumladan nutq madaniyati ham shakllangan.

Qadimgi Sharq notiqligi geosiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlardan kelib chiqib, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan. Umumiy ma’noda Sharq deb atalsa ham bu ulkan hududda o‘zining boy ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy va madaniy an’analariga ega bo‘lgan xalqlar yashagan. Ayni paytda, ularning madaniyatida mushtarakliklar ham bo‘lgan va shu jihatlar bilan G‘arb xalqlari turmush tarzidan farq qilgan. Jumladan, notiqlik madaniyati va an’analarida ham.

Soha tadqiqotchilarining qayd etishlaricha, Sharq notiqligi G‘arb notiqligidan farqli o‘laroq barcha holatlarda umumiy qoidalarga rioya

etishgan, tayyor andozalardan foydalanishgan, tor doiradagi tinglovchilarga mo'ljallangan bo'lgan.

Qadimgi Sharq madaniyati yodgorliklari matnlari til taraqqiyotining muhim qonuniyatlarini o'zida aks ettirgan. Ular orasida qo'shiqlar matnlari e'tiborga molik. Ularning funksional jihatdan farqlanganining o'ziyoq nutqda go'zallikka intilish bo'lganligidan dalolat beradi. Alliteratsiya, assonans, refren, parallelizm singari tasviriy vositalar aynan obrazlilikka xizmat qilgan.¹

Tamadduni qadimiy bo'lgan ayrim mamlakatlarning notiqlik san'ati haqida to'xtalib o'tamiz.

2. Misrda notiqlik san'ati.

Nutqiy san'at Qadimgi Misrda qadrlangan. Bu davlat tizimi va nutqiy madaniyat darajasining yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi. «Piramida matnlari»da (e.a. 2700-2400) shunday yozuvlar bo'lgan: «Agar sen podshohga yaqin bo'lsang, uning majlislarida o'tirsang, hushyor bo'l va jim o'tir. Bu foydali. Gapirmoqchi bo'lsang, masalaning mohiyatini tushunib yetganingga ishonch hosil qilganingdan keyingina gapir. Aqlli gap aytish har qanday ishdan og'irdir».

Misr fir'avnining e.a 3000-yillarda yaratilgan «Nasihatlar»ida avlodlarga qarata aytilgan shunday gaplar bor: «O'z otalaring va ajdodlaringga taqlid qil. Ularning gaplari yozuvlarda muhrlangan. Ularni o'qi va ilmlarini o'rgan. O'qimishli va aqlli bo'l. Qahrli bo'lma... Kuchli bo'lishing uchun nutqda mohir bo'l, chunki nutq har qanday quroldan kuchlidir».

Chiroyli nutq Misrda kotiblik bilan shug'ullanuvchilarining muhim sifati bo'lgan. Ular «Nutq xaloskor, ammo u o'ldirishi ham mumkin», deyishgan. «Tiling – dushmaning», «Tiling – sening qal'ang, uni qo'riqlasang, u seni himoya qiladi, unga sotsang – u ham senga xiyonat qiladi» kabi maqollar o'sha davrlarda paydo bo'lgan.

Matnni o'qiy olish uquvi, suhbatdoshning niyatini anglab yetish, u bilan yaxshi munosabat qilishga intilish va kelishmovchilikdan qochish kabilar bugun ham Misrda nutq madaniyatining muhim omillari sanaladi.²

3. Xitoyda notiqlik san'ati.

Chiroyli nutq, ritorika haqidagi ta'limot Qadimgi Xitoyda faylasufi Xoy Shi (Xoy-szi. E.a.IV-III asr) nomi bilan bog'lanadi.

¹ https://studme.org/167877/ritorika/ritorika_antichnosti

² https://studme.org/167877/ritorika/ritorika_antichnosti

Qadimgi Xitoy soʻz sanʼati haqidagi muhim manba Guygu-szining «Samaradorlik haqidagi traktat»idir. Oʻz mohiyatiga koʻra ritorik traktat boʻlsa ham, unda notiqning nutqni taʼsirchan qilish uchun til vositalaridan foydalanish asosiy maqsad emasligi aytilgan.

Traktat muallifining fikricha, hukmdor koʻp gapirishi va omma oldida koʻrinish berishi shart emas. Eng muhimi, suhbatdosh yoki tinglovchining ishonchini qozonishi va ularni oʻzgalar fikrini soʻzsiz qabul qilishga tayyorlashi kerak. Chunki notiqqa munosabat uning chiqishidan oldin paydo boʻladi va uzoq davom etadi. Ishontirish – tinglovchiga qoʻyilgan bir tuzoqdir. Ishonchga kirilsagina, notiq gapi tinglanadi, boʻlmasa – yoʻq. Traktat hukmdorni ana shunday paytlarda ehtiyot boʻlishga, bunday intilishlarga shubha bilan qarashga va uni vaqtida fosh qilishga chaqiradi.

Traktatning fransuz tarqiqotchisi Fransua Jyulen taʼkidlaydiki, insonga ogʻzaki nutq yordamida taʼsir koʻrsatish yashirin nayrangdir. Bunda notiq oʻz oldiga quyidagi vazifani qoʻyadi: tinglovchini «ochish» va «yopish». Ochish – insonni ochiq muloqotga undash, yopish – nimani yashirganini bilib olishdir.

Qadimgi Xitoy nutqiy sanʼati murakkab va qarama-qarshiliklar yaxlitligidan iborat. Bir tomondan, tinglovchiga nutq orqali taʼsir oʻtkazish tendensiyasi, ikkinchi tomondan, nutqning oʻzi emas, balki unga siyosiy va psixologik tayyorgarlik birlamchi ekanligi kuzatiladi.³

Xitoy notiqligi faylasuflar, hukmdorlar, donishmandlar, hatto oddiy kosibga ham tegishli boʻlgan. U oʻzida hamisha qadimgi xalqlar donishmandligi, olamning tugalligi va maishiy hayotning koʻpqirraligini mujassam qilgan.⁴

Xitoy notiqlik sanʼati tarixida buyuk Konfutsiy (Kun-szi. E.a.551-479) alohida oʻrin tutadi. Soʻz sirlarini gʻoyat puxta egallagan Konfutsiy davrida nutqda qisqalik, aniqlik, uning makon va zamonga bogʻlanishi maʼqullangan. Notiqning ziyrakligi, uning etik pozitsiyasi yuqori baholangan. Yolgʻon nutq jazoga loyiq deb hisoblangan.

Yozuvchi A.Korolev «Konfutsiy – vaqlar orasidagi koʻprik» maqolasida eʼtiborli bir maʼlumot keltiradi. Konfutsiy shuhratidan xabardor boʻlgan mamlakat hukmdori Lu Din-gun unga Chjundu viloyatini boshqarishni taklif qiladi. Viloyatni boshqarishga kirishganining yettinchi kunida amaldor Maoni oʻldirishga buyuradi. Maoning hech bir gunohi yoʻq edi. U faqat notiqlik isteʼdodi, erkin fikri

³ https://studme.org/167877/ritorika/ritorika_antichnosti

⁴ <http://www.artofeast.ru/iskusstvo-kitaia/oratory-kitaia.html>

va yangilikka moyilligi uchun o'ldirildi. Chunki Xitoy donishmandi sergaplikni xavfli ne'mat, deb hisoblagan. Uning fikricha, xalqni ko'p gap bilan notich qilish kerak emas.⁵

Konfutsiyning notqlik haqidagi ayrim fikrlarini keltiramiz:

*Kim ko'p otsa, u hali mergan emas, kim ko'p gapirsa, u hali notiq emas.*⁶

*Qadimda odamlar ko'p gapirishni yaxshi ko'rmaganlar. Ular gaplari pishiq bo'lmaslikni o'zlari uchun sharmandalik deb bilganlar. Odamlarning muloqotida uch kamchilik bor: birinchisi – kerak bo'lgandan oldin gapirish istagi, ikkinchisi – tortinchoqlik, kerak bo'lganda gapirmaslik, uchinchisi – tinglovchilarni kuzatmasdan, hisobga olmasdan gapirish.*⁷

4. Hindistonda notqlik san'ati.

Nutqiy madaniyat tarbiyasi ko'nikmalari jamiyatning oliy tabaqasi – dindorlar bilan bog'liq tarzda shakllangan. Notqlik bilan bog'liq usullari qadimgi hind yodgorligi – «Vedalar»da uchraydi. Qadimgi Hindistonda fan, san'at va notqlikning homiysi Braxmaning xotini Sarasvati hisoblangan.

So'z san'atini egallash Hindistonda muhim siyosiy masalalarni yechish bilan bir qatarga qo'yilgan. Davlat arbobi va mutafakkir Kautilyaning (e.a.IV asr) mashhur «Artxashastra yoki Ilm siyosati» traktati hukmdor qanday bo'lishi kerak, degan masalani yoritishga bag'ishlangan. Traktatda ta'kidlanishicha, hukmdor chiroyli gapirish kerak. Uning gapi yoqimli bo'lsin, gapirganda kulib tursin, o'zini munosib tutsin, tajribali odamlarning nasihatlariga quloq solsin.⁸

5. Qadimgi turklarda notqlik.

Tatar olimi Marsel Bakirovning «Qadimgi va O'rta asr turklarida notqlik san'ati» maqolasida ma'lumot berishicha,⁹ qadimiy turkiy qavmlardan bo'lgan xunlar¹⁰ xitoyliklarga dushmanlik kayfiyatida bo'lgan va o'zaro urushlar qilib turishgan bo'lsa ham, ular bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarni davom ettirgan. Ana shu munosabatlar hisobiga eramizdan avvalgi davrlarda ularda notqlik san'ati rivoj topgan.

⁵ <http://www.confuzio.ru/most.php>

⁶ <https://vesninagroup.com.ua/tsitaty-ob-oratorskom-iskusstve.html>

⁷ <http://www.orator.ru/konfucy.html>

⁸ https://studme.org/167877/ritorika/ritorika_antichnosti

⁹ Бакиров М.Х. Искусство красноречия древнейших и средневековых тюрков. Казанский федеральный университет, Россия, 420021, г. Казан, ул. Татарстан, д.2, mileuscha@mail.ru.

¹⁰ Ҳасан Ато Абуший. Туркий қавмлар тарихи. – Тошкент: «Чўлпон», 1995. -Б.62-66.; Гумилев Л.Н. Қадимги турклар. – Тошкент: Фан, 2007. -Б.5.

Urxun-Enasoy yodgorliklari tili bu davrda ritorik uslub mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Uning qadimgi namunalari «Podshohliklar nutqi» (e.a.985-453 yy.), yilnoma kitobi «Bahor va kuz» (e.a.722-481 yy.) hamda «Kurashayotgan podshohliklar nutqi» (e.a.V-III a.) to'plamlarida uchraydi. Maqola muallifi xunnlarda notiqlikni xitoy madaniyati ta'sirida shakllangan deb hisoblaydi.

Maqolada qiziq bir ma'lumot keltirilgan. Markaziy Osiyo xunnlarida davlatchilikni yo'qotish va jismonan yo'q bo'lib ketish xavfi tug'ilganda (e.a.54 y.) ularga Xitoyga bo'ysunishni taklif qilishadi. Xunn davlatining asoschilaridan biri bo'lgan Xelyan Bobo masalani majlisga qo'yadi va bu taklifga urug' va qabila boshliqlari rozi bo'lishmaydi. Ana shu majlisda aytilgan fikrlar notiqlikning yuksak namunasi hisoblangan: *«Bu ishni qilish mumkin emas. O'z urf-odatlariga ko'ra xunnlar g'urur va kuchni hamma narsadan yuqori qo'yadi. Ular ot ustida jang qilib davlat tuzadilar. Ot ustida jang qilish bizning hukmronligimizdir. Shuning uchun ham biz barcha xalqlar uchun qo'rqinchlimiz. Jangda o'lish – jangchi uchun sharaftir. Xanning vassaliga aylanish bilan ajdodlarimizni sharmanda qilmaylik!»*.

Turk hoqonlari Kul tegin, Bilga hoqon va Tunyuquqlarga bag'ishlangan Urxun-Enasoy epitafik yozuvlari ham ritorik xarakterdadir. Mo'g'uliston, Tuva, Xakasiya va Sibir hududlaridagi turk jangchilari va beklari qabri ustidagi yozuvlar, tog' qoyalari va daryolar qirg'og'ining yuqori qismiga bitilgan yozuvlarda ham ritorika mavjud.

Harqalay, qadimgi turklarda notiqlik ta'limning boshqa turlariga qaraganda yuqori sanalgan, uni egallagan kishilar shoh saroyida maslahatchi yoki diplomatlar va sarkardalar bo'lishgan.

Maqola muallifi ana shu tarzda qadimgi turkiy xalqlar, jumladan, qirg'iz, qozoq, o'zbek, tatar kabi xalqlar tarixidagi notiqlik san'ati haqida qimmatli ma'lumotlar bergan.

6. O'rta Osiyoda notiqlik.

O'rta Osiyo madaniyati tarixida nutq madaniyati bilan shug'ullanish o'ziga xos mavqega ega bo'lgan. Ulug' turkolog olim Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» va Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarlari bu masalaning juda qadimdan o'rtaga qo'yib kelinganligidan guvohlik beradi. U davrlarda shartli ravishda «nutq odobi» deb yuritiladigan qoida va ko'rsatmalarda sodda va o'rinli gapirish, qisqa va mazmundor so'zlash, ezmalik, laqmalikni

qoralash, keksalar, ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to'g'ri, rost va dadil gapirish, yolg'onchilik, tilyog'malikni qoralash va boshqalar haqida gap borgan.¹¹

O'rta asrlar notqlik san'ati tarixida alohida bir davr sanaladi. Bu dunyo tamaddunida ijtimoiy tafakkur tarixi rivoji, Sharq olamida esa islom dinining tarqalishi bilan bog'liq bo'ldi.

Islom dinini yoyish nafaqat musulmon Sharqi, balki O'rta Osiyo mamlakatlari, xususan hozirgi O'zbekiston hududida ham shiddat bilan davom etdi. Buning natijasi o'laroq, X-XI asrlardan boshlab O'rta Osiyoda «voizlik» nomi bilan notqlik san'ati rivojlana boshladi va diniy voizlik vujudga keldi. Voizlikning bu turi musulmon olamida namozlarda, ayniqsa, juma namozlarida o'qiladigan amru ma'ruflar, xutbalar shaklida takomillashib bordi. Sufiylik – tasavvuf insonni ruhiy va axloqiy komillikka targ'ib etuvchi islom ta'limoti sifatida diniy notqlikning rivojiga katta hissa qo'shdi. Yurtimizda notqlik san'atining bu turi O'rta Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi va keyinchalik kommunistik mafkura hukmronligi va tazyiqi bilan inqirozga yuz tutdi. Faqat mamlakatimizda mustaqillikning qo'lga kiritilishi, e'tiqod erkinligining ta'min etilishi va davlatimiz olib borayotgan odilona siyosat tufayli notqlikning bu turi asta-sekinlik bilan qaddini tiklamoqda.

Tilga olingan davrlarda notqlik hukmdorlar saltanatida ham qadrlangan. Podshohlar, sultonlar, amirlar, hokimlar xalq bilan muloqotning turli shakllaridan foydalanganlar. Birida o'zlari omma oldida chiqishlar qilgan bo'lsa, boshqa bir holatda ularning amr-u farmonlarini xalqqa yetkazuvchi maxsus kishilar – voizlar amalga oshirishgan. Buni esa notqlik san'atining ikkinchi yo'nalishi deyish mumkin.

Uchinchi yo'nalishni shoir ahli tashkil etadi. Ijodda yuqori pafos va majoz usulidan foydalanish natijasi o'laroq badiiyatda ham, notqlikda ham yuqori uslub shakllandi. Nutq madaniyati va notqlik san'atiga bag'ishlangan qarashlar va nazariyalar paydo bo'ldi.

7. «Qobusnoma»da nutq va notqlik fazilatlari.

Sharq va Markaziy Osiyo xalqlari tomonidan yaratilgan ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy mulk orasida XI asrning bebaho yodgorligi sanaladigan «Qobusnoma» ham alohida o'rin tutadi. Unsur al-Ma'oliy – Kaykovus tomonidan pandnoma xarakterida yozilgan bu asar axloq-odob masalalarini o'z ichiga olgan.

¹¹ Bu haqda yana qarang: Бегматов Э. Нутқ одоби. – Ўқитувчилар газетаси, 1969 йил 25 май.

Kaykovusning soʻz odobi va notqlik falsafasiga bagʻishlangan qarashlari «Qobusnoma»ning «*Hunar afzunlari (ortiqdigi) bila baland qadr va oliy tabʼ boʻlmoq zikrida*» nomli oltinchi va «*Suxandonlik bila baland martabali boʻlmoq zikrida*» deb nomlangan yettinchi boblarida keltirilgan.

Kaykovus fikricha, barcha hunarlar ichida soʻz hunari yaxshiroqdir. Shu jihatdan u jamiki jonivorlarga podshoh maqomida boʻladi. Shularni anglagan inson tilini yaxshi soʻzga oʻrgatadi, muloyim soʻzdan boshqasini odat qilmaydi.

Notqlik soʻzni oʻrnida qoʻllash bilan bogʻliq. Shuning uchun ham alloma «*Shularni bilgʻoningdan keyin tilingni yaxshi hunar bila oʻrgatgʻil va muloyim soʻzdin boshqa narsani odat qilmagʻil. Nedinkim, tilga har nechuk soʻzni oʻrgatsang, shuni aytur*», deydi (Qobusnoma, 38-39). Ayni paytda, qisqa va mazmunli soʻzlash ham namunali nutqning talablaridandir. Shu boisdan u behuda soʻzlamaslikka daʼvat etadi: «*Har soʻzki undan hunar isi kelmasa, bunday soʻzni gapirmaslik lozim. Hakimlar debdurlar: «Soʻz bir nashʼadur, undan xumor paydo boʻlur*». Soʻramasa gapirma, keraksiz soʻzdan tiyil. Muloyim soʻzga xasislik qilma, chunki «*xalq muloyim soʻz eshitmasa, mol va dunyoga magʻrur boʻlur*», deydi (Qobusnoma, 39).

«*Kishi suxandon, suxangoʻy (notiq) boʻlishi kerak, – deydi muallif. – Ammo, ey farzand, sen suxangoʻy boʻlgʻil va lekin durugʻgoʻy (yolgʻonchi) boʻlmagʻil. Rostgoʻylikda oʻzing shuhrat qozongʻil, tokim biror vaqt zarurat yuzidin yolgʻon soʻz desang qabul qilgʻaylar*» (Qobusnoma, 48).

Shundan soʻng soʻzlash odoblari haqida gapiriladi. Soʻz toʻrt xil boʻladi, deydi Kaykovus: bilinmaydigan va aytilmaydigan; bilinadigan va aytiladigan; bilinadigan, ammo zaruratsiz, aytsa boʻladigan; bilinadigan va aytilmaydigan. Birinchisidan naf koʻp, toʻrtinchisi boshingga gʻavgʻo keltiradi, yaxshisi ikkinchisi: hamma biladigan soʻzni aytishdir.

Xaloyiqqa yaxshi soʻz ayt, undan martabang bilinib tursin. Chunki kishining martabasi soʻz bilandir. Har kimning ahvoli uning soʻzi ostiga yashiringan boʻladi. Eshitgan kishining koʻngli rohatlanishi ham, xira tortishi ham mumkin.

Kaykovus soʻzning old va orqa tomoni boʻlishligi haqida gapiradi va bunda uning samimiylik darajasini koʻzda tutadi. «*Yuza bila degil, to suxangoʻy boʻlgʻaysan*», deydi va soʻzning maʼnosini chuqur anglab

gapirishga da'vat qiladi: «Agar so'z aytib, so'zning nechuk ekanini bilmasang, qushga o'xsharsanki, unga to'ti derlar, ul doim so'zlar, ammo so'zning ma'nosin bilmas» (Qobusnoma, 51).

Muallif *suxango'y* deganda chiroyli gapiradigan kishini nazarda tutadi. U nima desa, xalqqa ma'qul bo'ladi. Xalq nima desa, unga ham ma'qul bo'ladi. Bundaylarni oqil kishi deydilar. So'zni bag'oyat ulug' bil. – deydi donishmand. – U osmondan tushadigan, xor qilsa bo'ladigan narsa emas. Hech qachon bema'nilikni da'vo qilma.

Asarda har ishda, jumladan, so'z aytishda ham o'rtamiyonalik targ'ib etilgan, ko'pchilik orasida birovning qulog'iga pichirlash odobsizlik ekani aytilgan. *O'ylab gapirsang, keyin pushaymon bo'lmaysan*, deydi alloma. Eshitishni o'rgan. Sovuq so'z bo'lma. Aytgan so'zing birovga malol kelmasin. «Ey farzand, agar har nechakim *suxandon bo'lsang o'zingni bilg'ondan kamroq tutg'il, to so'zlash vaqtida nodon va beburd bo'lib qolmag'aysan. Ko'p bilib, oz so'zlag'il va kam bilib, ko'p so'z demag'il. Nima uchunki aqlsiz shundog' kishi bo'ludur - u ko'p so'zlar*» (Qobusnoma, 53).

Kaykovus fikricha, behuda so'z aytmoq devonalikdir. «Har kishiga so'z aytur bo'lsang, qarag'il, ul sening so'zingga xaridormu yoki xaridor emasmu?» «Ey farzand, toki qila olsang, so'z eshitmakdin qochmag'ilkim, kishi so'z eshitmak bila *suxango'ylik* hosil qilur». Donishlar debdurlar: «Dononing pand-nasihati ko'ngil ko'zin ravshan qilur, nedinkim, ul pand aql va hikmat ko'zining surmasi va to'tiyosidur». Bas, bu toifaning so'zin *xushqulog'i* bila eshitmak kerakdur» (Qobusnoma, 55).

1860-yilda buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Ogahiy tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Subutoy Dolimov va u zotning farzandlari Ulug'bek Dolimov tomonidan nashrga tayyorlangan va chop etilgan «Qobusnoma» yuqorida ixcham bir holda berilgan nutq va notiqlikka oid bebaho hikmatlar tufayli o'zbek ziyolilarining qalbidan chuqur joy oldi, soha mutaxassislarining har kuni o'qiydigan kitobiga aylandi.

8. Alisher Navoiy voizlik haqida.

O'rta Osiyoda nutq madaniyati va notiqlik san'ati tarixini o'rganishda Alisher Navoiyning ilmiy-badiiy merosi muhim o'rin tutadi. Bu masalalar ona tiliga bo'lgan buyuk muhabbati va ehtiromini o'zining badiiy ijodi bilan amalda isbot qilgan va o'zbek adabiy tiliga asos solgan mutafakkirning doimiy e'tiborida bo'lganiga shubha yo'q.

Alloma yashagan davrlarda hozir qo‘llanilib kelinayotgan *nutq madaniyati, notqlik san’ati, notqliqlik, notiq, nutq* tushunchalari *nutq odobi, voizlik san’ati, voizlik, voiz, va’z* tarzida iste’molda bo‘lgan va ular shoir asarlari matnida ham qo‘llanilgan. Shoirning «Badoye ul-bidoya», «Navodir un-nihoya», «Xazoyin ul-maoniy», «Xamsa», «Lison ut-tayr» asarlari matnini ko‘zdan kechirish, *va’z* so‘zining asosan *pand, nasihat* ma’nolarida, *voiz* esa *pand-nasihat qiluvchi* ma’nosida qo‘llanganini ko‘rish mumkin: *Yig‘layin forig‘ debon va’z ichra aylarmen maqom, O‘z fig‘onidin sog‘inur voizi damsard ani* («Badoye ul-bidoya», 689); *Navoiy o‘lsa kerak piri dayr bazmida xos, Ne desa desun ani va’z ichindagi oma* («Navodir un-nihoya», 687); *So‘rmog‘img‘a kelsa Majnun netti, ey ahli junun, Va’z-u pand aytib, meni bir dam xiradmand etsangiz* («Favoyid ul-kibar, 217»); *Bu yanglig‘ chu irshod etib va’z-u pand, Iki olam ichra bori sudmand* («Saddi Iskandariy», 315) kabi.

Alisher Navoiyning voizlik san’atiga munosabat bildirgan holatlari ham mavjud. Buni mumtoz fors-tojik adabiyoti klassiklari g‘azallariga tatabbu’ qilgan ba’zi misralarda uchratish mumkin. Ulardan shoirning voizlik san’atiga jiddiy bir ish sifatida qaraganligi ma’lum bo‘ladi.

«Tatabbū’i Xoqa»dagi mana bu:

*Voiz, in ki az donish pandi xalq megīyad,
Da’vatash chu zohir shud, pas daleli nodonū.*

misralarda voizning o‘zini bilimdon qilib ko‘rsatishga urinish nodonlikdan boshqa narsa emasdir, degan mazmun bor. Tarjimasi: *Voiz bilimdonligidan xalqqa nasihat qilmoqchi, da’vosi ayon bo‘ldi, bu uning nodonligiga dalildir.*¹²

«Nasim-ul-xuld tatabbo‘‘i xoqonī»dagi:

*Ba pandi voizi g‘ofil mayafgan gīshu z-on bigzar,
Ki dar xob ast az g‘aflat hamon afsona hazyonash.*

misralari dunyo bexabar voizning nasihatlariga e’tibor qilmaslikka chaqiradi. Tarjimasi: *G‘ofil voiz nasihatlariga quloq solma va undan yiroq bo‘lki, u g‘aflatdagi odamning uyqusidagi afsonalardir.*¹³

«Tatabbū’i «Daryoi abror»da:

Voizu tome’ – gadoi non buvad, farqash hamin,

¹² Алишер Навоий. Девони Фоний. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн тўққизинчи том. – Тошкент: Фан, 2002. -Б.264.

¹³ Алишер Навоий. Девони Фоний. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Йигирманчи том. – Тошкент: Фан, 2003. -Б.285.

K-in ba zeri minbar omad, on farozi minbar ast.

misralarida esa ta'magir notiqalar haqida gap boradi. Tarjimasi: *Ta'magir voiz – non tilovchi gadoga o'xshaydi, ular o'rtasidagi farq – biri minbar ustida, boshqasi minbar ostida bo'ladi.*¹⁴

Ayni paytda, Alisher Navoiy o'z davrida bu san'at bilan mashg'ul bo'lgan kishilar haqida ma'lumotlar berganki, ular notiqlik san'ati tarixini o'rganishda g'oyatda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, «Mahbub ul-qulub» asarining 24-fasli «Nasihati ahli va voizlar zikrida» deb nomlangan va unda quyidagilar bayon etilgan: «Voiz kerakki, «qolalloh»¹⁵ so'z aytsa va «qola rasululloh»¹⁶ muxolafatidin qaytsa, xudo va rasul yo'lig'a qadam ursin. O'zi kirgondin so'ngra nasihat bila elni ham kiversin. Yurumagon yo'lga elni boshqarmoq, musofirni yo'ldin chiqarmoqdur va biyobong'a keturmak va bodiyada iturmakdur. Usrukki, elga buyurg'ay xushyorliq - uyquvchidekdurki, elga buyurg'ay bedorliq.

Uyqusida so'z degan jevligon bo'lur va degondek qilmoq ne degon bo'lur.

Va'z bir murshid va ogoh ishidur va aning nasihatini qabul etgan maqbul kishidur. Avval bir yo'lni bormoq kerak, andin so'ngra elni boshqarmoq kerak. Yo'lni yurmay kirgan itar va g'ayri maqsud yerga yetar.

Voiz uldurki, majlisig'a xoli kirgan to'lg'ay va to'la kirgan xoli bo'lg'ay. Voizkim, bo'lg'ay olim va mutaqqiy – aning nasihatidin chiqqan shaqiy. Ulki, buyurub o'zi qilmag'ay, hech kimga foyda va asar aning so'zi qilmag'ay. Nazoirxon bila surguvchi maqol – dastiyor bila yirlag'uvchi qavvol.

Qit'a:

*Voizki, dastyorsiz o'lmas suxanguzor,
Anga yorodu¹⁷ munga ayolg'uvchi¹⁸ hukmi bor.
Tengri so'zin ayolg'uvchi bo'lmay dey olmag'ay,
Bir soz bo'lsa ham kerak ul qilg'ay ixtiyor».*¹⁹

Hazrat Alisher Navoiyning bu aytganlari R.Rasulov va boshqalar tomonidan yozilgan «Notiqlik madaniyati va notiqlik san'ati» o'quv qo'llanmasida quyidagicha izohlangan: «Voiz Haq so'zni targ'ib

¹⁴ Алишер Навоий. Девони Фоний. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Йигирманчи том, -Б.211.

¹⁵ Tarj. ar.: Olloh dedi.

¹⁶ Tarj. ar.: Ollohning elchisi, ya'ni Payg'ambar dedi.

¹⁷ yorod – musiqa asbobi.

¹⁸ Ayolg'uchi – kuyning cho'ziq nag'malarini ijro etuvchi.

¹⁹ Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн тўртинчи том. – Тошкент: Фан, 1998. -Б.29-30.

qilishi, Payg‘ambar so‘zidan chetga chiqmasligi kerak, eng avval uning o‘zi Haq va Payg‘ambar yo‘liga kirishi, so‘ngra esa, nasihat bilan elni ham shu yo‘lga solishi lozim. O‘zi yurmagan yo‘lga elni boshlamoq – musofirni yo‘ldan adashtirib, biyobonga tashlamoq va sahroda uni yo‘qotmoqdir. O‘zi mastning elni hushyorlikka chaqirishi – uyquchi kishining odamlarni bedorlikka da’vat etganiga o‘xshash bir narsadir.

Va’zxon shunday bo‘lishi kerakki, uning majlisiga bo‘sh kirgan odam to‘lib chiqsin, to‘la kirgan odam esa yengil tortib, xoli qaytsin. Voiz olim va halol ish ko‘ruvchi bo‘lsa, uning nasihatidan chetga chiqqanlar gunohkor bo‘ladi. Agar u boshqalarga buyursa-yu, o‘zi qilmasa, uning so‘zlari hech kimga ta’sir etmaydi va foyda keltirmaydi. Voiz bilimdon, halol ish ko‘ruvchi, sidq-u sadoqat bilan faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs bo‘lishi bilan birga, xalqning ruhiyatini yaxshi biladigan, xalqning dardi bilan yashaydigan bo‘lishi kerak. Ana shundagina uning va’ziga yurak-bag‘ri g‘am-alamga, dard-u tashvishlarga to‘lib kirgan kishi dardlaridan forig‘ bo‘lib, ko‘ngli bo‘shab, yengil tortib chiqadi. Qalbida ma’naviy-ruhiy bo‘shliq bo‘lgan odam esa bunday voizning suhbatidan olam-olam ma’naviy zavq olib, ko‘ngli, shuuri fikriy nurga to‘lib chiqadi».²⁰

Mutafakkir «Majolis un-nafois» asarida Mavlono Husayn Voiz Koshifiy haqida ma’lumot bergan²¹: **Mavlono Husayn Voiz**²² – «Koshifiy» taxallus qilur, Sabzavorliqdur. Yigirmi yilg‘a yaqin borkim, shahrdadur va Mavlono zufo’nun va rangin va purkor voqe’ bo‘lubtur. Oz fan bo‘lg‘aykim, dahli bo‘lmag‘ay. Xususan va’z, insho va nujumki, aning haqqidur va har qaysida mutaayyin va mashhur ishlari bor va musannafotidin biri «Javohir uttafsirdurkim, «albaqara» surasin bir mujallad bitibdurkim, munsifi qat’ bila yuz juz bo‘lg‘ay. Bovujudi barcha xiraliq va donoliq shahr sho‘xlaridin biri Xoja Hofizning bu matla’in bitib, minbarining ustig‘a qo‘yg‘ondur, budurkim:

Voizon k-in jilva bar mehrob-u minbar mekunand,

²⁰ Расулов Р., Хусанов Н., Мўйдинов Қ. Нотиқлик маданияти ва нотиқлик санъати. Ўқув қўлланма. – Тошкент: «Iqtisod-moliya», 2006. -Б.61-62.

²¹ Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн учинчи том. – Тошкент: Фан, 1997. -Б.113.

²² Mavlono Husayn Voiz (tug.yili noma'lum, Sabzavor yaqinidagi Bayhaq degan joy – vafoti 1505, Hirot), taxallusi «Koshifiy», shoir, adib, voiz. Nishopur va Mashhadda ham yashagan. Jomiy va Navoiyga juda yaqin bo‘lgan. Uning va’z, insho, nujum, axloq, tarix, tasavvuf riyoziyot va fiqh fanlariga oid 37 asari bor, jumladan, «Anvori Suhayliy» nomli mashhur asari «Kalila va Dimna»ning tarjimasidir. Navoiy «Xamsat ul-mutahayyirin» asarida, o‘zining Abdurahmon Jomiy vafotiga yozgan marsiyasini katta ma’rakada Husayn Voiz Koshifiyga o‘qitgan. Bundan Koshifiy she’rlarni ham go’zal o‘qigani va ovozi ham yaxshi bo‘lgani ko‘rinadi. [Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн учинчи том. – Тошкент: Фан, 1997, -Б.272].

*Chun ba xilvat meravand on kori digar mekunand.*²³

Olib o'qug'ach ko'p mutag'ayyir va muztarib bo'lib, xili xoriji mabhas so'zlar aytib necha vaqt va'z aytmadi. Xasmi noma'lum xud o'z maqsudin hosil qildi. Ammo Mavlono qilg'onining xato erkaniga voqif bo'lg'ach yana o'z ishi boshig'a bordi. Bormasa ikki xato bo'lur erdi. Bok yo'qdur, aybsiz tengridur. Bu matla' aningdurkim:

*Sabz xato, zi mushki tar g'oliya bar saman mazan,
Sunbuli tobdodaro bar guli nastaran mazan.*²⁴

Manbalarda keltirilishicha, Mavlono Voiz Koshifiy Alisher Navoiyning zamondoshi, do'sti va shogirdi bo'lgan. Uning «Futuvvatnomayi sultoniyy», «Axloqi muhsiniy», «Javohir ut-tafsir» asarlari axloq-odob masalalariga bag'ishlangan. Yaxshi notiq bo'lgan. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro asarlarini xalq oldida Voiz Koshifiy o'qib bergan.

Alisher Navoiy ustoz va piri Abdurahmon Jomiy vafotiga bir yil to'lganda, uning qabri boshida katta maqbara qurdiradi, shoh ishtirokida yana ulkan marosim o'tkazadi. Shu marosimda ustoz Jomiy vafotiga bag'ishlab yozgan marsiyasini o'sha davrning mashhur olimi va notig'i Mavlono Husayn Voiz Koshifiy o'qib beradi.²⁵

Shuningdek, shoir «Majolis un-nafois» asarida Mavlono Muin Voiz haqida ma'lumot bergan²⁶: **Mavlono Muin Voiz** – Mavlono Hoji Muhammad Farohinning o'g'lidurkim, mashohirdindur. Holo o'zi dag'i azim voizdur va muridlari ko'p. Minbar ustida devonavor ilik tashlamog'i va taxtani tepmagi ko'pdur va o'zin «Muni devona» bila ta'bir qilur va ko'p baland va past so'zlar aytur. Chun junung'a mu'tarif, har nav' so'z aytsa ma'zurdur, she'rida vazn, qofiya va radifg'a muqayyad emas, esa maof bo'la olur. Bir qatla Hazrat Amir ulmo'minin Alining imoni taqlidiy ekandur deganga, ul hazratning ruhidin g'arib siyosat va shikanjalar ko'rdi. Hamonoki tavba qildikim, qutuldi. Va og'asi Mavlono Nizomiddinkim, donishmand va muttaqiy va darvesh ani desa bo'lurkim, ikki qatla Hiriy shahrining qazosin taklif bila anga berdilar. Ikkalasi qatla o'zin azl qildi. Umid ulkim, bu qatla

²³ Tarjimasi: Mehrob va minbarda shunday yaxshi ko'rinadigan voizlar xilvat joyga borganlarida boshqa ishlar qiladilar [271].

²⁴ Tarjimasi: Ey sabzak miyig'li [go'zal], toza qora mushkni yosuman guliga sepma, [zulf kabi] toblangan sunbulni nastarin guliga urmagil [273]

²⁵ Алишер Навоий. Девони Фоний. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Йигирманчи том, -Б.472.

²⁶ Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн учинчи том. – Тошкент: Фан, 1997. -Б.113-114.

qabul qilgʻay va azl qilmagʻay. Derlarki, aytur ermishkim: «Muini mo qobiliyati bisʻyor dosht, in zinapoyai chubin uro zoyeʻ soxt».²⁷

Har taqdir bila shahrda muqarrar voiz Mavlono Muindur. Shaxr masjidi jomeʻida jumʻa kuni iydgohta ikki bayram kuni vaʻz ul aytur. Bu matlaʻ aningdurkim:

*Magar fasli bahor omadki, olam sabzu xurram shud,
Magar vasli nigor omadki, dil bo vasl hamdam shud.*²⁸

«Majolis un-nafois» asarida **Mavlono Riyoziy** degan kishi haqida ham maʼlumot berilgan, uning viloyat qozisi ekanligi, minbarda turib vaʻz aytishi, oʻz sheʼlarini berilib, zavq-shavq bilan oʻqishi haqida yozilgan.²⁹

Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» asarida **Yahyo Muʻoz Roziy** haqida quyidagi maʼlumotlarni bergan: «Yahyo b. Muʻoz Roziy q.t.r. Avvalgʻi tabaqadindur. Kuniyati Abu Zakariya va laqabi Voiz. Yusuf b. Husayn Roziy q.s. debdurki, yuz yigirma shayxgʻa etibmen va ulamo va hukamo va mashoyixqa musharraf boʻlubmen. Yahyo Muʻozdin soʻzga qodirroq koʻrmaymen. Ul debdurkim, [osiylarning siniq koʻngli itoatkorlarning faxrlanishidan yaxshiroqdir!]. Ham aning soʻzidurkim, [muhabbatning rostligi – mahbubga itoat qilishlikdadir]. Ul debdurki, zohidlar dunyo gʻurabosidurlar va oriflar – oxirat gʻurabosi. Va ham ul debdurki, muhabbatning haqiqati uldurkim, lutf bila ortmagʻay va jafo bila oʻksumagʻay. Taʼrix ahli debdurlarkim, Yahyo Muʻoz Balxqa bordi va anda iqomat qildi, muddatdin soʻngra Nishoburgʻa keldi va anda dunyodin oʻtti, ikki yuz ellik sakkizda».³⁰

Alisher Navoiy «Vafqiya»da voizlarning davlat tomonidan ragʻbatlantirilgani haqida yozadi: «Voizgʻa yilliq naqda besh yuz oltun, bugʻdoy oʻn yuk».³¹

Shoir asarlaridan voizlik sanʼatiga doir qoʻshimcha maʼlumotlar ham olish mumkin boʻladi. Uning «Holoti Sayyid Hasan Ardasher» asarida Saʼdiy Sheroziyning nomi tilgan olingan. Sayyid Hasan Ardasherining masnaviy bobida Shayx Saʼdiyga ixlosmandligi haqida yozilgan oʻrinda asarni nashrga tayyorlovchilar tomonidan quyidagi

²⁷ Tarjimasi: «Bizning Muʼinimiz koʻp qobiliyatli edi, lekin bu yogʻoch, zinapoyalar uni zoye qildi». Bu yerda vaʼz oʻqiladigan minbar zinalari koʻzda tutiladi. -B. 273.

²⁸ Tarjimasi: Bahor fasli keldimi ekan, olam koʻkamlashib, shodlikka toʻldi, goʻzalning visoli yetishdimikin, koʻngil vaslga hamdam boʻldi. -B.273.

²⁹ Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн учинчи том. – Тошкент: Фан, 1997. -Б.92.

³⁰ Алишер Навоий. Насойим ул-мухаббат. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн еттинчи том. – Тошкент: Фан, 2001. -Б.42.

³¹ Алишер Навоий. Вафқия. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн тўртинчи том. – Тошкент: Фан, 1998., -Б.272.

izoh keltirilgan: «**Sa'diy Sheroziy** – (Unga Allohning rahmati bo'lsin) – Muslihuddin Abu Muhammad Abdulloh ibni Mushrifuddin (1203, Sheroz – 1292, o'sha shahar) fors shoiri, adibi va mutafakkiri. Dastlabki tahsilni Sherozda oladi va Eron mo'g'ullari tomonidan zabt etilgach, Bag'dodga borib, «Nizomiya» va «Mustansiriya» madrasalarida o'qiydi. U yerda arab tili va adabiyoti, Qur'oni karim, Hadisi sharif va tasavvufni o'rganadi. Sa'diy Sharq mamlakatlari bo'ylab 20 yil safar qiladi. *Safarda u asosan voizlik qiladi, va'zlarida axloq-u adab, hikmat, hayotiy masalalar yuzasidan maroqli hikoyatlar keltiradi.* Sa'diy «Guliston» (nasr va she'rda), «Bo'ston» (nazm), lirik she'rlar – devon muallifidir»³² kabi.

Alisher Navoiy asarlaridan keltirilgan bu ma'lumotlar ulug' shoirning til va nutq madaniyatiga, undan mahorat darajasida foydalangan notiqlarga bo'lgan munosabatining yaqqol dalilidir. Uning o'zi ham yirik davlat va jamoat arbobi sifatida xalq oldida muntazam chiqishlar qilib, ona tilidan foydalanish va notiqlikning oliy namunasini ko'rsatdi. Allomaning xalqimizga yod bo'lib ketgan «*Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz*», «*So'zni ko'ngilda pishqarmaguncha tilga keltirma, Va har nekim, ko'ngilda bor – tilga surma*», «*Ma'dani inson gavhari so'z durur, Gulshani odam samari so'z durur*», «*Ko'p demak so'zga mag'rurlik, Va ko'p emak nafsga ma'murlik*», «*Til muncha sharaf birla nutqning olatidur va ham nutqdirki, gar nopisand zohir bo'lsa, tilning ofatidur*» kabi aforizmlari bizga hamon ona tilimizni ulug'lashning yorqin namunasi sifatida beminnat xizmat qilib kelmoqda.

9. Mavlono Voiz Koshifiy nutq odobi va notiqlik san'ati haqida.

XV-XVI asr ma'naviyatining yirik vakili alloma Mavlono Husayn Voiz Koshifiyning nutq madaniyati va nutqiy me'yori, nutq qoidalariga oid qarashlariga e'tibor beraylik. Uning «Futuvvatnomayi sultoniyy» asarining «Tariqat ahlining odobi haqida» deb nomlangan beshinchi bobida inson ma'naviyati va madaniyatiga oid qarashlari e'tiborga molikdir. Olim bu bobda insonning yetti a'zosi – ko'z, quloq, til, qorin, og'iz, qo'l va farj (tanosi a'zosi)ni saqlash odobi haqida mulohaza yuritarkan, ularni inson organizmi deb emas, balki ma'naviyati va axloqi namoyon bo'luvchi ramziy belgilar sifatida talqin qiladi.³³

³² Алишер Навоий. Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн бешинчи том. – Тошкент: Фан, 1999. -Б.116.

³³ Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султони. Ахлоқи муҳсиний – Тошкент: ЎЗМЭ Давлат илмий нашриёти, 2011, -Б.62-65.

Jumladan, uning muomala madaniyati va muloqot odobi haqidagi qarashlari ana shu umuminsoniy fazilatlarining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Koshifiy kitobning birinchi faslida quyidagilarni yozadi: «Tilning odobi qaysi deb so'rasalar, bu **olti narsaga tilni ochish va sakkiz narsadan tilni saqlash** deb aytgil. Tilni ochish kerak bo'lgan narsalar qaysi deb so'rasalar, aytgil: hojat zarurati yuzasidan ko'ngillarda yashirin bo'lgan rozni izhor etish, mazlumlar faryodiga javob berish va marhumlar imdodi uchun so'z aytish. Chunki bu so'zlar orqali zolimning zulmi mazlumlar boshidan ko'tarilishi mumkin.

Tilni saqlash lozim bo'lgan narsalar qaysi deb so'rasalar, aytgil: birinchidan, yolg'on gapirishdan, zero yolg'onchi xudoning dushmanidir. Ikkinchi, va'daga xilof gapirish va munofiqona so'z aytishdan. Uchinchi, g'iybat va bo'hton gaplardan, chunki bo'hton fosihlar ishidir. To'rtinchi, behuda bahs-u munoqashadan, ayb qilishdan va gap tashishdan. Bular shayton vasvasasiga kiradi. Beshinchi, o'zini maqtash va ta'riflashdanki, bu xudbinlikka olib keladi. Oltinchi, navkar va xizmatkorlarni la'natlashdan. Yettinchi, qarg'ashdan, duoibad qilishdan, chunki bu jon-u dilning ofatidir. Sakkizinchi, mazax-masxara qilish va hazil-huzuldan».³⁴ Olim shu bobning «Suhbat odobi haqida» deb nomlangan oltinchi faslida til odobi haqidagi mulohazalarini davom ettirib, quyidagilarni bayon qiladi: «Bilgilki, odamzodning sharafi nutq bilan va nutq odobiga rioya qilmagan odam bu sharaftan bebahradir. So'z hamma vaqt savob uchun ishlatilishi, to'g'ri va haqqoniy bo'lishi kerak. Agar shunday bo'lmasa, jim turgan ma'qul. Shayxlar va boshqa martabaga erishganlar uchun ham, hali martabaga erishmagan kishilar, muridlar uchun ham rioya qilinishi zarur bo'lgan bir qancha suhbat odobi mavjud. Agar martabaga erishganlar suhbatda qaysi qoidalarga amal qilishi kerak deb so'rasalar, aytgilki, quyidagi sakkiz qoidani saqlash kerak: birinchidan, har kimning ahvoliga qarab, munosib so'z aytsin. Ikkinchidan, dag'allik qilmasdan, lutf va muloyimlik bilan gapirsin. Uchinchidan, gapirayotganda tabassum qilib, ochilib gapirsin. To'rtinchidan, ovozini baland ko'tarmasin, eshituvchilarga malol keltirmaydigan qilib gapirsin. Beshinchidan, odamlarga nafi tegadigan ma'noli gaplarni gapirsin. Oltinchidan, agar so'zning qimmati – qadri bo'lmasa, uni tilga olmasin, chunki ulug'larning so'zi bamisoli urug'dir, agar urug' puch yoki chirigan bo'lsa, uni qay yerga ekmang, unib chiqmaydi.

³⁴ Хусайн Воиз Кошифий. Ко'rsatilgan asar. -Б.64.

Agar martabaga yetmaganlarning suhbat odobi nechta deb so‘rasalar, bu ham sakkizta deb aytgil. Birinchidan, so‘ramaguncha gapirmasin. Ikkinchidan, gapirayotganda ovozi baland ko‘tarmasin. Uchinchidan, gapirayotganda o‘ng-u so‘liga qaramasin. To‘rtinchidan, g‘arazli va kinoyali gaplarni gapirmasin. Beshinchidan, qattiq gapirmasin va betgachoparlik qilmasin. Oltinchidan, pushaymon bo‘lmaslik uchun o‘ylab gapirsin. Yettinchidan, odamlar gapini bo‘lib so‘z qotmasin. Sakkizinchidan, ko‘p gapirmasin. Chunki ko‘p gapirish aqli noqislik belgisidir. Oz bo‘lsa ham soz gapirishni shior etsin.

Agar qaysi til bilan so‘z so‘zlaysan deb so‘rasalar, sidq-u sadoqat tili bilan deb aytgil. Agar so‘zni qaysi quloq bilan eshitasan deb so‘rasalar, qabul qulog‘i bilan deb aytgil.

Agar so‘z senikimi yoki sen so‘znikimi deb so‘rasalar, aytgil: men so‘zniki va so‘z menikidir, chunki so‘z insonlik daraxtining mevasidir,. Daraxtni mevan, mevani esa daraxtdan ajratib bo‘lmaydi».³⁵

Voiz Koshifiy mana shu tarzda asarning oltinchi bobining ikkinchi faslida ma‘raka tuzuvchi so‘z ahli, ya‘ni notiqlar haqida ma‘lumot berib, ularni uch toifaga ajratadi: birinchi toifa – maddohlar, g‘azalxonlar va saqqolar (meshkobchilar). Ikkinchi toifa – xossago‘ylar (dorifurushlar) va bisotandozlar (ko‘rgazmachilar). Uchinchi toifa – qissa so‘ylaguvchilar va afsona aytuvchilar.

Ularning har birining fazilatlari haqida so‘z yuritib, adab shakllarini birma-bir ko‘rsatib, nutq so‘zlaganlarida me‘yorni saqlash lozimligini bir necha bor takrorlaydi.³⁶

Mavlono Voiz Koshifiyning bu asari axloq-odob dasturi sifatida bugungi kunda ham g‘oyatda ahamiyatlidir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Sharq xalqlari turmush tarzining mushtarakligi va farqlarini ayting.
2. Misrda notqlik namunalari aks etgan manbalar haqida gapiring.
3. Xitoy yodgorligi «Samaradorlik haqida traktat»da notqlik haqida nima deyilgan?
5. Xitoy notqligi va Konfutsiy haqida so‘zlab bering.
6. «Vedalar»da hind notqligi haqida nimalar deyilgan?
7. Qadimgi turkiylar notqligi haqida nimalarni bilasiz?

³⁵ Хусайн Воиз Кошифий. Ко‘rsatilgan asar. -B.71-72.

³⁶ Хусайн Воиз Кошифий. Ко‘rsatilgan asar. -B.90-97.

8. Mahmud Koshg'ariy va Yusuf Xos Hojib asarlarida nutq odobi haqida nimalar deyilgan?

9. «Qobusnoma»da *so'z – hunar* deyilgan. Uning ma'nosi nima?

10. Alisher Navoiy voizlar haqida nima degan?

11. Mavlono Voiz Koshifiyning voizlik san'ati haqida so'zlab bering.

12. Koshifiy aytgan «*Men so'zniki va so'z menikidir*» jumlasining ma'nosi nima?

ADABIY TIL ME'YORLARI VA NUTQ MADANIYATI

Reja:

1. *Me'yor* tushunchasi.
2. Davlat siyosatining til me'yoriga ta'siri.
3. Adabiy tilning me'yoriyligi.
4. Adabiy me'yor va badiiy adabiyot.
5. Til me'yori va yozuv
6. Umumiy va xususiy me'yorlar.

Tayanch so'z va iboralar: *me'yor, me'yoriy ko'rinishlar, imlo, urg'u, talaffuz, tinish belgilari, leksik, grammatik, uslubiy, so'z turkumlarida me'yor, so'zlarning bog'lanish qonuniyatlari, boshqaruv, moslashuv, bitishuv, so'z tartibi, nutqiy kamchiliklar – og'zaki va yozma nutqdagi kamchiliklar, varvarizmlar, dialektizmlar, vulgarizmlar, jargonizmlar, orfografik va punktuatsion me'yorlar buzilishi, umumiy, xususiy, adabiy til.*

1. *Me'yor* tushunchasi.

Me'yor - jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan va ularga tushunarli bo'lgan til birliklarining nutq jarayonida qo'llanish holati va imkoniyatidir.

Til va nutq tizimida me'yor o'ziga xos o'rniga ega. Til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardan oq uni me'yorlashtirish jamiyat ehtiyojiga aylangan va me'yoriy muammolar kun tartibiga qo'yilgan.

Jamiyat taraqqiyoti bilan baravar holda til va nutqdagi me'yoriy holatlarni o'rganish, tahlil qilishga ham ehtiyoj kuchayib borgan va bu muammolarni hal qilishda xalqning maishiy, ma'naviy-ma'rifiy turmushi, ijtimoiy-falsafiy va estetik dunyoqarashi, urf-odatlarini singari qator omillar e'tiborga olingan. Til hodisalarini, uning me'yoriy jihatlarini tadqiq etishda yana tilning milliy xususiyatlarini hisobga olmaslik ham aslo mumkin bo'lmagan.

Demak, me'yor milliylik va tarixiylik mazmunini kasb etadi, necha yuz, ming yillar davomida shakllangan an'anaviylikka ega bo'ladi. Tildan foydalanishdagi an'anaviy me'yorlarning davrlar o'tishi bilan o'zgarib, yangilanib turishi ham tarixiy jarayondir.

Anglashiladiki, til me'yorini belgilash muammolarini hal qilish har bir milliy til madaniyatini rivojlantirishning uzviy qismiga aylanadi. Shuning uchun ham me'yor masalalarining nutq madaniyati doirasida o'rganilishi bejiz emas.

Afsuski, tildagi me'yoriy muammolarni, qiyinchiliklarni qisqa muddatlar ichida hal qilishning imkoni yo'q. Bir tarixiy holatni eslaylik. 1989-yilda «O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida» qabul qilingan Qonunini hamda 1995-yilda yangi tahrirda qabul qilingan «Davlat tili haqida»gi Qonunni katta quvonch bilan kutib oldik va uni amalda tatbiq etishga ishtiyoq bilan kirishdik. Ammo uning hamma moddalarini birdaniga va tezlikda bajarishning imkoni bo'lmadi. Muomala jarayonida, rasmiy ish qog'ozlarini yuritishda, turli darajadagi anjumanlarni o'tkazishda rus tilidan foydalanishdagi mavjud an'analar o'z kuchini saqlab turdi. To'g'risini aytganda, bu nuqsonlardan to'laligicha qutilish hozir ham oson kechmayapti.

O'tgan vaqt mobaynidagi tildan foydalanish jarayoni bir narsani isbotladi – til me'yoriy muammolarining ijobiy hal qilinishi vaqt degan hakamga ham bog'liqligi ma'lum bo'ldi.

Til elementlarining ma'lum bir me'yorga keltirilishi, bir tomondan, til mutaxassislari tomonidan boshqarib borilsa, ikkinchi tomondan, tabiiy ravishda ham yuz beradi. Ammo, shu narsani unutmaslik kerak: tilning amalda bo'lish holatlariga tazyiq o'tkazib bo'lmaydi. Bu obyektiv jarayondir.

Xo'sh, me'yorni belgilashning amaliy jihatini nimadan iborat? Tadqiqotlar va kuzatishlar natijasida til elementlarida qanday mazmuniy va shakliy imkoniyatlar mavjudligi tahlil qilinadi, lingvistik imkoniyatlari ochib beriladi va ulardan nutq jarayonida foydalanish yo'llari tavsiya qilinadi?

Shu mazmunda til mutaxassislari, ziyolilar o'zlarining to'g'ri maslahatlarini, tavsiyalarini berishlari, bu borada jonkuyarlik qilishlari mumkin. Ammo hal qiluvchi gapni bu tildan foydalanuvchilar aytadi. Buning ustiga, har bir til elementining me'yor holiga kelgunicha ma'lum vaqt o'tishi ham lozim bo'lib qoladi.

Imlo va talaffuz qoidalari asosida yozish va so'zlashni xalqimiz orasida ommalashtirish, bu qoidalarni lug'atlar shaklida mustahkamlash, har bir sohada tildan foydalanish me'yorlarini belgilash bugunning dolzarb vazifalaridan bo'lib qolmoqda. Bular orasida xalqimizning nutq madaniyatini yuksaltirish masalasi ham dolzarbligicha turibdi. Chunki milliy istiqlol g'oyasi yurtdoshlarimizni

ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, yoshlarimizni esa erkin, yangicha fikrlashga o'rgatishni maqsad qilib qo'yar ekan, bunga til madaniyatisiz erishib bo'lmaydi.

Til birliklarini me'yorlashtirish, hamma uchun umumiy va tushunarli bo'lgan bir qolipga keltirish umuman tilshunoslikning vazifasi sanalsa ham, u nutq madaniyati sohasining xizmatlarini inkor etmaydi. Binobarin, me'yor muammolari hamisha ushbu sohaning tadqiqot obyekti bo'lib qolaveradi. Nutq madaniyati tilda ma'lum me'yorda keltirilgan til birliklarining nutqda qo'llanish shart-sharoitlarini, qonuniyatlarini nazariy jihatdan asoslaydi hamda bu me'yorga amal qilishni bir jihatdan nazorat ham qilib boradi. Nutqdagi yutuq va kamchiliklar tahlil qilinib, bu kamchiliklarni tugatishning eng ma'qul yo'llari ko'rsatib turiladi. «Nutq madaniyati keng miqyosidagi til tarbiyasini va ommaviy stilistik savodlilikni, boshqacha aytganda, so'zlovchi va yozuvchi omma orasida til haqidagi fanning hozirgi zamon yutuqlarini tatbiq etishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi»¹.

Til elementlarining me'yorlashishidek uzluksiz jarayonda eskilik bilan yangilik o'rtasida kurash hamisha davom etadi. Tilda yashab turgan so'z va iboralar ularning o'rniga kelayotgan yangilariga osonlikcha o'rnini bo'shatib bermoqchi. Ma'lum muddat ular teng darajada, parallel yashab turishi va vaqtlar o'tishi bilangina o'rnini bo'shatib berishi mumkin.

Xuddi mana shu eskilik bilan yangilik o'rtasidagi kurash va bu kurashda tildagi me'yoriy ko'rinishlarning tanlana borishi jarayonida adabiy til shakllanib boradi. O'zbek milliy adabiy tili garchi umumxalq tilidan o'sib chiqqan bo'lsa ham, unda mavjud bo'lgan dialektlar va shevalardan, jargonlardan, oddiy so'zlashuv tilidan, umuman oddiy xalq tilidan ba'zi jihatlari bilan farq qiladi. Chunki umumxalq tili o'zbek tilida uchraydigan barcha elementlarni o'z ichiga oladi va ishlanmagan shaklda bo'ladi. Adabiy til esa undan o'zbek millati uchun tushunarli bo'lgan va foydalanishda qulay deb topilgan variantlarini tanlab oladi hamda ularni millat vakillari uchun me'yor sifatida tavsiya etadi.

Tilning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi xalq hisoblansa ham, uning taraqqiyotida olimlarimizning, shoir va yozuvchilarimizning, davlat va jamoat arboblarning, huquqshunoslarimizning, pedagoglar va matbuot xodimlarining, kino, teatr san'ati ustalari va nashriyot xodimlarining hamda jurnalistlarning xizmatlarini qayd qilish lozim. Ayniqsa,

¹ Основы культуры речи: Хрестоматия. -С.39

mustaqillik davrida tilshunos olimlarimiz, shoir-yozuvchilarimiz va jurnalistlarimizning xizmatlari katta bo'ldi. Ularning samarali mehnatlari tufayli tilshunoslikning ko'pgina yo'nalishlari bo'yicha qat'iy me'yorlar belgilandi, til birliklarining yozuv va muomala jarayonidagi namunaviy variantlari tavsiya etildi, til tizimidagi ko'pgina munozarali masalalar o'zining nazariy asosiga qo'yildi.

2. Davlat siyosatining til me'yoriga ta'siri.

Til tadqiqotchilarining tasdiqlashicha, davlatchilik darajasida, ya'ni rasmiy muomalada tildan foydalanish uning me'yorlashuvini, binobarin, adabiy tilning shakllanuvini tezlashtirgan. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, qayerda davlatchilik taraqqiy etgan, mustahkamlangan va bu davlatning boshqa davlatlar bilan munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan va rivojlangan bo'lsa, shu yerda tilning me'yorlashuvi va madaniylashuvi ham tezroq amalga oshgan.

Mustaqilligimizdan avval rus tilining tazyiqi kuchayib borgan sari, asta-sekinlik bilan, o'zimiz sezmaydigan holda o'z so'zlarimiz va ifoda usullarimizdan voz kecha boshlagan edik. *O'nta sigir, o'nta qo'y* deyish mumkin bo'lgani holda *o'n bosh qo'y, o'n bosh sigir, o'n bosh qoramol* deb ishlata boshladik. Bu ruscha matnlardagi «десять голов овец», «десять голов корова» degan birikmalarning aynan tarjimai edi. Shu darajaga borib yetdikki, tilimizdagi oddiy *sovliq, qoramol, uloq* so'zlarini unuta boshladik. Ularni rus tilidan kalkalab, *ona qo'y (овцематок), ona tovuq, ona biya, yirik shoxli qoramol (крупный рогатый скот), mayda shoxli mol (мелкий рогатый скот)* tarzida ishlatishdan tortinmadik. Achinarlisi shu bo'ldiki, oddiy o'zbek chorvadorlarimizning o'zlari ham muxbir kelib suhbatlashganda shunday deb gapiradigan bo'ldilar.

O'zbek tiliga chetdan kirib kelgan birliklarning me'yorlashish sabablarini shu tarzda anglaydigan bo'lsak, uning lug'at tarkibidagi grekcha-yunoncha, mo'g'ulcha, ayniqsa, arabcha so'zlarining paydo bo'lish omillarini ham to'g'ri tushunamiz. Xayriyatki, mustaqilligimizni qo'lga kiritib, biz bu kamchiliklardan qutuldik. Hech bo'lmaganda, asta-sekinlik bilan qutulib boryapmiz. Buni yuqorida tanqid qilganimiz chorvachilik sohasida atamalar ishlatishdagi o'zgarishlarda ham kuzatamiz. Masalan, Samarqand qishloq xo'jalik institutining 70 yilligiga bag'ishlab nashr etilgan «Qishloq xo'jalik korxonalari rahbarlari va fermerlar uchun amaliy qo'llanma va tavsiyalar» (Samarqand, 1999) kitobining «Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi» bo'limida yuqorida keltirilgan atamalar

oʻrnida *qoramol, sigir, buzoq, tana, gʻunajin, buqa, qoʻy, qoʻchqor, sovliq, qoʻzi, echki, uloq* soʻzlari qoʻllanganini kuzatamiz².

3. Adabiy tilning meʼyoriyligi.

Adabiy til umumxalq tilining yashash shakllaridan biri boʻlib, uning boshqa koʻrinishlaridan mukammalligi bilan bir qadar farq qiladi. Uning qamrov doirasi umumxalq tilining boshqa shakllariga nisbatan keng. U butun bir millatga oliy darajada xizmat qilishga moʻljallangan. Shuning uchun chegara bilmasdan, xalq orasiga chuqur kirib boradi va keng tarqaladi.

Millat manfaatiga va madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladigan adabiy tilning oʻziga xos xususiyati, uning umumxalq tilidan farq qiluvchi jihati koʻp boʻlib, ular orasida meʼyoriylik markaziy oʻrinda turadi. Oʻzbek adabiy tilining oʻzbek xalqi uchun umummajburiyligi, koʻpvazifaliligi va uslubiy tarmoqlanganligi kabi xususiyatlarning birontasi meʼyoriyliksiz amalga oshmaydi.

Adabiy til meʼyori umumxalq tilining boshqa xususiy meʼyorlaridan tubdan farq qiladi. Uni tavsiflaydigan va farqlaydigan muhim belgilar sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin: kodifikatsiyalanganlik – ongli aralashuv yoʻli bilan tanlanganlik va ongli boshqarish, ongli oʻzlashganlik va anglanganlik, egallanganlik va tushunilganlik, qatʼiy qoidaga va tartibga solinganlik, yozuvda mustahkamlanganlik, xalqchilik va umumqoʻllanuvchanlik, umummajburiylik va namunaviylik, turgʻunlik va barqarorlik, ayni paytda, ularning nisbiylik, anʼanaviylik va izchilik, zamonaviylik va tipiklik, dinamiklik va tarixan oʻsuvchanlik, variantlilik va uslubiy tarmoqlanganlik, reallik va obyektivlik kabilar.

Kishi ongi va amaliyotida til birligi meʼyorlashishining birinchi bosqichi **odatlanish** boʻlib hisoblanadi. Bu elementlar tinimsiz, takror-takror ishlatilaverishi oqibatida jamoa orasida **koʻnikma** hosil boʻladi. **Tanlash imkoniyati** tilning amalda boʻlishining keyingi davrlariga – til ham shaklan, ham mazmunan boyigan, adabiylik darajasiga koʻtarilgan paytlarga toʻgʻri keladi.

4. Adabiy meʼyor va badiiy adabiyot.

Til birliklarining adabiy shaklda meʼyorlashuvida badiiy adabiyotning oʻrni ham alohida. Badiiy ijod jarayonida shoir va yozuvchilar oʻz fikr va hissiyotlarini boshqa ijodkorlardan farq qiladigan, favqulodda original ifodalarda berishga intiladilar. Bu yoʻlda

² Qiшлоқ хўжалик корхоналари раҳбарлари ва фермерлар учун амалий қўлланма ва тавсиялар. - Самарқанд, 1999. –Б.138-221.

ular yangi soʻz va iboralar yaratadilar. Lekin, yaratilgan birliklar oʻsha matnning oʻzida qolib ketaverishi, ommalashmasligi, adabiy tildan oʻrin olmasligi, bir soʻz bilan aytganda, tilda meʼyorlashmasligi mumkin. Ularning meʼyorlashishini sharoit, vaqt va ommaning qabul qilishi kabi omillar belgilaydi.

Ammo bir narsa ravshanki, bu birliklar oʻzi qoʻllangan matnda badiiyat uchun, obrazli tasvir va ifoda uchun xizmat qiladi. Shunday ekan ularni bir uslub doirasida meʼyoriy deb hisoblashga asosimiz boʻladi. Adabiy asarlardan namunalar keltiramiz: *Shovillaydi tun boʻyi shamol. Qaldiroqlar uchdi **larzakor*** (A.Oripov. Shovilladi tun.), *Lekin faqirga eng ulugʻ tuyulgan fazilatlari – Hazrat Mirning **isteʼdodshunosliklari-yu, zakovatparvarliklari*** edi (P.Qodirov. Yulduzli tunlar), *Ammo samo oʻgʻli **yashinvor**, Tashlanmasdan ohuga yovqur, Chagalidan ketgandi mador, Koʻzlarida soʻngan* edi nur (O. Matjon. Aks-sado) kabi.

Badiiy adabiyot matnida uchraydigan jargonlarni olaylik. Uning koʻmagida asar voqealari bir qadar ishonchli tasvir qilinishi yoki qahramonlar tili individuallashtirilishi mumkin. Masalan, S.Ravshanning «Chordoqdan otilgan oʻq» (Toshkent, 1986) qissasi jinoyatchilar olami, ularning qiyofalari va kirdikorlarini fosh etishga bagʻishlangan boʻlib, unda uchraydigan metaforik elementlar va jargonlar yuqorida qayd etilgan vazifalarni ado etishga koʻmaklashgan: *gladiator* (45), *qopchiq* (69), *qovurgʻa* (42), *kift* (31, 42), *qushcha* (25), *murgʻa* (31) – *oʻgʻrilar, jinoyatchilar guruhining aʼzolari, ularning laqablari; qafas* (13) – *turma, arava* (66) – *mashina; malax* (56) – *pul; dum* (54) – *orqadan kuzatib yuruvchi odam; buyurtma, mukofot* (36, 45) – *oʻgʻirlangan mol, narsa; hammol* (37) – *molni olib keluvchi odam, kuryer; soqol* (32, 33) – *pul* kabi. Yana: *atanda* – *xavf, xatar: Shef, atanda, ish chatoq* (54); *choʻra boʻlmoq* – *qochmoq: Shaykamizda choʻra boʻlganlardan biri* (32) kabi.

5. Til meʼyori va yozuv.

Tildagi birliklar va hodisalarning reallashuvi, mustahkamlanuvi hamda meʼyorlashuvida yozuvning xizmati katta ekanligi shubhasiz. Oʻzbek davlatchiligining shakllanishi hamda xalqimizning dunyo fani va madaniyatida, binobarin, til va nutq madaniyatida tutgan oʻrni, egallagan mavqeyi haqida soʻz yuritganda bu xalqning necha ming yillar davomida foydalanib kelgan oromiy, yunon, karoshta, sugʻd, xorazm, kushon, eftalit, pahlaviy, suriya, hind, urxun (runik), uygʻur, arab, lotin, rus (kirillitsa) yozuvlarini va yana lotin yozuvi asosidagi

o'zbek alifbosiga o'tayotganligimizni eslash kifoya. Shunday ekan, o'zbek adabiy tilining shakllanishi, o'zbek xalqi asrlar davomida foydalanib kelgan yozuv madaniyatining takomili hamdir.

Qayerda davlatchilik taraqqiy etgan, mustahkamlangan va bu davlatning boshqa davlatlar bilan munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan va rivojlangan bo'lsa, shu yerda tilning me'yorlashuvi va madaniylashuvi ham tezroq amalga oshgan.

6. Umumiy va xususiy me'yorlar.

Til me'yorlari ikkita guruhga – umumiy va xususiy me'yorlarga bo'linadi. Me'yorga nisbatan qo'llaniladigan umumiylik va xususiylik til me'yorlarining faoliyat doirasi, qamrovi va ularning biri ikkinchisiga nisbatan olinganda anglashiladigan tushunchalardir. «Umumiy norma tushunchasi o'zbek milliy tilining barcha ijtimoiy vazifaviy ko'rinishlari, nutq tiplari va uslublari uchun mushtarak bo'lgan vositalari tizimi ma'nosini ham anglatadi».³ Shu ma'noda o'zbek umumxalq tilidagi barcha me'yorlar yig'indisini umumiy me'yor, adabiy, lahjaviy, turli ijtimoiy qatlamlar tiliga oid me'yorlarni xususiy me'yorlar sifatida qabul qilish mumkin.

«O'zbek tili leksikologiyasi» kitobida bu kabi keng iste'moldagi so'zlarning barcha so'z turkumlarida uchrashi qayd qilib o'tilgan. Masalan otlarda – *daryo, suv, osmon, yer, tosh, tog', bog', daraxt, uy, devor, ko'cha, vodi, sahro, qum* kabi; sifatlarda – *oq, qizil, sariq, qora, katta, kichik, keng, tor, uzun, qisqa, chiroyli, aqlli, dono, barno* kabi; sonlarda – *bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz, o'n, yigirma, o'ttiz, qirq, oltmish, yetmish, sakson, to'qson, yuz, ming, million* kabi; olmoshlarda – *u, bu, shu, ana, mana, siz, biz* kabi; fe'llarda – *bor, kel, ket, yur, tur, o'tir, uxla, yot, ayt, qo'y, o't* kabi; ravishlarda – *tez, sekin, oz, kam, ko'p* kabi; bog'lovchilarda – *va, ham, ammo, lekin, biroq, goh, yoki, yoinki* kabi; yuklamalarda – *-u, -ku, -da, -yu* kabi; undovlarda – *oh, voh, voy, dod, uh, ura* kabi.⁴

Keltirilgan so'zlar adabiy tilda ham, tilning noadabiy shakli – umumxalq tili doirasida qaraladigan lahja va so'zlashuv nutqida ham qo'llanilaveradi. Bu esa ana shu til vositalarini bir tilning umumiy me'yorlari qurshovida qarashga asos bo'ladi.

Shunday qilib, bir tomondan, o'zbek tiliga tegishli bo'lgan barcha me'yorlar yig'indisini umumiy me'yor deb tushunamiz. Ikkinchi tomondan esa, qo'llanish doirasi chegaralanmagan hamda tilning

³ Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. II қисм. – Тошкент, 1998. -Б.78.

⁴ Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. -Б.11-12.

hamma iste'molchilari va tildagi barcha vazifaviy uslublar uchun baravar bo'lgan birliklar majmuini anglaymiz.

Xususiy me'yor ma'lum til umumiy me'yorlarining yashash shaklidir. Shunday ekan, yuqorida sanab o'tilgan o'zbek adabiy tili, lahja va shevalari hamda ijtimoiy tarmoqlarining me'yori xususiy me'yor sanaladi. Xususiy me'yorlarni yanada aniqroq tasavvur qiladigan bo'lsak, har bir shaxsning tildan foydalanish me'yorini ham, o'zbek tilida mavjud bo'lgan beshta – rasmiy, ilmiy, ommabop, badiiy, so'zlashuv uslublari doirasida amal qiladigan me'yorlarni ham xususiy me'yorlar deb tushunishimizga to'g'ri keladi.

Xususiy me'yorlar sifatida qaraladigan ma'lum sohaga va kasb-hunarga oid til birliklari me'yorlari haqida so'z yuritish ham ahamiyatli. Kasb-hunarga oid birliklardan tashqari tilimizda biror ijtimoiy guruhga yoki toifaga, masalan, talabalar, savdo xodimlari, sportchilar, o'g'rilar, bezorilar, shofyorlar, militsionerlar singarilarning o'ziga xos va boshqalar tushunmaydigan, jargon deb ataladigan yasama tili mavjud. Bu til ana shu guruhlar doirasida amal qiladi va og'zaki shaklda me'yorlashib, og'izdan og'izga ko'chib yashaydi. Shu jarayonda ularning ayrimlari yo'qolib ketishi, ayrimlari o'zgarishi, davrlar o'tishi bilan bu qatlam yangi birliklar hisobiga boyib borishi mumkin. Ma'lum qismi esa ommalashib ketadi. Dollar ma'nosini beradigan *ko'k*, *karam* so'zlari bunga misol bo'la oladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. *Me'yor* deganda nimani tushunasiz?
2. *Adabiy me'yor* nima? Uning qanday ko'rinishlarini bilasiz?
3. Adabiy til me'yoriyligining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
4. Badiiy uslub me'yorlarining boshqa uslublar me'yoridan farqi nimada?
5. *Funksional uslublar me'yori* tushunchasi nimani anglatadi?
6. Til birliklarining me'yorlashuvida yozuvning ahamiyatini tushuntirib bering.
7. Umumiy me'yorlar qamrovi haqida gapirib bering.
8. Xususiy me'yorlar qanday me'yor sanaladi?

O‘ZBEK TILINING ME’YORIY KO‘RINISHLARI

Reja:

1. Fonetik me’yor.
2. Leksik me’yor.
3. Morfologik me’yor
4. Sintaktik me’yor.
5. Uslubiy me’yor.

Tayanch so‘z va iboralar: *imlo me’yori, talaffuz me’yori, leksik-frazeologik me’yor, grammatik me’yor, uslubiy me’yor, so‘zlashuv, ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy sharoit, mavzu, ijtimoiy muhit, dunyoqarash, tilni bilish darajasi, mezon.*

1. Fonetik me’yor.

O‘zbek adabiy tili me’yorining quyidagi ko‘rinishlari mavjudligini ta’kidlaymiz: umumiy tarzda: yozma adabiy til me’yori va og‘zaki adabiy til me’yori; aniq tarzda: imlo, talaffuz, leksik-frazeologik, grammatik va uslubiy me’yorlar.

Imlo va talaffuz me’yorlari. Krilcha - o‘zbek yozuvida 31 ta tovush - fonema mavjud bo‘lib, ularni ifodalashga xizmat qiladigan rus grafikasiga asoslangan belgilar soni 35 ta. Shu belgilar orasida ikki tovushning yig‘indisidan iborat bo‘lgan ye, yo, yu, ya grafemalari ham mavjud. Aslida 31 ta fonema 33 grafik belgi bilan, jumladan 6 ta unli, 4 grafema va 23 ta undoshni ifodalovchi belgilar bilan ifoda etiladi. Ularga ‘ va belgilari qo‘shilsa, grafik belgilar soni 35 taga yetadi.

Mustaqillik qo‘lga kiritilgach, mamlakatimizda yozuv islohotlari amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrda «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini hayotga joriy qilish to‘g‘risida»gi hamda 1995-yil 6-mayda «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qonunlari qabul qilindi. Ushbu qonunlarni bajarish yuzasidan hozirda Respublika ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustda «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida» qabul qilgan qarori asosida o‘qitilmoqda. Ayni paytda, kirillga asoslangan o‘zbek yozuvi faoliyati ham davom etmoqda.

Yangi o'zbek alifbosiga 26 ta harf, 3 ta harflar birikmasi va tutuq belgisi kiritildi hamda bu bilan alifbo tizimi anchagina soddalashtirildi. Bu soddalashtirish ikki tovushni ifoda etuvchi (e), (ë), (ю), (я) singari grafemalarni, ona tilimizga xos bo'lmagan tovush ifodasi – «и» harfini va «ь» – yumshatish belgisini olib tashlash hamda «Ъ» – ayirish belgisini «'» – tutuq belgisiga almashtirish, shuningdek, ch, sh, ng tovushlarini ifodalovchi harflar birikmasini kiritish evaziga amalga oshirildi.

An'anaviy imlo me'yorlarini saqlab qolgan holda lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosi bilan ish ko'radigan imlo ham o'z me'yoriy qoidalariga ega va bu me'yorlar yuqorida tilga olingan hujjatda o'z ifodasini topgan. Undagi qoidalarga amal qilish tilimizdan foydalanuvchilar uchun bundan keyin majburiy sanaladi va shu tarzda bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan tadbirlar natijasida o'zbek tilining orfografik me'yori yo'lga qo'yiladi. Orfoepik – talaffuz me'yori va unga hayotda amal qilishi hozirda talablar darajasida emas.

Harqalay, til iqlimi, unga bo'lgan munosabat butunlay o'zgardi. Ona tilimizga davlat tili maqomining berilishi uning hayotiylik, yashash shart-sharoitlarini belgilab berdi. Rivojlanishi va istiqboli qonun yo'li bilan kafolatlandi.

2. Leksik me'yor.

Leksik me'yorlar deganda nutq jarayonida umumxalq tilida mavjud bo'lgan so'zlarni to'g'ri tanlash va o'rinli ishlatish tushuniladi. Ko'pma'nolilik, sinonimlar va variantlar shaklidagi leksik birliklar doirasida tanlanish imkoniyatining ko'pligi uning xususiy me'yorlarining shakllanishiga ham sabab bo'lgan. Tilimizdagi dialektizm, neologizm va okkazionalizm, pleonazm va boshqa leksik birliklarning me'yoriy xususiyatlari yuzasidan mulohaza yuritish leksik me'yor to'g'risidagi tasavvurimizni kengaytiradi.

Dialektizmlar: *sigir-siyir-inak; chaqaloq-buvak, tuxum-moyak-yumurta, chumoli-murcha-qarinja-qumurusqa* kabilar.

Varvarizmlar: *nu, tak, vot, sovsem, voobshe, tolko, oformit qilmoq, organizovat qilmoq, podpis qo'ymoq, bo, akun, soni* kabi so'z va birikmalarining ishlatilishi ijobiy hodisa emas.

Mustaqillikning ilk yillarida atamalarni «o'zbekchalashtirish», «milliylashtirish» ishtiyoqi paydo bo'lgan edi: *matematika – riyoziyot, fakultet – kulliyot, rassom – musavvir, gazetxon – mushtariy, auditoriya – saboqxona, xona, o'quv xonasi, sirk – tomoshaxona, samolyot – aeroplan, tayyora, aeroport – tayyoragoh* kabi.

Tilimizda qo'llanilib kelinayotgan *avtor, arxitektor, gumanizm, doklad, ideologiya, problema, rayon, raport, redaktor, traditsiya, forma* singari so'zlar o'rnini *muallif, me'mor, insonparvarlik, ma'ruza, mafkura, muammo, tuman, bildirishnoma/xabarnoma, muharrir, an'ana, shakl* kabi tavsiya etilgan so'zlar osonlik bilan egalladi.

Yana bir misol. O'tgan asrning 90-yillarida *rayon* so'zi o'rnida *nohiya, depara, tuman* so'zlari ishlatila boshlandi. Keyinchalik, garchi so'zning asl mohiyatiga unchalik to'g'ri kelmasa ham *tuman* so'zi me'yorlashdi. Ammo, lug'atda *rayon* so'zining umuman joy ma'nosini anglatish imkoniyati ham ko'rsatilgan: *пригородный район* – *shahar atrofi rayoni*, *промышленный район* – *sanoat rayoni*, *заводской район* – *zavodlar rayoni*, *район военных действий* – *urush harakatlari rayoni*, *район боя* – *jang maydoni*, *оборонительный район* – *mudofaa doirasi* kabi. Bu birikmalarni qanday me'yorlashtiramiz? Bizning ongimizda u hozircha ma'muriy hudud tarzida shakllanib turgan ekan, *shahar atrofi tumani, zavodlar tumani, urush harakatlari tumani* tarzida ham me'yorlashib keta oladimi? Buning ustiga, shu so'z o'zagidan yasalgan *районирование, районированный* – *rayonlashtirish, rayonlashtirilgan* so'zlari bor. Masalan, biror ekin navlari urug'ini, ya'ni biror joyning sharoitiga eng ko'p moslashtirilgan navlar urug'ini rayonlashtirish.¹ Buni qanday me'yorlashtiramiz? *Urug'ni tumanlashtirish* debmi yoki *urug'ni joylashtirish, urug'ni joylarga moslashtirish*, debmi? Harqalay, masalaning yechimi ma'lum vaqt o'tishi bilan hal bo'ladi.

Mustaqillik tufayli yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida tabiiy ravishda tilimizda ham juda ko'plab yangi so'z va iboralar, birikmalar paydo bo'lyapti. Bu, ayniqsa, siyosat va iqtisodiyot sohalarida yaqqol seziladi.

3. Morfologik me'yor

O'zbek tili grammatikasi tilshunoslik sohaları orasida nazariy jihatdan bir muncha yaxshi ishlanganligi, so'z shakllari, qo'shimchalar, so'z birikmalari va gap qurilishi bir qadar mukammal me'yoriy tavsiyalarga ega bo'lganligi bilan ajralib turadi.

Morfologik me'yor haqida fikr yuritilganda gap aslida qo'shimchalar qo'llashning me'yoriy holatlari haqida boradi. Qaysi guruh qo'shimchalari bo'lishidan qat'i nazar, ular o'rtasida variantdorlikning, sinonimiyaning mavjudligi nutqda bu qo'shimchalar

¹ Русско-узбекский словарь. – М., 1954. -С.711.

me'yorlari yoki ularning buzilishlari haqida, ba'zan esa vazifaviy chegaralanishlari xususida mulohaza yuritishga sharoit yaratadi.

Ijtimoiy hayotda yuz berayotgan o'zgarishlar tilda o'z aksini topmasdan qolmaydi. Masalan, ot yasovchi *-izm, -ist*; sifat yasovchi *-ik*; familiya ko'rsatkichi *-ov/-yev, -ova/yeva, -ovich/-yevich, -ovna/-yevna* kabi qo'shimchalar tilimizga XX asrning boshlarida kirib kelgan, me'yorlashgan va bu jarayon keyingi paytlarda tilimizni har tomondan o'rab kelib, siquvga olayotgan edi.

Faqat mustaqillikkina uni to'xtatib qoldi, tilimiz rivojida boshqa bir muhit paydo bo'ldi. Ular asta-sekinlik bilan o'rnini milliy qo'shimchalarga bo'shatib berish tendensiyasi kuchaydi. Masalan: *-ist* = *-chi, -navis, -shunos: traktorist – traktorch, romanist – romannavis, folklorist – folklorshunos* kabi.

Tilimizga o'zlashgan qisqartma otlarni o'zlashtirayotgan tilda qanday bo'lsa shu holicha qabul qilish odat tusiga kirgan edi: *minvuz, minpros, molprom, ptitseprom, zerdolvodxoz, peduchilishe* kabi. Hozirda esa bu kabi so'zlar qo'llanilishida ijobiy o'zgarishlar aniq sezilib, *oliy ta'lim vazirligi, xalq ta'limi vazirligi, sut sanoati, parrandachilik sanoati, zarvodiysuv, pedbilim yurti* tarzida keng qo'llanilmoqda va ularning safi kun sayin kengayib bormoqda.

Demak, ijtimoiy hayotda yuz bergan o'zgarishlar tilning barcha sathlarida bo'lgani kabi morfologik birliklar me'yoriga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ot so'z turkumiga daxldor ayrim qo'shimchalarni ko'rib chiqamiz.

-lar. Bu qo'shimcha ko'plik doirasidan chiqib, ot va fe'llarga qo'shilganda hurmat, kinoya, piching, noaniqlik, kuchaytirish, takrorlash, ta'kid, predmetning turi, umumlashtirish, so'zlovchi munosabatini alohida bildirish singari turli xil ma'nolarni ifodalaydi va bu me'yoriy holat sanaladi.

Shunday holatlarga ham duch kelamizki, uning ayrim otlarga qo'shilishida go'yo morfologik me'yor buzilmaganday ko'rinsa-da, uslubiy me'yorga jiddiy putur yetgani seziladi: *dadamlar keldilar*. O'zTV ko'rsatuvlarida ayrim ko'rsatuvni olib boruvchilar qo'shimchadagi noziklikni ba'zan payqamasdan, suhbatdoshlarini teletomoshabinlarga tanishtirayotganlarida bir kishiga nisbatan ham *ular, bular* so'zlarini (hatto *ula, bula* shaklida) qo'llashib, «hurmat bildirishmoqdalar».

Ba'zan fe'lga qo'shilganda me'yor buziladi: *Intellectual so'zlar umumiste'moldagi leksikaga xos bo'lganliklaridan*, har qanday janrda *ishlatilaveradilar* va stilistik jihatdan chegaralanmagan *bo'ladilar* (A.Shomaqsudov).

Kelishiklar. Qaratqich kelishigi: *-ning/-im: O'zbekiston vatanim manim* (A.Oripov). *Yo rab, yozug'im nedur manim* (O.Yoqubov); *-ning/-ing: Ko'ngluming mahzani gul orazi gulnora fido* (Joniy) kabi misollarda morfologik me'yor buzilgan, ammo uslubiy jihatdan buzilmagan. Belgili-belgisiz qo'llanish: *Samarqand universiteti – Samarqandning universiteti, Navoiy ko'chasi – Navoiyning ko'chasi, ziyolilar uyi – ziyolilarning uyi, shoirlar bog'i – shoirlarning bog'i*. Morfologik me'yor buzilmagan, uslubiy me'yor buzilgan. *Mening kitobim – men kitobim, sening kitobing – sen kitobing, uning kitobi – u kitobi*. Ikkinchi holatdagi kabi qo'llash mumkin emas, har ikkala me'yor ham buziladi.

Quyidagi misollarni qiyoslaymiz: *Tohir, Salim va Odilning otasi keldi – Tohirning, Salimning va Odilning otasi keldi – Tohir, Salim va Odilning otasi kelishdi – Tohir, Salim va Odilning otalari keldi – Tohir, Salim va Odilning otalari kelishdi – Tohirning, Salimning va Odilning otalari kelishdi* kabi. Birinchi gapda kelishikning qo'llanishida nutqiy me'yor buzilgan.

-ning va *-ni* ning qo'llanishda farqlanmasligi me'yorning buzilishi bo'ladi: *Direktorni kabinetida ko'rdim – Direktorning kabinetida ko'rdim*. Kimni ko'rgan, degan savolga ikki xil javob bor. Birinchi misoldan direktorning o'zini, ikkinchi misoldan esa boshqa bir kishini ko'rganlik tushuniladi. Shu sababli ham ularni bir-birdan farqlamasdan qo'llashni me'yorning buzilishi deb tushunilsa to'g'ri bo'ladi.

Tushum kelishigi: *-ni*: belgili-belgisiz holatlarning ma'nosi farqlanadi: *qo'l qo'ydi – qo'lni qo'ydi, bola ko'rdi – bolani ko'rdi, ot qo'ydi – otni qo'ydi, miltiq otdi – miltiqni otdi* kabi. Ularning har ikkila ko'rinishi ham tilda o'z holicha me'yorlashgan va boshqa-boshqa mazmunlarga ega.

-ni o'rnida *-mi*, *-ri* ning qo'llanishi me'yorning buzilishi, shevachilik: *kitobimmi topib ber, shoirri kitobi* kabi.

Sinonimiya: *-ni/-ga: otni mindim/ otga mindim, mashinani mindim/ mashinaga mindim – to'g'ri, poyezdni mindim, kemani mindim, paroxodni mindim, samolyotni mindim, vertalyotni mindim* esa uslubiy g'aliz.

Vaqt o'tishi bilan bu kabi sinonimik munosabatlar o'rtasidagi ma'noviy farqlar tobora oydinlasha borayotganini kuzatamiz: *birlashmaga boshliq* – biron tashkilotning o'ziga boshliq, *birlashmada boshliq* – tashkilot qaramog'idagi biron-bir bo'limga boshliq, *institutda domla* – institutdagi fakultetdan birida o'qituvchilik qiladi, *institutga domla* – ham grammatik, ham uslubiy jihatdan me'yorning buzilishi, shevachilik.

Egalik qo'shimchalari ko'plikdan keyin qo'shilsa, uslubiy me'yor buzilmaydi: *ukalarim, singillarim, jiyanlarim, singillaring, jiyanlaring, kitoblaring, maktablaring* to'g'ri. *Ukamlar, singlimlar, jiyanimlar, singlinglar, jiyaninglar, kitobinglar, maktabinglar* deb ishlatish maqsadga muvofiq emas.

Sifatlarda me'yor. Sifat yasovchi *-li* va ot yasovchi *-lik*ning farqlanmasligi tufayli ham morfologik, ham uslubiy me'yor buziladi: *aytarli – aytarlik, deyarli – deyarlik, dastali – dastalik, jildli – jildlik, sallali – sallalik, serbargli – serbarglik, serzardali – serzardalik, farzandli – farzandlik, shirali – shiralik* kabi.

Sonlarda me'yor. *-ta* va *-(i)nchi* qo'shimchalari o'zbek tilidagi barcha sonlarga qo'shiladi va bu me'yor sanaladi. *-ov* qo'shimchasi *ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti* sonlariga qo'shiladi va jamlik ma'nosini bildiradi. *Bir* soniga qo'shilganda esa sonlik doirasida chiqib, olmoshga o'tadi. Uning boshqa sonlarga qo'shilishi me'yorning buzilishi sanaladi. *-ala* qo'shimchasi ham 2 dan 7 gacha bo'lgan sonlarga qo'shiladi. Qolgan holatlarda me'yor buziladi. Sanoq sonlarga qo'shiladigan va chamani bildiradigan *-lab, -larcha, -tacha* qo'shimchalari ham odatda o'ndan boshlab yuz, ming, million kabi yirik miqdordagi sonlarga qo'shiladi. *Oltilab, oltilarcha, oltitacha, o'n birtacha, o'n birlab, o'n birlarcha* deyish o'zbek tilida odat emas. Chunki birdan o'ngacha bo'lgan sonlarda aniqlik kuchli bo'lib, umumiylik, jamlash ma'nolarini ifodalashga xizmat qiladi.

Olmoshlarning qo'llanilishi barcha vazifaviy uslublarga xos. Shu bilan birga, ularning biri o'rnida ikkinchisining qo'llanilishi ayrim uslubiy chegaralanishlarni keltirib chiqaradi. Masalan, ilmiy uslubda *men* o'rnida *biz* ishlatiladi va u kamtarlik alomati sanaladi: *M.N.Kojina morfologik sinonimlarning hammasini stilistik sinonim sifatida qarash mumkin emas demoqchi bo'lsa, biz unga qo'shilmiz* (R.Qo'ng'urov).

Ilmiy uslubda *biz* so'zi kamtarlik ifodasi sifatida me'yor sanalsa, so'zlashuv va badiiy uslubda maqtanchoqlik, o'zini katta olish ma'nosida me'yor sanaladi : – *Ma, ich, amir, – dedi va kuldi. – Bilib*

qo'y, **bizday** amirul-mo'min qo'lidan yolg'iz sen may ichursen (O.Yoqubov).

Fe'lning qo'llanishida me'yoriy holatlarni belgilash ham g'oyatda muhim. Masalan: -kaz va -qaz: *ketkazmoq, bitkazmoq – ketqazmoq, bitqazmoq*. Ikkinchi holatda me'yor buzilgan. *O'tkazmoq, o'tqazmoq* deganda buzilmagan. -kaz va -qaz o'rnida -kar/-qar: *bitkazmoq-bitkarmoq, o'tkazmoq-o'tkarmoq, chiqazmoq-chiqarmoq, qutqazmoq-qutqarmoq*. Ikkinchisini dialektal variant deyish mumkin.

-lan va -lash o'zaro sinonim sifatida qaraldi: *jarangsizlanmoq – jarangsizlashmoq, joylanmoq – joylashmoq, jipslanmoq – jipslashmoq* kabi. Ammo *ishqalanmoq – ishqalashmoq, sudlanmoq – sudlashmoq, yer tekislandi – yer tekislashdi* singari holatlarda ularga sinonim sifatida qarash mumkin bo'lmaydi.

Ravishlardagi o'zgarmaslik uning qo'llanishidagi uslubiy xilma-xillik bo'lishini chegaralaydi. Shu bilan birga, ularning nutq jarayonidagi me'yorlashishini, turg'unlashishini osonlashtiradi. Shunga qaramasdan, ravish so'z turkumiga oid so'zlarda ham me'yor muammolari mavjud. Masalan: -larcha, -larchasiga va -ona sinonimiyasi: *ayyorona – ayyorlarcha – ayyorcha – ayyorchasiga, beadabona – beadablarcha, birodarona – birodarlarcha, bahodirona – bahodirlarcha* kabi. Ammo *ojizona, odilona, oshkorona, oqilona* kabi so'zlarda ularning biri o'rnida ikkinchisini qo'llab bo'lmaydi.

Yuqorida bildirilgan mulohazalardan xulosa qilishimiz mumkinki, tilimiz morfologik shakllarining so'zlardagi yasaliş, shakl hosil qilish va o'zaro grammatik munosabatlarga kirishish imkoniyatining kengligi tabiiy ravishda ayrim me'yoriy muammolarni ham keltirib chiqaradi.

Ko'rinadiki, hatto bir so'z misolida bir uslub uchun me'yor hisoblangan holat ikkinchi bir uslubga mos kelmaydi.

4. Sintaktik me'yor.

Sintaktik me'yor, deganda, avvalo, grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan nutq tushuniladi. Grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishlik gap tarkibidagi so'zlarning o'zaro mazmuniy muvofiq kelishiga – valentligiga bog'liq bo'ladi. Bu xususiyat, ayniqsa so'z birikmalariga tegishli bo'lib, ular tarkibidagi semantik va grammatik aloqaning kuchliligi, ulardagi a'zolar yaxlit holda gap tarkibida paradigma hosil qilishi ana shu a'zolar o'rtasidagi aloqalarning turg'unligini, binobarin, me'yorning muntazamligini taqozo qiladi.

Ana shu muntazamlilik tilimiz boyligining turg'un birikmalar deb ataladigan qismida mavjud va ular *abjag'ini chiqarmoq, avjiga*

minmoq, avzoyi buzilmoq, adabini yemoq, adi-badi aytishmoq, amalga oshirmoq, asabga tegmoq tarzida o'zgarishsiz qo'llanilib kelinmoqda. Ammo ular ham badiiy nutq va so'zlashuv nutqida o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Harqalay, so'z birikmalaridagi me'yoriy o'zgarishlarni turg'un birikmalar tarkibidan axtarish to'g'ri emas.

Erkin so'z birikmalarining bitishuvli, boshqaruvli, moslashuvli shakllari mavjud. Ular orasida bitishuvli birikmalar me'yorga munosabati bilan ajralib turadi. Ot+ot tipidagi birikmalarni olib qaraylik: *kumush qoshiq, movut chakmon, chilvir belbog', zar do'ppi* kabi. Bu birikmalar ongimizda *kumush (metall)dan yasalgan qoshiq, movut (material)dan tikilgan chakmon, chilvir (arqon)dan bo'lgan belbog', zardan tikilgan do'ppi* tarzida shakllanadi. Ammo ularni aynan shu tarzda qo'llash me'yor sanalmaydi. Tildagi tejamkorlik, qisqalikka intilish qoidalari ularni dastlab qo'llagan shakllarda aytish va yozishni taqozo qiladi.

Belgili-belgisiz holatlarning nutqda o'zaro o'rin almashinib qo'llanishi grammatik me'yor nuqtayi nazardan mumkin bo'lsa-da, uslubiy me'yor jihatdan ular bir-biridan farqlanadi: *qora ko'zli (bola) – qora ko'z (bola)*.

Boshqaruvli va moslashuvli birikmalarda belgisiz qo'llanish qaratqich, tushum va jo'nalish kelishiklari uchun me'yor sanalishi tilimizda ko'p uchraydi: *maktab bog'i, kitob o'qimoq, maktab bormoq* kabi. Ammo o'rin-payt va chiqish kelishikli birikmalarining belgisiz shakllarida me'yor buziladi.

Me'yoriy grammatika qoidasiga muvofiq aniqlovchi-aniqlanmish qurilishli birikmalarda aniqlovchi qaratqich kelishigi shaklini olganda aniqlanmish ham uncha mos shaklda turlanishi lozim. Badiiy matnda esa bunday bo'lmasligi mumkin: *sening bunker* (G'.G'ulom). Badiiy uslubdan boshqa holatni me'yoriy hisoblab bo'lmaydi.

Kelishik qo'shimchalarining ko'makchilar bilan sinonimik munosabati muhim. To'rtta kelishik qo'shimchasi ko'makchilar bilan sinonimik munosabatga kirishadi: *-ga/sari (dushmanga yuzlandi / dushman sari yuzlandi), -ga/uzra (olamga chiqqanda quyosh /olam uzra chiqqanda quyosh), -ga/tomon (qizga qaradi/qiz tomon qaradi), -ga/bilan (qahqahaga to'ldi/qahqaha bilan to'ldi), -ga/uchun (ukamga oldim/ ukam uchun oldim)* kabi. Mana shu tarzda o'zbek tilida – *ni/bilan, haqda, -da/bo'ylab, ichra, bilan, -dan/sababli, orqali, tufayli, osha, bo'ylab, uzra, ichra, bo'yicha, to'g'risida, bilan, uchun* ko'makchilari sinonimiyasi kuzatiladi va ularning stilistik me'yoriyligi

nutqdan kelib chiqib belgilanadi. Bu munosabat o'zbek tilining fikrni eng nozik jihatlari bilan ifoda etishdagi imkoniyatlari naqadar kengligidan dalolat beradi.

Gap tizimida so'zlarning joylashuvi. O'zbek tili sintaktik me'yorlarini belgilashda gaplarning erkin tartibi nazariy asos qilib olinadi: *Samarqand – mamlakttimizdagi yirik shahar* yoki *Mamlakttimizdagi yirik shahar – Samarqand* gapida grammatik me'yor buzilgan emas, uslubiy o'zgarish bor.

Ega gapning boshida, kesim esa oxirida kelishi, har qaysi bosh bo'lakka oid so'zlar ulardan oldin qo'llanilishi o'zbek tili uchun odatdagi tartib, ya'ni me'yor sanaladi. Bu tartibning buzilishi me'yorning buzilishi deb baholanadi: *It – insonning do'sti – Insonning do'sti – it.*

Bir fikr nutqda turli grammatik shakllarda ifodalanishi mumkin. Masalan, *oling, olib turing, olib o'tiring, ovqatga qarang, ovqatdan oling, ovqatni oling, boshlang, boshladik, dasturxonga qarang, dasturxonga qarab o'tiring, qani-qani; qani, mehmon; marhamat, marhamat qiling, qolmasin, shu qolib nima bo'ladi, oling mehmon, yeb o'tiring, yeb turing, olib turing* va hokazo shakllardagi grammatik qurilmalar so'zlashuv uslubida me'yor sanaladi va bitta «yemoq» semasi atrofida birlashadi. Ayni paytda, shu ma'noni beradigan *ovqatdan iste'mol qilib turing, mehmon; ovqatdan tanovul qilib turing, mehmon; iste'mol qiling, tanovul qiling* singari qurilmalar ham garchi «yemoq» ma'nosini bersa-da, so'zlashuv nutqi uchun me'yor hisoblanmaydi.

Alohida olingan gap, umuman matnlar tarkibidagi til birliklarini ularga sinonim bo'lgan boshqa birliklar bilan yoki o'zaro o'rnini almashtirib qo'llash nutq jarayonida katta uslubiy imkoniyatlarni keltirib chiqaradi. Ayni paytda, me'yoriy buzilishlarni paydo qilishi ham mumkin. Shu boisdan, har bir tilning o'ziga xos me'yori mavjudligi haqidagi fikr, ayniqsa, sintaktik me'yorga tegishlidir.

Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra bo'linishlarida me'yoriy mustahkamlik turlicha. Darak gaplarda shakl va mazmun munosabati zich bog'liqlikda bo'ladi. Lekin so'roq gaplarning mazmuniy ifoda doirasi keng. Bir sintaktik shakldagi gaplar matnda har xil ma'nolarni ifodalashi mumkin. Shaklan bir bo'lgan bu gaplarda mazmun imkoniyatlarining kengligidan ularning hammasiga bir xil me'yoriy o'lchovlarni qo'llab bo'lmaydi. Ko'zda tutilgan mazmunni ifodalash

uchun maxsus ohang talab etiladi.² Masalan: *Bahor keldimi?* «Bahor keldimi?» – dedingmi? «Bahor keldimi?» emish! «Bahor keldimi?» ekan. «Bahor keldimi?» ham gapmi! «Bahor keldimi»ng nimang? *Bahor keldi? Bahor keldi?!* gaplari umumiy ma'noda bahorning kelishi haqidagi so'roq mazmunini va unga munosabatni bildirsa ham, har bir grammatik shakl ohang yordamida samimiy, xolisona so'rash, eshitmaganini bilib olish uchun so'rash, mensimaslik, achchiqlanish, taajjublanish, ta'kidlash singari turli xil ma'no ottenkalarini farqlaydi.

Darhaqiqat, ohang xususida. Gap shakliga sirtidan qarab bu darak, so'roq yoki undov gap deb dastlabki yuzaki bahoni beramiz. Ammo yuqoridagi singari so'roq gaplardagi maslahat, iltimos, yalinish, ko'ndirishga harakat qilish, avrash, tashviqot qilish singari ma'nolarni gap tarkibidagi hech bir grammatik yoki tinish belgi ifoda eta olmaydi. Bu masalani faqat ohang hal qiladi. Ushbu gaplarni qiyoslaylik: *Qo'y, menga u kunlarni eslatma! Menga u kunlarni eslatma, qo'y! Qo'ygin, menga u kunlarni eslatmagin! Menga u kunlarni eslatmagin, qo'ygin! Qo'ygin, u kunlarni eslatma menga! Qo'ygil, u kunlarni eslatma menga!* Bu gaplar ham xuddi yuqoridagi so'roq gaplarda kuzatilgani kabi, garchi umumiy ma'noda o'tgan voqea-hodisalarni eslatmaslikka da'vat qilayotgan bo'lsa-da, bu da'vat har bir gapda ohang ko'magida so'zlovchi maqsadiga mos tarzda ifoda etilmoqda, vazifaviy uslublar jihatidan ham farqlanmoqda. Demak, nutq jarayonida ohangga e'tibor berish me'yorga e'tibor berishning asosiy shartidir.

Bir tarkibli gaplar nafaqat grammatik tuzilishi, shu bilan birga, mazmuniga, fikrni ifoda etish xususiyatiga ko'ra ikki tarkibli gaplardan farq qiladi. Ayni paytda, bu uning me'yoriy xususiyati hamdir.

Shaxsi noma'lum gaplarni olib ko'raylik. Bunday gaplarda ish-harakatni bajaruvchi shaxs grammatik jihatdan ifodalanmaydi: *Hisobot yig'ilishida qarshi ovoz berishdi.* Gapda grammatik egani qo'yish mumkin. Ammo u noma'lum bo'lganidan qo'llanilmaydi.

Kesimi ifodalanmagan gaplarga e'tibor beraylik: ***Bahor.*** *Atrofda qushlar chug'urlashadi; Tong.* *Oppoq tong.* *Orzularim mavjlanar shu dam.* *Qiyoslaymiz: Bahor keldi.* *Atrofda qushlar chug'urlashadi; Tong otmoqda.* *Oppoq tong otmoqda.* *Orzularim mavjlanar shu dam.* Gaplarning kesimi grammatik jihatdan shakllantirilganda mazmunda o'zgarish bo'lmaydi. Ammo uslub nuqtayi nazaridan, ma'lum darajada, gapning ta'sirchanligi yo'qolganligi seziladi.

² Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Тошкент, 1995. -Б.51.

Kesim grammatik jihatdan shakllanamaganda ham bu harakat ongimizda mavjud bo'ladi. *Bahor, tong* so'zlarining gapga aylanishidagi asosiy omil esa kesimlarning shakllanmasligidir. Ammo uslubda farq bor. So'z-gap bo'lganda alohida ohang, ehtiros, hayajon bilan talaffuz etiladi hamda bahorning kelishi, tongning otishi haqidagi xabarni berish barobarida bahor va tongning mavjud va hukmron bo'lib turganligi ham ta'kidlanadi.

Qiyoslash uchun yana bir misol keltiramiz: *Kech kuz; Qaysi yil edi, yodimda yo'q. **Kech kuz.** Daraxtlar barglarini deyarli to'kib bo'lgan. Kech kuz* birinchi holatda so'z birikmasi, ikkinchi holatda gap. Qaysi holatni me'yoriy buzilish deb baholash mumkin? Qanday belgilariga ko'ra ularning birini so'z birikmasi, ikkinchisini gap deb ataymiz? Albatta, bu masalani ana shu grammatik birliklar shakllanayotgan nutqiy qurshov hal qiladi.

Sintaktik me'yor doirasida tildan foydalanuvchilar uchun to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, maqsadga muvofiqlik va ta'sirchanlik kabi nutqiy lingvostilistik omillar doirasida amal qilishi zarur bo'lgan jihatlar anchaginadir.

O'zbek tili sintaksisi doirasida me'yoriy chegaralarni belgilash nihoyatda murakkab vazifa. Tildagi har bir sintaktik kategoriya, har bir sintaktik birlik matn xususiyatiga qarab, vazifaviy uslublar doirasida qo'llanishiga ko'ra o'ziga xos mazmun va shakl kasb etishi mumkin. Talabalar ana shu aytib o'tilgan masalalarga e'tiborni kuchaytirsalar, sintaktik me'yor muammolarini tushunish yanada osonlashadi.

5. Uslubiy me'yor.

Matnda uslubiy me'yorni anglash bir qadar qiyin kechadi. Chunki boshqa til sohalarining o'z o'rganish materiali bor, uslubiy me'yorda esa yo'q. Ayni paytda, nutqiy jarayonda har bir til birligi uslubiy vosita bo'la oladi. Ularning me'yoriy darajasini esa nutqiy jarayon va vaziyat belgilaydi. Uslubiy me'yor deganda tildagi birliklarning har bir nutqiy mavzu va vaziyatga mos tarzda qo'llanilishi tushuniladi.

Uslubiy me'yorning boshqa xususiy me'yorlar bilan umumiy, ayni paytda, farqli tomonlari bor. Masalan, biron bir morfologik birlik ham morfologik, ham uslubiy me'yor uchun obyekt bo'lishi mumkin: *ukamni uyida ko'rdim* – *ukamning uyida ko'rdim*. Kelishik qo'shimchalari *-ning* va *-ni* ning farqlanmasdan ishlatilishi morfologik me'yorning buzilishiga, buning oqibatida uslubiy me'yorning buzilishiga ham sabab bo'lmoqda. Nutqda kimni ko'rganlik aniq ifoda

etilgan bo'lishi kerak: ukaning o'zinimi yoki uning uyida boshqa birovnimi?

Endi so'z qo'llash me'yori haqida. Zavqiydan: **Yuzingni** ko'rsatib avval o'zingga bandalar qilding misolidagi yuz so'zini uning sinonimlari bilan almashtirib ko'ramiz: **Jamoling** ko'rsatib avval..., **Ruxsoring** ko'rsatib avval... Yana: **Turqingni** ko'rsatib avval o'zingga bandalar qilding, **Basharang** ko'rsatib avval... va hokazo. Misollardagi sinonimlarning uslubiy qiymatini bir xil deb aytish mutlaqo mumkin emas.

Nutqda boshqa me'yorlar buzilmasa ham uslubiy me'yorning buzilishini kuzatish mumkin: *It – odamning do'sti. Odamning do'sti – it.* Gaplarda grammatik me'yor buzilgan emas. Ammo so'zlar o'zni almashinuvi tufayli uslubiy me'yor buzilgan – odam itga tenglashtirilgan. Bu tahlillar uslubiy me'yorni alohida xususiy ko'rinish sifatida qarashimizga asos bo'la oladi.

Uslubiy me'yorni boshqa me'yorlardan farqli o'laroq, til me'yori deb atashdan ko'ra, nutq me'yori deb atash maqsadga muvofiq bo'ladi.³

Uslubiy me'yorlar haqida gap ketganda ularning vazifaviy uslublarda namoyon bo'lishi asosiy diqqat markazida turishi zarur. Me'yoriy buzilishlar asosan vazifaviy uslub materiallarining og'zaki ifodasida ko'proq kuzatiladi. Ayni paytda, «uslub – bu umumiy normaning individual tatbiqidir».⁴ Bu fikrni til vositalarining har bir vazifaviy uslub doirasida qo'llanilishidan kelib chiqib belgilanadigan me'yor va alohida individ (shaxs)ning tildan foydalanishdagi me'yori ma'nosida tushunamiz.

O'zbek tili vazifaviy uslublari dastlab og'zaki va yozma shakllarga, ular yana ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy va so'zlashuv uslublariga bo'linadi.⁵

Rasmiy uslub hozirgi o'zbek tilining davlat-ma'muriy, huquqiy muassasalarida, rasmiy diplomatik munosabatlarida namoyon

³ Бегматов Б., Бобоева А., Асомиддинова М. Адабий норма ва нутқ маданияти. – Тошкент, 1983. –Б.78.

⁴ Бегматов Э. Бобоева А., Асомиддинова М. Ко'rsatilgan asar. –Б.83.

⁵ Bu uslublarning me'yoriy xususiyatlari, til materiali sifatidagi hamda nutq jarayonidagi o'ziga xosliklari o'zbek tilshunosligida monografik yo'nalishda o'rganilgan. Qarang: Ўринбоев Б. Ўзбек сўзлашув нутқи масалалари: филол. фан. д-ри дисс... – Тошкент, 1974; Мукаппаров М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий услуби семантик-функционал аспектда: филол. фан. д-ри дисс. – Тошкент, 1985.; Каримов С.А. Ўзбек тилининг бадий услуби: филол. фан. д-ри дисс. – Тошкент, 1994; Бобохонова Д.А. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг расмий-иш услуби: филол. фан. номз. дисс – Тошкент, 1978; Қурбонов Т.И. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг публицистик услуби: филол. фан. номз. дисс.. – Тошкент, 1987. Diniy uslub o'zbek tilida haqiqatdan mavjudmi, agar mavjud bo'lsa, uning lingvostilistik xususiyatlari nimalardan iborat, degan masala endi o'rganilmoqda.

bo'ladigan ko'rinishidir. Qonun matnlari, farmonlar, farmoyishlar, buyruqlar, xullas barcha rasmiy ish qog'ozlari ana shu uslubda shakllanadi. Bu uslubning og'zaki va yozma ko'rinishlari, binobarin, ushbu ko'rinishlarning o'z me'yorlari mavjud. Ushbu uslub uchun jargonlar, oddiy so'zlashuvga xos so'zlar, emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlarning ishlatilishi me'yor sanalmaydi va shu jihati bilan boshqa uslublardan keskin farq qiladi.

Ilmiy uslub ilmiy asarlar uslubidir. Til birliklarining fan sohasida, ilmiy bayon jarayonida ishlatilishi mazkur uslubning shakllanishiga asos bo'ladi. Ilmiy tafakkur fikrlashning o'ziga xos usuli ekanligi, obyektiv borliqni idrok etishda faqatgina dalil va faktlarga tayanish, fikriy izchilik kabi ekstralingvistik omillar ham nutqning ushbu turining shakllanishida, binobarin, nutqiy me'yorning o'ziga xos turining yuzaga kelishida muhim omil sanaladi. Aniqlik, obyektivlik, mantiqiy izchillik, qisqalik kabilar ilmiy uslubga xos bo'lgan asosiy xususiyatlardir.

Publitsistik uslub ommabop xarakterdagi matnlar uslubidir. U, ma'lum ma'noda, oraliq uslub sanaladi. Bu uslubda shakllangan matnlar adabiylik, obrazlilik, ta'sirchanlik, aniqlik, ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning faolligi, qisqalik, lo'ndalik, ixchamlik, yorqinlik kabi xususiyatlarga ega. Radio va televideniyaedagi ayrim chiqishlarda ba'zan so'zlashuv uslubi elementlari ham aralashib ketadi.

Badiiy uslub o'zbek tili vazifaviy uslublari orasida o'ziga xos mavqega ega bo'lib, ayni paytda, o'zining alohida me'yorlariga ham ega. Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha lingvistik birliklarning, shu bilan birga, boshqa vazifaviy uslublarga xos bo'lgan elementlarning ham ishlatilaverishi va ularning muhim bir vazifaga – badiiy-estetik vazifani bajarishga xizmat qilishi badiiy uslubning asosiy xususiyati hisoblanadi. Tabiiyki, bunday imkoniyatlar boshqa vazifaviy uslublarda chegaralangan.

Til vositalarini qo'llashdagi ana shu keng qamrovlilik bo'lishi bilan birga bu uslub doirasida ularni qo'llashning ma'lum me'yorlari ham amal qiladi.

Badiiy adabiyot tilidagi fonetik o'zgarishlar asosan matnda tovushlarning qisqargan va orttirilgan (*So'rma mendan, kim dilor o / Do'stmi yo janona deb. E.Vohidov; Ne balolig' kun edikim. Oshino bo'ldim sango. Alisher Navoiy; Shabboda men seni ko'rmayman, / Qo'limga tutmayman. Zulfiya*), ona tilimizning tarixiy taraqqiyot va

she'riyat qoidalariga mos tarzda «z» ning «y» ga (*So'yla quyosh nimalar bo'lgan, / Sen chiqqanda birinchi marta. H.Olimjon*), «q»ning «g»ga (*Quyosh orqasidan –behisob **chirog'** / Nuriga kiradi mamlakat shu **chog'**. Zulfiya*) o'tgan ko'rinishlarda me'yorlashgan. Shuningdek, badiiy uslubda, xususan poetik nutqda hozirgi adabiy orfografik me'yor talablariga muvofiq kelmaydigan *qaro, yamon, yaro, oshno, talosh* singari so'zlar ham ishlatilaveradi.

Badiiy uslubda morfologik ko'rsatkichlarining barcha ko'rinishlari qo'llanilishiga yo'l qo'yiladi. Ammo *-lik – -liq, -lig', -luq, -lug'* (*Shohigul ermas bu **o'tlug'** yuzlaring hijronida. E.Vohidov*); *-on* (*charog'on, shodon, za'faron*); *-in* (*chirkin, otashin*) kabi sifat qo'shimchalari badiiy uslubga xoslangan.

Olmoshlarning uslubiy chegaralanishlari badiiy adabiyotda sezilarli o'rin tutadi. *Men, biz, sen, siz, ular* singari olmoshlarning biri o'rnida ikkinchisi, ya'ni *men* o'rnida *biz* (*– Ma, ich, amir, – dedi va kuldi. – Bilib qo'y, **bizday** amirul-mo'min qo'lidan yolg'iz sen may ichursen. O.Yoqubov*), *men* o'rnida *sen* (*Bilmaydikim... yo'q to'xta Muhammad Tarag'ay! Nechun **sen** shahzodadan ranjiysen. O.Yoqubov*), *siz* o'rnida *sen* (*Izn ayla! Ona. Darig' tutma lutfingni, Avval shuki, **senga** qalqon bo'la olmagan Bizni – noshud farzandlarni afv etgaysen. E.Samandar*) qo'llanishi bu uslub uchun me'yor sanaladi.

Fe'lda badiiy uslubga xos belgilar quyidagilar: *ekan-erkan* (*Kecha ustod chaqirtirgan **erkan**. O.Yoqubov*), *kan-kin* (***Bo'lganmikin** yer uzra bir ko'z Ko'rmak uchun seni osmonda. H.Olimjon*), *-gin/-gil/-g'il* (***Qo'ygil** u kunlarni eslatma menga. A.Oripov*), *-sin/-sun* (*Jonlar sening yuzginangdan **aylansun**. Fitrat*) kabi.

Uslub talabi bilan o'zaro o'rin almashishlar mayl va nisbat kategoriyalarida kuzatiladi: shart mayli - aniqlik mayli: *Terimchi chevarlar etaklab, qoplab Tog'day xirmonlarga keltirib **to'ksa**, Men behad sevaman* (Zulfiya). Yoki aksincha: *Men hayot **ekanman**, hayotsan sen ham* (Zulfiya). Buyruq mayli – shart mayli: *Boysunqur mirzo **zo'ravonlik qilsin!** Men mo'minlarcha bosh egib elchi yuboray!* (O.Yoqubov), buyruq-istak mayli – aniqlik mayli (*Qayga **borsin** taqdirdan qochib?* (Zulfiya).

Yordamchi so'zlar ham badiiy uslub doirasida chegaralanadi. Masalan: ko'makchilar: *bilan – birla, birlan, ila, -la; uchun – -chun; kabi – misol, misoli, misli; ora – aro* kabi. Shuningdek *yanglig', uzra, ichra* ko'makchilari badiiy matn uchun xos. Xoslangan bog'lovchilar:

lek va *gar* hamda *vale*, *yoinki*, *holonki*. Yuklamalarda uslubiy chegaralanish aniq bilinib turmaydi.

Sintaksis sohasida. Ekspressiv-emotsionallikni vujudga keltiruvchi vosita sifatida inversiya soʻzlashuv va badiiy uslubga tegishli.

Badiiy uslubda adabiy til boyliklaridan foydalanibgina qolinmasdan, undagi koʻplab birliklarning tilda meʼyorlashuviga, adabiy tilning boyib, rivojlanib borishiga doimiy ravishda taʼsir oʻtkazib turadi.

Soʻzlashuv uslubi kishilarning kundalik rasmiy-norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarining oʻziga xos tarzda amal qilishidir. Bu uslubning oʻziga xos xususiyati nutq jarayonida til va tildan tashqari omillarning uygʻun boʻlishida koʻrinadi. Ayni paytda, bu holat soʻzlashuv uslubidagi meʼyoriy holatlarni belgilashni qiyinlashtiradi. Chunki tildan foydalanuvchining shaxsi, buning ustiga, nutqiy vaziyat yagona bir meʼyorni tayin etishga imkon bermaydi.

Soʻzlashuv uslubining oʻziga xosliklari: nutqning elliptik xarakteri: *qorami?* *koʻkmi?*; til birliklari ekspressivlik imkoniyatlarining kengligi. Masalan, *ulguramizmi?* degan savolga *yoʻq*, *ulgurmaymiz* deyishdan koʻra vaziyatdan kelib chiqib, *ulgurib boʻpmiz*, *ulgurish qayoqda*, *ulgurib ham boʻldik* singari javoblar birmuncha tabiiy va ekspressivroq boʻlib chiqadi. Bu uslubda ohang – intonatsiyaning ahamiyati nihoyatda katta.

Ohang ogʻzaki nutqning reallashuvida til birliklaridan keyingi muhim, hal qiluvchi vosita boʻlib, uning nutq tempi, pauza, ton, melodiya, tovush tembri, soʻz va gap urgʻusi kabi koʻrinishlari maʼnoni farqlashda, ottenkalarni ajratib koʻrsatishda, hayajonni kuchaytirishda xizmat qiladi.

Nutqda tilning meʼyoriy holatlariga eʼtibor berish uslub va til madaniyatining takomillashib borishiga xizmat qiladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Imlo va talaffuz meʼyorlarini tartibga soluvchi omillar qaysilar?
2. Leksik meʼyorlar haqida gapirib bering.
3. Frazologik meʼyorlar oʻzgaruvchanligi haqida nima deya olasiz?
4. Morfologik meʼyor xususiyatlarini tushuntiring.
5. Sintaktik meʼyorlarning oʻziga xosligini qanday tushundingiz?
6. Oʻzbek tilida soʻz tartibining meʼyorga aloqasini izohlang.

NUTQNING KOMMUNIKATIV SIFATLARI

Reja:

1. *Kommunikativlik* tushunchasi.
2. Nutqiy kommunikatsiya turlari.
3. Nutqning milliy xarakteri.
4. Muloqotning kompozitsion bosqichlari.

Tayanch soʻz va iboralar: *kommunikatsiya, kommunikativlik, adresant, adresat, kommunikatsiya turlari, zamonaviy konsepsiyalar, yozma, ogʻzaki, monolog, dialog, onlayn, milliylik, gender xususiyatlar, salomlashish, kompozitsion bosqichlar, lingvistik va ekstralingvistik omillar.*

1. *Kommunikativlik tushunchasi.*

Tilda *kommunikatsiya* va *kommunikativlik* degan tushunchalar bor. **Kommunikatsiya** soʻzining maʼnosi – bir kishining boshqa bir kishiga axborot yetkazishi, muloqotdir. Bu jarayonda adresant va adresatlar ishtirok etadi va oʻrtada soʻzlovchi nutqi qanday sifatlarga ega boʻlishi lozim, degan savol turadi.

Kommunikativlik esa insonning ijobiy axloqiy sifati boʻlib, uning muloqotga moyilligini anglatadi. Bu sifat insonning oʻz atrofida bilan muloqot qila olish uquvida namoyon boʻldi.

Kommunikativlik insonda nutqiy va axloqiy madaniyatning shakllanishiga, odamlar bilan muloqotda xushmuomalali boʻlishga, xulqiy meʼyorlarni singdirishga yordam beradi. Kommunikativlik prinsipi, shuningdek, muloqotni malakali amalga oshirish uquvining rivojlanishiga, ruhiy ikkilanishlarni yengib oʻtishga, suhbatdosh oldida oʻzini tuta bilishga, nutqiy muloqotga kirishadigan odamlar bilan oʻzaro munosabatni yoʻlga qoʻya olishga xizmat qiladi.⁶

Professor Siddiq Moʻminovning «Oʻzbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari» mavzusida himoya qilgan doktorlik dissertatsiyasi bevosita nutqning kommunikativ xususiyatlarini tadqiq etishga bagʻishlangan.⁷

⁶ https://www.gramota.net/articles/issn_1993-5552_2008_2-2_98.pdf

⁷ Qarang: Mўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фан. д-ри. ...дис. – Тошкент, 2000; Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фан. д-ри. ...дис. автореф. – Тошкент, 2000; Мўминов С. Сўзлашиш маданияти. – Фарғона, 1997; Мўминов С. Мулоқот мезони. – Тошкент: «Янги аср авлоди», 2004.

Nutqiy kommunikatsiya tizimida *muloqot uzvi* degan tushuncha ham bor. Muloqot uzvlari deganda aloqa, fikr almashinish, soʻzlashish jarayonida bevosita va bivosita qatnashadigan tarkibiy qismlar nazarda tutiladi, – deydi S.Moʻminov. Uning fikricha, nutqiy kommunikatsiya ishtirokchilari muloqot uzvini tashkil etadi. Soʻzlovchi, yaʼni xabar beruvchi, gapiruvchi *adresant – kommunikator* deb, adresantning nutqi qaratilgan shaxs – tinglovchi *adresat – kommunikan*t deb, muloqotda bivosita (botinan) ishtirok etuvchi yoki muloqotga bivosita taʼsir etuvchi omillar esa taʼsir birliklari deb yuritiladi. Olim ularni ikki guruhga boʻlgan: 1. Ichki taʼsir birliklari: millati, jinsi, yoshi, ijtimoiy belgilari, taʼsir birliklariga yaqinlik darajasi. 2. Tashqi taʼsir birliklari: muloqot vaqti; vaziyat, holat; ijtimoiy holat.⁸

2. Nutqiy kommunikatsiya turlari.

Nutq madaniyatining zamonaviy konsepsiyasi uch aspektni oʻz ichiga oladi: 1) meʼyoriy, 2) kommunikativ, 3) axloqiy.⁹

Muloqot qiluvchilar turli qatlamlar vakillari ekanligi tufayli, vaziyatdan kelib chiqib, til vositlaridan savodli va maqsadga muvofiq foydalanish zarurligi bu konsepsiyada kommunikativ vazifaning muhim oʻrin tutishini koʻrsatadi. Binobarin, yuqori nutq madaniyati fikrni ifodalashning aniq vositasini topish, stilistik jihatdan muvofiq keladigan variantni qoʻllashni taqozo etadi.

Shu maʼnoda soʻzlovchi va tinglovchi oʻrtasidagi nutqiy muloqot kommunikativ aspektning muhim jihati sanaladi. Tilimizda bu muloqotning bir necha shakllari mavjud. Masalan, yozma va ogʻzaki turlarini olaylik. Bu nutq shakllarining axborotni yetkazish nuqtayi nazaridan imkoniyatlari turlicha. Yozma muloqotda adresant bevosita ishtirok etmagani bois, bu nutqning taʼsir darajasi adresantning diqqat-eʼtiboriga koʻproq bogʻliq boʻladi. Yozma muloqotning ustunligi unda maʼlumotlarning batafsil va toʻliq saqlanib turishidir. Uning muloqotning masofali shakli deb aytishadi.

Muloqotning asosiy shakli ogʻzaki muloqotdir. Muloqotning bu shakli masofasiz amalga oshiriladi va ikki koʻrinishda boʻladi: monologik va dialogik.

Monologik nutq bir kishining oʻz-oʻziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqidir. Nutqning bu turidan omma oldida chiqishlarda foydalaniladi. Notiqlik sanʼati oldiga qoʻyiladigan talablarning barchasi

⁸ Мўминов С. Ўзбек мuloqot хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фан. д-ри. ...дис. -Б.13.

⁹<https://scicenter.online/kultura-rechi-stilistika-scicenter/yazyik-rech-kultura-rechi-osnovnyie-kachestva-167512.html>.

ana shu nutq turiga tegishlidir. Axborot uzatishning bir tomonlamaligi bilan u nutqning boshqa turlaridan farq qiladi.

Monologik nutq badiiy adabiyot uchun xos xususiyat. Ayniqsa, dramatik asarlarda unga katta e'tibor beriladi. Shuning uchun u sahna nutqi doirasida maxsus o'rganiladi.

Dialogik nutq ikki yoki undan ko'proq kishilarning muloqoti bo'lib, u so'zlashuv jarayoni uchun xos bo'lgan barcha xususiyatlarni o'zida mujassam qiladi. Shu sababdan dialogik nutqda nutqning boshqa ko'rinishlariga nisbatan ekstralingvistik omillarning ishtiroki ko'proq namoyon bo'ladi.

Yuzma-yuz bo'ladigan muloqotda suhbatdoshlar bir-birlarini ko'rib va eshitib turganliklaridan, bu jarayonda vaziyat, imo-ishora va talaffuzning ham ahamiyati katta bo'ladi. Muloqotning bu turi aytilmoqchi bo'lgan fikrning xatti-harakat, ko'z va yuzlardagi ifodalar, talaffuz ohanglari yordamida adresatga tezroq va osonroq yetib borishligi bilan ajralib turadi. Notiqlik san'ati talablari nuqtayi nazaridan og'zaki muloqot shaklining imkoniyatlari yozma nutqqa qaraganda ancha kengdir.

S.Mo'minov nutqiy kommunikativ aloqa ko'lami haqida quyidagilarni yozgan: «Davlat, tashkilot, guruh rahbarlarining o'zaro diplomatik va rasmiy muomalasi, rasmiy muloqot deyilsa, teng-to'sh, do'stlar, dugonalar, sevishganlar va shu kabilar o'rtasidagi muomalalar xususi yoki norasmiy muloqot hisoblanadi».¹⁰

Shunday qilib, fikrni og'zaki shaklda ifoda etish til kommunikativ tabiatining o'zagini tashkil etadi va u yozma nutqdan farq qiladi. Bunda nutqning tabiiyligi muhim o'rin tutadi.

Texnika inqilobi davrida mamlakatimiz hayotida ham innovatsion texnologiyalarning jadal joriy etilishi sababli, bugun ko'pchilik muloqotlar onlayn rejimida olib borilmoqda. Mamlakat boshqaruvi tizimiga videoselektor, videokonferensiya kabi muloqot usullarining kirib kelishi xalqaro tashkilotlar va davlat rahbarlarining, ilm ahli va biznes vakillarining o'zaro munosabatlari va kelishuvlarida, ilmiy va ijtimoiy muammolarni oson hal etishlarida inqilobiy ahamiyatga ega bo'ldi. Butun dunyoni koronavirus pandemiyasi qamrab olgan bugungi og'ir damlarda mamlakatimizda ta'lim jarayoni ham onlayn rejimiga o'tkazildi.

¹⁰ Мўминов С. Ко'rsatilgan dissertatsiya -B.15.

3. Nutqning milliy xarakteri.

Nutqning kommunikativ sifati haqida gap ketganda uning milliy xususiyatlarini ham e'tiborga olish kerak bo'ladi. Chunki nutq individul xarakterga ega bo'lish barobarida individ nutqida uning milliy mansubligi ham bilinib turadi.

Masalan, insonlar muloqotida eng faol qo'llaniladigan jarayon salomlashish ekanligi barchaga ma'lum. O'zbeklar bir-birlariga salom berishganda *Assalomu alaykum!* deyishadi. Bunga javoban: *Va alaykum assalom!* deyiladi. Mana shu nutqiy me'yor sanaladi. Bu me'yorning buzilish holati ham ko'p kuzatiladi: *Salom! Salom, o'rtoqlar! Assalom! Va alaykum! Alaykum salom! Salom berdik!* kabi. Bu salomlashishlar nutqimiz uchun me'yorning buzilishi sanaladi. Bu shakldagi qo'llanishlarda muayyan uslubiy o'ttenkalar bor. «*Salom!*» deb, odatda, mansabdor kishilar o'zining qo'l ostidagilarga yoki bo'lmasin, yoshi katta odamlar yoshi kichiklarga aytishadi. «*Assalomu alaykum!*» deyishni o'zlariga lozim ko'rishmaganda shunday qilishadi. «*Salom berdik!*» deb salomlashishda minnat, bepisandlik, boshqalarni mensimaslik o'ttenkasi bor. Hozirda o'zbeklarning muloqot jarayonida «*Salom, o'rtoqlar!*» tarzidagi salomlashish ham kamayib bormoqda, ko'pchilik o'rtoq so'zi bizniki emasligini va rasmiyligini anglab yetmoqda. «*Assalom!*» yoshlar, «*Va alaykum!*» esa keksalar nutqida uchrab turibdi. «*Alaykum salom!*» yoki «*Alaykum salam!*» go'yo chet tillarni boshqalardan ko'ra yaxshiroq biladigan kishilarning salomlashishdagi madaniyatsizligi belgisidir.

Dunyo xalqlarining salomlashish jarayonida ishtirok etadigan ekstralingvistik omillar ham milliylik ifodasidir. O'zbeklarning qo'lini ko'ksiga qo'yib salomlashishi, yevropaliklarning ozgina egilib bosh kiyimini sal olib va yana kiyib, hindlarning kaftlarini birlashtirgan holda peshonasiga olib borishi, yapon va koreyslarning boshini tezlik bilan egib, qaddini yana tiklashi kabilar muloqotning boshlanishidagi ana shu omillardir.

Aytilganlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, nutqning kommunikativ sifatini milliy xarakter – millat vakillarining o'ziga xos urf-odatlar, qadriyat va an'analarini hisobga olmasdan turib o'rganib bo'lmaydi.

4. Muloqotning kompozitsion bosqichlari.

Muloqotda adresant va adresatlar faoliyati mazmuni va shakliga ko'ra farqlangani kabi kompozitsion jihatdan ham farqlanadi. Ularni prof.S.Mo'minov quyidagi guruhlariga ajratgan:

1. Adresant faoliyati bosqichlari:

1. Salomlashuv va murojaat bosqichi.
2. Tanishuv bosqichi.
3. Daromad bosqichi.
4. Muddao bosqichi.
5. Xotima yoki xayrlashuv bosqichi.

2. Adresat faoliyati bosqichlari:

1. Tinglash bosqichi.
2. Munosabat bildirish bosqichi.¹¹

S.Mo‘minov fikricha, yuzma-yuz muloqot odatda salomlashuvdan boshlanadi. Bir qarashda oddiygina ko‘ringan salomlashish muloqot jarayonida juda katta psixologik vazifa bajaradi. Kishilar bir-birlari, ayniqsa, notanish kishilar bilan muloqotga kirishar ekan, suhbatdoshlari bilan tanishib, ularni atroflicha o‘rganib olishga harakat qiladilar. Daromad esa muloqotda suhbatdoshning biror maqsadni anglatishi uchun gapni uzoqdan boshlashni ifodalaydi. Muddao suhbatning mag‘zi hisoblanadi va asosiy fikr suhbatning ana shu qismida bildiriladi. Daromad qilinganidan keyin aytiladgan *xullas kalom, gapning qisqasi, gapning po‘s kallasi shu, gap bunday* kabi jumlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri suhbatdoshlarni asosiy xulosani aytish bosqichiga olib kiradi. Muloqot xotimasi o‘zbeklar milliy madaniyatining yana bir ko‘rsatkichi sanaladi: *xayr, omon bo‘ling, sog‘ bo‘ling, salom ayting, keling, so‘rab turing, duo qiling* kabi. Bundan tashqari, xayrlashuv jarayonida qo‘llaniladigan til birliklari gender xususiyatlarga ham ega.

Suhbatni tinglay olish ham inson madaniyatining bir ko‘rinishidir. Buning uchun chidam va sabr-toqat zarur. Tinglayotgan kishi o‘zaro suhbatning go‘yo faol ishtirokchisi emasday tuyulsa-da, aslida bunday emas. U ham gapirayotgan kishining fikriga botinan munosabat bildirib boradi, binobarin, jarayonning faol ishtirokchisi sanaladi. Shuning uchun ham, S.Mo‘minov fikricha, tinglashni bilish muloqot aktlarining eng qiyin aspektlaridan biridir.

Munosabat bildirish esa undan ham mas’uliyatli bosqichdir. Tinglovchi so‘zlovchining fikriga qo‘shilishi ham, qo‘shilmasligi ham mumkin, albatta. Qo‘shilsa, yaxshi. Ammo qo‘shilmasa, o‘z fikrini bayon etish oson kechmaydi. S.Mo‘minov quyidagilarni yozgan: «Bunda lisoniy vositalar ancha faollashadi va *xo‘p, bo‘pti, mayli, mayliga, yo‘q, o‘zingiz bilasiz, ixtiyoringiz, mutlaqo, hecham, men*

¹¹ Мўминов С. Ко‘rsatilgan dissertatsiya -B.46.

qayerdan bilay, gapingizga qo'shilaman (qo'shilmayman), roziman, mutlaqo rozi emasman kabi soʻz, soʻz birikmalari keng qoʻllanishligi bilan xarakterlanadi». ¹²

Nutqiy kommunikatsiya jarayonida ishirok etadigan bu kabi lingvistik va ekstralingvistik omillar muloqot madaniyati va sifatini belgilab beradigan omillar sanaladiki, jarayon davomida ularning har birini eʼtibordan qochirmaslik zarur boʻladi.

Xullas, **nutqning kommunikativ sifati** – matnning hamma aspektini qamrab oladigan parametrlardir. Ularning oʻzaro munosabati va matnda paydo boʻlish darajasi ifodaning janr va uslublariga, kommunikantlarning individual xususiyatlariga bogʻliq. Bu sifat nutqning kommunikatsiya samaradorligini taʼminlovchi va soʻzlovchining nutqiy madaniyat saviyasini xarakterlovchi xususiyatidir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. *Nutqiy kommunikatsiya* deganda nimani tushunasiz?
2. *Adresant va adresat* tushunchalarini izohlang.
3. Nutq madaniyati zamonaviy konsepsiyasining uch aspektini tushuntirib bering.
4. Muloqotning yozma va ogʻzaki shakllari oʻrtasida qanday farqlar bor?
5. Monologik va dialogik nutqqa muloqot prinsiplari nutqayi nazardan baho bering.
6. Muloqotning onlayn rejimi haqida tasavvuringiz qanday?
7. Muloqotda milliylik va gender xususiyatlarning ifodasi haqida soʻzlang.
8. Muloqotda salomlashishning oʻrnini belgilang.
9. Muloqotning kompozitsion bosqichlarini sanang.
10. Muloqot jarayonida lingvistik va ekstralingvistik omillarning ahamiyati nimada?

¹² Мўминов С. Koʻrsatilgan dissertatsiya -B.60.

O'ZBEK NUTQI MADANIYATINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Nutq haqidagi ta'limotning mohiyati.
2. Nutqning to'g'riligi.
3. Nutqning aniqligi.
4. Nutqning mantiqiyliigi.
5. Nutqning tozaligi.
6. Nutqning ta'sirchanligi.

Tayanch so'z va iboralar: *nutq matnning tashqi ko'rinishi, namunaviy nutq, nutq oldiga qo'yiladigan talablar, to'g'rilik, mantiqiylik, chiroylilik, yorqinlik, ta'sirchanlik, jozibadorlik, obrazlilik, ortologiya, notiqlik san'ati, har bir xususiyatga xos fonetik, leksik, grammatik jihatlar, urg'u, morfologik va sintaktik chalkashliklar, ta'sir, ruhiyat, tildan tashqari omil, mavzu, muvofiqlik, ruhiy vaziyat, auditoriya, bilim, savodxonlik, samimiyat, e'tibor, subyektiv mulohaza, nutq rejasi, nutqiy mashq.*

1. Nutq haqidagi ta'limotning mohiyati.

Nutq so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko'rinishi bo'lib, u faqatgina tilga bog'liq hodisa sanalmasdan, ham ruhiy, ham estetik hodisadir. Shuning uchun unga namunaviy nutq sifatida baho berilganda tinglovchi va kitobxonga ko'zda tutilgan maqsadning, aytilmoqchi bo'lgan muddaoning to'liq yetib borishi, ularga ma'lum ta'sir o'tkazishi nazarda tutiladi hamda bu vazifalarning amalga oshirilishida nutq oldiga ayrim talablar qo'yiladi. Bu talablar grammatik jihatdan nutqning to'g'ri bo'lishini, so'zlar ko'zlangan ma'noni aniq aks ettirishini, chiroyli, yorqin va ta'sirchan bo'lishini taqozo qiladiki, ular nutqning asosiy xususiyatlari sifatida qaraladi. Nutq haqidagi ta'limot – **ortologiya** ana shu sifatlarni o'rganish bilan shug'ullanadi.

Nutq qanday shaklda bo'lishidan qat'i nazar, uning o'quvchi yoki tinglovchi tomonidan qabul qilinishi uchun u suhbatdoshlarning muloqot sharoitlari va kommunikativ vazifaga mos kelishi, maqsadga muvofiq bo'lishi zarur. Nutqning kommunikativ sifatini baholashda ana shunday yondashuv kerak bo'ladi. Nutqning asosiy xususiyatlari deyilganda uning kommunikativ sifatlari tushuniladi.

Agar nutq ma'lum vaziyat va shart-sharoitlarda amalga oshirilishi nazarga olinsa, bunda joy, vaqt, mavzu va muloqot jarayonining maqsadi kabi omillar katta ahamiyatga ega bo'ladi. **Nutqning kommunikativ sifati** deganda to'g'rilik, xilma-xillik, tozalik, aniqlik, mantiqiylik, tasviriylilik, maqsadga muvofiqlik, tushunarlik, faollik kabilar nazarda tutiladi. To'g'rilik, xilma-xillik, tozalik **nutq tuzilishining**, aniqlik, mantiqiylik, tasviriylilik, maqsadga muvofiqlik, tushunarlik, faollik **nutq funksionalligining kommunikativ sifati** sanaladi. Quyida ular haqida qisqacha ma'lumotlar beriladi.

2.Nutqning to'g'riligi.

Nutqning **to'g'ri** bo'lishi uning bosh kommunikativ xususiyati hisoblanadi. Nutqning to'g'ri tuzilgan bo'lishi tomonlarning – adresant va adresatning, yozuvchi va o'quvchining bir-birlarini tez va oson tushunishlarini ta'minlaydi.

Agar nutq to'g'ri bo'lmasa, u aniq ham, maqsadga muvofiq ham, mantiqiy ham bo'lmaydi. «To'g'rilik deganda, – deb yozadi V.G.Kostomarov, – nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma'lum paytda qabul qilingan me'yorining qat'iy va aniq muvofiq kelishini, uning talaffuz, orfografik, lug'at va grammatik me'yorlarini egallashni tushunish lozim bo'ladi».¹

Nutqning to'g'ri bo'lishi asosan ikki me'yorga – urg'u va grammatik me'yorga amal qilishni taqozo qiladi. Masalan, o'zbek tilida u, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi: *uy – uyi' – uyimi'z – uyimizda' – uyimizdagi' – uyimizdagila'r – uyimizdagilarda'n* kabi. Urg'u ba'zan so'zdagi ma'noning reallashuviga ko'maklashadi, ya'ni *o'lma* tarzida urg'u birinchi bo'g'inga tushganda harakat, *olma'* tarzida oxirgi bo'g'inga tushganda esa mevaning bir turi ma'nosi anglashiladi. Yana: *qatla'ma – qatlama', ho'zir – hozi'r, yigitcha' – yigi'tcha, o'quvchi'miz – o'quvchimi'z, ya'ngi – yangi'* kabi. Demak, urg'uning so'zlardagi qaysi bo'g'inlarga tushishi qarab ma'no farqlanadi. Shu holat gaplar doirasida ham kuzatiladi: **men** choy ichdim (boshqa kishi emas), *men choy* ichdim (boshqa narsani emas), *men choy ichdim* (ichmadim emas). So'z urg'usini to'g'ri ishlata bilmaslik ma'noning buzilishiga olib keladi: *Onasiz bola o'ynamas: Onasiz bola o'ynamas* – onasi yonida bo'lmagan bola o'ynamaydi; *Onasiz bola o'ynamas* – onasi yo'q bola o'ynamaydi.

¹ Костомаров В.Г. Культура речи и стил. – М.,1960. -С.24.

Demak, nutqning to'g'ri ifodalanishi uchun gap tuzish qoidalarini o'zlashtirish, o'zak va qo'shimchalar o'rtasidagi munosabatlarni, ega-kesim mosligini, ikkinchi darajali bo'laklarning ularga bog'lanish yo'llarini yaxshi anglash lozim bo'ladi.

Nutq jarayonida morfologik va sintaktik chalkashliklar tez-tez uchrab turadi. Abdulla Qahhor bu holatdan «San'atkor» hikoyasida asar qahramonining savodsizligini fosh etishda foydalangan: *Pojarni gurgutni yerga tashlamang dedi, rejessyorimiz esa gugurtning yerga tashamang dedi. Qanday chiroylik! Pojarnimi, Pojarningmi? Shoshma, nima uchun pojarni? Pojarni, albatta!* Kichkina bir parchada nutqiy buzilishlar anchagina: *gugurtni-gurgutni-gurgutning, tashlamang-tashamang, chiroyli-chiroylik, pojarniy-pojarni-pojarning* kabi.

Nutqda sifat yasovchi *-li* va ot yasovchi *-lik* qo'shimchalari ham ba'zan farqlanmayapti: *xorazmlik paxtakorlar – xorazmli paxtakorlar yoki guruchli ovqat – guruchlik ovqat* kabi.

Fe'llarga qo'shib, orttirma daraja hosil qiluvchi *-kaz* va *-qaz* qo'shimchalari ham og'zaki nutqda ko'pincha farqlanmayapti: *elektr liniyalari o'tkazish – daraxt ko'chatlari o'tqazish* kabi.

Ma'noning to'g'ri, maqsadga muvofiq ifoda etilishida **ohangning** ham xizmati katta. So'zlarga qaysi yo'sinda urg'u berilishiga qarab ma'no ottentaklari o'zgarib borishi mumkin. Masalan, nutq jarayonida *keling* so'zidagi *samimiyat*, *piching*, *masxaralash*, *norozilik* kabi ottentaklar faqat ohang yordamidagina reallashadi.

Xullas, ona tili xazinasidan kerakli grammatik shakllarni tanlash va ularni joy-joyida ishlatish, nutqni to'g'ri tuzishga erishish, har bir til birligini o'rniga qo'yib talaffuz qilish nutq madaniyatining asosiy talablaridan sanaladi.

3.Nutqning aniqligi.

Aniqlik ham nutqning asosiy kommunikativ sifatlaridan biridir. Agar to'g'rilik nutqning yuzaga kelishida faqat til omili, zaruriy belgisi sifatida qaralsa, nutqning aniqligi deyilganda uning shakllanishiga xizmat qiladigan, tildan tashqarida bo'lgan omillarni ham nazarda tutish lozim bo'ladi. Bunda dastlab til va tafakkur munosabati turadi. Chunki, tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi mutanosiblik va uning nutqda aks etishi ana shu aniqlikning xuddi o'zidir.

Tabiat va jamiyatdagi turli voqea-hodisalar, predmetlar, olamning jug'rofiy tuzilishi, kishilarning his-tuyg'ulari, harakat va holatlari har

bir tilda o'z atamasiga – nomiga ega. Ana shu atamalar yordamida bu hodisalar inson tomonidan anglanadi, tushuniladi, idrok qilinadi va fikr almashinadi. Shuning uchun ham, nutq oldiga u aniq bo'lishi kerak deb talab qo'yilganda til birligi hamda u ifodalayotgan tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi muvofiqlik tushuniladi. Masalaga shu talablardan kelib chiqib yondashiladigan bo'lsa, nutq aniqligi nutq madaniyati va mas'uliyatining g'oyat zarur sharti bo'lib qoladi.

Bu jihatdan A.Qahhorning ijodi va til mahorati haqidagi mulohazalari diqqatga sazovordir. Ma'ruf Hakimning «Qahramonning o'limi» hikoyasini tahlil qilgan yozuvchi *Botir beliga qator beshta bomba qistirib..., Qo'lida bomba ushlagan holda ko'chaga yugurdi* jumllaridagi *bomba* so'zining noto'g'ri qo'llanganligini, yozuvchining *bomba* va *granatani* farqlamasligini tanqid qiladi.

A.Qahhor yozadi: «Uchrashuv»da (M.Hakim) mana bunday yolg'on gap bor: «*Ahmad osmonga qaradi. Haqiqatan ko'kni bulut bosgan. Bironta ham yulduz yo'q edi!*» Shundan besh satr pastda: «*Ahmad osmonga nazar tashladi. Haqiqatan uzoq ufqdan chiqib kelayotgan bulutlarning ko'rinishi xunuk edi*». Uzoq ufqdan chiqib kelayotgan bulutlarni ko'rish uchun havo qisman bo'lsa ham ochiq bo'lishi kerak. Bu yerda yo «ko'kni bulut bosgan»i, bironta ham yulduz yo'qligi yolg'on yoki «uzoq ufqdan chiqib kelayotgan bulutlar» to'g'risidagi gap behuda».²

Ko'rinadiki, aniqlik nutqning asosiy xususiyati sifatida, eng avvalo, til tizimidagi leksik daraja bilan bog'lanadi. «Nutq aniqligi» atamasi ostida voqelik va uning tildagi ifodasi bo'lgan leksik birlik – so'zlar o'rtasidagi o'zaro muvofiqlik anglashiladi.

Xo'sh, qaysi til birligi namunaviy nutqning yaratilishiga ko'proq xizmat qiladi? Bu savolga sinonimlar, deb javob berish ma'qul bo'ladi. Chunki ular mazmunan bir-birlariga yaqin bo'lsa ham, ma'no qirralariga ko'ra farqlanadi. Ana shu qirralardagi farqlar ularni tanlab ishlatish imkoniyatini beradi. Masalan, *aniq, ochiq, yaqqol, ravshan, yorqin, oydin, ayon* sinonimlarini olib ko'raylik. Garchi ular umumiy ma'noda bir sinonimik qatorni tashkil qilishsa ham, birining o'rnida ikkinchisini qo'llash hamma vaqt mumkin bo'lavermaydi. *Aniq eshitdim* deyish to'g'ri bo'lgani holda *oydin eshitdim* deyish mumkin emas, *hamma narsa ayon, hamma narsa ravshan, hamma narsa aniq, hamma narsa oydin* deyish mumkin bo'lgani holda *hamma narsa yorqin* deb bo'lmaydi. Chunki asosan *aniq* eshitishga, *ochiq* va *oydin*

² Qahhor A. Ёшлар билан суҳбат. – Тошкент, «Ёш гвардия», 1968. -Б.44-46.

tushunishga, *yaqqol* va *yorqin* ko‘rish va eshitishga, *ravshan* ko‘rish va tushunishga xos.³

Bu kabi ma’no nozikliklarini payqamaslik ifodada g‘alizlikni keltirib chiqaradi: *katta* va *uzun*, *qadam qo‘ymoq* va *qadam tashlamoq* juftliklarini olib qaraylik: *Bo‘yi mendan kattaroq*, *o‘zi sap-sariq* (O‘.Hoshimov). To‘g‘risi: *Bo‘yi mendan balandroq*, *Bo‘yi mendan uzunroq* kabi.

Yana: *Mustaqil hayotga qadam tashlayotgan yoshlarimiz nikohdan o‘tishganlaridan keyin qishloq markazidagi yodgorlik poyiga hurmat-ehtirom bilan gulchambarlar qo‘yadilar* («Sharq tongi» gazetasi). To‘g‘risi: *qadam qo‘ymoq*. Chunki *qadam qo‘ymoqda* harakatni endi boshlash ma’nosi mavjud, *qadam tashlamoq* esa harakatdagi bu chegarani ko‘rsata olmaydi.

So‘zlar ma’nosidagi nozikliklarni payqamaslik fikrning noaniq, ba’zan noto‘g‘ri ifodalanishiga olib kelishi mumkin: *Shahar bilan qishloq o‘rtasidagi tafovut tobora qisqarayotir* («Guliston» jurnali) misolida *qisqarayotir* so‘zi maqsadni aniq ifoda eta olmaydi. Chunki bu so‘z odatda uzunlik o‘lchoviga aloqador. Tafovut esa mavhum tushuncha bo‘lib, unga nisbatan *kamaymoq* so‘zini qo‘llash ma’quldir.

Aniqlikni vazifaviy uslublar doirasida tushunish ham o‘ziga xos. Masalan u so‘zlashuv uslubida vaziyatga bog‘liq bo‘ladi. Rasmiy uslubda esa u tildagi tayyor, shtamp holidagi so‘z va iboralardan foydalanishni taqozo qiladi. Ilmiy uslubda atama va uning ifodalanish aniqligi asosiy o‘rinda turadi. Ommabop va badiiy uslublarda esa so‘z va iboralar faqatgina badiiy-estetik vazifani bajarishdan tashqari yozuvchining maslagi, g‘oyaviy maqsadiga mos bo‘lishi va shunga xizmat qilishi lozim bo‘ladi.

Ana shu sabablarga ko‘ra so‘z qo‘llash aniqligining chegarasini belgilash birmuncha murakkab ish bo‘lib, u tilni yaxshi bilishni va uning vazifaviy uslublar doirasida qo‘llanish imkoniyatlarini o‘rganishni taqozo qiladi.

4.Nutqning mantiqiyligi.

Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlari – to‘g‘rilik va aniqlik bilan chambarchas bog‘langandir. Chunki grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifoda etish uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan leksik birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir.

³ Ҳоҷиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 1974. -Б.30.

Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o'quvchiga ifodalanayotgan fikrning to'liq borib yetmasligiga, ba'zan umuman anglashilmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Nutqni shakllantirishdagi e'tiborsizlik oqibatida ba'zan mantiqsizlik ham yuz beradi: *Ferma jonkuyarlari olti oylik davlatga sut sotish planlarini muddatdan oldin bajardilar* (gazetadan). Gapda so'zlarning tartibi to'g'ri bo'lmaganligi, olti oylik birikmasining davlat so'zidan keyin kelmaganligi tufayli mantiqqa putur yetyapti, fikrni bayon qilishda xatolik yuz beryapti.

Nutqning mantiqiy bo'lishi so'zlovchi yoki yozuvchining tafakkur qobiliyati bilan bog'liq. Shuning uchun mantiqiylik faqatgina til hodisasi sanalmasdan, tildan tashqarida bo'lgan omil sifatida ham qaraladi.

«Nutq madaniyati asoslari» asari muallifi B.N.Golovin mantiqiylikni ikki guruhga bo'lib – predmet va tushuncha mantiqiyligi tarzida o'rganishni tavsiya etgan edi. Predmet mantiqiyligi nutqdagi til elementlari bilan real voqelikdagi predmet va hodisalarning mazmuniy aloqasi hamda munosabatidir. Tushuncha mantiqiyligi esa nutqda mantiqiy tafakkur qurilishi va uning til elementlari semantik aloqadorligida mantiqiy rivojlanishning aks etishidir, deydi u.⁴

Ko'rinadiki, so'zlarning o'zi ifodalayotgan predmet va hodisalarga mos ravishda fikrni aniq ifodalashi predmet mantiqiyligi bo'lsa, so'z birikmalarining, gaplarning, abzaslarning, hatto butun-butun matnlarning bir-biriga mosligi, fikrni izchil davom ettirishga bo'ysundirilishi tushuncha mantiqiyligidir. Tushuncha mantiqiyligi haqida aytilgan fikrdan xulosa chiqarish mumkinki, nutq mantiqiyligining asosiy lingvistik sharti – leksik-semantik va sintaktik me'yorga amal qilishdir.

Mana bu misolda *kuy* va *raqs* so'zlarining diktor tomonidan uyg'un tarzda qo'llanib yuborilishi mantiqning buzilishiga olib kelgan: *Endi kuy va raqslar tinglab, dam oling* (Televideniye'dan). Kuyni tinglash mumkin, ammo raqsni-chi? Ba'zan esa so'zlar tushirib qoldiriladi: *22-maktab bufetchisi Toji Ibrohimov bir kitobga 5 tiyindan qo'yib sotmoqda* («Mushtum» jurnali). Kitobgami yoki kitobning narxigami?

Gapda so'zlar va birikmalar tartibining ham nutq mantiqiyligida ahamiyati katta. Masalan, *Suratga olingan akula quruqlikdagi sut emizuvchilarga o'xshab, tuxum qo'ymaydi, balki tirik bola tug'adi*. Ifoda aniqligi nuqtayi nazaridan gap *Suratga olingan akula tuxum*

⁴ Головин Б.Н. Ko'rsatilgan asar. -B.145.

qo'ymaydi, balki quruqlikdagi sut emizuvchilarga o'xshab tirik bola tug'adi tarzida tuzilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ko'r-ko'rona qilingan tarjimalar ham kulgili holatni yuzaga keltiradi: **Erkak paypoqlar** narxi 30 foizga arzonlashdi («Mushtum» jurnali). *Bugun Toshkentda nol daraja issiq bo'ladi* («Mushtum» jurnali).

Mantiq talabiga ko'ra nutqda gaplar o'rtasida izchillik bo'lishi, ularning birida bayon etilgan fikr ikkinchisida davom ettirilishi lozim bo'ladi. Bu hol ma'lum bir fikrning tugashiga qadar davom etishi kerak. Gaplar o'rtasida fikriy izchillik yo'qolishi bilan mantiqiylikka ham putur yetishi mumkin. A.Qahhorning «Adabiyot muallimi» hikoyasidagi qahramon – «nafis adabiyot muallimi» Boqijon Baqoyevning nutqi bu o'rinda xarakterli misol bo'la oladi: – *Chexovmi? Himm...burjuaziya realizmi to'g'risida so'zlaganda eng avval uning obyektiga diqqat qilish kerak. Burjuaziya realistlari tushungan, ular aks ettirgan obyektiv voqelikni anglash lozim bo'ladi. Turgan gapki, Chexovning ijodi boshdan-oyoq, butun mohiyati bilan ilk burjuaziya realizmi, ya'ni...himm. Mukarram, tovuqqa moyak qo'ydingmi? Qo'yish kerak, bo'lmasa daydi bo'lib ketadi... Tavba, tovuqdan ahmoq jonivor yo'q – moyak qo'ysang tug'adi! Nima uchun moyak qo'ysang tug'adi? Xo'roz nima uchun saharda qichqiradi? Ajoyib psixologiya! Biologiya o'qiysizlarmi?* Yozuvchi ana shunday nutq yordamida badiiy xarakter yaratadi.

Matndagi abzaslar o'rtasida ham mantiqiy bog'lanish bo'lishi zarur. Odatda ma'lum bir fikr tugab, ikkinchisi boshlangan joyda ular abzas bilan ajratiladi. Bu yerda fikr tugalligi deganda yaxlit fikr nazarda tutiladi va abzas umumiy matn mazmunining bir qismi sanaladi. Tilda abzaslarni bir-biriga bog'laydigan *ko'rinadiki, demak, xulosa qilganimizda, shuni alohida ta'kidlash kerakki, yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, boshqacha qilib aytganda, xullas* singari so'z va birikmalar mavjud. Ustozimiz, adabiyotshunos olim prof. Jo'ra Hojimatov ma'ruzalarida *bugina emas* bog'lamasini ko'p qo'llar edilar.

Tushuncha mantiqiyligi vazifaviy uslublarda, xususan ilmiy va badiiy nutq uslublarida o'ziga xos tarzda kechadi. Ilmiy uslubda yozilgan asarlar yaxlit bir qurilishga ega. Badiiy nutq qurilishi esa biroz boshqacha. Aytaylik, fikrlar bir maromda bayon etib kelinadi-yu, birdaniga uzilish yuz beradi va endi boshqa voqealar hikoya qilinib ketiladi. Bu narsa go'yo mantiqiy izchillikka putur yetkazganday ko'rinsa-da, aslida unday emas. Badiiy asarlarda, xususan, qissa, roman kabi janrlardagi keng ko'lamlilik tasvir kompozitsiyasini ana shunday

tuzishni taqozo qiladi. Mantiqqa putur yetmaganligi bunday asarlarning oxirida ma'lum bo'ladi.

Alohida olingan so'zlar o'rtasidagi logik-grammatik munosabatda ham izchillik buzilganday bo'lishi mumkin: *qayg'uli quvonch, ojiz jasorat, totli azob, buyuk ahmoqlik* kabi. Birikma tarkibidagi ma'nosi zid so'zlarning har birining ma'nosi saqlab qolingan holda yangi bir matniy ma'no kelib chiqadi va ular badiiy san'atlar doirasida *oksyumoron* deb ataladi.

Darhaqiqat, namunaviy nutq oldiga qo'yiladigan muhim talab uning **mantiqiyligidir**. Bu sifat nutqning aniq, ravon va izchil bo'lishiga olib keladi. Bu yerda bir necha qonuniyatlar amal qiladi. Masalan, **ayniyat qonuniyati**. Nutq predmeti hech qachon o'zgarmasdan qolishi, ba'zi bir chekinishlar bo'lganda ham, u hamisha diqqat markazida turishi lozim. Agar shunday qilinmasa, materialning g'oyasini ilg'ab bo'lmaydi.

Ikkinchisi, **ziddiyat qonuniyati**. Bir-biriga qarama-qarshi ikki fikr bir vaqtning o'zida haqiqat bo'lishi mumkin emas. Demak, nutqda mavzuga mos keladigan va biri ikkinchisining zidi bo'lmagan fikrlardan foydalanish zarur.

Uchinchisi, **yetarli darajada asoslash qonuniyati**. Nutqda aytilgan har bir fikr asoslanishi lozim. Agar shunday qilinmasa, u jiddiy qabul qilinmaydi. Dalillarni ikki guruhga bo'lish mumkin: ishga tayangan dalillar va insonga tayangan dalillar. Insonga tayangan dalillarni yana ikkiga bo'lish mumkin: martabali insonga tayangan dalillar va tinglovchiga tayangan dalillar. Shuningdek, rahm-shafqatni keltirishga tayangan dalillar ham bo'lishi mumkin. Shunday qilib, nutq dalil va isbotlarga tayangan, dalillar esa mavzuning mohiyatidan kelib chiqishi kerak.⁵

Xulosa qilganimizda, mantiqiy nutq deganda yaxlit bir tizim asosida shakllangan, fikrlar rivoji izchil bo'lgan, har bir so'z, ibora aniq, maqsadga muvofiq ravishda yuzaga keladigan nutqni tushunamiz.

5.Nutqning tozaligi.

Nutqning tozaligi deganda unda til elementlarining ishlatilishida adabiy til me'yorlariga amal qilish-qilmaslik tushuniladi. Yaxshi, namunaviy nutq hozirgi o'zbek adabiy tili talablariga mos holda shakllangan bo'lishi, turli g'ayriadabiy va g'ayriaxloqiy til elementlaridan xoli bo'lishi kerak.

⁵ <https://works.doklad.ru/view/apCxUcJrb34/3.html>

Bu masalaning til jihatida boʻlib, nutqiy tozalikning tildan tashqari – ekstralingvistik jihatlari ham undan kam boʻlmagan ahamiyatga ega. Chunki u boy maʼnaviy-axloqiy qadriyatlarga ega boʻlgan va bugun mustaqillik davrida yashab, dunyo hamjamiyati bilan teng mavqeda muloqotda boʻlayotgan oʻzbek xalqining madaniy darajasiga mos boʻlishi lozim.

Nutqimizning toza boʻlishiga xalaqit berayotgan lingvistik elementlar asosan **dialektizmlar** va **varvarizmlardir**.

Hammamiz uchun umumiy va majburiy boʻlgan adabiy tilimiz boʻla turib, shevada gapirish esa madaniyatsizlikning belgisidir. Ammo masalaning boshqa bir jihatida ham borki, dialektal soʻzlar adabiy tilimizning boyib borishiga, umumxalq tilidagi ayrim elementlarning saqlanib qolishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham dialektizimlar va adabiy til meʼyori doirasida meʼyorni belgilash tilimizdagi masʼuliyatli masalalardan biri sanaladi. Masalan, otning bolasi *qulun*, *toychoq*, *gʻoʻnan*, *doʻnan*, *pishti* deb atalishini, erkagi – *aygʻir*, urgʻochisi – *baytal*, tuqqani va boʻgʻozi – *biya*, qarisi *qirchangʻi* deyilishini hammamiz ham bilavermaymiz va nutqimizda qoʻllayvermaymiz. Bular aslida qoʻllasa boʻladigan soʻzlar.

Shevalarimizda shunday leksik birliklar mavjudki, ular adabiy tilimizga kirib ulgurmagan yoki shu holicha qolib ketgan. Masalan, yangi tuqqan sigirning sutidan tayyorlangan taomning *kilagay/gilagay/galagay*, yangi tuqqan qoʻy-echkining sutidan tayyorlangan taomning esa *qagʻanoq/qogʻonoq* deyilishi oʻzbek tili vakillarining hammasiga, jumladan, tilshunos-lugʻatshunoslarning barchasiga ham maʼlum boʻlmasligi mumkin. Shuning uchun ham «Oʻzbek tilining imlo lugʻati»ga bu soʻzlarning ikkinchisi kirgan, birinchisi kirmasdan qolgan. Aslida oʻzbeklarning chorvachilik bilan shugʻullanadigan qismi yoki uylarida sigir, qoʻy, echki saqlab, ularning sut-qatigʻidan foydalanadiganlari ana shu taomlarni tayyorlashadi va bu jarayon hozir ham davom etmoqda. Shunday ekan, bu soʻzlarni faqat sheva soʻzlari deb bir chetga surib qoʻyib boʻlmaydi va ular adabiy tilga kirishga haqli.

Kishilar nutqlarida oʻzlari bilib-bilmay yoki eʼtiborsizlik oqibatida boshqa til elementlaridan ham foydalanadilar. Boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirish, ulardan nutqda zaruriyatga koʻra foydalanish salbiy hodisa emas. Ammo bunday soʻzlar orasida varvarizm deb ataluvchi *nu*, *tak*, *vot*, *sovsem*, *voobshe*, *tolko*, *tolko tak*, *yestestvenno*, *obyazatelno*, *konechno*, *uje*, *pochti*, *tak chto*, *znachit*, *kak raz*, *neujeli*,

tem bolee, dokument, oformit qilmoq, organizovat qilmoq, prinimat qilmoq, razreshenie olmoq, podpis qo'ymoq, bo, akun, soni kabi so'zlarni qo'llash joiz emas. Ularning o'zbek tilida ekvivalentlari mavjud. Afsuski, biz ularni, ijtimoiy muhit ta'siridan bo'lsa kerak albatta, farqiga bormasdan ishlataveramiz, nutqimizni nazorat qilmaymiz. Shu tarzda leksik me'yor ham, nutq ham buziladi.

Tildagi **kanselyarizm** deb ataladigan rasmiy-idoraviy uslubga xos bo'lgan so'zlar ham nutqning tozaligiga hamisha xavf solib turadi. Ular rasmiy uslubda fikrni ixcham va mantiqiy ifodalashga juda qulay. Ilmiy uslubda ham tayyor jumlar, shablon iboralardan foydalaniladi. Ammo bunday so'z va iboralarni so'zlashuv va badiiy nutq uslubida ishlatish matnga putur yetkazishdan boshqa narsa emas. Bunga A.Qahhorning «Notiq» hikoyasi qahramonining tabiiylik va samimiyatdan xoli bo'lgan hamda shu yo'l bilan g'oyatda kuchli badiiy obrazni yuzaga keltirgan nutqi misol bo'la oladi.

Parazit so'zlar deb ataluvchi leksik birliklar ham til madaniyati uchun yotdir. Ular asosan so'zlashuv nutqida ko'p ishlatilib, notiqning o'z nutqini kuzatib bormasligi, e'tiborsizligi natijasida paydo bo'ladi va bora-bora odatga aylanib qoladi. Masalan, ayrim kishilar o'zlari sezmaganda *demak, xo'sh* kabi so'zlarni qaytaraverishga o'rganib qolganlar.

Vulgar so'zlarning uchrashi ham nutqimiz tozaligiga salbiy ta'sir qiladi. Og'zaki nutqda ba'zan uchrab qoladigan so'kinish, haqorat so'zlarni ishlatish axloq me'yorlariga, sharqona muomala madaniyatimizga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan ishdir.

Xullas, nutqimizning tozaligi uchun kurash undan foydalanuvchi har bir kishining vazifasi bo'lishi kerak. Ana shundagina umummilliy til madaniyati haqida gapirishimiz mumkin bo'ladi.

6.Nutqning ta'sirchanligi.

Nutqning ijro etilishida unga ma'lum bir voqea-hodisa haqida ma'lumot berishdan tashqari yana bir maqsad – tinglovchi ongiga va ruhiyatiga ta'sir etish vazifa qilib qo'yiladi. Shuning uchun ham ta'sirchanlik nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi hamda to'g'rilik va aniqlik ham, mantiqiylik va tozalik ham suhbatdoshga, tinglovchiga yoki o'quvchiga ta'sir etishga qaratilgan bo'ladi. Bu sanab o'tilgan xususiyatlarda til omillari birinchi o'rinda tursa, ularning barchasidan foydalangan holda ta'sirchanlik keng doirada tildan tashqaridagi omillarni ham qamrab oladi.

Bu tildan tashqaridagi omillar qaysilar? Eng avvalo, notiqning mavzu atrofida yetarli bilimga ega bo'lishi. Mavzuni yaxshi bilmagan notiqning ta'sirli nutq ijro etishi haqida gap bo'lishi ham mumkin emas. Shu bilan birga, nutq qaysi mavzuda bo'lishidan qat'i nazar u mustaqil respublikamizda bugun davlatimiz va Prezidentimiz olib borayotgan siyosatga mos kelishi, uni omma orasida targ'ib qilishga, yoshlar tarbiyasiga qaratilgan bo'lishi lozim.

Nutqning ta'sirchanligi deganda, asosan og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va shuning uchun uning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyatni e'tiborga olish ham muhim sanaladi. Ya'ni, notiq auditoriyani hisobga olishi – ularning bilim darajasidan yoshigacha, hatto nutq ijro etilayotgan paytdagi kayfiyatigacha kuzatib turilishi, nutqning tinglovchilar tomonidan qabul qilinishi nazorat qilib borilishi lozim bo'ladi. Malakali bilimga ega bo'lgan kishilar oldida jo'n, sodda tilda gapirish maqsadga muvofiq bo'lmagani kabi, oddiy, yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lmagan auditoriya oldida ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Xullas, notiqdan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi. Va butun diqqat-e'tibor ifodalamoqchi bo'lgan fikrni to'laligicha tinglovchilarga yetkazish vazifa qilib qo'yiladi.

Tinglovchining e'tiborini qozongan nutqgina ta'sirchan nutq hisoblanishi mumkin. Buning uchun, yuqorida ta'kidlanganidek, suhbat mavzusini yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq rejasi ham bo'lishi zarur. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o'zaro bog'lab, tinglovchilarga avval nutq rejasini tushuntirib, shundan keyingina gapni boshlash lozim.

So'zlovchining o'z nutqiga munosabati ham muhim. Shunday bo'lgandagina quruq rasmiyatchilikdan qochish mumkin bo'ladi. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasida samimiyat paydo bo'ladi. Notiq fikrlarini o'zi yoki auditoriyadagi kishilar hayotidan olingan misollar asosida isbotlashga harakat qilsa, mavzuga doir subyektiv mulohazalarini bildirsa, nutq yana ham ishonarli va ta'sirli chiqadi.

Tinglovchiga emotsional ta'sir o'tkazishga muvaffaq bo'lish esa notiqning yutug'i hisoblanadi. Bu haqda mashhur rus notig'i prof. V.O.Klyuchkovskiy shunday degan edi: «Jamoat orasida gapirganimizda tinglovchilarning qulog'iga, aqliga murojaat qilmang, shundoq gapiringki, ular sizni tinglab turib, so'zlaringizni eshitsin, predmetlarni siz bilan ko'rib, sizning holatingizga kirishsin.

Tinglovchilar sizning tasviringizsiz ham aqli, yuragi, fikri bilan shu predmetni yaxshiroq kuzatadi.

Nutqda fikrni rivojlantira borib, dastlab uning sxemasini tinglovchining aqliga yetkazish, keyin uning tasavvuriga yaqqol taqqoslarni taqdim etish kerak, nihoyat chiroyli lirik tasvirlar bilan ehtiyotkorona uni tinglovchining yuragiga jo qiling, o'shanda tinglovchi – asiringiz qochib ketmaydi, hatto siz uni erkin qo'yib yuborsangiz ham sizning abadiy itoatgo'y mijozingiz bo'lib qoladi».⁶

Nutqning tinglovchilarga qanday ta'sir qilishida va ularda qanday taassurot qoldirishida notiqning nutqiy jarayon davomida o'zini qanday tuta bilishi, jest va mimikalari, hatto kiyinishi kabi omillarning ham ahamiyati bor. Samimiylik, xushmuomalalik, odoblilik, auditoriyaga hurmat bilan qarash kabi fazilatlar nutqning tinglovchilar tomonidan e'tibor bilan tinglanishiga sabab bo'ladi.

Nutqning ta'sirchanligi, ifodaliligi haqidagi gap, ma'lum ma'noda, nutqning kommunikativ sifatlari haqida aytilgan mulohazalarga yakun yasashdir. Chunki yaxshi nutqning fazilatlarini ko'rsatib o'tish, nutqda uchraydigan ayrim tipik xatolarni tahlil qilish pirovard natijada ta'sirchan bir nutqni shakllantirishga xizmat qiladi.

Yuqorida namunaviy nutqning asosiy talablariga qisqacha to'xtalib o'tildi. Ulardan xulosa qilib aytish mumkinki, yaxshi nutq so'zlovchi va yozuvchidan savodxonlikni, katta mehnatni talab qiladigan murakkab jarayondir. Umuman, nutq aniq va ravon bo'lishi, grammatik jihatdan to'g'ri shakllangan bo'lishi va orfoepik talablar darajasida talaffuz etilishi, boshdan oxirigacha izchil bayon qilinishi lozim bo'ladi. Ana shunday nutqgina tinglovchi va o'quvchi qalbiga borib yetadi. Shunday nutqgina madaniy nutq talablariga javob beradi. Buning uchun esa yozuvchidan va omma oldiga chiqib nutq so'zlaydigan kishidan tinimsiz izlanish va o'z ustida ishlash, muttasil nutqiy mashq talab qilinadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. *Ortologiya* qanday ta'limot?
2. Nutq tuzilishi va nutq funksionalligi haqida gapirib bering.
3. *Nutqning to'g'riligi* deganda nimani tushunasiz?
4. Nutq aniqligi talablarini tushuntirib bering.

⁶ Ko'chirma quyudagi manbadan olindi: Разумова Л., Шаров В. Лектор нуткининг таъсирчанлиги. – Тошкент, 1973. -Б.21.

5. Nutqning mantiqiyligi tildan boshqa yana nimalarga bog‘liq?
6. O‘zbek tilining tozalik darajasini izohlang.
7. Tilning ta’sirchan vositalarini badiiy adabiyot matnidan olingan misollar asosida ko‘rsating.

NUTQ TEXNIKASI VA KINESIKA

Reja:

1. *Nutq texnikasi* tushunchasi.
2. Nutq texnikasi ko‘rinishlari.
3. Kinesika.

Tayanch so‘z va iboralar: *nutq, texnika, lingvistika, ekstralingvistika, mahorat, ta’limda nutq texnikasining o‘qitilishi, xushovozlik, me’yor, nutq texnikasining turlari, nutq apparati, artikulyasion tizim, jonli so‘z, nafas, ovoz, diksiya, orfoepiya, urg‘u, kinesika, noverbal vositalar, qadam tashlash, tananing holati, qo‘l va bosh harakatlari, mimika, yuzma-yuz muloqot, ijtimoiy tafakkur.*

1. Nutq texnikasi tushunchasi.

Nutq texnikasi masalasi antik davrlardayoq kun tartibiga qo‘yib kelingan. Buning sababi namunaviy, chiroyli nutqning shakllanishida nutq texnikasini puxta egallashning ahamiyati katta bo‘lganligi bilan izohlanadi.

Biz nutqni tahlil qilishda uning shakllanishidagi ikki omil – lingvistik va ekstralingvistik omillarni hisobga olishga odatlanganmiz. Va bu metodik jihatdan to‘g‘ri ham. Chunki dialektikada mazmun va shakl birligi va bunda mazmunning birlamchiligi inobatga olingani singari, nutqning yuzaga kelishida til birliklarining ishtiroki asosiy sanaladi.

Mukammal til bilimiga ega bo‘lgan notiq har bir so‘zga mas’uliyat bilan yondashadi, undagi har bir ma’no ottenkasini his qilgan holda qo‘llaydi. Yoki bo‘lmasin, so‘zdagi bu nozikliklarni yuzaga chiqarish uchun uning tovush tomoniga va grammatikasiga alohida e’tibor beradi. Mohir notiq tilidagi har bir so‘z chinakam ma’noda go‘zal va rang-barang ifodalar quroliga aylanadi.

Shuning bilan birgalikda, namunali nutq yuzaga kelishidagi bor mas’uliyatni til vositalari zimmasiga tashlab qo‘yib ham bo‘lmaydi. Nutqning mukammalligi va ta’sirli bo‘lishi uchun yordamchi vositalar ham kerak. Nutqiy faoliyatning ana shu ikkinchi qismini nutq texnikasi tashkil etadi.

Nutqda til materialining ishtirokini yuksak darajada ta’min etuvchi kishi notiq bo‘lgani kabi, uning texnik ta’minotini ham

notiqning o'zi qiladi. Mohir notiq nutqida bu ikki omil birlashadi: yuksak darajadagi nutq yuzaga keladi.

Bu nutq orqali notiqning dunyoqarashi, bilimi, irodasi, o'z fikrini ifodalay olish qobiliyati sinovdan o'tishi barobarida, uning notiqlik madaniyati ham namoyon bo'ladi. Nutq texnikasini yaxshi bilmagan notiqning esa bu sinovlardan o'tishi mushkuldir.

Afsuski, ko'p yillar davomida filologik ta'lim tizimidagi oliy o'quv yurtlarida nutq madaniyati muammolarini o'qitish jarayonida nutq texnikasiga umumiy tarzda munosabat bildirilib kelinayotgan va bu sohada talabalarga berayotgan bilimlarimiz nuqsonli edi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida shu narsa ayon bo'lib qoldiki, insonning mazmunli va chiroyli nutq so'zlashi hayotiy ehtiyoj ekan. Agar u siyosatchi, diplomat, rahbar, biznesmen, o'qituvchi-murabbiy, jurnalist, ulamo bo'lsa, notiqlik san'atini egallash hammadan ham ko'proq zarur ekan. Mana shuning uchun ham tilni mukammal bilish barobarida nutq texnikasini puxta egallash ham zaruratga aylandi.

Gapirish qobiliyati insonga Alloh tomonidan ato etilgan buyuk ne'matdir. Jamiyatda biron bir ijtimoiy-siyosiy yoki ma'naviy-ma'rifiy muammo yo'qki, tilning aralashuvisiz hal etilgan bo'lsin. U muloqot robitasi, axborot uzatish vositasi, tafakkur quroli bo'lgani uchun ham qadr-qimmatga ega. Chiroyli va ta'sirli nutq vositasiga aylangandan keyin esa bu daraja yana ham yuksak bo'ladi.¹

Muloqot jarayonida bunchalik muhim ekanligini ta'kidlayotganimiz nutq texnikasi nima va u kimlar uchun ko'proq kerak?

Nutq texnikasini bilish aslida hamma uchun zarur. Chunki u inson madaniyatining uzviy qismi sanaladi. Omma oldida chiqish qiluvchilarga esa yanada muhim. Qaddi-qomati kelishgan odamga chiroyli kiyim yarashgani kabi, mazmunli va ma'noli so'zlarga munosib xushovzlilik ham zarur. Ular birlashgan joyda hammaga manzur bo'ladigan nutq yuzaga keladi.

Xushovzlilik esa o'z-o'zidan yuzaga keladigan jarayon emas. Buning uchun ovoz paydo bo'lishida ishtirok etadigan nutqiy organlar ustida tinimsiz mashg'ulotlar olib borishga to'g'ri keladi.

Aytaylik, nutq texnikasi ustida ishlamagan yoki qanday ishlashni bilmagan odamning nutqi o'ta baland yoki past bo'ladi. Yoki bo'lmasin, chiyillagan ohangda gapiradi, havo tishining orasidan chiqib

¹ Морозова А. Техника речи. Москва; 2013. http://www.litres.ru/pages/biblio_book/?art=9022287&lfrom.

ketadi. Bu kabi noxushliklar nutq texnikasidan bexabarlik yoki unga e'tiborsizlik natijasida sodir bo'ladi. Bunday nutqni eshitish tinglovchi uchun qanchalik azob ekanligini tasavvur etish qiyin emas. Buning aksi o'laroq, nutq texnikasini yaxshi egallagan kishi uchun esa nutq so'zlash erkin va yengil kechadi.

Omma oldida jonli va jarangdor so'zdan foydalanish nutq texnikasi o'rta qo'yadigan birinchi talabdir. Bu so'zlarni qo'llashda talaffuz me'yorlarini saqlash ikkinchi talab bo'lib qoladi. Ana shular amalga oshirilsa, til kommunikatsiyasi jarayoni yengillashadi, nutqning mazmun tomoni ustuvor bo'ladi.

Shuning uchun ham, nutq texnikasi notiqlik san'ati haqidagi fanning tinimsiz mashqlar, talaffuz ko'nikmasini hosil qilish yo'lidagi muttasil amaliy faoliyat talab qilinadigan bo'limi sifatida o'rganiladi.

Nutq texnikasi talaffuzda nafasning ishtiroki, ovoz va burro gapirishni yo'lga qo'yish kabi qismlarni o'z ichiga oladi. Demak bu o'rinda ovozni hosil qiluvchi nutq apparatining faoliyati chuqur o'rganilishi va mukammal yo'lga qo'yilishi lozim bo'ladi.

Nutq apparati esa uch qismdan: nafas olishda ishtirok etadigan nafaol (o'pka, bronx, traxeya) va faol (diafragma, qorin pressi) hamda ovoz paydo qiluvchi (tomoq, ovoz pardalari, og'iz, burun) organlardan iborat. Til, lablar, tishlar, pastki jag' kabilar artikulyatsion tizim sanaladi. Bu tizimning barcha qismlari to'g'ri va o'zaro uyg'unlikda ishlasa, ovoz sifatli va jarangdor bo'ladi. Nafas olish esa, ovozni quvvatlantiruvchi manbadir.

Nutq hosil bo'lishida ishtirok etadigan bu kabi fiziologik omillar notiqlik san'ati va nutq madaniyati doirasida nutq texnikasi vositalari sifatida o'rganiladi.

2. Nutq texnikasi ko'rinishlari.

Notiqlik san'atida jonli so'z asosiy qurol va harakatlanuvchi kuch bo'lib qolishini unutmagan holda ana shu imkoniyatning yuzaga chiqishida xizmati juda katta bo'ladigan nutq texnikasini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Notiq nimani gapirishdan tashqari qanday gapirishni ham bilishi zarur. Agar shunday qilinmasa, tinglovchining hissiyotiga ta'sir o'tkazib bo'lmaydi.

Mutaxassislar nutq texnikasini amaliy soha sifatida qaraydilar va uning to'rt asosiy bo'limi – nafas, ovoz, diksiya va orfoepiyani sanab

o‘tadilar.² Mualliflarning ta’kidlashicha, nutq texnikasini o‘rganishga kirishishdan oldin tayyorgarlik bosqichini o‘tash ham kerak bo‘ladi. Gigienik va tebrantiruvchi massaj, muskullarni bo‘shashtiruvchi va autogen mashqlar bajarish ana shu bosqichda amalga oshiriladi va bular yaxlit fiziologik jarayon bo‘lgani uchun mashqlar kompleks bajarilishi lozim bo‘ladi. Bu jarayonlar miyadan boshqarilish orqali so‘zlar tizimi hosil qilinadi va gapning grammatik tuzilishi ta’minlanadi. Bunda so‘zning ma’nosi asosiy omil sanaladi.

Quyida nutq texnikasi bu ko‘rinishlari haqida so‘z yuritiladi.

Nafas. Nafas olish va chiqarish aslida biologik jarayon. Lug‘atlarda unga quydagi izohlar berilgan: «*Nafas*. Uzluksiz biologik jarayon, ya’ni o‘pkaga olinadigan va undan chiqariladigan havo; dam, tin. *Nafas yo‘llari*. Odam va hayvonlarda havo o‘tkazadigan a‘zolar».³ «*Nafas*. O‘pka bilan havo olish va chiqarish yoki (ba’zi jonivorlarda bu jarayon boshqacha kechishi mumkin) tirik organizm yordamida kislorod yutish va uglerod-oksidning ajralib chiqishi».⁴ «*Nafas*. Tirik organizmning kislorod yutish va uglerod gazini chiqarish jarayoni».⁵

Ayni paytda nafas fiziologik vazifani bajarishdan tashqari nutqning shakllanishida ham xizmat qiladigan asosiy vosita sanaladi. Nafas chiqarishsiz nutqni amalga oshirish mumkin emas. Jarangdor, nozik, chiroyli ovoz – bu hamisha nafas chiqarishdan to‘g‘ri foydalanish natijasidir. Nafas olish va chiqarish, bir tomondan, reflektor – tashqi ta’sirga beriluvchan, insonning aqliga bog‘liq bo‘lmagan jarayon. Shunday bo‘lsa-da, u nutq talaffuzida boshqarilishi zarur. Nutqiy ko‘nikmalarni hosil qilish u maxsus mashqlarni talab etadi.

Insonlarning oddiy turmush tarzi, toza havoda ko‘p yurishi, dala ishlari bilan shug‘ulanishi ovoz muskullari uchun tabiiy mashq vazifasini o‘taydi va nafas olish-chiqarish ritmi tabiiy bo‘ladi. Ammo ilmiy-texnika rivoji, ekologiya buzilishi va bu omillarga bog‘liq holda inson turmush tarzining o‘zgarishi nafas olish-chiqarish muskullarining tabiiy faoliyatiga jiddiy xalal bermoqda va bu organlar zaiflashib bormoqda. Buning ustiga, aqliy mehnat, yopiq binolarda soatlab o‘tirish, stolga mixlanish insonning jismoniy rivojiga,

² Николская С.Т. Техника речи (Методические рекомендации и упражнения для лекторов.) – М.: «Знание», 1978.; Харитонов В. Техника речи. Электронная библиотека. Royallib.ru. Морозова А. Техника речи. Москва; 2013. http://www.litres.ru/pages/biblio_book/?art=9022287&from

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Учинчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. -Б.24.

⁴ Кузнецов С. Большой толковый словарь русского языка. – Санкт-Петербург, 2000. -С.292

⁵ Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. Электронная библиотека Royallib.Ru. - С.406

binobarin, nafas olish organlarining sog'lom bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tabiiy-ijtimoiy omillar inson organizmidagi biologik o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Insonning bu fiziologik jarayonlarga ko'nikishi qiyin kechib, organizm bosim bilan ishlamoqda. Shuning uchun organizmga sun'iy yordam berish kerak bo'ladi. Bu o'qituvchilar, notiqlik san'ati bilan shug'ullanadigan uchun ayniqsa muhimdir.

Tadqiqotchilar nafas olish-chiqarishning to'rt tipi haqida mulohaza yuritadilar: yelkadan nafas olish-chiqarish, ko'krakdan nafas olish-chiqarish, diafragmal nafas olish-chiqarish, diafragmal-qovurg'a orqali nafas olish-chiqarish.

Oddiy nafas olish-chiqarish beixtiyoriy bo'ladi. U inson organizmida havo almashishga xizmat qiladi. Nutqiy nafas olish-chiqarish esa odatdagi holatdan farq qiladi. Ovoz chiqarib nutq so'zlash katta hajmdagi havoni, uning to'planib turishini va tejamkorlik bilan ishlatishni talab qiladi. Bu jarayon butun nutq ijrosi davomida takrorlanib va miyadan boshqarilib turiladi. Faqat mashq yo'li bilan nutqiy nafas olish-chiqarish ko'nikmasi shakllanadi va tartibga keladi.

Artikulyatsion muskullar miyadan kelgan impuls ta'sirida qisqaradi va tovush tebranishlari nutq tovushiga aylanadi. Shuning uchun ham mashqlardan maqsad nutq jarayonida chiqarilayotgan havoning davomli bo'lishini va undan unumli, tejamli foydalanishni yo'lga qo'yishdan iborat.

Ovoz. «Ovoz. Gapirish, qichqirish, kuylash, sayrash paytida o'pkadan chiqayotgan havoning urilishi bilan tovush paychalarining tebranishidan hosil bo'ladigan tovush; sado, sas. *Ovoz pardalari*. Tovush hosil bo'lishida qatnashuvchi og'iz bo'shlig'idagi paychalar». «Ovoz. So'zlaganda, qichqirganda, kuylaganda ovoz paychalarining tebranishi natijasida paydo bo'ladigan, baland-pastligi va jarangdorligi bilan farq qiladigan tovush». «Ovoz. Ovoz paychalarining tebranishi natijasida paydo bo'ladigan tovushlar yig'indisi».⁶

Ovozning fiziologik hodisa sifatidagi ta'riflari shunday. Ammo turli nutqiy vaziyatlarda namunaviy va chiroyli nutqni yuzaga keltirish shartlarining bajarilishi ma'lum ma'noda ovozdan to'g'ri foydalanishga

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдди. Учинчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. -Б.79. Кузнецов С. Большой толковый словарь русского языка. – Санкт-Петербург, 2000. -С.216; Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. Электронная библиотека Royallib.Ru. -С.293.

bog‘liq. Ovozning boshqarilishi, fonatsion (tovush) nafas chiqarishning rivojlantirilishi bilan aniq talaffuz qilishga erishiladi.

Ma’ruza jarayonida, ayniqsa, u oxirlashib qolganida xirillash, tomoq qichishi, ovozning kuchsizlanishi kabi noxushliklar nafas chiqarish texnikasidan tejamli foydalana bilmaslik natijasidir. Bu vaziyatni faqat nutqiy texnikani takomillashtirish orqaligina to‘g‘rilasa bo‘ladi.

Nafas olish-chiqarishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish ovoz jarangdorligining fizik asosidir. Noto‘g‘ri nafas chiqarish ovozning jaranglab chiqishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, tovush jilolanishi buziladi. Diafragmal-qovurg‘a orqali nafas olish-chiqarish ko‘nikmasini hosil qilish va tovush kuchaytirgich asboblardan foydalanish orqali tovush sifatini yaxshilash, ovozni jarangdor qilish mumkin bo‘ladi.

Shuning uchun notiqlik san’ati bilan qiziquvchilarga ovozdan foydalanganda ovoz apparatini toliqtirmaslik, ovozni baland ko‘tarmaslik, tomoq qichishganda ham imkon boricha yo‘talmaslik, qaynoq yoki sovuq ichimliklarni iste’mol qilmaslik kabilar tavsiya etiladi.

Diksiya – aniq, ravshan, burro gapirish yaxshi nutqning birlamchi va asosiy shartidir. «*Diksiya*. Nutq, qo‘shiq va deklamatsiyada so‘z, bo‘g‘in va tovushlarni talaffuz etishning aniqlik darajasi». «*Diksiya*. Talaffuz, so‘zni, tovushni talaffuz qilish manerasi». «*Diksiya*. Talaffuz, nutq ijro etishda, kuylashda, deklamatsiyada so‘z va bo‘g‘inlarning talaffuz aniqligi darajasi».⁷

Talaffuzdagi beparvolik nutqni mujmal va tushunarsiz qiladi. Bu ayniqsa, oxirgi undosh tovushni «yeb qo‘yish», tovushning tishlar orasidan chiqib ketishi kabilarda namoyon bo‘ladi. Lablar harakatsizligi natijasida sirg‘aluvchi undoshlarning noaniq talaffuz qilinishi ham ta’sir qilishi mumkin. Tez gapirish natijasida ham ba’zan nutqni tushunib bo‘lmaydi. Silliqlik gapirishga o‘rganish kerak. Burro, dona-dona, chertib-chertib gapirishga o‘rganish nutq apparatini ijodiy jarayonga tayyorlaydi, nutqdagi hamma tovushlarni aniq talaffuz qilishga odatlantiradi, so‘zning ta’sirchan bo‘lishiga yordamlashadi.

Nutqiy jarayonda ishtirok etayotgan barcha muskullarning baravariga ishlashi har bir tovushni aniq va ravshan talaffuz qilishning

⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. -Б.612; Кузнецов С. Большой толковый словарь русского языка. – Санкт-Петербург, 2000. -С.259; Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. Электронная библиотека Royallib.Ru. -С.362.

asosi hisoblanadi. O'quv mashqlari nutq organilarining egiluvchanligi va harakatchanligini saqlashga imkon beradi.

Ravon gapirish mashqlariga nutqiy apparat muskullarini chiniqtirish, har bir unli va undoshni to'g'ri talaffuz qilish kabilar kiradi.

Orfoepiya tilshunoslikning to'g'ri talaffuz qilish qoidalarini o'rgatadigan sohasidir. Talaffuz me'yorlardan chekinish tinglovchilarning aytilayotgan gapni tushunishini qiyinlashtiradi. Og'zaki nutq hayotimizning barcha jabhalariga dadil kirib borayotgan bir paytda talaffuz me'yorlariga amal qilishga milliy madaniyatning muhim belgisi sifatida qaralmoqda.

A.Mamatov quyidagi mulohazalarni bayon qiladi: «Yoshlarning notiq bo'lishi shart emasdir (balki), lekin faqat fikrini, tushunchalarini to'g'ri, aniq iboralar bilan ifoda qilishlari zarur, chunki ona tilimizning sofligini saqlash har bir yosh avlodning sharaflı burchidir».² Xo'sh, buning uchun nima qilish kerak? «Bolalar nutqini o'stirish ishi maktabgacha tarbiya muassasalaridanoq boshlanishi kerak. Buning uchun maktabgacha tarbiya muassasalarida orfoepik qoidalaridan yaxshi xabardor mutaxassislar kichik va qiziqarli mashg'ulotlar olib borishlari zarur».³

Nutq texnikasi tizimida orfoepiya urg'u, alohida olingan tovushlar va tovush birikmalari talaffuzi me'yori, nutqning ohang-musiqiy qurilishi kabi qismlarni qamrab oladi. Afsuski, keyingi yillarda nutq texnikasini amaliyotda ko'rsatadigan, tilimizdagi fonetik jarayonlarni, o'zbekcha talaffuz me'yorlarini belgilab beradigan texnik vositalarni biz oliy ta'lim o'quv jarayonida ko'rgan emasmiz. Shuning uchun ham ko'p dialektli va shevali o'zbek tilining adabiy talaffuz me'yorlarini belgilab berish qiyin bo'lib qolyapti. Bu borada talabalarimizga bergan bilimlarimiz ham yuzaki, sayoz bo'lyapti.

Vaholanki, ular uchun eksperimental fonetika, uning asosiy quroli bo'lgan texnik vositalar ko'magida biz adabiy me'yor tarzida tavsiya etiladigan namunaviy nutq andozalarini berishimiz, har bir tovush tembri, amplitudalarini ko'rsatishimiz va shu asosda talabalarni mashq qildirishimiz, piravord natijada adabiy talaffuz me'yoriga

² Маматов А.Э. Ёш авлоднинг нутқий маданиятини тарбиялаш хусусида // Давлат тили ҳақидаги қонунни амалга оширишнинг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий конференцияси тезислари. - Навоий, 1993. -Б.7.

³ Асқарова М. Республика мактабларида она тили ўқитиши ва нутқ маданияти / Нутқ маданиятига оид масалалар. Илмий мақолалар тўплами. - Тошкент: Фан, 1973. -Б.75-76.

muvofiq keladigan uzus – nutqiy ko‘nikmalar hosil qilishga ko‘maklashishimiz lozim edi.

O‘zbek tili talaffuz me‘yorlarining asl namunasi o‘zbek teatr san’atida saqlanib qolingan. Boshqa joylar haqida bu gapni ishonch bilan aytib bo‘lmaydi.

3. Kinesika.

«Harakatlar tili» – bu til vositalariga tayanilmaydigan noverbal muloqotdir. Avstraliyalik mutaxassis A.Pizning tasdiqlashicha, so‘z yordamida 7%, tovush vositalari yordamida 38% axborot yetkazilsa, 38%i tana, yuz, gavdaning holati yordamida amalga oshiriladi. Raqamlarning qanchalik to‘g‘ri-noto‘g‘riligidan qat’i nazar o‘zaro suhbatda axborot uzatishning yarmidan ko‘pi noverbal muloqotga to‘g‘ri keladi.⁸

Bu noverbal vositalarni anglash nima uchun kerak? Chunki so‘z faktik material beradi, ammo hissiyotlarni berish imkoniyati yetarli bo‘lmaydi. Ana shunday paytda noverbal vositalar yordamga keladi. Noverbal muloqot spontan tarzda amalga oshadi. Bu jarayonda juda ham o‘ylab o‘tirilmagani uchun adresantga o‘z nutqini ham, harakatlarini ham doimiy nazorat qilib borishga amalda imkon bo‘lmaydi. Shu sababdan uning nima demoqchi ekanligi harakatlaridan ham bilinib turadi. Noverbal muloqotda tana harakati va ohang uyg‘unligi bo‘ladi. Bu harakat har bir insonda alohida tarzda kechadi va ko‘p qirrali bo‘ladi. Ruhiyatni tetiklashtiradi, emotsiyani yuzaga chiqaradi.

Muloqot jarayonida noverbal vositalarning ishtiroki so‘zlovchining hissiyotlari va suhbatdoshiga bo‘lgan munosabatning yuzaga chiqishiga faol ko‘maklashadi. Bu jarayonda noverballikning kinesika va tovush vositalari ishtirok etadi.

Kinesika – tananing inson emotsional ta’sirchanligini ifoda etuvchi harakatlari yig‘indisidir. Jest va mimikalarda namoyon bo‘ladigan ma’noli harakatlar kinesikaga tegishli bo‘ladi.

Kinesikaning quyidagi turlari bor:

-qadam tashlash – bu harakatlanishning har bir insonga xos uslubi. Ritm, qadam dinamikasi, harakat paytidagi tana amplitudasi (u yoki bu tomonga og‘ishi), tananing vazni qadam tashlashni belgilab beradi. Tana harakatiga qarab insonning holatini, fe’lini va yoshini bilish mumkin. Ruhshunoslar insonning yurishiga qarab, uning

⁸ <https://works.doklad.ru/view/fsFgJYCjOH8.html>.

kayfiyatini aniqlay oladilar. G‘azablangan yoki xafa odamning yurishi og‘ir, xursand bo‘lganlarniki esa yengil bo‘ladi. Xursand odam katta qadam tashlaydi, agar u ruhiy iztirobda bo‘lsa, yurishi ham unmaydi, qayoqqa qarab ketayotganini ham bilmaydi. O‘ziga ishongan odam to‘g‘ri yuradi, qadam tashlashi ko‘rkam, mag‘rur, boshi biroz yuqoriga ko‘tarilgan bo‘ladi.

-tananing holati. Tadqiqotchilarning qayd etishicha, inson tanasi mingdan ortiq holatlarda bo‘lishi va harakat-holatlar uning mavqeyini belgilab berishi, kimligini aytishi mumkin ekan. Tana harakati insonning suhbatdoshiga bo‘lgan ijobiy yoki salbiy munosabatini, muloqotga bo‘lgan istagini ham ko‘rsatib turar ekan. Masalan, gaplashayotganda odam qo‘llarini ko‘kragi ustida bog‘lab tursa, bu uning suhbatdosh bilan o‘rtasida ishonchsizlik, kelishmovchilik, qarama-qarshilik kabi qandaydir to‘siqlar borligini bildiradi. Agar tana suhbatdosh tomon qaragan, qo‘llar ochiq bo‘lsa, bu ishonch, xayrixohlik, ruhiy qulaylik alomatidir. O‘zbeklarda ikki kishi suhbatlashayotgan paytda tinglovchining qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib turishi holati ham uchraydi. Bu holat gapirayotgan kishiga nisbatan hurmat-ehtiromning yuqori ekanligiga ishora bo‘ladi. Buning aksicha, suhbatdoshlarning ikki qo‘lini cho‘ntagiga solib turishi esa ularning bir-birini mensimaslik, hurmatsizlik belgisi bo‘ladi.

-qo‘l va bosh harakatlari suhbatdoshlarning bir-birlarini tushunishga yordam beradigan eng qulay noverbal vositalar sanaladi. Qo‘l va bosh harakatlari milliy xarakterga va gender xususiyatlarga ega. Ammo hamma uchun umumiy jihatlari ham bor: 1. Kommunikativ: salomlashish, xayrlashish, diqqatni tortish, taqiqlash, ishontirish, inkor qilish, so‘rash; 2. Modal: ma‘qullash, qanoatlanish, ishonish, ishonmaslik; 3. Tasvirlash – bu muloqot jarayonidagina mazmunga ega bo‘ladi.

Qo‘l va bosh bilan bog‘liq harakatlar so‘zlovchi yoki tinglovchining suhbat jarayonida nimagadir ishora qilayotganini bildiradi. Masalan, qo‘l bilan og‘izni yopish yoki burunni qashilash – o‘z fikrini aytishga andisha qilayotganiga, quloqni ishqalash – eshitishni xohlamayotganiga, iyakning ostiga qo‘lni tirash – suhbatning zerikarli bo‘layotganiga, iyakni siypalash – suhbatdoshning o‘ylayotgani va o‘zi uchun qulay variant axtarayotganiga, emotsional noqulayliklar, masalan, ruchkani aylantirish – yordamga muhtojlik va suhbatdoshni eshitishga tayyor ekanligiga, betoqatlik harakatlari – agar suhbatdosh stolni barmoqlari bilan taqillatayotgan yoki oyog‘ini

tinimsiz qimirlatib turgan yoki tez-tez soatiga qarayotgan bo'lsa, toqati toq bo'layotganiga ishoradir.

Eng ko'p harakat bosh bilan qilinadi. Ko'z harakati, kipriklarni tez-tez ochib yumish, lablarni qimirlatishlar ham kinesika tarkibida qaraladi.

-mimika – yuz harakatlari hissiyotning asosiy ko'rsatkichidir. Kuzatishlar 10-15 % axborot suhbatdosh yuzining harakatsiziligi tufayli yo'qolishini ko'rsatgan. Yuzning 20000 dan ortiq ifodalari borligi ma'lum. Ular g'azab, quvonch, qo'rqinch, qayg'u, g'am, ajablanish, nafrat kabi emotsional holatlarni ifodalaydi.

-yuzma-yuz, ko'z-ko'zga tushib qilinadigan muloqot. Tinglovchining yuziga qarab gapirish mavzu atrofida diqqatning jamlanishiga ko'maklashadi. Mutaxassislarning kuzatishlaricha, suhbatdoshlar bir-birining ko'zlariga 10 sekunddan ortiq qaray olmas ekanlar. Agar suhbatdosh sizga kam qarayotgan bo'lsa, gapirayotgan gapingizning unga qizig'i yo'q. Aksincha, ko'p qaragan kishi sizning gapingizga e'tibor berayotgan, diqqat bilan tinglayotgan bo'ladi.

Suhbatdoshlarning bir-biriga qarashlari ham milliy xarakterga ega ekan. Yaponlarning gaplashayotganida yuzga emas, tananing bo'yin qismiga qarab turishi yuksak odob namunasi sifatida qabul qilinadi. Qadimda bizda ham ustozning o'gitlarini shogirdlar doimo bosh egilgan holatda tinglashgan.

Amerika ruhshunoslari R.Ekslayn va L.Vinterslarning kuzatishlaricha, odam fikrini jamlayotganda atrofga, shakllanib bo'lgandan keyin esa tinglovchiga yuz burar ekan.⁹

O'z xususiyatlariga ko'ra suhbatdoshlarning bir-biriga nigohi ishchanlik, ijtimoiy va ishqiy ruhda bo'lishi mumkin. Ishchanlik holatida suhbatdoshning peshonasiga, ijtimoiy holatda ko'z bilan og'iz o'rtaligiga qaraladi. Ishaqiy nigoh esa yuzdan pastga yo'naltiriladi.

Ko'z qiri bilan qarash esa yovqarash deyiladi. Unga yana bir qoshning ko'tarilishi va yengil tabassum qo'shiladi. Bunda suhbatdan manfaatdor ekanligini anglash mumkin. Agar qovoq uyilgan holda tinglanayotgan bo'lsa, bu suhbatdoshning gapi yoqmayotganining alomati bo'ladi.

Muloqotning ta'sir darajasiga qarab ko'z qorachig'i ham o'zgaradi. Kayfiyat yaxshi bo'lganda qorachiq to'rt baravargacha kattalashadi, g'amgin holatda qisqaradi.

⁹ <https://works.doklad.ru/view/fsFgJYCjOH8.html>.

Yuz insonning ruhiy holati haqida axborot bera oladigan asosiy manba hisoblanadi. Uning oqarishi yoki qizarishi axborotni qanday qabul qilganligini ifodalab turadi.

Noberval muloqot inson «men»i namoyon bo'lishining muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ko'p o'rinlarda suhbat jarayoniga, undagi til vositalarining ishtirokiga aniqlik kiritishga yordamlashadi.

Shunday qilib, nutq texnikasi – nutq madaniyatining bir bo'limi va nutqiy madaniyatning asosi hisoblanadi. U amaliy predmet va mashg'ulotlarning doimiylikini talab qiladi. Har qanday nutq ham texnik jihatdan takomillashtirishga muhtoj bo'ladi.

Nafas olish va chiqarishni to'g'ri tashkil etish nutqda birinchi darajali rol o'ynaydi. Agar zarur havo zahirasi bo'lmasa, ovozning uzilishiga, o'zini oqlamaydigan pauzalarga, frazaning buzilishiga olib keladi. Havoning noto'g'ri sarflanishi gapni tugatishga imkon bermaydi.

Nutqda nafas olish va ovozni, burro gapirish va to'g'ri talaffuzni rivojlantirish uchun bir qator mashqlar kompleksini bajarish zarur. Bu esa nutq texnikasini yaxshi o'zlashtirish bilangina amalga oshadi.

Aniq, ta'sirli va chiroyli gapirishga nutq apparatining to'g'ri ishlashi va nafasning to'g'ri chiqarilishi sabab bo'ladi. Nutq organlarini rivojlantirish uchun artikulyatsion gimnastika bilan shug'ullanish, nutqning ta'sirchan bo'lishi uchun esa aniq va burro tilda bir maromda gapirish kerak bo'ladi. Bu gaplar asosan o'qituvchilarga tegishlidir.

Nutq texnikasi bilan shug'ullanishda quyidagilarga e'tiborni qaratish zarur bo'ladi:

- ovoz va nutqni yaxshilashni muskullarni yumshatishdan boshlash va uni izchil davom ettirish;
- mashqlarni bajarishda oddiydan murakkabga qarab borish;
- ovoz gigiyenasi va profilaktikasiga rioya qilish;
- to'plangan tajribani ko'nikmaga aylantirish;
- nutqdagi o'zgarishlarni muntazam kuzatib borish kabi.

Auditoriyada, ommaviy axborot vositalarida, radio va televideniya da amalga oshiriladigan treninglar nutqning yorqin va asosli, yuqori professional darajada bo'lishiga olib keladi. Bu amalga oshiriladigan ishlar o'z navbatida ijtimoiy tafakkur rivoji uchun ham xizmat qiladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. *Nutq texnikasi* deganda nimani angladingiz?
2. Xushovozlik nima?
3. Nutq texnikasi qanday qismlardan iborat?
4. Nutq apparati haqida ma'lumot bering.
5. Artikulyatsion tizim tarkibiga qaysi organlar kiradi?
6. Nutq texnikasida nafasning o'rni haqida gapirib bering.
7. Nefasning ikkilamchi vazifasi nimadan iborat?
8. Nutq texnikasida ovozni o'rni qanday?
9. Nutq texnikasida diksiya nima uchun kerak?
10. Kinesika nima?
11. *Noverbal vositalar* deganda nimani tushunasiz?

NUTQ SHAKLLARI VA TURLARI

Reja:

1. Yozma nutqning xususiyatlari.
2. Og‘zaki nutqning xususiyatlari.
3. Og‘zaki nutq mahorati.

Tayanch so‘z va iboralar: *nutq, nutqiy faoliyat, motiv, maqsad, ijro, tashqi nutq, ichki nutq, og‘zaki nutq, yozma nutq, til va nutq dialektikasi, statiklik, dinamiklik, til madaniyati, nutq madaniyati, so‘zlash-eshitish, yozish-o‘qish, ravonlik, ohang, pauza, mimika, tezlik, gap modellari, suhbat, muhokama, munozara, notiqlik, tanqidiylik, tabrik, yangi avlod tarbiyasi.*

Nutqiy muloqot yozma va og‘zaki shaklda amalga oshadi. Bu ikki shakl o‘zaro bog‘liq va kommunikatsiya jarayonida ular bir-birlarini to‘ldirib boradi. Ularning har biri o‘z o‘rnida ahamiyatlidir. Har qanday yozma nutqni og‘zaki eshitish mumkin bo‘lgani kabi, og‘zakini nutqni ham qog‘ozga tushirish mumkin. Adabiy nutq ularning har ikkilasi uchun ham me‘yor sanaladi. Ayni paytda, ular nutq shakllari sifatida mustaqil va o‘zining alohida xususiyatlariga ega.

Bu ikki nutq shaklini o‘zaro birlashtiruvchi omillar mavjud. Lug‘at tarkibining birligi, so‘zlarning yasalishi va shakl o‘zgarishlari, so‘zlar birikuvi qoidalarining umumiyliigi ana shunday omillardir. Ayni paytda, og‘zaki nutq yozma nutqdan so‘z tanlash erkinligi, to‘liqsiz va sodda gaplarning ko‘p qo‘llanilishi, orfoepik me‘yorning ustunlik qilishi bilan farqlanadi. Yozma nutq esa murakkab sintaksis, tinish belgilarining qo‘llanilishi, harflarning tovushlarga mosligi kabi lingvistik muammolarga e‘tibor qaratishi bilan ajralib turadi.¹

1. Yozma nutqning xususiyatlari.

Nutqning bu turi orqali ma‘lum fikr yozma ravishda bayon qilinadi. Demak, og‘zaki nutq so‘zlash-eshitishga qaratilgan bo‘lsa, yozma nutq yozish-o‘qishga qaratilgan bo‘ladi.

Yozma nutq og‘zaki nutqqa nisbatan inson hayotining keyingi davrlari mahsuli bo‘lib, og‘zaki nutqni qayd etish maqsadida yaratilgan belgilar, ayni paytda, mustaqil kommunikatsiya tizimidir. U insoniyat tomonidan to‘plangan bilimlarni uzoq muddatga saqlash, o‘zlashtirish

¹ <https://studfile.net/preview/2775298/page:7/>

va keyingi avlodlarga yetkazish kabi bebaho vazifalarni ado etishi bilan nihoyatda qimmatlidir.

Muallif matnni aniq bir reja bilan, kimlargadir mo'ljallab yozadi. U hamisha matn ustida mulohaza yuritish, matnni takomillashtirish, qayta ishlash, tahrir qilish, qo'shimchalar kiritish, matn kompozitsiyasini o'zgartirish, fikr uchun eng mos imkoniyatlarni tanlash, gap tuzilishini soddalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Og'zaki nutqda esa bu imkoniyatlar yo'q. Shuning uchun ham yozma nutq og'zaki nutqdan ravondir.

Yozma nutq qat'iy tarzda adabiy til me'yorlariga va reglamentga amal qiladi. Rasmiy uslubda yozilgan matnlar buning yorqin dalilidir.

Yozma nutq shakllanishi jarayonida suhbatdosh bo'lmaganligidan, uni tushunish og'zaki nutqni anglashdan farq qiladi. U oddiy maktub, ariza va ma'lumotnomadan boshlanib, to qissa va romanga qadar bo'lgan har xil yozma asarlarni o'z ichiga oladi.

«Yozma nutq ifodaning tildan boshqa hech qanday qo'shimcha vositalariga ega emas».² Yozma nutqda og'zaki nutqning ohang, talaffuz kabi imkoniyatlari yo'qligi uchun muallif o'ta muhim deb hisoblagan fikrlarni tinish belgilari yoki shriftlar vositasida qayd qiladi. Uning asosiy xususiyati ma'lum orfografik, punktuatsion va stilistik me'yorlarga amal qilinishidir.

Matnni to'raligicha anglab yetmoq uchun u grammatik jihatdan mukammal, aniq va batafsil bo'lmog'i lozim. Yozma nutq tarkibidagi gaplar ko'pincha murakkab sintaktik tuzilmalardan iborat bo'ladi. Abzaslar haqida ham shu fikrni aytsa bo'ladi. Yozma nutq ifoda maqsadiga ko'ra shakllanadi. Shuning uchun ham ilmiy, rasmiy yoki badiiy matnlarga bir xilda qarash to'g'ri emas. Yozma nutq so'z tanlash xususiyatlariga ko'ra uslubiy xarakterga ega va ahamiyati jihatidan asosiy nutq shakli hisoblanadi.

Yozma nutq o'zining alohida ifoda vositalariga ega. So'zlarning jarangdorligi harflar, ohang esa tinish belgilari yordamida beriladi. Masalan, *Onasiz bola o'ynamas* gapini eslaylik. Vergulning *bola* so'zidan oldin yoki keyin qo'yilishiga qarab ifoda mazmuni o'zgaradi.

Muallif fikri bayonining ravonligi va ketma-ketligini ta'minlashga abzaslar ham xizmat qiladi. Chunki har bir abzas oldingisidan farq qiladigan yoki uning davomi bo'lgan yangi fikr bilan boshlanadi. Muhim deb hisoblangan biron bir fikrga e'tiborni qaratish uchun

² Махмудов Ш.А., Никулина Т.Г. Писменная речь как форма речетворческой деятельности, 2012.
<https://cyberleninka.ru/article/n/pismennaya-rech-kak-forma-rechetvorcheskoy-deyatelnosti>

muallifning o‘zi ham alohida belgilar qo‘yishi, shriftlarni o‘zgartirishi mumkin.

Yozuvchi va o‘quvchi orasini vaqt va masofa ajratib turadi. O‘quvchi mutlaqo keyingi davrning odami bo‘lishi mumkin. U og‘zaki nutqdan farqli o‘laroq paydo bo‘lishi nuqtayi nazaridan ikkilamchi nutq sanaladi.

Yozma nutq hamma vazifaviy uslublar uchun kerakli. Hatto og‘zaki tarzda qo‘llanilib kelingan xalq og‘zaki ijodi namunalari ham yozma shaklda badiiy ijod tarixiga muhrlanadi.

Yozma nutq o‘z kommunikativ tabiatiga ko‘ra monologik nutq hisoblanadi. Ammo yozuvlar tarixida dialogik shakllari ham bor. Bu shakl internet asrida yangicha mazmun kasb etmoqda. Telegram orqali amalga oshirilayotgan yozishmalar bunga misol bo‘la oladi.

Keyingi paytlarda o‘zbek tilida yozilayotgan matnlarning sifati pasayib ketayotganini kuzatish mumkin. Buning muayyan sabablari bor, albatta. Birinchidan, ommaviy nashrlardan senzura nazorati olib tashlangandan keyin chop etish borasida bir qadar erkinliklar paydo bo‘ldi. Xususiy nashriyotlar ko‘plab ochildi va ular erkin faoliyat olib borishlariga bo‘lgan to‘siqlar olib tashlandi. Natijada nashr ishlari tahririga bo‘ladigan talab ham susayib ketdi. Ko‘pchilik xususiy nashriyotlar «kitob mazmuni uchun muallif javobgar» degan yozuv bilan mas’uliyatni o‘zlaridan soqit qilishdi. Bosmaxonalar esa o‘z faoliyatini biznes deb hisoblashdi va mualliflar nima olib kelishsa, bosib chiqaraveradigan bo‘lishdi. Korrektura degan tushuncha chetga surib qo‘yildi. Faqat gazeta-jurnallar bundan mustasno.

Yozma nutqning imloviy va uslub jihatdan buzilishiga ikkinchi sabab hayotimizda ijtimoiy tarmoqlarning vujudga kelishi bo‘ldi. Tarmoqqa hammaning kirish imkoni bor. Afsuski, undan foydalanuvchilarning ko‘pchiligining savodxonlik darajasi mutloqo talabga javob bermaydi. Ko‘pchiligi hatto o‘z shevalarida yozishni ham bilishmaydi. Hech uyalishmasdan, vulgar so‘zlarni bemalol ishlataverishadi. Eng yomoni bu yozilganlar odamlarni imlo va talaffuz qoidalaridan chalg‘itayotganlaridir.

2. Og‘zaki nutqning xususiyatlari.

Og‘zaki nutq inson muloqotining va tildan foydalanishining eng qadimgi turidir. Eshitish mumkin bo‘lgan har qanday nutq og‘zaki nutq sanaladi. Og‘zaki nutq verbal muloqot shakli bo‘lib, so‘zlashish jarayonida yuzaga keladi va bevosita suhbatdoshlar ishtirokida amalga oshiriladi. Har bir insonning og‘zaki nutqi o‘z ohangi, talaffuz

xususiyatlari, emotsionallik darajasi va tana harakatlarining ishtiroki bilan individualdir. «Aytilgan gap – otilgan o‘q», deydi xalqimiz. Aytilgan gapni qaytarib bo‘lmaslik ham og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan xususiyatdir.

Og‘zaki nutq oldindan tayyorlangan bo‘lishi ham, tayyorlanmagan bo‘lishi ham mumkin. Omma oldida chiqishlarga, ma’ruza o‘qishga odatda tayyorgarlik ko‘riladi. Bunday chiqish oldindan o‘ylab qo‘yiladi va muayyan tartibga keltirilgan bo‘ladi. Tayyorlamagan nutq spontan xarakterga ega va bir-biridan uzilgan parchalardan iborat bo‘ladi. Nutq jarayonida takrorlar, aniqlik kiritilishi lozim bo‘lgan o‘rinlar ko‘p uchraydi. Ammo suhbatdoshlarning bu nutqini to‘la anglab yetishlariga nutqiy vaziyat ko‘maklashadi.

Og‘zaki nutq o‘zbek tilining har bir vazifaviy uslubida o‘sha uslublar xususiyatidan kelib chiqib amal qiladi. Ammo uning lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlari asosan so‘zlashuv uslubida namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra og‘zaki nutqning quyidagi ko‘rinishlari mavjud: og‘zaki ilmiy nutq; og‘zaki publitsistik nutq; og‘zaki rasmiy muloqot nutqi; og‘zaki badiiy nutq; so‘zlashuv nutqi.

So‘zlashuv nutqining boshqa barcha vazifaviy uslublarga ta’siri bo‘ladi. Bu nutq muallifi «meni» bilan bog‘liq va unda o‘zbek umumxalq tiliga xos bo‘lgan barcha fonetik, leksik-frazeologik, grammatik va stilistik alomatlarni uchratish mumkin.

Og‘zaki nutq vaziyatdan kelib chiqib shakllanadi. Nutqiy faoliyat subyekti ham, uni nazorat qiluvchi ham muallifning o‘zi bo‘ladi. «Og‘zaki nutq kommunikatsiya jarayonini osonlashtiradigan, axborot uzatish va qabul qilishni nisbatan aniq va tejamli qiladigan bir qator emotsional-ekspressiv vositalarga ega bo‘ladi. Noverbal vositalar – jest, mimika, pauza, ohang kabilar nutqning vaziyatga bog‘liqligini ko‘rsatadi».³

Nutq muallifi odatda kimlarning oldida chiqish qilishini oldindan biladi va shunga qarab tayyorgarlik ko‘radi. Ammo ba’zan unga auditoriyadagi kutilmagan vaziyatga qarab ish tutishga, nutqi mazmuni va ifoda usullarini o‘zgartirishga to‘g‘ri kelib qoladi.

Og‘zaki nutqning xususiyatlaridan biri muloqot jarayonida bir-biriga zid bo‘lgan ikki holatning – ortiqchalik va qisqalikning mavjudligidir. Improvizatsiya ham og‘zaki nutq uchun xarakterli hisoblanadi.

³ Махмудов Ш.А., Никулина Т.Г. Писменная речь как форма речетворческой деятельности, 2012.

Ortiqchalik – muloqotda bir fikrni qayta-qayta takrorlashdir. Bu nutq madaniyati nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiq emas. Qisqalik ham nutq mazmunining tinglovchiga to'liq yetib bormasligiga sabab bo'lishi mumkin. Beixtiyor to'xtab qolish, sukut saqlash, ayrim tovushlarni cho'zish orqasida nutqda uzilishlar ham bo'lib turadi. *Nima desam ekan, nima deyayotgan edim, haligi nima deydi* kabi jumlar ham nutqiy uzilishlar, fikriy tarqoqliklar, eng kerakli gap izlanayotganligi tufayli aytiladi.

Og'zaki nutq, odatda, muloqot uchun eng zarur narsalargina zuhur etiladi. Shu boisdan, so'z boyligi jihatidan yozma nutqqa nisbatan ancha kambag'al bo'ladi.

Og'zaki nutqning ijrosi so'zlovchining maqsadi hamda makon va zamon bilan xarakterlanadi, insonning nutqiy muloqot tajribasiga va ijtimoiy mavqeyiga bog'liq bo'ladi

U yordamida talaffuz qilinadigan va eshitish orqali qabul qilinadigan jonli va yozma nutqdan farqli o'laroq ovozli nutqdir. Har bir odam o'ziga xos va boshqalarnikiga o'xshamaydigan nutqiy apparatiga ega. Odamning qanday ohangda – past yoki baland, tez yoki sekin gapirishi uning temperamentiga bog'liq. Bu nutqiy vaziyatga bog'liq bo'lishi ham mumkin. Nutq tempi vaziyatga va so'zlovchining kayfiyatiga qarab o'zgarib turadi. Tinglovchiga ta'siri ham shunga qarab o'zgaradi. Struktural jihatlari bilan ham yozma nutqdan farq qiladi.

Og'zaki nutq tezkorlik bilan amalga oshishi natijasida tushunchalar bilan «uning libosi» bo'lgan so'z birgalikda «yashin tezligida» tilga kela boshlaydi. Matn uchun so'z birikmalari va gaplarning modellari aytilmoqchi bo'lgan fikrga monand holda tezkorlik bilan tanlanadi.

Og'zaki nutqning eng muhim omillaridan biri ohang – intonatsiyadir. Uning yordamida eng nozik ma'no ottenkalarini ham berish mumkin bo'ladi. Nutq texnikasi esa uni yanada takomillashtiradi.

H.Jamolxonov quyidagilarni yozgan: «Intonatsiya bir qator supersegment elementlar (ovoz toni, melodika, ritm, tembr, pauza, temp va boshqalar) ishtirokida tarkib topadi va gap mazmunining, undagi emotsional-ekspressiv jihatlarining ifodalanishida muhim rol o'ynaydi. Demak, intonatsiya og'zaki nutqning majburiy fonetik komponentidir, usiz gap yoki nutq shakllanmaydi va ifodalanmaydi».⁴

⁴ Жамолхонов Х. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2009. -Б.170.

Aytilganlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, intonatsiya kompleksidagi barcha omillar birgalikda nutqda predikativlikni shakllantiradi, kommunikativ maqsadni amalga oshiradi. Bu uning asosiy xizmati bo'lsa, ikkinchisi nutqda uslubiy vazifalarni ado etishidir.

Og'zaki nutqni intonatsiyasiz shakllantirib bo'lmagani kabi, bu nutqning uslubiy bo'yoqdorligini ham usiz ta'minlashning imkoni yo'q. Qaysi bir fonetik hodisa stilistik vazifani bajarayotgan bo'lmasin, uni intonatsiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ohangdan har bir uslub o'z manfaati yo'lida foydalanadi. Shuning uchun ham badiiy, publitsistik va so'zlashuv uslublarida u rang-baranglik kasb etib, hatto bir matnning o'zida mazmun ifodasiga mos tarzda ham ko'tarilib, ham pasayib tursa, rasmiy yoki ilmiy uslublarga xos matnlarning og'zaki o'qilishida monotonlik ustunlik qiladi.

Nutqning axborot mazmunida yoki ma'lumot tartibida berilishi ham, uning ta'sirchan tarzda shakllantirilishi ham intonatsiyaga bog'liq. Har bir funksional uslubda ularning mohiyati va oldiga qo'yilgan talablardan kelib chiqib, talaffuz usuli tanlanadi. Garchi intonatsiya gap mazmunini jiddiy o'zgartira olmasa ham, so'zlovchining subyektiv munosabatini ifodalashga xizmat qiladi, nutqning modalligi va emotsionalligi intonatsiyaga bog'liq bo'lib qoladi.

Ilmiy manbalarda *takt intonatsiyasi* degan tushuncha mavjud. Matn tarkibidagi gaplar muayyan taktlarga bo'linar ekan, gapning ushbu qismlari alohida intonatsiya bilan talaffuz etilishi zarur bo'ladi. Har ikki tomondan pauza bilan ajratilishi va yagona urg'u bilan talaffuz etilishi gapning bu qismining alohida xususiyatidir.⁵

O'zbek tili taraqqiyotining hozirgi davrini muloqotning bu ikki shaklisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Vazifaviy uslublar tobora taraqqiy etib bormoqda va innovatsion texnologiyalar hayotimizga dalil kirib kelmoqda. Xalqaro internet tarmog'ining, raqamli televideniyeining shiddat bilan rivojlanayotgani, telefon va media aloqalarining takomillashib borayotgani nutqiy madaniyatga bo'lgan talabning kuchaytirilishini, binobarin, yozma va og'zaki nutqning kerakli o'rinlarda birlashuvini ham taqozo etadi. Axborot asrida soha

⁵ Каримов С. Ўзбек тилининг фонетик стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2016. –Б. 24-27.

mutaxassislarining muhim vazifalaridan biri ham zamonaviy o'zbek tilshunosligining amaliy jihatlariga e'tiborni kuchaytirish bo'lib qoladi.

3.Og'zaki nutq mahorati.

Insonning ovoz chiqarib gapirishi og'zaki nutq bo'ladi. Og'zaki nutq ishtirokchilari bir yoki bir necha kishi bo'lishi mumkin. Shunga qarab nutq monologik va dialogik turlarga bo'linadi. Monologik nutq bir kishiga tegishli bo'lib, u ichki yoki tashqi xarakterda bo'lishi mumkin. Ma'ruza uning tashqi ko'rinishi hisoblanadi va notiqdan alohida mahorat talab qiladi.

Dialogik nutq suhbat, muhokama, munozara ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Ularning har biri nutq madaniyati va nutq mahorati talablaridan kelib chiqib, muayyan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Suhbat ma'lum bir mavzu yuzasidan dialog (yoki polilog) tarzida bo'lib o'tadigan nutqiy muloqot shaklidir. Uning oldiga mavzudan chetga chiqmaslik, savollarga aniq, qisqa, to'la javob berish, javob berish jarayonida savolning ahamiyatiga e'tibor qaratish, dalil va misollarning ishonarli bo'lishini ta'minlash, suhbat davomida tinglovchilar holati, vaqti, qiziqishlari, mavzuning dolzarbligini hisobga olish, suhbatda kamtarlik, xushmuomalalik talablariga javob berish, suhbat davomida nutqning ifodalilik, ta'sirchanlik, mantiqiylik, to'g'rilik, soflik kabi xususiyatlari talablariga rioya qilish kabi bir qator talablar qo'yiladi.

Muhokama biror masala yuzasidan ko'pchilikning fikrini to'plash, ma'lum to'xtamlarga kelish ma'nosini anglatadi. Muhokama nutqi oldiga ham mavzudan chetga chiqmaslik, fikrni ixcham, sodda, ta'sirli qilib ifodalash, ortiqcha hissiyotlarga, lirik chekinishlarga berilmaslik, fikrga mos dalil va isbotlarni aniq, lo'nda qilib keltirish, boshqalar bildirgan fikrlarni takrorlamaslik, fikrni ifodalash davomida o'zgalar fikriga hurmat bilan qarash, o'rinsiz bildirilgan fikrlarni kishi shaxsiga tegmasdan inkor etish, fikrni bayon qilish davomida hayajonlanmaslik, o'zini xotirjam tutish kabi talablar qo'yiladi.

Munozara biror masala yuzasidan taraflarning bahsini, tortishuvini anglatadi. Bahs jarayonida har bir ishtirokchi o'zining haq ekanligini isbotlashga intiladi. Munozarada nutq oldiga mavzudan chetga chiqmaslik, mazmunni ochuvchi, fikrni isbotlovchi dalillarning yetarli bo'lishi, dalillardan mantiqli xulosa chiqarish, nutqning ifodali, tizimli, hayajonli, ta'sirli, nutq shaklining ixcham, qiziqarli bo'lishi, nutq egasining vazmin, og'ir bo'lishi, suhbatdoshni hurmat qilish,

uning shaxsiga tegadigan soʻz va gaplarning boʻlmasligi kabi talablar qoʻyiladi.

Ammo bu jarayonlarning hech biri hali notiqlikni anglatmaydi. *Notiq* soʻzini joʻn tushunib, u orqali har qanday soʻzlovchini nazarda tutish kerak emas. Notiq – bu omma oldida chiqish qilish mahoratini egallagan, maxsus bilim va tayyorgarlikka ega boʻlgan, notiqlik koʻnikmalarini puxta oʻzlashtirgan kishidir. Notiqlik uning mashgʻulotidir. Notiqlik mahorati esa undan oʻzbek nutqi madaniyati doirasida yuksak darajada tildan foydalanish sanʼatidir. P.Nosirov «Oʻzbek nutq madaniyati» asarida «Bizning nazarimizda, nutqiy sanʼat maʼnosidagi notiqlikni, yaʼni favqulodda nutqiy mahorat va qobiliyat boʻlgan notiqlikni ommaviy nutq (notiqlik)dan farqlash lozim»,⁶ deganida qavs ichidagi *notiqlik* soʻzining ortiqcha ekanligini inobatga olmaganida, *ommaviy nutq* jumlasida oddiy, har qanday odam tomonidan aytilishi mumkin boʻlgan gapni nazarda tutganligini anglasa boʻladi.

Muallif yana «Notiqlar notiqlik mahoratiga, notiqlik sanʼatiga tabiiy qobiliyat, shu bilan bir qatorda oʻz tili, nutqi ustida tinimsiz ishlash natijasida erishadilar», deydi.⁷ Binobarin, nutq shakli qanday boʻlishidan qatʼi nazar, u oʻz ustida ishlashni talab etadi. Boshqa bir manbada esa, toʻplangan tajriba va bilimlardan unumli foydalanish lozimligi aytiladi: «Nutq madaniyati sohasi va uning maqsadini ommaga yetkazishda oʻtmish notiqligining ijobiy tomonlaridan keng foydalanish zarur. Ushbu notiqlikning koʻpgina koʻrsatmalari, qoidaviy holatlari, taniqli notiqlarning shaxsiy qobiliyat va faoliyatlari nutq madaniyatini tarbiyalashda yaxshigina namunaviy tashviqot quroli boʻlishi mumkin».⁸

Notiqlik mahorati haqida notiqlik – soʻzga chechanlik, asosan ogʻzaki nutqqa, til materiallaridan qanchalik ustalik bilan foydalanib, tinglovchilarga taʼsir etish sanʼati bilan bogʻliq masaladir, degan fikrda boʻlgan akademik Gʻanijon Abdurahmonov oʻzbek tilida notiqlik nutqi va notiqlik uslubi bor degan mulohazani bayon etgan: «Notiqlik nutqida odatda dolzarb, tez orada yechilishi zarur masalalar qoʻyiladi yoki amaliy ishlar uchun koʻrgazma boʻladi (shiorlarda). Yigʻin, namoyishlar (mitinglar) tashviq qiluvchi joʻshqin nutqlar tinglovchilarni maʼlum bir ishlarga safarbar qiladi». «Notiqlik uslubi

⁶ Носиров П. Ўзбек нутқ маданияти. Ўқув қўлланма. - Т: «ЎАЖБНТ» маркази, 2004. -Б.82.

⁷ Носиров П. Коʻrsatilgan asar. –Б.60.

⁸ Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. - Б.140.

nutq madaniyatining tarkibiy qismlaridan bo'lsa ham, bu ikki til uslubi orasida ayrim farqlar ham bo'ladi. Nutq madaniyati keng tushuncha bo'lib, orfoepik, leksik, grammatik qoidalar asosida so'zlash va imlo qoidalari asosida savodli so'zlash, yozishni o'z ichiga oladi». Shuningdek, muallifning quyidagi fikrlari ham e'tiborli: «Ba'zi ilmiy adabiyotlarda alohida uslub turi sifatida *dilkash-mushfiq, hazil va hajviy* uslub turlarini ham ajratadilar. Dilkash-mushfiq (muloyim, mehribon), hazil va hajviy uslublar alohida guruhni tashkil etmaydi. Ular mazmuniga ko'ra badiiy yoki notiqlik uslubi tarkibiga kiradi».⁹ O'zbek notiqlik san'ati alohida uslub darajasiga yetgan-yetmaganligidan qat'i nazar, hayotimizda unga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib borayotganini e'tirof etish zarur.

Harqalay, aytilayotgan fikrning tinglovchiga yetib borishi va uning ruhiyatiga ta'sir etishi notiqning mahoratiga, notiqlik san'atini egallaganlik darajasiga bog'liq.

Ilmiy manbalarda nutqiy mahoratni yanada chuqurroq anglash maqsadida nutqni *tashviiqiy nutq, tanqidiy nutq, tabrik nutqi* singari turlarga bo'lib o'rganish tavsiya etiladi.

Tashviiqiy nutq. Notiqlik san'atining paydo bo'lishi va taraqqiy topishi bevosita ana shu tashviiqiy nutq bilan bog'liq bo'lgan, deb o'ylaymiz. Chunki Antik dunyo notiqlik san'ati tarixida chuqur iz qoldirgan notiqalar omma oldida o'z g'oyalari va fikrlarini tashviiqot qilishgan, o'z qarashlari va nuqtayi nazarlarining to'g'ri ekanligiga ommani ishontirish uchun fidoyilik ko'rsatishgan. Ana shu yo'lda ular tinglovchilarni nimalargadir da'vat etishgan, undashgan. Bunda targ'ibot va tashviiqotning tabiiyligi va ishontirish kuchi asosiy rol o'ynagan. «Targ'ibot va tashviiqotchilarning chiqishlari odatda ma'lum bir muammolarni ommaga singdirish, omma ongidagi tushunmovchilik va chalkashliklarga barham berish, ularni to'g'ri yo'lga solish, omma uchun noma'lum bo'lgan holatlardan ularni xabardor qilish, ayrim narsa-hodisalar mohiyatini to'la ochib berish kabi vazifalar bilan bog'liq bo'ladi».¹⁰

Tashviiqiy nutq oldiga mavzudan chetga chiqmaslik, mavzu mohiyatini to'la ochib berish, mavzu dolzarbligini uqtira olish, nutqning ta'sirchan bo'lishiga erishish, iqtibos va misollarni o'rinli keltirish kabi vazifalar qo'yilgan.

⁹ Абдурахмонов Ф., Мамажонов С. Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. -Б.136-138.

¹⁰ Қўнгулов Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари, -Б.148.

Respublikamizda raqamli axborot tizimining tobora takomillashib borayotgani ommaviy axborot vositalarining barcha turlarida Prezident farmonlari va qarorlari, hukumat qarorlari mazmun-mohiyati va ularning ijrosi yuzasidan, ma'naviy-ma'rifiy va diniy-ma'rifiy sohalaridagi targ'ibot-tashviqot ishlarining ham yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'lmoqda. Bugun ko'plab tashviqot ishlari onlayn tarzida olib borilmoqda.

Ta'lim-tarbiya yo'nalishidagi targ'ibot ishlari o'qish-o'qitish ishlarining tarkibiy qismiga aylandi. Bu haqda prof.N.Mahmudov quyidagilarni yozgan: «Tabiiyki, tashviqot xarakteridagi ma'ruza yoki dars jarayonidagi bayon nutqida ham ifodalilik alohida zaruriyatga aylanadi. O'qituvchi dars mavzusini tushuntirar ekan, o'z nutqining ifodaliligiga e'tibor bermasa, ifodalilikni ta'minlaydigan vositalardan foydalanmasa, nutqi quruq, shirasiz, jozibasiz bo'ladi va natijada bunday nutq o'quvchi diqqatini torta olmaydi».¹¹

Bularning barchasi O'zbekiston sharoitida ilmiy-ma'rifiy yo'nalishda notiqlik san'atining asta-sekinlik bilan rivojlanib va yuksalib borayotganidan dalolat beradi.

Tanqidiy nutq. Nutqning bu turi tashviiqiy nutqqa qaraganda qamrov doirasi katta emas. Chunki omma oldidagi chiqishlarning hammasida ham tanqidiy nutq so'zlanavermaydi. Voqelikka, mas'ul shaxslarning xatti-harakatlariga e'tirozli munosabat bildiriladigan ushbu nutq davlat idoralari, korxona, tashkilot va muassalarning yakuniy va ko'pincha ishlab chiqarish yig'ilishlarida rahbarlar tomonidan so'zlanadi. Tanqid shu mazmundagi ma'ruzaning tarkibida bo'lish holatlari ko'proq kuzatiladi.

O'z tabiatidan kelib chiqib, tanqidiy nutq oldiga yuz bergan voqea-hodisalarning mohiyatini ochib berish, tanqid uchun dalillarning yetarli bo'lishi, notiqning o'zini bosiq tutishi va hayajonlanib ketmasligi, haqiqatdan chetlanmaslik va adolat bilan gapirish, suhbatdosh yoki tinglovchilarning shaxsiga tegmaslik, nutqning jozibador va ohangdor bo'lishiga e'tibor berish kabi talablar qo'yiladi. Bir so'z bilan aytganda, tanqid madaniyat bilan bo'lishi, chiqishning xulosasi tanqid qilinayotgan kishilar undan tegishli ijobiy xulosalar chiqarishga olib kelishi durust bo'ladi.

Tabrik nutqi – bayramlarda, to'ylarda, tantanalarda, yubileylarda, tug'ilgan kunlarda so'zlanadigan nutqdir. Tabrik

¹¹ Махмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. –Б.164.

nutqining eng yaxshi namunasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turli ommaviy va kasbiy bayramlar munosabati bilan mamlakat aholisiga yo'llagan va shaxsan o'zi so'zlagan nutqidir.

Bunday tabrik nutqlarida xalqning, mehnat jamoalarining yoki alohida olingan shaxsning mehnatda erishgan yutuqlari sanab o'tiladi, jamiyatga yoki muayyan sohalar rivojiga qo'shgan hissassi ta'kidlanadi, keyingi hayotga ruhlantiruvchi istaklar bildiriladi.

Tabrikning yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki tabrikda nisbatan samimiyat kuchli bo'ladi va odamlar qalbiga tezroq borib etadi. Axborot-innovatsion texnologiyalarning rivojlanib borishi stiker shaklidagi yozma tabriklarning ko'payishga olib keldi. Tabrik so'zlari yozilgan bu stikerlarni telegram orqali adresatga jo'natish arzon va qulay. Ammo og'zaki aytilgan yoki qo'ldan yozilgan tabriklarga nisbatan qalbsiz tabriklardir. Uni o'qigan kishida xuddi tabrik majburan jo'natilganday bir tasavvur paydo bo'ladi.

Ko'p tabriklar to'y-tantanalarda aytiladi. Nutqning bu ko'rinishi maqtoov xarakterida bo'lgani uchun taomilga ko'ra ko'pincha insonda bo'lmagan xislatlar ham qo'shib aytilaveradi. Ba'zan yubilyarni hijolat qiladigan darajada oshirib yuborilgan maqtoovlar ham bo'ladi. Bu tabriklar ham qalbsiz maqtoovlardir. Boshqa bir holatlarda tabrik nutqlari majburan aytilganday taassurot qoldiradi. Notiqilar tilidagi «yuqorida aytilgan gaplarga qo'shilamiz», «baxtli bo'lishsin deymiz» degan jumlarlar eshitar quloqqa soxta tilak bo'lib tuyuladi. Ba'zan bunday nutqlarda «bugungi kechening aybdori», «bugungi o'tirishimizning aybdori» degan, boshqa xalqlar tabrigidan ko'r-ko'ra ko'chirib olingan jumlar ishlatiladiki, ular ham samimiyatdan yiroqdir.

Tabrik nutqi inson xilqatiga va jamiyatdagi o'rnini ko'rsatishga qaratilgani bilan ijobiy hodisadir. Unda ba'zan adresant tomonidan adresat haqidagi hali hech kimga ayon bo'lmagan ma'lumotlar, hech kim tilga olmagan niyat-istaklar aytilib qolishi mumkin. Bunday nutq qiziqarli bo'ladi, ishtirokchilarning e'tiborini tortadi, jozibali bo'ladi. Bu kabi tabriklarni odatda notiqlik san'atiga rag'batli bor kishilar, tajribali oqsoqollar, o'qituvchi-murabbiylar aytishadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Yozma nutqning xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Og'zaki nutq yozma nutqdan qaysi jihatlari bilan ajralib turadi?

3. Ichki va tashqi nutqni tushuntiring.
4. Monologik va dialogik nutqlar qanday nutq?
5. Tashviqiy nutqni tushuntirib bering.
6. Tanqidiy nutqqa xos bo'lgan qanday xususiyatlarni bilasiz?
7. Tabrik nutqining namunasini keltiring.

O'ZBEK TILI STILISTIKASI VA NUTQ MADANIYATI

Reja:

1. O'zbek tili stilistikasi fanining maqsad va vazifalari.
2. O'zbek tili vazifaviy uslublarining shakllanishi til taraqqiyotining navbatdagi bosqichi ekanligi.
3. Vazifaviy uslublar ko'rinishlari.
4. Nutq madaniyatining vazifaviy uslublarga ta'siri.

Tayanch so'z va iboralar: *stilistika – uslubshunoslik, soha, vaziyat, nutqni tashkil qilish qonuniyatlari, stilistika yo'nalishlari, leksik resurslar, funksional stilistika, amaliy, fonetik, grammatik, leksik, frazeologik birliklar, tanlash imkoniyati, sinonimik rang-baranglik, uslublar tasnifi, ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy, so'zlashuv, aniqlik, to'g'rilik, obyektivlik, mantiqiylik, qoliplilik, o'zaro ta'sir.*

1. O'zbek tili stilistikasi fanining maqsad va vazifalari.

O'zbek tilshunosligining nisbatan yangi sohasi sanaladigan stilistika – uslubshunoslik til birliklarining aloqa vositasi sifatida muomala jarayonida turli soha va vaziyatda qo'llanishi, nutqni tashkil qilish qonuniyatlari, til tizimidagi barcha vositalarning nutq jarayonidagi imkoniyatlari va ma'no nozikliklarini aniqlash bilan shug'ullanadi.

Tildagi ana shunday muammolar bilan shug'ullanadigan uslubshunoslikning quyidagi yo'nalishlari mavjud:

Tilning leksik resurslarini o'rganuvchi yo'nalish.

Funksional stilistika – vazifaviy uslubshunoslik.

Badiiy adabiyot uslublari.

Amaliy uslubshunoslik.

2. O'zbek tili vazifaviy uslublarining shakllanishi til taraqqiyotining navbatdagi bosqichi ekanligi.

Mavzu nuqtayi nazaridan bu o'rinda bizni vazifaviy uslubshunoslik qiziqtiradi. Kishilar o'z ijtimoiy faoliyatlarida tildagi barcha vositalardan – fonetik, grammatik, leksik, frazeologik birliklardan foydalanganlarida, avvalo ularni o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, nutq mavzusiga, vaziyatga qarab tanlaydilar va qo'llaydilar. Tilimizdagi vositalarning bir nechalab ko'rinishlarga ega bo'lishi, sinonimik rang-baranglik shunday yo'l tutishga imkon beradi. Mana

shu tanlash nutq jarayonida til birliklarining o'ziga xos uslubiy chegaralanishini taqozo qiladi. Til birliklarini ijtimoiy muhitda tanlab ishlatish zarurati va ularni tilshunoslikda ilmiy-amaliy tahlil qilish uslubshunoslikda yangi sohani – vazifaviy uslubshunoslikni vujudga keltirdi.

O'zbek tili uslublarini vazifaviy jihatdan tasnif qilish ikki omilga – til va tildan tashqarida bo'lgan omillarga tayanadi. Bu uslublarning N.A.Baskakov, A.Sulaymonov, A.Shomaqsudov, G'.Abdurahmonov, B.O'rinboyev, S.Muhamedovlar tomonidan tavsiya etilgan variantlari mavjud bo'lib, ularda asosan beshta uslub – so'zlashuv, publitsistik, ilmiy, rasmiy va badiiy uslublar e'tirof etiladi. Ular haqida bilimga ega bo'lish talabalarga ona tilimizning nutq jarayonidagi imkoniyatlarini o'rganishga ko'maklashadi.

3. Vazifaviy uslublar ko'rinishlari.

Rasmiy uslub hozirgi o'zbek tilining davlat-ma'muriy, huquqiy muassasalarida, rasmiy diplomatik munosabatlarida namoyon bo'ladigan ko'rinishidir. Bu uslubning og'zaki va yozma ko'rinishlari, binobarin, ushbu ko'rinishlarning o'z me'yorlari mavjud.

Jumladan, aniqlik. Ushbu uslubda shakllangan matnda noaniqlikka, izohtalab o'rinlarga yo'l qo'yilmasligi lozim. Fikr va mazmun sodda, aniq va tushunarli tilda bayon qilinishi kerak: *O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat beradigan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi.* (O'zR Konstitutsiyasi, 7-modda).

Qolip. Fikr-mulohaza, bayon asosan bir qolipda ifodalanadi. Solishtiramiz: *O'zbek milliy madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan marhum adabiyot va san'at namoyandalarini mukofotlash to'g'risida – O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi e'lon qilinganligining 27 yilligi munosabati bilan amnistiya to'g'risida.*

Huquqiy hujjatlar matniga ko'z yugurtirsak, ularda boshqa vazifaviy uslublarda deyarli uchramaydigan atamalarga duch kelamiz: *ma'muriy javobgarlik, fuqarolik holati, fuqarolik javobgarligi, aybdor, gumondor, jabrlanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, jamoat kafilligi, surishtiruv, jabrlanuvchi bilan yarashuv* va boshqalar.

Diplomatik munosabatlar doirasidagi so'z va iboralar: *ahdlashuvchi oliy tomonlar, elchi, elchixona, muxtor elchi, muxtor vakil, ishonchli vakil, nota, ratifikatsiya, shartnoma, bayonot, qo'shma bayonot, deklaratsiya, tashrif, qarorgoh* kabilar.

Ushbu uslub uchun jargonlar, oddiy soʻzlashuvga xos soʻzlar, emotsional-ekspressiv boʻyoqqa ega boʻlgan soʻzlarning ishlatilishi meʼyor sanalmaydi va shu jihati bilan boshqa uslublardan keskin farq qiladi.

Rasmiy uslubning grammatik meʼyori ham alohida xususiyatlarga ega. Masalan, ot soʻz turkumiga oid soʻzlar koʻp ishlatiladi. Noaniqliklarga yoʻl qoʻyilmaslik maqsadida ular olmoshlar bilan almashtirilmaydi: *Oʻzbekiston Respublikasi oʻz taraqqiyot yoʻlini, oʻz nomini aniqlaydi, oʻz davlat ramzlarini: gerbi, bayrogʻi, madhiyasini taʼsis etadi, oʻz davlat tilini belgilaydi. Oʻzbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ramzlari muqaddasdir* (1991-yil 31-avgustda qabul qilingan «Oʻzbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari toʻgʻrisida»gi Qonunning 16-moddasidan).

Bu uslubda feʼlning harakat nomi shakli faol qoʻllaniladi, gapning kesimi koʻpincha hozirgi zamonning majhul nisbatida ifodalanadi, hujjatning xarakteriga qarab shart mayli shakliga tez-tez murojaat etiladi. Masalan, «Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining «Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining mutlaq vakolatlari» haqidagi 78-moddasida *oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish, qabul qilish, belgilash, tasdiqlash, tartibga solish, oʻzgartirish, joriy qilish, komissiyasini tuzish, saylov kunini tayinlash, saylash, ozod etish, ratifikatsiya qilish, taʼsis etish, amalga oshirish* singari feʼlli birikmalar ishlatilgan.

Rasmiy uslubning sintaktik alomatlari ham matnda tez koʻzga tashlanadi. Unda darak gaplar, ayniqsa uning qoʻshma gap shakli koʻp ishlatiladi. Yoyiq va murakkab soʻz birikmalari mahsuldor hisoblanadi, murakkab tipdagi nomlar keng qoʻllaniladi. Gap tuzilishida oʻzbek tilidagi odatdagi meʼyorga amal qilinadi va yuqorida sanalgan jihatlari bilan ilmiy uslubga oʻxshab ketadi.

Ilmiy uslub ilmiy asarlar uslubidir. Til birliklarining fan sohasida, ilmiy bayon jarayonida ishlatilishi mazkur uslubning shakllanishiga asos boʻladi. Ilmiy tafakkur fikrlashning oʻziga xos usuli ekanligi, obyektiv borliqni idrok etishda faqatgina dalil va faktlarga tayanish, fikriy izchilik kabi ekstralingvistik omillar ham nutqning ushbu turining shakllanishida, binobarin, nutqiy meʼyorning oʻziga xos turining yuzaga kelishida muhim omil sanaladi.

Ilmiy uslubga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Aniqlik. Har qanday ilmiy bayon, xulosa, shubhasiz, aniqlikni talab qiladi. Shuning uchun bu uslubda soʻzlarni aniq, asosan bir

ma'noda qo'llash, sinonimik qatordagi variantlardan masalaning mohiyatini birmuncha aniq ifoda etadigan variantini tanlash, hech bo'lmaganda, neytral variantini qo'llash taqozo etiladi. Terminlarni qo'llash bu uslubning asosiy xususiyati sanaladi: *Ximiyaviy tarkibiga ko'ra gerbidsidlar anorganik va organik gerbidsidlarga bo'linadi. Anorganik gerbidsidlar: natriy arsenit, ammoniy sulfat, kalsiy sianamid, sulfat kislota va boshqalar. Organik gerbidsidlar: traktor kerosini, mochevina hosilalari, xlorfenoksisirka kislota, xlorfenoksimoy kislota va boshqalar. Hozirgi vaqtda ko'proq organik birikmali va ba'zan anorganik birikmali gerbitsidlar qo'llaniladi* (Dehqonchilik, 134).

2. Obyektivlik. Ilmiy adabiyotlarda bu uslub doirasida til materiali fikrning haqqoniyligi, obyektivligiga xizmat qilishi lozimligi uqtiriladi.¹ «Mantiq» darsligidan bir misol keltiramiz: *«Epimenid «Men yolg'on gapiraman» deb aytdi. Bu paradoksni mutlaqo hal etib bo'lmaydi. Aytaylik, Epimenid rost gapirdi, bu holda uning haqiqatda yolg'on gapirgani aniq bo'ladi. Aytaylik, u yolg'on gapirdi. Bu holda uning haqiqatda ham rost gapirgani ma'lum bo'ladi».*²

Ma'lum bo'ladiki, haqqoniylik, obyektivlik nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, uning reallashuvida faqatgina til birliklariga tayanib ish ko'rish qiyin. Uni vaziyat, suhbatdoshlarning bir-birlarini bilishi va tushunishi kabi ekstralingvistik omillar ham belgilashi mumkin.

3. Mantiqiy izchillik ilmiy bayon uslubining o'ziga xos xususiyatini tashkil etadi. Matnda so'zlar, gaplar, abzaslar o'zaro mantiqiy bog'langan bo'lishi lozim. Shuning uchun ham ilmiy matnlar bu izchillikni yuzaga keltiruvchi *ma'lumki, ma'lum bo'ladiki, ta'kidlash lozimki, ta'kidlash o'rinliki, darhaqiqat, binobarin, shunday ekan, birinchidan, ikkinchidan, ko'rinadiki, ta'kidlash joizki, xulosa qilib aytganda, xulosa qilganimizda, birgina misol, faqat bugina emas* singari ko'plab bog'lovchi vazifasini bajaradigan so'z va birikmalar qo'llaniladi.

4. Qisqalik. Bu xususiyat aynan ilmiy bayonga xos xususiyatdir. Shuning uchun unda tilning tasviriy imkoniyatlaridan deyarli foydalanilmaydi. Gaplar darak mazmunida bo'lib, asosan sodda yoyiq holda bo'ladi. Agar fikr qo'shma gaplar yordamida ifodalansa, bog'lovchilarning faol ishlatilishi kuzatiladi: *G'alla ekinlari urug'lari saqlashga ancha chidamli hisoblanadi. Qishloq xo'jaligini sifatli urug'*

¹ Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. – Тошкент: Фан, 1984. -Б.17.

² Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Мантик. – Тошкент, 1993. -Б.282.

bilan ta'minlashda uni saqlash muhim tadbiridir. Ekiladigan g'alla urug'lari uchun davlat standarti belgilangan (Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi).

Ilmiy uslub fonetik jihatdan boshqa uslublardan farqlanib turuvchi yorqin belgilarga ega emas. Leksikasida esa farq qiluvchi jihat sohaviy atamalarning ko'pligi hisoblanadi. Bu uslubda ham, xuddi rasmiy uslubda bo'lgani kabi, so'zlarni ko'chma ma'nolarda qo'llash, tasviriy vositalardan unumli foydalanish xos xususiyat sanalmaydi. Mumkin qadar bayon bir xil me'yorda ifoda etiladi. Bu uslubda ham obrazli ifodalardan foydalanish istisno emas. Masalan: *Differensial tenglamalarning xususiy hosilalari fizikaga cho'ri bo'lib ishga kirdi, keyin u cho'ridan bekaga aylanib ketdi* (R.Bekjonov).

Muallif individualligining kam sezilarli bo'lishi ham ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Ilmiy uslubning morfologik xususiyatlari to'g'risida M.Mukarramovning «Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili» monografiyasida quyidagi fikrlar bayon qilingan:

Ilmiy nutq uchun *deyiladi, aytiladi, yoritiladi, bayon qilinadi, aniqlanadi, tekshiriladi, foydalaniladi, ta'riflanadi* singari xoslangan fe'llar mavjud.

Ilmiy uslubda bayon etilayotgan matnning sintaktik qurilishi fikriy tugallikka, mantiqiy izchillikka xizmat qiladi hamda bayonning tabiatidan kelib chiqib, bir tarkibli gaplarning shaxssiz, shaxsi umumlashgan turlari faol. Undov, atov gaplar qo'llanilmaydi, nutq monologik xarakterda bo'ladi. Rasmiy uslubdagiga o'xshab gap tuzilishining odatdagi tartibi qo'llaniladi. Qo'shma gap faol ishlatiladi. Darak gap asosiy mavqeni egallaydi, so'roq va buyruq gaplar deyarli qo'llanilmaydi.

Publitsistik uslub o'zbek tilshunosligida filologiya fanlar nomzodi T.Qurbonov tomonidan monografik yo'nalishda o'rganilgan.

Publitsistik uslub imkoniyatlarining kengligini lingvistik va ekstralingvistik (paralingvistik) – tildan tashqaridagi omillarning mustahkam aloqadorligida kuzatamiz. Publitsistik janrda yozilgan asarlarning mohiyatan hozirjavobligi, ularning axborot hamda targ'ibot-tashviqot xarakterda bo'lishi va ommani dunyo yoki mamlakatimiz miqyosida sodir bo'layotgan voqea-hodisalardan zudlik bilan xabardor qilish natijasida yuzaga keladigan novatorlik unda tabiiy ravishda yangi ijtimoiy-siyosiy terminologiya qo'llanilishi va tilimizda

me'yorlashishiga sabab bo'ladi. Boshqacha aytganda, publitsistik uslub tilning yangi so'z va iboralar hisobiga boyib borishiga ko'maklashadi.

Radio va televideniyaedagi ayrim chiqishlar bu uslubdagi matnda so'zlashuv uslubi elementlari ham ba'zan aralashib ketishi mumkinligini ko'rsatadi.

Eng muhimi, ijtimoiy-siyosiy atamalar ko'p qo'llaniladi. Hatto umumiste'moldagi so'zlar ham publitsistik uslubda yozilgan matnda atamaga aylanishi mumkin: *ovoz, ochiq ovoz, yopiq ovoz, hal qiluvchi ovoz, maslahat ovozi, qarshi ovoz, ovozga qo'ymoq, ovoz bermoq, Osiyo ovozi* singari.

Ijtimoiy-siyosiy atamalar asosan *-chi, -parast, -parvar, -xona, -noma* qo'shimchalari yordamida yasaladi. Misollar: *terrorchi, qo'poruvchi, aqidaparast, millatparvar, devonxona, bojxona, hissador, tadbirkor* kabi.

Turli metaforik turg'un birikmalar – davr talabi, do'stona suhbat, yuqori hosil uchun kurash, yaratuvchilik ishlari, dunyo hamjamiyati, mustaqil mamlakatlar hamdo'stligi, mustaqillikni mustahkamlash singarilarni faol qo'llash ham publitsistik uslub tabiatiga mosdir.

Publitsistik uslubning badiiy uslub bilan mushtarak tomonlari, ayniqsa, uning leksikasi va frazeologiyasida seziladi.

Hayotimizga raqamli texnologiyalarning shiddat bilan kirib kelishi ommaviy axborot tizimiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda internet saytlarining tashkil etilishi va ma'lumotlarning instagram, feysbuk kabi global tarmoqlarga, mobil aloqalarning telegram singari messenjerlarga joylashtirilishi axborot uzatish va qabul qilishning eng qulay va tezkor vositasiga aylandi. Jurnalistikada blogerlik yo'nalishi paydo bo'ldi. Ommaviy axborot vositalarining onlayn rejimida ishlashi tufayli joylardan tayyorlangan materiallarning radio-televideniye yoki matbuot tizimi orqali tezkorlik bilan ommaga yetkazilishi ta'minlanmoqda. Bularning barchasi axborot uzatish madaniyatining yangi bosqichga ko'tarilganligidan dalolat beradi.

Bu jarayonda tilimizning lug'at boyligi *bloger, brifing, yosh reportiyor, internet jurnalistikasi, internet-menejer, media akt, media inqilobi, media markaz, media reja, media tur, mobil muxbir, multimediya, onlayn muloqot, portal, press tur, raqamli inqilob, raqamli media* singari o'nlab jurnalistik atamalar hisobiga ko'paydi.

Badiiy uslub o'zbek tili vazifaviy uslublari orasida o'ziga xos mavqega ega bo'lib, ayni paytda o'zining alohida me'yorlariga ham

ega. Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha lingvistik birliklarning, shu bilan birga, boshqa vazifaviy uslublarga xos bo'lgan elementlarning ham ishlatilaverishi va ularning muhim bir vazifaga – badiiy-estetik vazifani bajarishga xizmat qilishi badiiy uslubning asosiy xususiyati hisoblanadi. Bu uslub doirasida ularni qo'llashning ma'lum me'yorlari ham amal qiladi.

Badiiy adabiyot tilidagi fonetik o'zgarishlar asosan matnda tovushlarning qisqargan va orttirilgan (*So'rma mendan, kim dilor o / Do'stmi yo janona deb. E.Vohidov*), ona tilimizning tarixiy taraqqiyot va she'riyat qoidalariga mos tarzda «z» ning «y» ga (*So'yla quyosh nimalar bo'lgan, / Sen chiqqanda birinchi marta. H.Olimjon*), «q»ning «g'»ga (*Quyosh orqasidan –behisob chirog' / Nuriga kiradi mamlakat shu chog'.* Zulfiya) o'tgan ko'rinishlarda me'yorlashgan.

Shuningdek, badiiy uslubda, xususan poetik nutqda hozirgi adabiy orfografik me'yor talablariga muvofiq kelmaydigan *qaro, yamon, yaro, oshno, talosh* singari so'zlar ham ishlatilaveradi.

Masalan, *-lar* kesim tarkibida kelgan paytda hurmat (*Dadam keldilar*), kinoya, piching (*Mulla Eshmat, kelsinlar*) kabi ma'nolar so'zlashuv uslubiga xos bo'lsa, ta'kid, kuchaytirish, mubolag'a singari ma'nolar badiiy uslubda ko'proq ishlatiladi (*Shu ko'zlar yulduzday abadiy kulsin, Bahor yo'llaringga to'shasin chechak. Zulfiya*). Bu kabi holatlar ilmiy va rasmiy uslublarda ko'zga tashlanmaydi.

Uslubiy xoslanish kelishik qo'shimchalari variantlarining tanlanishida ayniqsa seziladi. Masalan, qaratqich kelishigining *-(i)m* (*Axir hayajonlar o'zligim manim, / Mayli qalbingga ham ko'chsin hayajon. K.Bahromova*), *-n* (*Qanday ko'rkam qizlar avlodin /Hassos didi va shoir dili. Zulfiya*), *-ing* (*Shavqimning shuhrasi boshing uza zar tora fido, / Ko'ngluming mahzani gul orazi gulnora fido. Joniy*) tarzida qo'llanishi, qaratqich-qaralmish inversiyasi (*Yarqirar ming bir bahor ko'rki kamolingda sening, /Oftobning aksi bor o'tlug' jamolingda sening. J.Jabborov*), grammatik ko'rsatkichlarsiz kelishi (*Qarshingda turibdi umrim bir kuni, / Mening uvoq she'rim mening dilporam. J.Kamol*); tushum kelishigining *-(i)n* (*Uchirsang-da ko'kka yurak kulin, / Achchig'lanmam senga nozli quyosh. Fitrat*) va belgisiz shakli (*Ulug' Hoqon, sendan so'rov shu erdi. / Elga sabr, bardoshdan bo'lak narsa ber. H.Xudoyberdiyeva*); jo'nalish kelishigining *-a* (*Tog'larning yuzi qora. Na ko'kat bor, na lola. Ul taajjub etardi. Kunduzdagi ahvola... H.Olimjon*), *-na* (*Soya tushsa nogahon bu jismi*

betob **ustina**. Navoiy), -qa (*Hajri ashkim yetkurur har dam quyoshqa bir hayot*. Navoiy), -g'a (*Yo ilohi, emdi qilg'aysan bu bandangga nazar. Jandami, bir do'sh etib, kirdim yo'lungg'a darbadar*. Mashrab) hamda belgisiz holatda bo'lishi (**Maktab bordik** – *og'ir bo'lib qoldik daf'atan*. A.Oripov); chiqish kelishigining -din tarzida ishlatilishi (*Vatan sevmakdin ortiq / Menga olamda shior bo'lmas*. E.Vohidov), o'rin kelishigi qo'llanganda u bilan egalik qo'shimchasi o'rtasida bitta «n» tovushining orttirilishi (*Surxoningda anor guli kahrabodur, Yoboningda bodomlaring talx g'izodur, Qovuntarvuz qursog'inda selitrodur, Kimlar seni bemor etdi, Tabiatingni xor etdi*. O.Hojiyeva) shu uslubga xos xususiyatlar sanaladi.

Sifat va son turkumlari doirasida: -lik qo'shimchasining -liq, -lig', -luq, -lug' kabi shakllari (*Shohigul ermas bu o'tlug' yuzlaring hijronida*. E.Vohidov) ajralib turadi; *charog'on, shodon, za'faron* kabi so'zlar tarkibidagi -on; *chirkin, otashin* kabi so'zlardagi -in affikslarida badiiy uslubga xos chegaralanganlik seziladi (*So'ng bu iflos zafardan Ular shodon yurdilar. Olamda mard yo'q ekan. Bizlar mardmiz dedilar*. O.Matjon).

Olmoshlarning uslubiy chegaralanishlari badiiy adabiyotda sezilarli o'rin tutadi. Kishilik olmoshlarini olaylik. *Men, biz, sen, siz, ular* singari olmoshlarning biri o'rnida ikkinchisi, ya'ni *men* o'rnida *biz* (– *Ma, ich, amir, – dedi va kuldi. –Bilib qo'y, bizday amirul-mo'min qo'lidan yolg'iz sen may ichursen*. O.Yoqubov) qo'llanishi bu uslub uchun me'yor sanaladi.

Fe'lda badiiy uslubga xos belgilar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: *Ekan-ermoq* (*Kecha ustod chaqirtirgan erkan*. O.Yoqubov), *kan-kin* (***Bo'lganmikin*** yer uzra bir ko'z *Ko'rmak uchun seni osmonda*. H.Olimjon), -gin/-gil/-g'il (***Qo'ygil*** u kunlarni eslatma menga. A.Oripov; *Lekin hazar qilmag'il*. O.Yoqubov), -sin/-sun (*Jonlar sening yuzginangdan aylansun*. Fitrat) kabilar.

Uslub talabi bilan o'zaro o'rin almashishlar mayl va nisbat kategoriyalari misolida ham kuzatiladi: *Boysunqur mirzo zo'ravonlik qilsin! Men mo'minlarcha bosh egib elchi yuboray!* (O.Yoqubov).

Badiiy asar bayonida zamon shakllarining barchasi ishtirok etadi. Kelasi zamon – o'tgan zamon: *Qish chillasi avjida. Izg'irinli ellar esadi*. (P.Qodirov).

Yordamchi so'zlarning badiiy uslubga xoslari quyidagilar: *Ko'makchilarni olaylik. Bilan ko'makchisining birla, birlan, ila, -la; uchun ko'makchisining -chun; kabi ko'makchisining misol,*

misoli, misli; ora ko‘makchisining aro, shuningdek yanglig‘, uzra, ichra ko‘makchilari badiiy matn uchun xos.

Lekin va agar bog‘lovchilarining qisqargan shakli *lek* va *gar*: Yor istig‘nosidan o‘lmasmanu, kuydim va **lek** – Lobarim oldida nazmim bu qadar behol uchun (E.Vohidov); Yana: **Gar** gunoh orttirsang o‘zingga og‘ir, Vijdon azobida qovrilsang bot-bot (A.Oripov), Men xud ul tifli parivashg‘a ko‘ngul berdim, **vale**. Xonumonim nogahon buzilmag‘ay boshdin yana (Bobur), ...hammani olib boradimi **yoinki** xohlagan borib, xohlamagan qolaberadimi? (O‘zbek tili grammatikasi), **Holonki** men sizni xondan ham yuqori qo‘ygan edim (A.Qodiriy) kabilar.

Badiiy uslub leksikasi ham alohida belgilarga ega. Abru, albat, armug‘on, bazmaro, balqimoq, bahoriston, boda, bo‘ston, gavharafshon, giryon, gulbahor, guliston, gulro‘, gulshan, debocha, dilafro‘z, dilxona, dolg‘a, durafshon, duto, jahonbaxsh, jondosh, jo‘shmoq, jo‘shqin, kabk, kuylamoq, libos, lolagun, lo‘livash, maygun, mardonavor, mastona, mahvash, mahpora, moviy, moh, mujda kabi xoslangan so‘zlar lug‘atlarda poetizmlar nomi bilan yuritiladi.

A.Hojiyevning «O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati» (Toshkent, 1974) ana shu sinonimik variantlarni farqlashda amaliy yordam beradi.

Frazeologizmlar mohiyat e‘tibori bilan asosan so‘zlashuv va badiiy nutq mevasidir. Masalan, birgina *o‘lmoq* ma‘nosini anglatadigan yuzga yaqin frazeologizmlar sinonimik qatorining paydo bo‘lishi ularning vazifaviy chegaralanish imkoniyatini tug‘diradi. Masalan, bu tizimga kiradigan *olamdan o‘tmoq, dunyodan o‘tmoq, omonatini topshirmoq, qulog‘i ostida qolmoq, jon bermoq* shakllari so‘zlashuv uslubida ishlatilsa, *vafot etmoq, hayotdan ko‘z yummoq, dunyodan ko‘z yummoq, hayot bilan vidolashmoq* kabilar ilmiy, publitsistik va rasmiy uslublarda uchraydi. *Alloh rahmatiga yo‘l tutmoq, shahodat sharobini ichmoq, dorilfanodan dorilbaqoga rixlat qilmoq* singarilar esa badiiy matnga tegishlidir.

Kichik bir xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, badiiy uslubda adabiy til boyliklaridan foydalanibgina qolinmasdan, undagi ko‘plab birliklarning tilda me‘yorlashuviga, adabiy tilning boyib, rivojlanib borishiga doimiy ravishda ta’sir o‘tkazib turadi.

So‘zlashuv uslubi kishilarning kundalik rasmiy-norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarining o‘ziga xos tarzda amal qilishidir. Uni ma’lum ma’noda tildagi boshqa uslublarga qarama-qarshi qo‘yish mumkin.

Xo'sh, so'zlashuv uslubi qanday o'ziga xosliklarga ega? Birinchidan, nutq elliptik xarakterda bo'ladi. Lekin bunday holatda ham tinglovchiga fikr tushunarli bo'ladi. Chunki u oldin aytilgan fikrning mantiqiy davomi bo'ladi. Masalan, *qorami? ko'kmi?* shaklida beriladigan savolni ikki xil vazifada olib ko'raylik. Agar biz uni uy bekasi tilidan eshitsak, *qora choy damlaymi* yoki *ko'k choy damlaymi?* degan ma'noda tushunishimiz mumkin. Xuddi shu savolni do'kon sotuvchisi tilidan eshitsak, *qora choy olasizmi* yoki *ko'k choy sotib olmoqchimisiz?* ma'nosida tushunishimiz ham mumkin.

Ikkinchidan, so'zlashuv nutqida til birliklari o'zining ekspressivlik imkoniyatlarini keng namoyish qiladi. Masalan, *ulguramizmi?* degan savolga *yo'q, ulgurmaymiz* deyishdan ko'ra vaziyatdan kelib chiqib, *ulgurib bo'pmiz, ulgurish qayoqda, ulgurib ham bo'ldik* singari javoblar birmuncha tabiiy va ekspressivroq bo'lib chiqadi.

Uchinchidan, bu uslubda ohang – intonatsiyaning ahamiyati nihoyatda kattadir.

So'zlashuv uslubi ham boshqa vazifaviy uslublar kabi fonetik, leksik, grammatik o'ziga xosliklarga ega.

Nutqda tovushlarning uyg'unlashuvi (*ketti, ottan, yigichcha*), bir tovush o'rnida ikkinchisining talaffuz qilinishi (*traktir, zaril, bironta*), tovushlarning o'rin almashishi (*turpoq, aynalmoq*), tovushlarning orttirilishi (*o'ramol, fikir, banka*), tushirib qoldirilishi (*gazet, burni, egni*) kabi fonetik hodisalar avvalo so'zlashuv uslubida namoyon bo'ladi.

So'zlashuv uslubi leksikasida ikki qatlam alohida ajralib turadi. Birinchi qatlam – bu kundalik turmush muomalasida faol qo'llaniladigan ijtimoiy hayot va uy-ro'zg'or yumushlari bilan bog'liq so'zlar.

Ikkinchi qatlam – og'zaki nutqdagi ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar. Ular neytral qiymatdagi so'zlar bilan sinonimik munosabatga kirisha oladi: *kichkina (bolagina), yiqildi (quladi), buzoq (ish bilmas, galvars), og'zi ochiq (yig'loqi)* kabi.

Bu uslubning *burnini ko'tarmoq, ko'zini shira bosmoq, qo'li kaltalik qilmoq* singari o'z frazeologizmlari mavjud. Kishi nomlari *Abdi, Bek, Zuli, Dili* singari qisqartirib ishlatish mumkin. So'zlarning metonimik ko'lam juda keng tarqalgan. Masalan: *auditoriya kuldi, kengash bo'ldi, dasturxonga o'tirdi, samovarga chiqdi* kabi.

So‘zlashuv uslubida nutqiy vaziyatning ahamiyati juda katta. *Salom, assalomu alaykum, vaalaykum assalom, xayr, ha, yo‘q, albatta, aha, xo‘p* singari so‘zlar nutqda ko‘p ishlatiladi.

So‘zlashuv nutqi o‘zbek tilshunosligida prof. B.O‘rinboyev tomonidan anchagina durust ishlangan.³

4. Nutq madaniyatining vazifaviy uslublarga ta’siri.

Ta’lim jarayonini, o‘qitish sifatini tubdan yaxshilash davlatimiz olib borayotgan ko‘p qirrali siyosatda asosiy vazifalardan biri bo‘lib keldi va shunday bo‘lib qoladi. Tabiiyki, ana shu zaruriyat bilan bog‘liq dunyoqarash tilshunoslik ilmini o‘qitish jarayonida ham e’tiborga olinishi lozim.

Bu, dastavval, til materialidan nutq jarayonida samarali foydalanish, nutq madaniyatini yanada takomillashtirish borasida me’yoriy muammolarni ma’lum darajada hal qilish va bunga oid bilimlardan talabalarni, jamoatchilikni xabardor qilib borish bilan bog‘liq.

Nutq madaniyati muammosi insoniyat sivilizatsiyasining barcha bosqichlarida o‘rtaga qo‘yib kelingan bo‘lsa-da, bugunga kelib unga bo‘lgan talab tubdan o‘zgardi. Chunki milliy istiqlol g‘oyasini xalqimiz qalbi va ongiga singdirishda nutqiy ta’sirchanlik ham alohida mavqega ega.

«O‘rnida ishlatilgan so‘zlar, yorqin va dildan bayon etilgan nutq, bama’ni fikr har doim odamlarning xulq-atvoriga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Muloqot jarayonida fikrga, sog‘lom g‘oyaga ega bo‘lish masalaning bir jihati. Uning boshqa bir muhim jihati ana shu fikrlarni bayon eta olish qobiliyatidir».⁴

Nutq madaniyati tilda ma’lum me’yorda keltirilgan til birliklarining nutqda qo‘llanish shart-sharoitlarini, qonuniyatlarini nazariy jihatdan asoslaydi hamda bu me’yorga amal qilishni ma’lum ma’noda nazorat ham qilib boradi. Nutqdagi yutuq va kamchiliklar tahlil qilinib, kamchiliklarni tugatishning eng ma’qul yo‘llari ko‘rsatib turiladi.

Badiiy ijod jarayonida shoir va yozuvchilar o‘z fikr va hissiyotlarini boshqa ijodkorlardan farq qiladigan, favqulodda original ifodalarda berishga intiladilar. Bu yo‘lda ular yangi so‘z va iboralar

³ Ўринбоев Б. Ўзбек тилининг сўзлашув нутки синтаксиси масалалари. – Тошкент: Фан, 1975; Ўринбоев Б., Ўринбоева Д. Ўзбек тилининг сўзлашув услуби. – Тошкент, Фан, 1991.

⁴ Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Олий таълим муассасалари учун қўлланма. – Тошкент: «Янги аср авлоди», 2001. -Б.191.

yaratadilar. Ularning me'yorlashishini sharoit, vaqt va ommaning qabul qilishi kabi omillar belgilaydi.

Shunday ekan ularni bir uslub doirasida me'yoriy deb hisoblashga asosimiz bo'ladi. Adabiy asarlardan namunalar keltiramiz: *Ammo samo o'g'li yashinvor*, *Tashlanmasdan ohuga yovqur*, *Changalidan ketgandi mador*, *Ko'zlarida so'ngan edi nur* (O. Matjon. Aks-sado) kabi.

Lekin badiiy adabiyot matnida ba'zan boshqa manzaraga ham duch kelib qolamiz. Ollayor Begaliyev «Yo'qolgan tabassum» hajviy hikoyasida (Sharq yulduzi, 1988, №7) qo'llagan ayrim so'z va iboralarni til me'yori va mantiq me'yori nuqtayi nazaridan qanday tushunish lozimligiga o'quvchi qiynaladi. Jumladan hikoyada shunday ibora va jumlar bor: *tabassumni tashlab kirmoq; tabassumini katta-kichik, qalin va yupqa, bo'yalgan va tabiiy, samimiy va g'arazli tabassumlar tartibsiz qalashib yotgan kotibaning stoli ustiga tashlab ketmoq; tabassumlarini qabulxonada qoldirmoq; tabassumidan ayrilmoq; mo'jaz tabassum; tabassumini yechib-kiyib yurmoq; tabassumi bilan kirmoq; tabassumidan ayrilmay o'tirmoq; tabassumini uyiga tashlab kelmoq; tabassumini supurib, o'raga tashlab kelmoq; tabassumlarini o'z joyiga qo'ndirmoq; o'z tabassumini olish uchun kotibaning stoliga engashmoq; tepkilangan tabassumini bukilib olmoq; tabassumining changini qoqmoq; tabassumini joyiga o'rnatmoq; elliginchi razmer tabassum; yangi tabassum; barkashdek yuzidagi qovunning tilimini eslatuvchi tabassum; baxtsiz tabassum; kichkina tabassumni kattalashtirmoq; o'z tabassumiga tikilmoq; tabassumli kulishni o'rganmoq* kabilar.

Bu iboralar va jumladan tabassumning nima ekanligini bila olmay qolasan kishi. Hikoyani kulgili chiqarish maqsadida tasvirni bu qadar bachkanalashtirib yuborgan qalamkashning badiiyatdan xabari bor-yo'qligi haqida o'quvchida shubha tug'iladi.

Kelajakda o'zbek tilida uning barcha sathlari bo'yicha me'yoriy holatlar aniqlangan va ularning natijasi o'laroq me'yoriy fonetika, me'yoriy leksikologiya, me'yoriy frazeologiya, me'yoriy grammatika, me'yoriy stilistika singari yo'nalishlar tadqiq etilishi va ularda til faktlari vazifaviy-uslubiy jihatdan tahlil qilinishi lozim.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. *Uslub* tushunchasini izohlab bering.
2. O'zbek tili stilistikasining yo'nalishlari haqida ma'lumot bering.

3. *Vazifaviy uslublar* deganda nimani tushunasiz?
4. O'zbek tilining rasmiy uslubi haqida gapirib bering.
5. Ilmiy uslubning o'ziga xos jihatlari qanday matnlarda ko'rinadi?
6. Publitsistik uslubning bugungi rivoji haqida gapiring.
7. Badiiy uslubning boshqa vazifaviy uslublardan farq qiluvchi jihatlari tushuntirib bering.
8. So'zlashuv uslubining me'yorlari qanday bo'ladi?
9. Aniqlik, to'g'rilik, obyektivlik, mantiqiylik, qoliplilik singari xususiyatlar vazifaviy uslublarda qay tarzda namoyon bo'ladi?
10. Nutq madaniyatining uslublarga yoki aksincha usublarning nutq madaniyatiga ta'siri bormi?

KITOB TANLASH – DUNYOQARASH, DID VA RUHIY EHTIYOJ BELGISI

Reja:

1. Kitob o‘qish mas’uliyati.
2. Har bir yaratilgan asar yangilikmi?
3. Badiiy asar personajlari.
4. Badiiy matnning tili.

Tayanch so‘z va iboralar: *kitob, mundarija, o‘qish, uqish, mas’uliyat, vaqt, energiya, axborot, zavqlanish, tahrir, yangilik, voqelik, yondashuv, xilma-xillik, «Alpomish», variantlar, anglash, individual yondashuv, personaj, detal, maqsadlilik, ma’naviy qiyofa, tashqi qiyofa, detalning «gapirishi», qahramonlardagi nuqsonlar, dunyoqarash, axloqsizlik, noodatiylik, «adabiyot adabiyotdan o‘sib chiqadi», «mayiz emagan xotin», did, fahm, zavq.*

1. Kitob o‘qish mas’uliyati.

Olamdagi barcha bilimlar kitoblarda mujassam bo‘ladi. Ammo ularga to‘plangan bilimlarning mundarijasi turli-tuman. Ilmiy, publitsistik, badiiy va hokazo. Yana ularning har biri muayyan janrlarga bo‘linadi. Binobarin, turli fanlar, yo‘nalishlar, janrlar va ularning talablariga mos uslublarda yoziladigan matnlarni o‘qishga bo‘lgan talablar ham turlicha bo‘lishi tabiiy. Ammo bir holat – kitobni o‘qish va uqish mas’uliyati ularning hammasi uchun ham o‘zgarmasdan qolaveradi.

Biz «Nutq madaniyati va mutolaa san’ati» kursining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, ushbu mavzuda va bundan keyin ham badiiy matnlarni o‘qish oldiga qo‘yiladigan talablar, ularni hal etish yechimlari haqida mulohaza yuritamiz.

Darhaqqat, kitob o‘qish mas’uliyati haqida. Kitob o‘qishga mas’uliyat bilan yondashishning bir qator sabablari bor. Birinchidan, uni o‘qishga u yoki bu darajada vaqt sarflanadi. Vaqtining behuda ketishini esa hech kim xohlamaydi. Ikkinchidan, bu o‘tgan vaqt mobaynida muayyan miqdorda energiya sarflanadi. Ayniqsa, ko‘z ko‘p kuch sarflaydi. Diqqat bir joyga to‘planadi, odam zo‘riqishi mumkin bo‘ladi. Uchinchidan, kitobni o‘qish ma’lum bir maqsad bilan amalga oshiriladi – turli ma’lumotlar, faktlar, axborot xarakteridagi bilimlar o‘rganiladi, yoki bo‘lmasin, badiiy-estetik zavq olinadi. Har qanday

holatda ham kitobni o'qishda e'tiborsizlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Agar shunday qilinsa, ko'zlangan natijaga erishib bo'lmaydi.

Kitob o'qish shunchaki vaqtni o'tkazish, ermak vositasi emas, balki mas'uliyat ekanligini yana bir bor ta'kidlash maqsadida bir faktni keltirmoqchiman. Ustozim O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor Rahmatulla Qo'ng'urov zakiy va hushyor odam edilar. Suhbatdoshining biron bir gapini e'tibordan chetda qoldirmas, jarayondagi hamma gapning mag'zini chaqib o'tirar edilar. O'ziga bo'lgan talabchanlik ilmiy faoliyatida ham juda asqotgan deb o'ylayman.

U Zot o'zbek tilining chinakam tadqiqotchisi va bilimdoni sifatida har bir til faktiga jiddiy va tanqidiy yondashganlar. Mening qo'limda ustozdan meros qolgan Abdulla Qahhorning 1959-yilda «O'zdavnashr»da chop etilgan «Sinchalak» qissasi. Kitobni varaqlayman. Uning 4-betida «*Nosirov bir stakan za'faronday yaxna choyni nafas olmay shimirdi, stakanni taq etib stolga qo'ydi-da, qip-qizil, silliq, derazaning aksi ko'rinib turgan yaltiroq boshini silar ekan, kulimsirab: – Ko'chadan ketayotgan avtomobil birovni bossa yoki turtibmi, yiqitibmi ozor bersa, nima bo'ladi? – dedi*», degan gap yozilgan. Parchadagi *taq etib* fe'lining tagiga ustoz chizib qo'yanlar va varaq chetida uning *Nosirov taq etibdi* degan qayd turibdi. Harakatning bajaruvchisi Nosirov bo'lgandan keyin, u bajargan harakat *taq etib* emas, balki orttirma nisbat shaklida *taq ettirib* bo'lishiga hamma kitobxon ham e'tibor beravermaydi.

Kitob sahifalariga ko'z yugurtirishda davom etamiz. Uning 25-betida quyidagilar yozilgan: *Saida raisning bo'lajak kelin Hikoyatxonni ko'z oldiga keltirish uchun Kifoyatxonga zimdan razm soldi*. Domla gapdagi *Hikoyatxon* so'zining tagiga chizib, *Manzuraxon emasmi*, deb yozib qo'yanlar. Bu ustozning kitobni diqqat bilan o'qiganligining yana bir dalili. Hammamiz ham kitobni shunday o'qiymizmi? Bilmadim. Harqalay ushbu matbaa xatosi asarning keyingi nashrida *Saida raisning bo'lajak kelin Manzuraxonni ko'z oldiga keltirish uchun Kifoyatxonga zimdan razm soldi* tarzida tuzatilgan.⁵ Ustozning bu kabi sinchkovligi bizga kitob o'qishning shunchaki oddiy bir yumush emasligi doimo eslatib turadi.

⁵ Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Беш жилдлик. Учинчи жилд. – Тошкент, 1988. -Б.65.

2. *Har bir yaratilgan asar yangilikmi?*

Bu savolga javob bir xil bo'lmaydi. Ammo yangilik emas, degan fikr ustunlik qiladi. Nega? Shuning uchunki, voqelik badiiy matn mavzusi bo'lgunga qadar Alloh taoloning irodasi bilan sodir bo'lgan. Voqelikning ifodasi vositasi bo'lgan so'zlar-chi? Ular ham shu asar yaratilgunga qadar mavjud edi. Ular hozir ham ishlatilib kelinmoqda va bundan keyin ham iste'molda bo'ladi.

Dunyo haqidagi qadimiy falsafani eslaylik: Bu olam juda ko'hna. U bizlardan avval bo'lgan. Hozir bizlar yashab turibmiz. Bizlar o'tib ketgandan keyin ham u davom etaveradi. Uning mavjudlik tarziga biz hech qanday ta'sir o'tkaza olmaymiz.

Mana uning Umar Xayyom ruboiylaridan biridagi badiiy talqini:

Bizlar bo'lmasak ham jahon bo'lg'usi,

Bizlardan na nom-u nishon bo'lg'usi.

Bizlarku yo'q edik, etmovdi xalal,

Bizlar bo'lmasak ham hamon bo'lg'usi.

Xuddi shu mazmundagi talqin Abdusaid Ko'chimovning quyidagi to'rtligida ham to'rtligi bor:

Hayot bozor edi bizlargacha ham,

Bizdan so'ng ham shunday qolaveradi.

Bozorda savdomiz tamom bo'lgan dam,

Mozorlar bag'riga olaveradi.

Sezib turibmizki, har ikki asarning motivi bir xil: hayotda insonlar avval ham bo'lgan, bundan keyin ham bo'laveradi. Demak mavzu, unga bo'lgan munosabat va kelingan xulosa yangilik emas. Unda yangilik nimada? Yangilik bir xil voqelikka ijodkorlarning turlicha yondashuvida, ularning badiiy-falsafiy tafakkuri prizmasida o'ziga xos tarzda talqin etiluvida. Albatta, til birliklari, boringki, adabiy janrlar ham shunga mos tarzda tanlanadi.

Agar Umar Xayyom insonning bu foniy dunyoda o'tkinchi ekanligini qat'iy hukm tarzda ifoda etsa, A.Ko'chimov bu fikrni obrazli tarzda – bu kelib-ketishni bozorda savdo qilayotgan odam misolida beradi. Bor gap shu. Bir xil voqelikning ifodasida ikki xillik, ikki xil yondashuv. Yangilik ana shu.

Xalqimiz sevib tinglaydigan yoki o'qiydigan doston – «Alpomish»ni olaylik. Akademik V.M.Jirmunskiy va prof.X.T.Zarifovlarning tadqiqotlariga tayanib aytish mumkinki, bu qahramonlik dostonining Islom shoir, Po'ltan shoir, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Saidmurod Panoyev, Bo'ri baxshi Sodiqov, Berdi

baxshi, Abdulla shoir, Nurmon shoirlar tomonidan kuylangan variantlari yozib olingan. Ularning orasida Fozil Yoʻldosh oʻgʻlidan yozib olingan va 1939-yilda Hamid Olimjon tahririda chop etilgan variant sujet koʻlami va badiiyligi jihatdan mukammal sanaladi.⁶

Bu holatda ham yuqoridagi fikrni aytamiz. Yaʼni, doston voqealari, sujeti xalq ogʻzaki ijodi mahsuli sifatida hamma baxshilarga avvaldan maʼlum, ammo uning bayonida qoʻllangan tilning tasviriy vositalari yangicha – har bir baxshining oʻziga xos. Shu boisdan, deyarli barcha oʻzbek folklorshunos olimlar «Alpomish»ning Fozil shoir variantining badiiy xususiyatlari haqida iliq gaplarni aytishadi.

Aytilganlardan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, badiiyat bilan shugʻullanuvchi barcha darajadagi ijodkorlar olamni, insonlar hayoti va tarixini oʻzlaricha anglaydi, munosabat bildiradi va oʻz isteʼdodi doirasida badiiy tarzda bizlarga tavsiya etadi.

3. Badiiy asar personajlari.

Badiiy asar boshidan oxirigacha personajlarning xatti-harakatlaridan iborat. Boringki, ularning gapiradigan gaplari ham ana shular doirasida boʻlsin. Ammo ularning birortasi, hech bir detal behudaga keltirilmaydi. Ularning har biri oʻzida muayyan bir ijtimoiy yuk tashiydi, muayyan bir badiiy-estik vazifalarni ado etadi.

Tomas Foster ingliz romanlaridagi ovqatlanish sahnalarini tahlil qilib beradi. Uningcha, hech qachon maslakdosh boʻlmagan kishilar ataylab birga ovqatlanishmaydi, bir-birini tushlikka taklif etmaydi. Taklif etdimi, demak yashirin maʼno bor. Ularning bir-birlariga yaqin ekanligiga ishora bor. Bu gapga qoʻshilish mumkin. Biz ham odatda tushlikka oʻzimizga maʼqul kishilarni taklif etamiz. Tabiiyki, suhbatdoshimiz ham, shunga yarasha yurakdan, samimiy va dilkash boʻladi. Binobarin, muallif ham odatda, ana shunday suhbatlarni tashkil etish niyatida ovqatlanish sahnalarini oʻylab topadi. Qahramonlarni gapirtirishga zamin yaratadi.

Harqalay, badiiy asarlardagi ovqatlanish sahnalari aniq bir maqsad – personajlarning maʼnaviy qiyofasini ochishga boʻysundiriladi.

Personajning turli holatlardagi oʻzini tutishi turlicha boʻladi. Bu holatlarda shakllanadigan nutq ham vaziyatga bogʻliq tarzda yuzaga kelishi mumkinligini inkor etib boʻlmaydi. Shu maʼnoda ota-ona, doʻst-birodarlar, rahbarlar yoki boʻlmasin hamkasblar bilan boʻladigan

⁶ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Богатырский эпос «Алпамыш». Узбекский народный героический эпос. – Москва: ОГИЗ, 1947. -С.61-112.

suhbatlar alohida vaziyatlar hisoblanadi. Har bir vaziyatda nutqiy madaniyat tamoyillariga rioya qilish o'ziga xos bo'ladi.

Shunday ekan, kitob o'qilayotganda personajning kim bilan suhbatlashayotgani ahamiyatsiz bir narsa emas. Ularning har birining zamirida yozuvchi muddaosi yashiringan bo'ladi.

Badiiy asarda personajning tashqi qiyofasi ham «gapiradi». Agar insonning qiyofasida qandaydir tabiiy nuqsonlar bo'lsa, uning hech qanday ahamiyati yo'q. Ammo u asar qahramonlarida uchrasa, bu nuqsonlarga bekorga urg'u berilmaydi.

Tamg'alar, chandiqlar ham nimalargadir ishora qiladi. Buni badiiy adabiyotdan olingan aniq misollar asosida tahlil qilish mumkin. Ular odatda dunyoqarash, axloqsizlik, noodatiylik ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tashqi belgilar orqali hayot qiyinchiliklari ham beriladi. Masalan, «Chinor ostidagi duel» kinofilmining qahramoni – cho'ponning cho'loqligi. Ammo buni Sohibqiron Amir Temur obrazi chizilgan asarlardagi oqsoqlik bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Har ikki holatni keltirib chiqargan alohida sabablar bor.

Shu o'rinda «Sinchalak»dagi Eshonning qiyofasini tasvirlash bilan yozuvchi nimaga ishora qilayotganiga e'tibor berish mumkin: *Ikki qavatli idora binosining o'ng qanotiga taqab solingan baland yozgi qizil choyxona zinasidan chamandagul do'ppi, oq shoyi ko'ylak va shim kiygan bir bola yugurib tushdi va chopqillaganicha Qalandarovning oldiga kelib qo'l qovushtirdi. Eshon bola emas, yoshi ellikdan oshgan ko'sa ekan. Uning bo'yni toshbaqaning bo'ynini eslatar, yuzi so'rib tashlangan husayni uzumga o'xshar, lekin bir tomonga silliq qilib taralgan sochi oyog'idagi amirkon tuflisidan ham qoraroq va ko'proq yaltirar edi* (57). *Shu choq eshik xuddi mushuk tatalaganday tiqirladi-da, sekin ochilib, Eshonning kallasi ko'rindi* (58). Bu tavsif Eshonning nafaqat tashqi qiyofasi, balki jamiyatdagi mavqeyiga ham ishoradir. Ayni paytda, undan voqelikka muallif munosabati ham shundaygina bilinib turadi. Keyingi tasvirlar ham bu fikrni to'ldiradi: *Jim ketaverish noqulay bo'lganligidan, Saida Eshondan: – Siz kolxozda nima ish qilasiz? – deb so'radi. Eshon anchadan keyin, xuddi xumga yo'talganday do'ng'illab javob berdi: – Starshiy choyxonchik!* (58).

Bu holat Eshonning xotini Kifoyatxon tasvirida ham kuzatiladi: *Kifoyatxon ko'k ro'molini tomog'ining tagidan qayta bog'lab, yosh qizday uyala-uyala zinadan chiqib keldi va qilpillagannamo bir*

harakat bilan poygakka o'tirdi. Saida raisning bo'lajak kelini Manzuraxonni ko'z oldiga keltirish uchun Kifoyatxonga zimdan razm soldi. Uning **jag'i keng, ko'k tomirlari bo'rtib turgan ikki chakkasi ichkariga botgan, peshonasi kavushning betiga, yo'q, umuman, yuzi mardona kavushga o'xshar edi.** Biroq Kifoyatxon bu savollarning birontasiga ham javob bermadi, **boshini quyi solib, iljayib, erka o'sgan qiz boladay erkalanib-qiyshanglab, ko'z qiri bilan Hurinisoga qarardi** (65).

Kifoyatxonning go'yo yosh qizga o'xshab chaqqon harakat qilishi, uyalishi, qilpillashi; jag'ining kengligi, chakkasining ichkariga botgani, yuzining kovushga, peshonasining kovush betiga o'xshatilishi, qiyshanglab harakat qilishi – bu tavsif jamlanib, kitobxonda obraz haqida salbiy munosabat paydo qiladi. Uning ko'z oldida Eshon va Kifoyatxon misolida birovlariga mute, hayotda qaramlik va laganbardorlik yo'lini tanlagan kimsalar paydo bo'ladi.

4. Badiiy matnning tili.

Xalq orasida «adabiyot adabiyotdan o'sib chiqadi», degan naql yuradi. [Kanadalik adabiyotshunos Nortrop Fray shu iborani qo'llagan]. Binobarin, badiiy asarda tasvir etilayotgan voqelikning hech biri mutlaqo yangi hodisa emas ekan, ular qaysidir bir zamon va makonda insonlar hayotida bo'lib o'tgan, go'yo qo'limizdagi matnda u yana takrorlanayotgan ekan, til materiali haqida ham shunday mulohaza qilish mumkin bo'ladi. Chuqur o'ylab qaralsa, ularning aksariyat qismi umumxalq leksikasiga oid elementlardir. Iste'molda kam qo'llaniladigan yoki yozuvchining o'zi ijod etgan birliklar nisbatan ozchilikni tashkil etadi.

Xo'sh, biz qo'llayotgan so'zlar hamma bilgan va ishlatib kelayotgan birliklar ekan, unda so'z olamida qanday qilib yangilik yaratish mumkin? Ifodaning noyob ko'rinishlarini qanday qilib yuzaga keltirsa bo'ladi? Mana, badiiy mahoratning ildizi qayerda!

Faqat adibninggina o'z ijod mahsuli bo'lgan so'z va iboralar til uchun ham, adabiyot uchun ham chinakam ma'noda yangilik bo'ladi. Bunga badiiy matnlarda misollar ko'p. A.Qahhorning «Mayiz yemagan xotin» hikoyasini olaylik.

Asar qahramoni Norqo'zini muallif *mulla Norqo'zi* deb ataydi. Uni istihola bilan *mulla* deb atashning o'zida bir olam kinoya bor. Chunki Norqo'zi mullalikning ko'chasidan ham o'tmagan go'l, laqma, ig'vogar, fosiq odam. Muallif uni biron marta bu nomlar bilan atamaydi, ammo doimo shunday kishi ekanligiga ishora qilib boradi.

Boshdan oxirigacha kinoya bilan yo'g'rilgan hikoyada Norqo'zining faqat shu illatlariga ishora qilib boriladi. Ifodada esa betakror usul tanlanadi: voqelik Norqo'zining munosabati orqali ochilib boradi.

«Har kuni bozordan qaytib samovarga chiqadi»gan Norqo'zi go'yo biladiganday yarim kechagacha odamlarga shariatdan vaysab o'tiradi. Uning ig'vosidan Abdulhakimning qizi ham, usta Mavlonning o'g'li ham, Sotiboldining dorixonada ishlaydigan, Meliqo'zining avtobusda konduktorlik qiladigan xotinlari ham, Izzatillaning artist singlisi ham, Norbo'taning doktorlikka o'qiydigan qizi ham, xullas, mahalladagi ayollarning hech biri chetda qolmaydi.

O'zining xotini esa nazarida farishta: namoz o'qiydi, to'pig'idan yuqorisini avrat hisoblab, jiyakli ishton kiyadi... *«Yetti qavat parda ichida» o'tiradi. «Mulla Norqo'zining xotini pokdomon. Agar mulla Norqo'zi o'n yil yuziga kulib qaramasa, qopdan ko'ylak, bo'yradan lozim kiyishga majbur qilsa ham, pinagini buzmaydi. Har qanday xotin bilan ham inoq bo'lavermaganining o'zi o'ta diyonatli, pokdomon ekanining nishonasidir. Uning bitta-yu bitta o'rtog'i bor. Bu xotin to'g'risida mulla Norqo'zi shunday fikrda: agar farishta ilgari o'tgan bo'lsa – shuning onasi, endi tug'lsa – shuning bolasi bo'ladi, agar hozir yer yuzida bo'lsa – shu xotinning o'zi. Shuncha keladi, haftalab, o'n kunlab turib qoladi, nainki shu choqqacha mulla Norqo'ziga tovushini eshittirmasa! Shariatni mahkam ushlagan xotin shaharda ikkita bo'lsa, biri – mulla Norqo'zining xotini, ikkinchisi – shu! Namoz o'qiydi, odatdagi ro'zadan tashqari ashir oyida ro'za tutadi, zavoddan chiqqan nonni, hozirgi kushxonalarda so'yilgan molning go'shtini yemaydi. U kelib turganda mulla Norqo'zi tashqarida – mehmonxonada yotib yuradi va uyini allaqanday nurdan munavvar bo'lgandek sezadi».*

Payti kelib, bu «farishta ayollar»ning siri fosh bo'ladi. Ayollar kiyimini kiyib, paranji yopinib, Norqo'zining uyiga kelib-ketib yuradigan bu kimsa xotining o'ynashi bo'lib chiqadi. Sirni ayol qiyofasidagi erkakning xotini fosh qiladi. *«Begona xotin ayvonga chiqib dod ustiga dod soldi. Birpasda tom, devor ustlari, ichki-tashqi hovlining yuzi odamga to'ldi».* Hikoyaning oxirini to'liq keltiramiz:

«Ikki kishi – ayollar kirib, u farishtani uydan olib chiqishdi. U atlas ko'ylak, lozim kiygan, bosh yalang, oyoq yalang, yoshgina chiroyli bir yigit edi. Hamma jim qoldi. Bu sukunatni yetmish yoshlardagi bir chol buzdi. U, mulla Norqo'ziga qo'lini paxsa qilib dedi:

– *Sadqayi odam keting-e, ayb emasmi?! Xotin qilish qo‘lingizdan kelmasa taloq qiling! Qo‘ying-e, ko‘chib keting mahalladan, yo biz ko‘chib ketamiz!..*

Devor ustida turgan o‘n ikki yoshlardagi bir qiz devordan kesak ko‘chirib olib mulla Norqo‘ziga o‘qtaldi.

– *Hu o‘l, turqing qursin! Boshingga solaymi shu bilan! Mahallada sasib, o‘quvchi qizlarga kun bermaysan-u, o‘zing noto‘g‘ri ish qilasan...*

Hammaning diqqati xotinha kiyingan va eshik yonida yerga qarab turgan yigitga jalb bo‘ldi. Yana jimlik hukm surdi. Bu sukunat og‘ir tegirmon toshi bo‘lib mulla Norqo‘zini yanchib yubordi. U devor ustidagi qizga qarab, bo‘g‘iq tovush bilan o‘shqirdi:

– *Sen gapirma! Senga kim qo‘yibdi gapirishni! Usta Mavlonning o‘g‘lidan bir hovuch mayiz olganingni o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman!..*

Hamma kulib yubordi. Tomdan kimdir qichqirdi:

– *Ha, bu kishining xotini mayiz emagan!»*

Bu hikoya tahlilidan xulosa qilish mumkinki, ijodkor hamma vaqt ham asar matnida o‘z fikrini ochiq ayta olmaydi yoki aytmaydi. Bunday paytlarda ana shu fikrni aytish asar personajlari zimmasiga yuklanishi mumkin bo‘ladi. Ikkinchi tomondan, ifodaning bu usuli o‘zida muayyan badiiy vazifa tashiydi. Ayni bir fakt yoki ma’lumotning muallif tilidan berilishi personaj tilidan berilishichalik estetik samaradorlik kashf etmasligi mumkin. A.Qahhor yaratgan «mayiz emagan xotin» jumlasini shu hikoya tufayli ibora darajasiga ko‘tarildi va uning badiiy-estetik martabasi shu qadar yuksak bo‘ldiki, uni haligacha biron-bir ijodkor qayta qo‘llashga jur’at etolmadi.

Bu keltirilgan misol badiiy matnlarda tildan foydalanish ijodkor mahoratiga nechog‘lik bog‘liq ekanligining yorqin dalilidir.

Endi o‘rtaga savol tashlasak bo‘ladi: «Hali hech kim qo‘llamagan so‘z yoki iborani yaratishning imkoni bormi, yo‘qmi?». Bor, albatta. Buning uchun ijodkor Abdulla Qahhor darajasida bo‘lishi kerak.

Keyingi mavzularda biz til masalalariga yana qaytamiz.

Mavzu yakunida xulosalarimiz qanday bo‘ladi? Kitob zavq bilan o‘qilishi kerak. U sizga bir olam quvonch olib kelsin. Bu tuyg‘ular faqatgina yozuvchi mahoratiga, u asarida tasvirlayotgan voqealarning muhimligi yoki badiiy jihatdan yuksak saviyada yozilganligigagina bog‘liq bo‘lib qolmaydi. Buning uchun kitobxon-o‘quvchining ham didi yuksak, fahmi baland bo‘lishi kerak. Qars ikki qo‘ldan chiqadi-da.

Xullas, o‘zingiz zavq ola bilmagan kitobni o‘qimang.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. *Kitob o'qish mas'uliyati* deganda nimani angladingiz?
2. O'zingiz eng keyingi o'qigan badiiy asardagi qaysi qahramon ma'qul bo'ldi? Buning sababi nimada?
3. Sizga ma'qul bo'lgan qahramonning ichki olamini ochib berishga xizmat qilishi mumkin bo'lgan kalit so'zlarni sanang.
4. Badiiy asardagi bosh qahramonning ichki dunyosi va tashqi qiyofasi o'rtasida bog'liqlikni payqadingizmi? Ularning asosiylarini gapirib bering.
5. Siz o'qigan badiiy asarda qo'llangan til vositalari haqida nima deya olasiz? Yozuvchining o'zi yaratgan yangi so'z va iboralarga duch keldingizmi?
6. *Kitob zavq bilan o'qilishi kerak*, degan fikrga munosabatingiz qanday?

KUTILGAN VA KUTILMAGAN DETALLAR

Reja:

1. *Badiiy detal* tushunchasi talqini.
2. Abdulla Qahhor detallari.
3. Detallar ifodadagi tabiiylik va ishontirish vositasi.
4. Urush – vayronagarchilik timsoli.

Tayanch soʻz va iboralar: *detal, tipiklashtirish, badiiy ifoda, qahramon xarakteri, gʻoya, emotsional taʼsir, intellektual olam, suvga choʻkish detali, kasallik, semizlik, oriqlik, ramziylik, tabiiylik, ishontirish, urush, qahramonlar, urush ayollar ishi emas, Vatan, muqaddas.*

1. *Badiiy detal tushunchasi talqini.*

Har qanday badiiy matn detallarga toʻla. Ammo adabiyotshunoslarning fikricha, asardagi har qanday predmet, belgi va shtrixlar badiiy detal boʻla olmaydi. Ularning hayotni tipiklashtirishda, uni badiiy ifodalashda, qahramon xarakterining u yoki bu qirrasini ochishda, asar gʻoyasini ifodalashda, uning emotsional taʼsir kuchini oshirishda xizmat qiladigan qismigina badiiy detal sanaladi. Sanʼatkor oddiygina bir detal orqali oʻz qahramonlarining ichki dunyosiga kirib boradi va ularning intellektual olamini kitobxon koʻz oʻngida gavdalanitirishga muvaffaq boʻladi.¹

Tomas Foster esa badiiy asarda biron bir detal behuda keltirilmasligini aytadi. Masalan, asar qahramoni suvga choʻkib ketdi deylik, deydi u. Agar oʻlsa, voqealar rivoji boshqa bir tarzda davom etadi. Uni omon qoldirishdan esa boshqa bir maqsad koʻzlanadi. Tirik qolishning necha xil varianti tasvirlansa, u shuncha xil mazmunga ega boʻladi. Shunga qarab voqelik rivojlantiriladi. Bunga qutqaruvchilar hayoti ham qoʻshilishi mumkin. Qahramonning omadlilik-omadsizligiga, faollik-nofaoliligiga ishora qilinadi.

2. *Abdulla Qahhor detallari.*

A.Qahhorning «Anor» hikoyasini olaylik. Asar mazmunida bosh qahramonlar – Turobjon va uning xotini misolida xalqimizning avvalgi yuz yilliklardagi turmush tarzini ochib berish gʻoyasi yotadi. Haqiqiy

¹ Бобоев Т. Адабиётшуносликка кириш курси бўйича ўқув-методик қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. -Б.68-69.

ahvol qanday bo'lgan? Xalqning asosiy qismi kambag'alchilikda hayot kechirishgan. Turobjonlar oilasi ham shularning biri. Ammo muallif ularni kambag'al edi deb aytmaydi. Ushbu so'z hikoyada uch o'rinda qo'llangan bo'lsa, faqat personajlar tilidan keltirilgan: « – *Har narsaga ro'zg'or achchiq bo'la bersa.... qiyinroq bo'lar,* – dedi Turobjon yaktagini kiyayotib, – *kambag'alchilik...*

– *Kambag'alchilik o'lsin!*

Xotin bu gapni shikoyat tarzida aytdi, ammo Turobjon buni ta'na deb tushundi.

– *Nima, men seni olganimda kambag'alligimni yashirganmidim?»*

Ammo muallifning oldida ularning kambag'al ekanligini yoritib berish vazifasi turibdi. Buning uchun yozuvchi muhim bir detal – anordan foydalanadi. Turobjonning xotini homilador va anorga boshqorong'i bo'lgan. Anorda bozorda falon pul turadi. Bu pul esa Turobjonda yo'q. Noilojlikdan anorning o'rniga Turobjon bepul tushgan asalarining uyasini olib keladi. Ammo homilador ayol uchun u hecham anorning o'rnini bosmaydi. Oxir-oqibatda Turobjon o'g'irlikka qo'l uradi va anorni topib keladi.

Ijodkorlar *kasallik*dan ham badiiy detal sifatida foydalanishadi. A.Qahhorning «Tomoshabog'» hikoyasida Hamroqulning tobi qochib qoladi. Ko'chada uni bu holda ko'rib qolgan «Romanska» – Romanovski bog'ining qoravuli Stokgulov – Usta kulol uni boqqa olib kirib, biroz dam oldiradi. Buni ko'rib qolgan mirshab ikkalasini olib borib qamaydi. Chunki u zamonlarda egasi rus to'ralari bo'lgan istirohatgohlarga mahalliy xalq –«sartlar»ning kirishi mutlaqo mumkin emas edi. Hikoya yakunidagi gaplarga e'tibor bering: *Olomon to'plandi. – Yig'lama! – dedi Usta kulol mirshabxonaning eshigi oldida kampiriga qarab: – Men bir turmadan ikkinchi turmaga o'tayotibman, nega yig'laysan!*

Asarda o'tmishdagi adolatsiz tuzumni qoralagan adib qamoq voqeasining sodir bo'lishiga Hamroqul qadoqchining betob bo'lib qolishini asos qilib oladi.

Bu holatni A.Qahhorning «Bemor» hikoyasida ham kuzatamiz. Sotiboldining xotini og'rib qoladi. Kambag'allik, yetishmovchilik o'tmish zamonlarining bir dalili bo'lsa, ikkinchisi avomlik, tushunmovchilik va shu sabab xurofotning ustunligi. Ayol nimadan kasal bo'ldi, nimadan ko'zi tindi? Ochlikdan, yo'qchilikdan, albatta. Nimadan o'ldi? Yana ochlikdan va xurofotdan. Baxshiga o'qitish, xipchin bilan urish, tovuq so'yib qonlatish, chilyosin qildirish...

Buning ustiga, bularning hammasi qarzga. Yo‘g‘on cho‘zilib, ingichka uzildi. Uni doktorxonaga olib borishning imkoni yo‘q. *«Doktorxona deganda Sotiboldining ko‘z oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so‘mlik pul kelar edi»*, deb yozadi adib.

Bu hikoyada ham kasallik o‘tmish zamonlarining katta fojiasini ko‘rsatib berishda badiiy detal vazifasini o‘tagan. Zukko kitobxon bu hikoyalarga ko‘z yugurtirishi bilan darhol u zamonlarni hozirgi davr bilan qiyoslay boshlaydi. Ularning mag‘zini chaqib, bugungi dorilomon kunlarga shukrona aytadi.

Bemorlik detali badiiy matnlarda o‘rni bilan turli xil vazifani ado etishi mumkin. Uning yuqoridagi hikoyalarda bir-biridan farq qiladigan ikki xil g‘oyaning ochib berilishiga xizmat qilganini ko‘rdik. A.Qahhor *«To‘yda aza»* hikoyasida esa kasallikning bir turi bo‘lgan semizlik ham badiiy detal sifatida komizmga xizmat qilgan.

Hikoya bosh qahramoni Muxtorxon domla hurmatli odam. Uch yil burun xotini olamdan o‘tgan. Kutilmaganda *«Domla uylanarmish»*, degan gap tarqaldi. Bu xabardan mahalla ahli xursand bo‘ldi. Domla yoqtirgan ayol aqlli, tamizli kishi chiqishi haqida umid bildirishdi. Ammo bunday bo‘lib chiqmaganidan odamlarning hafsalasi pir bo‘ldi. Xotinlikka tanlangan ayol buning teskarisi bo‘lib chiqdi. Mana unga berilgan qisqacha tavsif: *«Kelin darhaqiqat yosh, lekin xuddi qiziqchilikka semirganday yum-yumaloq, egnida yengsiz qizil ko‘ylak, boshida popushakning tojiga o‘xshagan, lekin qizil shlyapa; qo‘lidagi sumkasi, oyog‘idagi poshnasi bir qarich tuflisi ham qizil»*. Ushbu kichik bir parchadagi har bir kichik detal nafaqat mahalladoshlarning, ayni paytda, hikoyani o‘qiyotgan kishining ham ensasini qotiradi. Jumladagi *semizlik; yum-yumaloqlik; ko‘ylakning, shlyapaning, sumkaning, tuflining qizilligi* kelin haqidagi tasavvurni butunlay o‘zgartirib yuboradi va nafaqat kelinga, balki Muxtorxon domlaga ham nafrat tuyg‘usini uyg‘otadi: *«Uni adovat va nafrat bilan boshdan-oyoq kuzatgan ayollardan biri, burilib atelyedan chiqib ketar ekan:*

– *Xo‘rozqandga o‘xshamay o‘l! – dedi.*

– *Qarigan chog‘ida xo‘rozqand yalamay domla ham o‘lsin! – dedi yana biri»*.

Darhaqiqat, A.Qahhor semizlikni kasallik deb bilgan. Buni yozuvchining *«Mushtum» to‘g‘risida»* degan maqolasida yozganlari ham tasdiqlaydi: *Jurnal ba‘zan nima deyayotganini o‘zi yaxshi bilmaydi. Doktorlar tuzatolmagan bir kasallikni (semizlik) tabib tuzatadi. Tushunib bo‘lmaydi: jurnal tabibni fosh qilayotiptimi, uni*

propaganda qilayotiptimi? Ayni paytda, undan xarakterli obrazlar yaratishda foydalangan. Jumladan, «Sinchalak»da Xayriniso va Mehrixonlarning tashqi qiyofasini chizishda qoʻllagan:

Xayriniso: Eshon ustma-ust yoʻtaldi. Roʻparada tandirga oʻt yoqayotgan novcha, koʻk roʻmolini tomogʻidan bogʻlab olgan bir kampir Saidaga qarab, «keling» dedi-yu, yana ishini qila berdi. Ayvonga ochiladigan ikki eshikning biridan xonatlas koʻylak kiygan, juda semiz, bagʻbaqalari osilgan, qip-qizil yuzi yaltirab turgan, aftidan, yoshini belgilab boʻlmaydigan bir xotin chiqdi.

Mehrixon: Saida uning kim ekanini bilolmadi, eshikni ochdi, chiroqni yoqib, ayolni ichkariga taklif qildi. Ostonada oq shoyi koʻylak, tagdoʻzi doʻppi kiygan, oʻzi qora, boʻyni kalta, pakana va semizgina bir juvon paydo boʻldi. Saida kursi qoʻyib berdi. Juvon qop-qora qoʻlidagi oq roʻmolchasini mahkam siqimlaganicha borib kursiga oʻtirdi. Uyni juda oʻtkir sovun hidi tutib ketdi. – Men Mehrixon boʻlaman, – dedi juvon xiyol qiyshanglab.

Eʼtibor qilinsa, matnlardagi semiz soʻzining maʼno ottenkalari ikki xil: juda semiz bir xotin, semizgina juvon. Ijobiy va salbiy ottenkalar unga subyektiv baho shakllari va ayol kishiga nisbatan qoʻllaniladigan xotin va juvon soʻzlari yordamida farqlangan.

Shu maʼnoda, A.Qahhor «Koʻzacha» hajviyasida tanlagan semiz komik obraz yaratish vositasiga aylangan. Uning antonimi boʻlgan oriq- ning ham bab-baravar qoʻllanishi esa bu komizmni kuchaytirgan. Asarda lagandarbor Nazarovlarning amaldorga xushomadgoʻyligi haqida gap boradi. Yangi ishga tayinlangan «Toʻraqulov bularni idorada bir-ikki koʻrgan, lekin ikkovining ham familiyasi Nazarov ekanini biri semiz va biri oriq boʻlsa ham xulq, feʼl-atvor yogʻidan xuddi bir qolipdan chiqqanday boʻlgani uchun idoradagilar bularni Qoʻshnazarovlar deb atashini bilmas edi».

Adib Nazarovlarning har biriga ism ham tanlash mumkin edi. Ammo bu nomlanishlar muallif uchun ham, oʻquvchi uchun ham kutilgan estetik zavqni bera olmasdi. Aynan semiz va oriq soʻzlarining badiiy detal sifatida tanlanishi ana shu vazifani oʻz zimmasiga olgan.

Bayonda bu usulni qoʻllash bilan A.Qahhor oʻzi ustoz deb bilan atoqli rus yozuvchisi Anton Chexovning anʼanalarini davom ettirgan. Chexovning Ivan Ivanovich va Ivan Nikiforovichlar bosh qahramon boʻlgan hikoyasini eslaylik.

Harqalay kasallik muammosi ijodkorlar oʻz asarlarida tez-tez murojaat qilishi mumkin boʻlgan mavzular va detallardan sanaladi. Bu

ba'zan badiiy asarlarda hikoya qilinayotgan voqelik davri bilan bog'liq. Chunki har bir davrning, aytaylik, o'z kasalligi bo'lgan. Masalan, rishta, vabo, sil kasali, bezgak. Hozirgi yosh kitobxonga ular haqida gapirilsa, tushunilmasligi mumkin. Sadridin Ayniyning «Esdaliklar» asaridagi rishta kasalligi tafsilotlarini eslaylik. Endi esa zamonaviy kasalliklar paydo bo'ldi: SPID, so'zak, saraton, koronavirus, qon bosimining oshib ketishi, buning oqibatida yuzaga keladigan insult yoki infarkt va hokazolar.

Ularning har biri badiiy adabiyotda ramziy mazmun kasb etishi, personaj atrofida paydo bo'lgan muammoning yechimiga sabab sifatida keltirilishi mumkin. Shuning uchun ham Tomas Foster «kasallikning badiiy qimmatini», degan iborani ishlatgan.

3. Detallar ifodadagi tabiiylik va ishontirish vositasi.

Tadqiqotchilarning ta'kidlaganlardek, badiiy matndagi bironta detal shunchaki keltirilmaydi. Ularni keltirishning tagida muayyan maqsad yotadi. Masalan, A.Qahhorning «Maston» hikoyasini olaylik. Hikoya ot o'limi tafsiloti bilan boshlanadi. O'qish maqsadida yo'lga chiqqan Maston va Turg'unoylar mingan *«ot munkib ketib o'lgagi bilan shag'alga qadaldi-da, ag'anab, bir necha minutning ichida o'la qoldi»*.

Savol tug'iladi: agar ot hikoyaning boshidayoq o'lib qoladigan bo'lsa, shuni keltirib o'tirish shartmidi? Ot o'limi bayonining davomidayoq bu kabi savollarning oldi olinadi: *«Nima bo'ldi, nima uchun o'ldi, buni tekshirishga sira ehtiyoj bo'lmadi, chunki o'limning sababini tekshirish, tirikni o'limdan olib qolish uchungina kerak xolos, bu bepoyon dashtda esa boshqa tirik ot yo'q edi»*.

Ikki manzil orasi bir necha kunlik, tog'-u toshlardan iborat mashaqqatli yo'l. Hatto «Cho'gi bo'ri» degan adirdan ham o'tiladi. Har qanday odam bu kabi xatarli yo'lni bosib o'tish uchun muayyan tayyorgarlik ko'radi-da. Otda yo'lga chiqish ana shu tayyorgarlikning bir qismi edi.

Ammo ot o'lib qoldi. Endi nima bo'ladi? Endi yo'l mashaqqati ikki baravar ortadi. Mana shu azob-uqubatlarni ko'rsatish va uni yengib o'tishda Mastonning matonatini yoritish va uning tabiiyligini ta'min uchun yozuvchiga otning o'limi detali zarur bo'lgan.

4. Urush – vayronagarchilik timsoli.

Urush adabiyot uchun ham abadiy mavzu. Insoniyat jamiyat bo'lib yashab kelayotgan dastlabki paytlardan boshlab u odamzot

taqdirini o'zgartirib yuborishga va uni xonavayron qilishga qodir kuch sifatida borliqqa dahshat solib kelmoqda.

Odamzodning boshiga urush solgan kulfatlar qoralab yozilmagan bironta janrdagi badiiy asar yo'q. Ulardan istagancha namunalar keltirish va tahlil etish mumkin. Bu o'rinda biz 2015-yilda adabiyot bo'yicha xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan belorus adibasi Svetlana Aleksandrovna Aleksievichning «Urush ayol chehrali emas» («У войны не женское лицо») kitobini tanladik. Adibaning kitobning boshlanishida aytgan gaplari bizni shunga undadi.

Uning mazmuni taxminan shunday edi:

Bizning urushdan keyingi qishlog'imiz ayollar qishlog'i edi, – deb eslaydi u. – Erkaklarning ovozi eslay olmayman. Urush haqida ham faqat ayollardan eshitganman. Aytadi, yig'laydi. Kuylaganlari ham yig'laganday. Men ham urush haqida yozmoqchi bo'ldim. Minglab katta-kichik, ma'lum-noma'lum urushlar bo'lgan. Ular haqida bundan ham ko'p yozilgan. Ammo erkaklar yozgan, erkaklar haqida yozilgan. Ularda faqat erkaklar ovozi eshilib turadi. Biz ham urushni «erkakchasiga» his qiladigan bo'lib qolganmiz.

Ammo ayollar jim. Hatto frontda bo'lganlar ham jim. Gapirganda ham o'z uyida yoki tor doirada gapirar edilar. Bu aytilganlar biz o'qigan va eshitgan «erkaklar urushi»ga o'xshamasdi: qanday qilib dushmanlar bir-birini o'ldirganlari, dovyurak generallar yoki harbiy texnika haqida emasdi. «Ayollar urushining o'z bo'yoqlari, o'z hidi bor edi. Hissiyotlarining o'z kengliklari bor edi. O'z so'zlari bor edi. Bu urushda qahramonliklar ham, qahramonlar ham yo'q edi. U yerda shunchaki o'zi shug'ullanishi mumkin bo'lmagan ishlar bilan mashg'ul odamlar bor edi.

O'zinga o'zim savol beraman: Erkaklar olamida mardlarcha turib bilgan va o'z o'rniga ega bo'lgan ayollar nima uchun o'z tarixini da'vo qilmadilar? Nima uchun o'z so'zlari va hissiyotlarini yashirdilar? Ularning urushi noma'lumligicha qoldi. Men ayollarning urush tarixini yozmoqchi bo'ldim.

Mansurxon Toirov roman haqida «Urush ayollar ishi emas» nomli maqola yozdi va uni «Jahon adabiyoti» jurnalining 2015-yil №11-sonida chop ettirdi. Maqolada kitobdan parchalar tarjima qilib berilgan. Bu o'rinda biz ana shu tarjimalardan foydalandik va ayollar qismatida aks etgan Ikkinchi jahon urushining ayrim manzaralaridan quyidagi parchalarni keltirdik:

«Kimdir bizni sotdi... Nemislar partizanlar otryadi qayerda joylashganini bilib oldi. O'rmonni, unga olib boradigan barcha yo'llarni o'rab olishdi. Biz quyuq changalzorlarga yashirinib oldik; botqoqliklar jonimizga oro kirayotgan edi. Yuho botqoqlik! Texnikaniyam, odamlarniyam butkul yutadigan ajal komi. Haftalab hiqildog'imizgacha suvga botib turardik. Safimizda yaqinda farzandli bo'lgan radist ayol ham bor edi. Go'dak och, tinmay yig'laydi. Lekin onaning ham qursog'i bo'sh, ko'kragida sut yo'q. Agar yonginamizdagi jazo otryadining itlari eshitib qolsa, bormi... O'ttiz kishining hammasini muqarrar ajal kutadi!.. Sizga tushunarliqdir? Qaror qabul qilamiz... **Komandirning buyrug'ini yetkazishga hech kim botinolmay turadi, lekin onaning o'zi hammasini fahmlaydi. Yo'rgakni suvga botiradi... Go'dakkina boshqa qichqirmaydi... Bizning boshimiz xam. Na onaga, na bir-birimizga qaray olamiz...**»

«Biz asirlarni darrov otib tashlamas edik, bu ular uchun juda ham yengil o'lim bo'lardi. **Dushman asirlarini xuddi cho'chqani burdalagandek bolta bilan bo'lak-bo'lak qilardik.** Men buni tomosha qilishga borar edim... Kutardim! Og'riq azobidan ularning ko'zlari naq qinidan chiqib, yorila boshlashini uzoq kutardim... Kosasidan otilib chiqqan qorachiq... Siz bu haqda nimayam bilardingiz?! **Ular mening onamni, singillarimni qishloq o'rtasida tiriklay yoqishgan edi...**»

«Hujumga o'tdik. Birinchi nemis posyolkalari... Biz – yoshmiz, kuchlimiz. To'rt yildan beri ayol yuzini ko'rganimiz yo'q. Yerto'la to'la vino, gazak. **Nemis qizlarini tutib kelamiz va... o'n odam bir qizni ketma-ket zo'rlaymiz...** O'n ikki-o'n uch yoshdagi qiz... Mabodo yig'lasa urardik, og'ziga biror narsa tiqib qo'yardik. U azoblanardi, bizga esa bu zavqli edi. Men bunga qanday botinganimizni hozir tushuna olmayman... Ziyoli oilaning o'g'li... Lekin bu men edim... Biz faqat o'zimizning qizlar, hamshiralar qilmishimizdan voqif bo'lib qolishidan qo'rqar edik...»

«Qurshovga tushib qoldik... O'rmonlar, botqoqlar bo'ylab daydib yurdik. Barglarni yedik, daraxt ildizlarini yedik. Biz besh kishi edik, oramizda endigina armiyaga chaqirilgan o'smir ham bor. Yarim kechasi qo'shnim pichirladi:

– Bola yarimjon bo'lib qoldi, baribir o'ladi.... Sen meni... tushunyapsanmi...

– Nima demoqchisan o'zi?

– **Odamning go'shtini esa bo'ladi.** Bu haqda menga bir «zek» aytgan... Ular Sibirdagi qamoqdan qochgan ekan. O'shanda atay bir bolani ham o'zlari bilan olib ketishgan. Shu yo'l bilan omon qolishgan ekan...

Bir musht tushiray desam, majolim qolmagan. Ertasiga biz partizanlarga duch keldik...».

Anastasiya Sergeyevna Demchenko:

Erkaklar urushdan nogiron bo'lib qaytsa-da, oilali bo'lar edi. **Ayollarning urushdan so'nggi qismati esa fojiali edi.** Urush ulardan yoshligini, erlarini tortib oldi; ularning tengqurlaridan ozginasigina qaytib keldi».

Katta serjant, snayper Klavdiya Grigorevna Kroxina:

«Men frontdan sochlarim oqarib keldim. Yoshim yigirma birda, men esa judayam rangparman. Yaralangandim, kontuziya bo'lgandim, bir qulog'im og'ir edi. Oyim avvaliga: «Men ishonar edim sening qaytib kelishingga! Men seni deb erta-yu kech iltijolar qilardim!» degan so'zlar bilan kutib oldi. Bilsam, akam boyaqish frontda halok bo'libdi. Onam yig'lab: «**Mabodo yarador bo'lsa, qiz bola nogiron bo'lib qolganidan ko'ra o'lib qo'yaqolgani durust, deb iltijo etardim**», dedi.

Harbiy feldsher Mariya Afanasevna Garachuk:

«...Yaradorni opichlab borayapman. Shunda birdan aniq-tiniq bola yig'isini eshitib qoldim. Bola zo'r berib yordamga chaqirardi. Men aqldan ozay deya maydonda dovdirab u yoqdan-bu yoqqa yugurardim – qayerda, kim o'zi? Besh yashar qizaloqni pachaqlangan tank ostidan topgunimcha chopdim. Men u qizaloqni topib, chakkasida qonni ko'rganimda, dahshatga tushdim. Dahshat, **bolalarning olovda yonishi dahshat!**»

Nikolay Borisovich:

«**Qizlar urushga qiziqish uchun borishmagan.** Mamlakat uchun, xalq uchun hayot-mamot davri edi. **Professorlar xalq lashkariga olishlarini so'rayotgan edi...** Yaradorni jang maydonidan olib chiqib ketish nima edi o'zi? Men hozir sizga aytib beraman... Biz hujumga o'tdik, dushman pulemyot bilan o'qqa tuta boshladi. Oqibatda batalyonimiz sob bo'ldi... Hamma tuproqqa belanib yotibdi... To'g'ri, hammasi ham o'lmagan, bir qismi yarador edi. Nemislar o'qni yomg'ir qilib yog'dirishyapti. Kutilmaganda transheyadan avvaliga bir qizaloq, ketidan ikkinchisi, uchinchisi sakrab chiqa boshladi... Ular yaradorlarni tashishga tushishdi, hatto nemislar ham bir muddat

hayronlikdan soqov bo'lib qoldi. Kechki soat o'nlargacha deyarli hammasi og'ir yarador bo'lgan qizlarning har biri besh-oltitadan odamni qutqargan edi. Ularni xasislarcha mukofotlashdi, chunki urushning boshida mukofotlarni sochishmas edi. Qoidaga ko'ra, yaradorni quroli bilan olib chiqish kerak. Medsanbatdagi birinchi savol: «Quroli qani?» U vaqtlarda qurol kamchil edi. Miltiq, avtomat, pulemyot – bularni ham tashish kerak edi. **Urush tugagach, ular – harbiy hamshiralar kishini vahimaga solar darajada himoyasiz bo'lib qoldi...** Mana, mening xotinim. U – ajoyib ayol, biz u bilan o'ttiz besh yildan beri totuv yashab kelamiz. Uyam harbiy ayollarga yomon munosabatda. Ular urushga qalliq uchun borishgan, ularning bari u yerda kimgadir mahbuba bo'lgan. Aslini olganda, bizlar ochiqchasiga gaplashib o'tiribmiz, **bu qizlar pok, sofdil qizlar edi.** Lekin urushdan so'ng har birimiz o'z hayotimiz bilan ovora bo'lib ketdik... – Nikolay Borisovich o'ylanib qoldi. – Siz buni tushuna olmaysiz. Ifloslikdan, bitlardan, o'limlardan so'ng biror-bir go'zallik qo'msaladi. Chiroyli ayollarni... Mening bir do'stim bo'lardi, uni frontda bir go'zal qiz sevar edi. Hamshira. Lekin u qizga uylanmadi. U frontdan qaytgach o'ziga boshqasini, bo'yanganini topdi. Oqibat bu xotin bilan bebaxt bo'ldi. Endi u o'sha qizni eslaydi, unisi unga do'st edi. **Lekin frontdan so'ng unga uylangisi kelmadi. U qizni to'rt yil mobaynida faqat dag'al etikda ko'rgan edi-da...**»

Olga Vasilevna xotiralari:

«Biz ne uchundir farzandlarimizga urush haqida so'zlab bermas edik. Men ordenlarimniyam bir voqeadan so'ng uzib tashladim-da, boshqa taqmadim. Non zavodi direktori edim. Bir yig'ilishda boshliq – uyam ayol kishi – ordenlarimni ko'rib, hammaning oldida: «Sen nega temir-tersaklaringni taqib olib, o'zingni ko'z-ko'z qilib yuribsan!», – dedi. Uning o'zida mehnat ordeni bor edi va doim taqib yurardi. Lekin mening harbiy mukofotlarim unga negadir yoqmadi.

...Ayollar qirq-ellik yoshga kirishganida ham obshejitlarda yashashardi...

Mening dugonam... Uning ismini keltirmayman, kim bilsin, xafa bo'lib qoladimi... Uch marta og'ir yarador bo'ldi. Urush tugadi, tibbiyot institutiga bordi. Uning birorta ham qarindosh-urug'i qolmagan edi, u judayam kambag'al, nochor yashar edi, qornini to'yg'azish uchun farroshlik qilardi. Hech kimga o'zining nogiron ekanini aytmas, hatto bu haqdagi hujjatlarini ham yirtib tashlagandi. Men «Nega bunday qilding?» deb so'rasam u: «Unda menga kim

uylanardi?» deya javob berdi. Nimayam derdim, «to'g'ri qilibsan», dedim. U esa yig'lab: «O'sha qog'ozlar menga endi kerak bo'lyapti. Og'ir kasalman...», – dedi».

Serjant, zenit qurollari komandiri Valentina Pavlovna Chudayeva:

«Kimgayam men yarador bo'lganman, kontuziyada bo'lganman deb ayta olardim. Aytib ko'r-chi, shundan so'ng kim seni ishga olarkan? Nimayam deyardim, mening oyoqlarim og'riydi, juda tajang edim... **Biz baliq kabi jim edik. Biz hech kimga jangchimiz deb ayta olmas edik. Keyinchalik bizlarni hurmat qila boshlashdi** (Urush tugaganidan qirq yil o'tgach! Ko'pchiligi ungacha xor-zor bo'lib, yo'qchilikda, gadoylik qilib o'lib ketishgach...), uchrashuvlarga taklif qila boshlashdi, u vaqtlarda esa biz jim edik. Hatto mukofotlarimizni ham taqib yurmas edik. Erkaklar taqib yurishardi, ular g'oliblar, qahramonlar edi; bizga esa butkul boshqa ko'z bilan qarashardi. Erkaklar frontda bizni avaylashardi, osoyishta hayotda esa men ularning ayollarga shunday munosabatda bo'lganini uchratmadim... Urushdan keyin askarlik kitobimizni yopishimiz shartligi biz uchun juda alamli bo'ldi...

Yolg'iz yashayapman. Yaradorligim, kontuziyani boshdan o'tkazganim uchun onalik baxtidan ham mosuvo bo'lgan ekanman...»

Olga Yakovlevna Omelchenko, o'qchi rota saninstruktori:

«Hujumdan so'ng kishi yuziga boqmagan ma'qul, chunki u yuz endi butunlay o'zgacha, odamniki emas. Men u nima ekanini tasvirlab berishga ojizman. Nazarimda, hamma narsa qandaydir g'ayrioddiy ko'rinish oladi. Ularga qarash dahshatlidir...

Barchamiz bunday urushdan so'ng, bunday azob-uqubatlardan so'ng, daryo bo'lib oqqan ko'zyoshlaridan so'ng olam go'zal bo'ladi, deya o'ylardik. Hamma odamlar endi rahmdil, bir-biriga yaqin bo'ladi, bir-birini yaxshi ko'radi deya o'ylardik... Axir hammaning boshidan shunday og'ir qayg'ular o'tdi! U bizni bir-birimizga aka-uka, opa-singil qilib qo'ydi! Biz bu kunni qanchalar orziqib kutgan edik... Lekin odamlar! Shu kunlarda yovuz odamlarni ko'rganimda, o'zi uchungina yashayotgan xudbinlarni ko'rganimda, sira tushunolmayman: bu qanday qilib ro'y berishi mumkin, bu qanday ro'y berdi?»

Ko'chadagi bezori bir-ikki odamni bezovta qilishi mumkin; bir qotil bitta, ikkita, boringki, yuzta odamning boshini yeyishi mumkin. Bir

ablah soxta «dohiy» esa millionlab odamning boshini yeydi, baxtini yeydi, bolalarini yetim qiladi, xor-u zor etadi...»

Mariya Semenovna Kaliberda, serjant, aloqachi:

«Ketib boryapmiz. Ikki yuzta qiz. Jazirama issiq, yoz, ortimizdan qumda qizil dog'lar qolyapti... Bu holatda nimaniyam yashira olarding? Izimizdan askarlar kelishyapti, o'zlarini hech narsani ko'rmaganga, sezmaganga solishmoqda... **Bilasizmi, urush bizning yoshligimizni, ko'pchiligimizdan onaligimizni ham tortib oldi. Qizlarni ayollikning eng oliy baxtidan mahrum qildi...**»

Nina Vasilevna Ilinskaya, katta serjant, hamshira:

«Men frontdan hech vaqosiz keldim. Ustimdagi gimnastyorkam, shinelim – shugina, xolos. (Barcha askarlarni shunday ship-shiydam qilib shilib uyiga jo'natishgan. O'ljalar – trofeylar generallarga qolgan, chamamda... – M.T.). Shu holimda hayotimni qayta boshlashim kerak edi. Yana turli ig'volar... Yaqinda qirq yil bo'ladi, mening esa hozir ham yonoqlarim lovullab turadi...

Erkak urushdan keldimi, u qahramon. Kuyov! Qiz bola qaytsa, unga darrov yovqarash: **«Bilamiz, sizlar u yerlarda nima ishlar qilganinglarni!..» Butun urug'-aymoq bosh qotiradi: kelin qilish mumkinmi yoki yo'qmi? Ochig'ini aytaman, biz yashirardik, biz frontda bo'lganimizni gapirishni xohlamas edik. Biz yana oddiy qiz bo'lishni xohlar edik. Kelin bo'lishni istar edik...**».

Vera Maksimovna Berestova, tibbiy xizmat leytenant:

«Urushning birinchi kunidan oxirgi kunigacha frontda bo'ldim. Yaralandim, bir marta Volgaga ham cho'kib ketay deganman. Suzib o'toldim, o'zim bilan bir yaradorni ham sudrab chiqdim. Lekin muz ostida qolganim sababli bolali bo'lolmadim».

Tamara Stepanovna Umnyagina, gvardiyachi kichik serjant, saninstruktor:

«Stalingradda odam qonini shimmagan bir gramm ham yer qolmagan. Yangi askarlar keladi. Yosh, kelishgan, chiroyli yigitlar. Oradan bir-ikki kun o'tib, hammasi halok bo'ladi, hech kim qolmaydi. Men yangi odamlar kelishidan qo'rqib qoldim. Ularning chehrasini, so'zlarini yodda olib qolishdan qo'rqar edim. Bir marta uch yuz kishidan kun oxirigacha o'nta odam qolibmiz. Bizlar shuncha odam qolganimizdan so'ng, hammayoqqa sukunat cho'kkanidan so'ng, tirik qolganimizga quvonib o'pisha boshladik, yig'lay boshladik.

Ular hamon ko'z oldimda – bari-barisi. Mana yillar o'tdi, qani endi kimnidir yoddan chiqarsam, jilla qursa bitta yuzni. Yo'q, hech

kimni unutmadi, hammasini eslayman, barini ko'rib turaman... (Yig'laydi).

Yettinchi iyun men uchun baxtli kun bo'ldi, shu kuni to'yim bo'ldi. Qismimiz bizga katta to'y qilib berdi. Erimni men ko'pdan beri bilar edim: u kapitan edi, rota komandiri edi. Mabodo tirik qolsak, urushdan so'ng u bilan turmush qurishga qasam ichdik. Bizga bir oylik ta'til berishdi. Ivanov oblastining Kineshmasiga, uning ota-onasinikiga yo'l oldik. Men qahramon kabi borar edim, frontdan kelgan qizni shunaqa kutib olish mumkin deb sira o'ylamagan edim. Biz ko'p qiyinchiliklarni ko'rgan edik, qancha onalarning bolalarini qutqarib qoldik, xotinlarga erlarini. Birdaniga... Men haqorat nimaligini bildim, men xafa bo'ladigan so'zni eshitdim. Bungacha faqat «tug'ishganim singiljonim», «aziz singiljonim» so'zlaridan bo'lak biror so'zni eshitmagan edim. Men badbashara emas edim, men binoyidek, chiroylikkina edim... Kechki choyga o'tirdik, onasi o'g'lini oshxonaga boshlab bordi-da yig'lab: **«Sen kimga uylanding? Frontchi qizgami... Sening axir, ikki singling bor. Kim endi ularga uylanadi?»**, – dedi. Hozir ham shu gapni eslasam, yig'lagim keladi (Qirq yil o'tgach. – M.T.). Tasavvur etasizmi: men plastinkacha olib kelgan edim, uni judayam yaxshi ko'rardim. Qo'shiqda «Eng po'rim tuflilarda yurishga munosibsan» degan so'zlar bor edi. Bu front qizi haqidagi qo'shiq edi. Men shu qo'shiqni qo'ygan edim, katta singlisi bordi-da, ko'z oldimda plastinkani sindirib tashladi, ya'ni shu bilan, sizlarda hech qanday huquq yo'q dedi. Ular mening frontda tushgan barcha suratlarimni yo'q qilib yuborishdi... Frontchi qizlar ko'p jafo chekkan edi. Urushdan so'ng ham jafolar yetarli bo'ldi. Bizlarni qarovsiz qilib tashlab qo'yishdi. Himoya qilishmadi».

Ayollar taqdiri bilan bog'liq manzaralarni qisman bo'lsa-da, aks ettiradigan bu parchalar nima uchun janggohlarda qon kechganini har kim o'zicha talqin qiladi, baho beradi, munosabat bildiradi. Bu qarashlar bir xil emas va bo'lishi ham shart emas. Ammo bir narsa oynaday ravshan: ular Vatanni dushmandan himoya qilishgan. O'quvchiga esa yana bir narsa aniq: urush insoniyatning dushmani. Xulosa ham shundan kelib chiqadi: Vatan hamma narsadan ulug' va muqaddas. Uni dushmandan himoya qilish esa burch. Ammo u ayollarning ishi emas!

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Siz badiiy detalni qanday tushunasiz?

2. A.Qahhorning «Anor» va «Bemor» hikoyalarida qanday detallardan foydalanilgan?

3. Kasallik – bemorlik nima uchun ijodkorlar tomonidan badiiy matn uchun detal sifatida tanlanadi?

4. Semizlik badiiy detal tarzida keltirilgan yozuvchi ko‘pincha nimani nazarda tutadi va u asosan qaysi janrdagi asarlarda uchraydi.

5. Badiiy detallarda tabiiylik va ishontirish omillari haqida gapirib bering.

6. Urush mavzusi kitobxon uchun ibrat namunasi bo‘la oladimi?

7. Badiiy asarlarda qanchalab odamlar birovlarining o‘limiga sababchi bo‘lishadi. Ular kimlar? Vampirlarmi yoki ulardan ham battarlarmi? Buning aksini ham kuzatishimiz mumkin. Jonini el-yurti uchun fido qilishadi. Ular kimlar? Haqiqiy qahramonlarmi yoki shunchaki qurbonlarmi?

INSON – TABIATNING BIR BO‘LAGI

Reja:

1. Inson va tabiat.
2. Badiiy matnlarda tabiat tasviri.
3. Yil fasllari – ruhiyat ifodasi.
4. Tabiat hodisalari va inson ruhiyati uyg‘unligi.

Tayanch so‘z va iboralar: *inson, tabiat, uyg‘unlik, tasvir, badiiy matn, makon, zamon, tabiatga munosabatning o‘zgarib borishi, ilmfan, tabiat lirikasi, tabiat manzarasi – peyzaj, adabiy geografiya, daryolar, vodiylar, cho‘llar, tog‘lar, botqoqliklar, muzliklar, qorlar, dengizlar, orollar, adabiy peyzaj – qalb manzarasi, yil fasllari, ruhiyat, bahor – yoshlik va navqironlik, yoz – kuch-qudrat, muhabbat va ehtirosni, kuz – yetuklik va to‘kin-sochinlik, qish – rutubat va qarilik, ramziylik, tabiat hodisalari, inson ruhiyati, qor, yomg‘ir, shamol, kamalak, suv, olov, tuman.*

1. Inson va tabiat.

Qur’oni karimning Baqara surasida «Va U Zot Odamga barcha narsalarning ismini o‘rgatdi», degan oyat keladi. Ulamolar ushbu oyatda insonga berilgan ilmning cheksiz ekanligiga ishora borligini ta’kidlashib, uni shunday sharhlaganlar: «Odam o‘g‘li, ya’ni inson tajriba orqali hamma narsani tushunish va bilish quvvati bilan butun borliqlarga hokim bo‘lish uchun yaratilgandir. Ilm bilan sharaflantirilgan inson shu tariqa malaklardan-da yuqori mavqega ega bo‘ladi».²

Eng oliy mavjudot sanaladigan inson ham tabiat mahsuli va uning bir bo‘lagi sanaladi. Shuning uchun badiiy asarda inson haqida gap ketayotganda uni qurshab turgan tabiat – olam haqida ham gap borishi tabiiy bir holdir.

Inson faoliyati nafaqat ijtimoiy muhitda, shu bilan birgalikda ma’lum bir manzilda, makonda yuz beradi. Insoniyat jamiyati rivojlanib, taraqqiy etib borgan sari, uning tabiatga bo‘lgan munosabati ham o‘zgarib boradi. Uning resurslaridan mumkin qadar samarali foydalanishga, manfaatdor bo‘lishga intiladi. Bu intilishlar ba’zan ijobiy natija berishi, ba’zan esa buning aksi bo‘lishi ham mumkin

² Закон Кўнпора. Пайғамбаримиз ва ашарай мубашшара. – Тошкент: «Мовароуннахр», 1995. -Б.8.

bo'lad. Qancha to'g'ri va oqilona munosabatda bo'lishga harakat qilinmasin, ba'zan insoniyat tabiatga zarar keltiradi, uning yashash tarzidagi muvozanatni buzib qo'yadi. Bunga javoban tabiat ham insondan o'z yo'li bilan o'ch olishi mumkin.

Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatning oydinlashuvida ilm-fan asosiy rol o'ynaydi. Ilm-fan yutuqlari bergan natijalar bizning olam haqidagi tasavvurlarimizning kengayib borishiga imkon yaratadi.

Badiiy adabiyot esa tabiatni idrok etishning, uning sirlarini anglashga bo'lgan intilishning o'ziga xos yo'lidir. Shu boisdan, tabiat hodisalari aks etmagan yoki unga murojaat qilinmagan badiiy asarning o'zi yo'q. Tomas Foster ta'kidlaydiki, peyzaj badiiy matnlarda turli sathlarda juda ko'p maqsadlarga xizmat qiladi. Tematikami? Istaganingcha. Ramziylikmi? Shubhasiz. Sujet va kompozitsiya? Yana qanday!³

2. Badiiy matnlarda tabiat tasviri.

Badiiy matnlarda tabiat tasviri muhim ahamiyat kasb etgani bois adabiyotshunoslikda *tabiat lirikasi*, *tabiat manzarasi* singari tushunchalar mavjud. Badiiy asarda tasvirlangan tabiat manzarasi *peyzaj* deyiladi. Yozuvchi o'z asarida tabiat lavhalarini chizish bilan o'zining tabiatga bo'lgan munosabatini ifodalaydi: tabiat go'zalligi, boyligi va qudratini ta'rif etadi. Ayni zamonda, peyzaj asarning g'oyaviy mazmunini va xarakterini ochishda qo'shimcha badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi.⁴

Tomas Foster *adabiy geografiya* atamasini qo'llagan va u insonning o'z olamida yashashini hamda bu olamning insonga qanday ta'sir o'tkazishini o'rganishini aytgan.⁵ Shu fikrga asoslanadigan bo'lsak, geografiyaning adabiy sujet tizimida muhim ahamiyat kasb etishini anglash qiyin bo'lmaydi.

Xo'sh, badiiy matnlardagi geografiyani qanday tushunish kerak? Bu – daryolar, vodiylar, cho'llar, tog'lar, botqoqliklar, muzliklar, qorlar, dengizlar, orollar va hokazolar tasviri. Badiiy adabiyotda inson omili birinchi o'rinda turgani bois, bularning barchasi ana shu muhim omilni to'ldiruvchi vosita sifatida ishtirok etadi.

G'afur G'ulomning bir she'rida shunday misralar bor:

Qirq ikki gradus, Gitler akkillar:

«Bizning yengilishga qish bo'ldi sabab».

³ Томас Фостер. Искусство чтения. – Москва: «Манн, Иванов и Фербер», 2015. -С.169.

⁴ Хомидий Х. ва бошқ. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. -Б.163.

⁵ Томас Фостер. Искусство чтения. -С.168.

Vahshiy Gitlarning da'vosi qanchalik to'g'riligini bilmadik. Ammo Ikkinchi jahon urushi faqat qish faslida olib borilmagani aniq. U to'rt yil davom etdi va Vatan himoyasiga jon-jahdi bilan kirishgan xalqning g'alabasi bilan tugadi. Harqalay, inson xarakteri tabiat fonida ochilar ekan, bu g'alabaning ta'min etilishiga tabiat hodisalarining ham muayyan ta'sir ko'rsatganidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Buyuk yozuvchimiz A.Qahhor aslida tabiat tasviriga unchalik ishqiboz ijodkorlardan emas. Ammo o'rni kelganda undan qanday foydalanishni yaxshi biladi. «Sinchalak»ning boshlanishida quyidagi jummalarni o'qiymiz: *«Qiz bir dasta gazeta-jurnal, bitta qizil papkani olib, uning ketidan kirdi, bu narsalarni sekretarning stoliga qo'ydi-da, borib derazalarni ochib yubordi. Dim kabinetga bog'chadan muzday havo, handalaknimi, bosvoldi qovunnimi esga soladigan yalpiz hidi kirdi; chumchuqlarning chug'urlashi, deraza ostida oqayotgan ariqchanning shovillashi eshitildi»* (4).

Ish kabineti misolida tabiatning qisqa va yoqimli tavsifi. Kitobxonda «bu tavsif nima uchun keltirilayapti?», degan savol tug'iladi. Javob ham shu yerning o'zida. Chunki, Tohir Nosirov yaqindagina shu kabinetning egasi bo'lgan – rayon (tuman) partiya qo'mitasining birinchi kotibligiga saylangan. Peyzaj tasviri esa bu tayinlov yoki saylov tuman va uning xalqi uchun xayrli bo'lishiga ishora.

Endi «Sinchalak»dagi hovli tasvirga e'tiborimizni qaratamiz:

Qalandarovning hovlisi kattagina ekan. Bir tomonda uncha did bilan solinmagan bo'lsa ham, kattagina imorat, sirkor ayvon; uning ro'parasida hovuz, chog'roq shiypon, sim tortib ko'tarilgan tok, bog'cha-poliz... Lekin bularning hammasi hovli egasining havasi zo'r-u hafsala va didi yo'qligini ko'rsatib turar edi: tokning bir necha novdasi simga o'z holicha tarmashibdi-yu, qolgani yerda yotibdi; meva daraxtlarining ostini, polizni sho'ra va g'umay bosib ketibdi; hovuzning o'rtasida allaqanaqa qog'oz yashik yarmigacha suvga botib qiyshayib yotibdi va shapkaning gardishi, faner parchasi suzib yuribdi; shiypon qachondir bir bo'yalgan ekan, hozir bo'yoqdan asar qolibdi, xolos; ayvonning zinasi oldida siniq xum ag'anab, kattakon qadoq tosh zang bosib yotibdi... (58-59).

Bu tasvir nima uchun keltirilyapti va nimaga xizmat qilyapti? Javob matnning ichida: *bularning hammasi hovli egasining havasi zo'r-u hafsala va didi yo'qligini ko'rsatib turar edi.*

Tasvirning davomi: *Uy ham havas, hafsala va did borasida hovlini eslatar edi: derazalarga ip bilan osilgan oq krepdeshin pardalar salqi; derazaning chap tomoniga qo'yilgan chiroyli yozuv stoli ustida kattakon sariq samovar, jo'mragiga rang-barang qog'oz gullar tiqilgan birtalay choynak, qopqog'i tob tashlagan qizil patefon; stolga tirab qo'yilgan qimmatbaho trilyaj, uning issiq choynak izlari qolgan tumbasida kerosin lampa, chaqilgan gugurt cho'plari, kattakon qizil sovun... Saida ichida: «Qalandarovning havasi zo'r-u, lekin xotinining hafsalasi, tabiati mundayroq ekan», deb qo'ydi (59-60).*

Shiyponga joy qilindi. Bu yerdan hovlining, bog'cha va polizning qarovsizligi yana ham yaqqolroq, yana ham xunukroq ko'rinar, buning hammasiga odamning ichi achir, g'ashi kelar edi (63).

Aslida, – deydi Tomas Foster, – adabiy peyzaj – bu fikr manzarasi, qalb manzarasi. Ba'zan esa sujetning bir qismi. Bir so'z aytganda kitob o'qishni o'rganing.⁶

3. Yil fasllari – ruhiyat ifodasi.

Inson ruhiyatida har bir fasl alohida ramziylik kasb etgan. Bu ramziylik muayyan darajada uning turmush tarzi va yashash manziliga, mentaliteti va gender xususiyatlariga bog'liq bo'lishi, shuningdek, hamma uchun umumiylik va alohidalik kasb etishi mumkin. Umumiy ma'noda bahor – yoshlik va navqironlikni; yoz – kuch-qudratni, muhabbat va ehtirosni; kuz – yetuklik va to'kin-sochinlikni; qish – rutubat va qarilikni ifodalagani kabi.

Ijodkorlar ham yil fasllardan ramziylik belgilari sifatida foydalanadilar. Ular yil fasllarini inson yoshi bilan qiyoslab badiiy mushohada qiladilar. Masalan, uyg'onish, gullash, yasharish fasli bo'lgan bahorga badiiy adabiyotda orzular, his-tuyg'ularning uyg'onish davri sifatida qaraladi. Kuz tugab, qishning kelishini qarilikning boshlanishi tarzida tasvirleydilar. Shuningdek, unga hayotdan xulosalar chiqarish payti, donishmandlik ramzi sifatida qaraladi. Qish esa tasvir jarayonida yozuvchiga qahr, g'azab, nafrat singari tuyg'ular ifodasida ko'maklashishi ham mumkin.

Tabiat yil fasllari timsolida favqulodda g'aroyib hodisalarni paydo qilsa, ijodkorlar bu fasllar misolida ana shunday badiiy kashfiyotlar yaratadilar. Har bir ijodkorning yil fasllaridan foydalanishda o'z uslubi bo'lishi mumkin. Mahorati yuqori bo'lgan ijodkorlarda ularning har biri muhim bir detal sifatida namoyon bo'ladi.

⁶ Томас Фостер. Искусство чтения. -С.176.

A.Oripovning yil fasllari aks etgan ayrim she'rlariga ko'z yugurtiramiz: «Sen bahorni sog'inmadingmi?»

Bahor – tabiatning uyg'onish fasli. Bog'lardagi dov-daraxtlar uyg'ongan, dasht-u qirlar lolalar bilan qoplangan, tog'lar yashil tusga kirgan, ohularning sakrashi-yu qushlarning sayrashi o'zgacha. Suvlar ham daralarda javlon uradi. Bir so'z bilan aytganda borliqqa Navro'zi olam kelgan. Xullas, lirik qahramonning xush kayfiyati uchun tabiatda hamma narsa muhayyo. Faqat birgina mahbuba yetishmaydi:

*Sensiz men ham, bahor ham g'arib,
– Sen bahorni sog'inmadingmi? – deydi u.
She'r quyidagi misralar bilan yakunlanadi:
Qaylardasan, sevikli erkam...
Qo'limda gul, seni kutarman,
Umrin bo'yi chorlab o'tarman:
– Sen bahorni sog'inmadingmi?*

A.Oripovning «Bahor» she'rida ham asosan o'sha poetik detallar: quyosh, shamollar, tog'lar, maysalar, lolalar, teraklar, jilg'alar, qushlar... Ammo bu o'rinda oldingi asardagiday mahbuba emas, bahor birinchi planga chiqadi:

*Yana bahor keldi. Yana olamda
Ajib bir go'zallik, ajib bir bayot,
Men seni qutlayman shu ulug' damda,
Ulug' yelkadoshim, muzaffar hayot!
Tashbih axtarmangiz ushbu g'azaldan,
Naqd joyda nasiya ne kerak asli.
Ayon bir xislating bordir azaldan
Seni atamishlar uyg'onish fasli!
Ellar ham uyg'ondi ishqalab kaftin,
Oftob ham yuksaldi – tik kelar quyosh.
Tog'lar ham yuk tashlab ko'tardi kaftin,
Bezavol maysa ham silkitadi bosh.
Tarnovlar bo'g'zida lola ham ko'rkam,
Terak uchlarida izg'ir mavjudot,
Hattoki tuyg'usiz, chirik xazon ham
Yashil po'panakdan bog'labdi qanot.
Hovliqma jilg'alar chopar beega,
Qushlar qiy-chuviga to'lmish dala, bog',
Sening visolingdan quvonmay nega,
Bahor, sog'intirding axir ko'p uzoq!*

Kuz manzarasi tasviri esa butunlay boshqacha. «O‘zbekistonda kuz» she’rida shunday misralarni uchratamiz:

*Oltin O‘zbekiston tuprog‘i bu kun,
Bir pari faslning og‘ushida mast.
Shabnam shovullaydi bog‘lar qo‘ynida,
Salqin tuman ichra bo‘zarar tonglar,
Quyoshning erinchoq yog‘dularida
Nafis yaltiraydi bargi xazonlar.
Har yonda to‘kinlik,
Kuzdan nishona.*

Kuzga nisbatan *oltin, pari* epitetlari ishlatilgan. Ayni paytda, shoir aytgan *shabnamning shovullashini* his qilmoq uchun juda nozik poetik did talab etiladi. Kuzda tuman ko‘p bo‘lishi, uning salqinlik, namlik xususiyati, otayotgan tongning bo‘zargan odamga o‘xshatilishi, quyoshning erinchoqlik bilan nur taratishi va eng muhim detal: xazon bo‘lgan barglarning yaltirashi – bularning hammasi kuzni bahordan farqlovchi alomatlar. Eng muhimi esa – to‘kin-sochinlik.

A.Oripovning go‘zallik she’rida tabiat fasli va lirik qahramon ruhiyatidagi uyg‘unlik aks etgan:

*Kuzning rutubatli oqshomi edi,
Bog‘lar sekingina chekar edi oh.
Ruhimda bir xazon ayyomi edi,
Ajib go‘zallikka duch keldim nogoh.*

Demak, ijodkorda yil faslining tavsifi doimo bir xil bo‘lmaydi. Bu uning maslagiga, fasl tasviridan ko‘zda tutayotgan maqsadiga bog‘liq. Buning ustiga, bir ijodkorning fasllarga munosabati ham bir xil bo‘lmasligi va boshqa ijodkordan tubdan farq qilishi mumkin. Mana shunday holatlarda matnni to‘la idrok etish uchun o‘quvchining qiyosiy tahlilga murojaat qilishiga to‘g‘ri keladi.

4. Tabiat hodisalari va inson ruhiyati uyg‘unligi.

Mavzuning asosiy maqsadi ham talabani badiiy matnlarda tilga olingan har bir tabiat hodisasining asar qahramonlari ruhiyatiga uyg‘unligini va bu ruhiyat qirralarining noma’lum jihatlarini ochishda beradigan ko‘magini tahlil qilishga o‘rgatishdan iborat.

Ijodkor tabiat hodisalari va inson ruhiyati o‘rtasidagi uyg‘unlikni topa olmasa yoki ruhiyatdagi o‘zgarishlarni tabiat hodisalari orqali ochib berishga ehtiyoj sezmasa, ularni matnga kiritishdan ne hojat?

Badiiy matnlarda tabiat va inson mavzusining yoritilishida inson va fauna munosabatlari muhim o‘rin tutadi. Ijodkorlar tabiatdagi narsa-

hodisalariga, jonzodlarga, yil fasllariga nihoyatda ko'p murojaat qiladilar. Ularning badiiy talqini jarayonida muayyan ijtimoiy-falsafiy xulosalar chiqariladi.

Abdulla Oripovning «Yillar armoni» (Toshkent, 1983) to'plamini varaqlaymiz. Uning «Buloq», «Burgut» singari she'rlari o'tgan asrning 60-yillarida, ya'ni ijodining endigina xalqqa tanila va manzur bo'la boshlagan yillarida yozilgan.

«Buloq» she'ri:

*Qutlug' bir saharda ko'z ochdi buloq,
Yo'l soldi daryolar sari adashib.
Unga rahm etmoqchi odamlar shu choq
Tog'-u toshlar aro yaqin yo'l ochib.
Odamlar, tegmangiz, mayli toshsin u,
Mayliga, tog'ni ham ko'rsin yo'lida,
Qo'ying, o'z yo'lini o'zi ochsin u,
Zavqlanolsin u ham kurash so'ngida.*

Insonlarning bir-birlariga yordamlashishi xalqimizga xos bo'lgan azaliy qadriyatlardan. Ana shu olijanob xislat egalari yana o'z yo'lini topa olmay, qiynalib turgan boshqa bir insonga ko'maklashmoqchi. Endi ko'z ochgan buloq misolida shoir ana shunday yoshlar haqida gapirmoqda. Shoir bag'ri keng bu insonlarga murojaat qilib, yoshlarga xalaqit bermaslikka chaqiradi. Agar shunday qilinsa, lirik qahramon mehnatsiz erishgan yutuqlaridan zavqlana olmasligini aytadi. Bu o'rinda *inson ↔ buloq* qiyosida odamzot ruhiyati va hayotiga xos bo'lgan jihatlarni tabiat misolida yoritish obrazlilikning asosi bo'lgan va badiiy-estetik zavq berish vositasiga aylangan.

«Burgut» she'ri:

*Yosh burgut uchmoqda ko'kda shiddatkor,
Kumush bulutlarning to'zg'itib parin.
Uchmoqda, qalbida mag'rur ishonch bor,
Qaqshagan qoyalar, cho'qqilar sari.
Uchmoqda! Qayerga? Cho'qqiga! Nechun?
Burgutning shiddatin uyg'otgan nima?
Bo'ronli dargohda ne kutar uni,
Qudratli qanotin qo'zg'atgan nima?
O'ynoqi shamollar ila basma-bas,
Ana, qo'ndi burgut eng yuksak joyga!
Cho'qqi uzra mag'rur turdi-yu birpas,
Yana bo'ron misol qo'zg'aldi. Qayga?..*

Bu yerda *burgut* majoziy ma'noda kelib, maqsadsiz odam obrazi yaratilgan. *Burgut* shiddatli, o'ziga ishongan, qanotlari qudratli, mag'rur, harakatlari bo'ron misol. Ammo bu imkoniyatni qanday va nimaga ishlatishning yo'lini bilmaydi. Shoir afsus qilib, asar oxirida:

Axir ne bo'lardi bersang, tabiat,

Shu buyuk shiddatga yarasha maqsad! deydi.

Oramizda esa bunday odamlar yo'q emas, albatta. She'rni o'qigan kitobxon bu falsafani anglagach, undan tegishli xulosalar chiqarib oladi. Inson va fauna o'rtasidagi mutanosibliklar, o'xshashlik va farqli jihatlar haqida mulohaza yuritadi. Shoirning «Tilla baliqcha», «Miltiraydi mitti yulduz», «Bulut» asarlarida ham ana shu poetik ruh mavjud.

Badiiy matnlarda qor, yomg'ir, shamol, kamalak, suv, olov, tuman, qurg'oqchilik singari tabiat hodisalariga tez-tez duch kelimiz. Ularning keltirishida, yuqorida ta'kidlaganimizdek, muayyan maqsadlar yotadi. Masalan:

Qor. Badiiy matnlarda qor tasviri ko'p uchraydi. Bir holatda poklik, ikkinchi bir holatda sovuqlik ramzi bo'lib keladi. Bolalar adabiyotida u huzurbaxshlik, bayramona kayfiyat ifodasi sifatida keltirilishi mumkin va hokazo. Usmon Azimning «Sobir Yadikovga» she'rida u boshqa vazifani ado etgan:

Derazaning pardasin surib,

Tongda boqdim ufqqa bekor...

Men bilmabman beparvo yurib,

Tog' boshiga qor tushibdi, qor.

Yaraqlaydi qishli, quyoshli,

Nur va qorga belangan olam –

Unda meni jim sog'inadi

Ko'z yoshlari tugagan onam.

Derazadan qaragan shaharlik bekorchi o'g'ilning tog'lardagi qorga ko'zi tushadi. Birdan onasi yodiga keladi. Favqulodda o'xshatish asosiga qurilgan she'r: tog'lardagi qor va onaning oqargan sochlari. Bu yerda qor oqlik doirasidan chiqadi. Metaforizatsiyalashadi. O'tgan umr, sog'inchlardan oqargan soch ifodasiga aylanadi.

Boshqa bir she'rida U.Azim:

Sen ketgan yo'llarni bosdi oppoq qor,

Sen qaytmas yo'llarni oppoq qor bosdi, deydi.

Mahbubaning butunlay ketganligi va endi qaytib kelmasligi ayon. Ammo u haqdagi tuyg'ular-chi? Beg'ubor. *Oppoq qor* ana shu tuyg'ularga ishora.

Yomg'ir. Badiiy matnlardagi yomg'ir bir talay ramziyliklarga ega. Masalan, yomg'ir ko'p yog'ishi natijasida sel kelishi, suv toshqini yuz berishi mumkin. Bu odamlarga ofat keltiradi, ularni xonavayron qiladi. Mana shu hodisalar ularni tashvishga soladi, bezovta qiladi. Agar yomg'ir kechasi yog'sa, yana ham qo'rqinchli bo'lishi va kishi ruhiyatiga kuchli ta'sir o'tkazishi mumkin. Demak badiiy asarlarda qahramonlar ichki olamini yoritish maqsadida bu tabiat hodisasiga murojaat qilinadi.

A.Oripovning «Sevgi o'limi» she'rida yomg'ir tasviri berilgan:

Yomg'ir tinmay yog'di kun bo'yi,

Yomg'irli kun kabi ezildi dardim.

Yaydoq ko'chalarda jim yurgan ko'yi

Sening izlaringini axtardim.

Yomg'ir yog'ayotgan paytdagi rutubat bilan inson ruhiyatidagi tushkunlik o'rtasida uyg'unlik bor. Uni quyidagicha izohlash mumkin: *yomg'ir ↔ rutubat-tushkunlik ↔ lirik qahramon*. Ana shu hamohanglikni topa olgan o'quvchigina she'rdan estetik zavq ola biladi. Bo'lmasa yo'q. Bu o'rinda yomg'ir *qayg'u, g'am, alam* ramzi sifatida namoyon bo'lgan.

Mana shu tarzda yomg'ir badiiy matnlarda tozalik, poklik, sokinlik, xotirjamlik ramzi sifatida namoyon bo'lishi, inson xilqatidagi ruhiy o'zgarishlarning ochib berilishiga xizmat qilishi mumkin bo'ladi. Xullas, badiiy matnlarda yomg'ir bilan bog'liq tasvirlar g'oyatda rang-barang va turli-tuman ruhiy holatlarga hamohang. Shu bois unga bir xilda baho berib bo'lmaydi.

Shamol. Badiiy matnlarda, odatda, shunchaki *shamol esdi, yomg'ir yog'di* deyilmaydi. Shunday deyilganda ham, u bekorga aytilmaydi. *Shamol uvilladi, yomg'ir chelaklab quydi* deyish bilan endi bunda tabiat hodisasi yuz berayotgan jarayon kuchaytiriladi. Nima uchun shunday qilinadi? Albatta, buning zamirida ham muayyan maqsad yotadi. A.Qahhorning «Dahshat» hikoyasini tahlil qilamiz.

Hikoyaning qisqacha mazmuni shunday: Payg'ambar yoshidan oshgan Olimbek dodxohning sakkizta xotini bor. Eng kichigi – tushganiga besh oy bo'lgan ganjiravonlik Unsinoy. U qanday bo'lsa ham dodxohning zulmidan qutulishni, uyiga qaytib ketishni o'ylaydi. Dodxoh va xotinlar sandal atrofida yig'ilishib o'tirishganida gapdan

gap chiqib, Unsin bu istagini bayon qiladi. Dodxoh rozi bo‘ladi. Ammo bir sharti bor: kechasi qabristonga borib, Onhazratim sag‘anasi oldida qumg‘on qaynatib, choy damlab kelishi kerak. Unsin bunga rozi bo‘ladi va shartni bajaradi. Afsuski, nomard dodxoh uning izidan o‘z maymunini yuborgan edi. Qorong‘ida Unsinning yelkasiga minib olgan maymun uni adoyi tamom qiladi. Unsin bazur uyga yetib keladi.

Asarga qo‘yilgan «Dahshat» degan nom hikoyaning mazmunini o‘zida jamlagani kabi, qo‘llangan *shamol* detali ham boshdan-oxirigacha ana shu voqeaning dahshatini to‘ldirib boradi. Bu so‘z asarning 12 o‘rnida qo‘llangan. Hikoya o‘zi *shamol* tasviri bilan boshlanadi: *Yaqin ikki haftadan beri ko‘z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g‘uvillaydn, tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi. Olimbek dodxoh taroveh namozidan kelgan paytida ham «Shamol goh och bo‘riday uvillar, goh o‘lim changaliga tushgan mushukday pixillar, vag‘illar, hech narsa – hech narsa ko‘rinmas edi».* «Dodxoh darchani zichlab yopdi, joyiga o‘tirib tasbeh o‘g‘irishga kirishdi. Uning barmoqlari tasbeh donalarini tez-tez o‘tkazayotgan bo‘lsa ham, qulog‘i g‘uvillayotgan shamolda, xayoli go‘ristonda edi». U xotinlari bilan gaplashib o‘tirgan tun manzarasi ifodasida ham *shamol* to‘liq ishtirok etadi: «*Shamol bir xuruj qilganida nimanidir keltirib darchaga urdi. U narsa darchani tirmalaganicha sidirilib pastga tushib ketdi. Hamma o‘tirgan yerida go‘yo bir qarich cho‘kkanday bo‘ldi va tin olmay bir-biriga qaradi. Dodxoh xotinlariga, ulardan ham ko‘ra o‘ziga taskin berish uchun o‘rnidan turib darchaning bir tomonini ochdi. Darchadan kirgan shamol osma chiroqni lipillatdi, tebratdi*».

Hikoyaning davomida yana *shamol* kechasi tasviri: «*Gapdan gap chiqib, Nodirmohbegim bir voqeani aytib berdi. – Bola edim. Rahmatli dadam gap yer edilar. Bir mehmonxona yigit... Mana shunaqa shamol kechasi ekan. «Hozir kim go‘ristonga borib, Asqarponsotning go‘riga pichoq sanchib keladi?» – degan gap bo‘lipti. Shunda bir kishi pichog‘ini qinidan sug‘urib: «Men sanchib kelaman», – deпти, bitta qo‘ydan garov bog‘lashib yo‘lga tushipti*».

Tun qanchalik dahshatli bo‘lishiga qaramasdan, Unsinning istagidan hech narsa ustun kelolmaydi. «*Unsin uyiga kirdi, paranjichimmatini yopindi, qumg‘onga suv to‘ldirib, choynakka choy soldi-yu, jo‘nadi. Ko‘r oydin. Osmonning chekkasi sarig‘-kir uvadaga o‘xshaydi. Bu kir shu‘la qo‘ynida past-baland uylar, shamolda egilayotgan, tebranayotgan daraxtlar qop-qora ko‘rinadi. Pishqirayotgan shamol*

har xuruj qilganida Unsinni tentiratar, talay joyga surib tashlar edi. Unsin parangi-chimmatini yumaloqlab qo'liga olganidan keyin yo'l yurish osonroq bo'ldi».

Asarni e'tibor bilan o'qigan kitobxon unda voqelik dahshatini chuqur his etishga ko'maklashadigan boshqa detallarni ham topadi. Ammo shamol ular orasida baribir ajralib turadi. Unsinning qabristonga borish va qumg'on qaynatish jarayonida shamol bir lahza bo'lsa ham yozuvchining e'tiboridan chetga chiqmaydi: *«Go'riston to'g'risida dodxoh nimalar eshitgan bo'lsa, Unsin ham shuni eshitgan, shamol quturgan kechada go'riston dodxoh xayolida qandoq dahshatli bo'lsa, uning xayolida ham shunday dahshatli, lekin shundoq bo'lsa ham, tiriklar go'ristoni bo'lgan bu dargohning dahshati oldida o'liklar go'ristonining dahshati unga dahshat ko'rinmas, bundan tashqari, ertagayoq Ganjiravonga jo'nash, ota-onasini, dugonalarini ko'rish umidi uning boshiga boshqa hech qanday fikr-xayolni yo'latmas edi».* *«Unsin xuddi dadasidan katta hayitlik olib bozorboshiga ketayotgan yosh boladay chopqillab, qarshisidan esayotgan shamolga so'z bermay, ba'zan irg'ishlab borar edi».* *«O't chirsillab-kirsillab birpasda gurkuradi, shamolda to'lg'anayotgan tutun aralash alanganing qizg'ish shu'lasidan qorong'ilik lipillab, uzoq-yaqinda do'ppayib turgan go'rlar, xuddi birov tuproqni ko'tarib chiqayotganday harakatga keldi».*

Biroq Unsin peshingacha yetmadi – uzildi. *«Shom qorong'isida uning jasadini qizil ko'rpaga o'rab aravaga solishdi. Shamol hamon guvillar, yaydoq daraxtlarning shoxida chiyillar, g'uvillar edi».*

Shu tarzda shamol detali hikoyaning boshdan oxirigacha yetakchilik qilib turadi. Bu esa inson ruhiyati bilan tabiat hodisalari o'rtasidagi uyg'unlik tasvirining yorqin dalilidir. Boshqacha aytganda, tabiat hodisalarini tasvirlash, o'rni bilan uni kuchaytirilgan holda berish orqali asar qahramonlarining ruhiy olami yanada teran, yanada chuqur ifodalanadi. Tomas Foster fikricha, badiiy asardagi ob-havo shunchaki tabiatdagi ob-havo emas. Qor, quyosh, issiqlik, sovuqlik, hatto loy, shilta ham, tabiatdagi hodisaning aynan o'zi deb xulosa chiqarib bo'lmaydi.⁷

Kamalak – badiiy matnlarda ilohiylik alomati, Yer bilan osmon o'rtasidagi tinchlik, osoyishtalikning dalolati sifatida keltiriladi: *«Ayvonga chiqadigan eshikning ustidagi qubbasimon tokchaga terilgan bu kitoblarga, aftidan, hech kim tegmagan, ularning ko'k, sariq, qizil*

⁷ Томас Фостер. Искусство чтения. -С.87.

charm jildlari oltin qandilga terilgan shamlar shulasida xil-xil jilo taratib kamalakday tovlanardi» [O.Yoqubov. «Ulug‘bek xazinasini»].

Suv – tabiat ne‘matlaridan, ayni paytda, suv toshqini uning stixiyalaridan biri. Aytaylik, badiiy asardagi qahramon suvga cho‘kib ketishi natijasida o‘lishi, yoki buning aksicha, u tirik qolishi mumkin. Har ikki holatda voqealar rivoji boshqa-boshqa uzanlardan ketadi. Shu yo‘l bilan qahramonning omadliligi yoki omadsizligi ochib berilishi mumkin.

Olov ham xuddi suv kabi tabiat hodisalaridan biri. Bu tushunchani anglatuvchi so‘z badiiy matnlarda aksariyat hollarda metaforik qo‘llanilsa ham, ba‘zan baxtsiz hodisa sifatida, ba‘zan urush jarayoni tasvirida uchray turadi. P.Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanida quyidagi parchalarni o‘qiymiz: *«Erta tongdan boshlangan jang kechgacha davom etdi. Boburning o‘zi og‘ir ahvol yuz bergan joylarga ot choptirib borardi. U zaxiradagi kuchlar yordamida yovning eng xatarli hujumlarini bir necha marta qaytarishga muvaffaq bo‘ldi. Humoyun o‘ng qanotdan, Askariy chap qanotdan yov askarlariga ustma-ust zarbalar berdi. Kechki payt Boburning buyrug‘i bilan Turdibek Turkistoni chopqir otlarda yovning har ikki qanotini aylanib o‘tdi-da, to‘lg‘ama ishlatib, orqadan qaqshatqich zarba berdi. Olov halqasi ichida qolgan Rano Sangramning ko‘ziga o‘q tegdi, bir ko‘zi ko‘rmay qoldi. Shunda rajput soqchilari uni jang maydonidan olib chiqib qochdilar...»*

Tuman tasvirida ham ma‘lum maqsadlar ko‘zlanadi. Noaniqlik, mavhumlik, noxush kayfiyat, qiyinchiliklar girdobi va hokazolar shular jumlasidandir. Qurg‘oqchilik ko‘p halokatli hodisalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Anglashiladiki, tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatning badiiy adabiyotda aks etishi murakkab va ko‘p qirrali jarayon. Bu murakkablik tabiat va inson dialektikasidagi mutanosiblik darajasi, badiiy matnlarning janrlarga ko‘ra xilma-xilligi, ijodkorlarning individual manerasi va tafakkur ko‘lami singari omillar bilan izohlanadi. Mutolaa jarayonida bu holatlarni inobatga olgan kitobxon albatta har bir asar mazmunidan tegishli xulosalar chiqaradi va ruhlanadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. *Inson va tabiat* tushunchalarini izohlab bering.
2. *Inson va tabiat* o‘rtasidagi uyg‘unlikni nimalarda ko‘rasiz?

3. Badiiy ijod jarayonida nima uchun tabiat hodisalariga murojaat qilinadi?
4. *Tabiat tasviri – peyzaj* deganda nimani tushunasiz?
5. Yil fasllaridagi ramziylikning sabablari nimada?
6. Badiiy adabiyotda *yomg'ir* va *shamol* nimani anglatadi?
7. O'zingiz ma'qul ko'rgan tabiat hodisasi haqida bir badiiy asar misolida gapirib bering.

BADIIY TASVIRGA ARALASHGAN JONIVORLAR

Reja:

1. Jonivorlar – tabiatning bir bo‘lagi.
2. Yo‘l-yo‘lakay keltirilgan jonivorlar.
3. «Alvido, Gulsari!».
4. Bahodirning oti.

Tayanch so‘z va iboralar: *jonivorlar, uy hayvonlari, ot, Boychibor, toy, it, burgut, baliq, tuya, shoxdor ona bug‘u, bo‘ri, Akbara, Toshchaynar, Qoranor, Gulsari, Tanaboy, keksa odam va qari ot, bahodirning oti, G‘irko‘k, Alpomish, Go‘ro‘g‘li, ko‘chmanchi xalqlar folklori, tulpor, Gajdimko‘k, Jiyronqush, Qoratulpor, Jiyron, Bo‘ztarlon, Bo‘ztulpor, Qoraquloq, ezgulik timsoli.*

1. Jonivorlar – tabiatning bir bo‘lagi.

Insonning ko‘pqirrali faoliyati jonivorlar, xususan uy hayvonlari bilan ham bog‘liq. Shu boisdan, ular badiiy matnlarda alohida obraz sifatida ishtirok etgan hollar ko‘p uchraydi. Bir holatda ular asosiy obraz sifatida chizilsa, boshqa bir holatda yo‘l-yo‘lakay keltiriladi.

Badiiy matnlarda barcha turdagi jonivorlar obraziga duch kelamiz. Biz ularning birontasi ijodkor tomonidan shunchaki keltirilmaganligi haqida mulohaza qilsak bas. Hayvonlar qatnashgan epizodlarning har biri matnda muayyan ijtimoiy vazifa bajaradi va o‘rni bilan badiiy tasvir uchun xizmat qiladi.

Masalan, xalq dostonlari matnida ko‘p uchraydigan dev, ajdaho obrazlarini eslaylik. Aslida ularni biz ko‘zimiz bilan ko‘rmaganmiz, ammo ishi hamisha odamzodga ziyon keltirish bo‘lgan shunaqa maxluqlar haqida tasavvurimiz bor. Doston qahramonlari yovuzlik timsoli bo‘lgan bu maxluqlar bilan kurashadi, bu jarayonda ko‘p aziyatlarni chekadi, oxir oqibatda esa g‘alaba qiladi va hokazo. Shu tarzda ezgulik yovuzlik ustidan g‘alaba qiladi.

Badiiy matnlarda eng ko‘p uchraydigan jonivor bu – otdir. Ot hayotda hamisha insonning sodiq hamrohi, mushkullarini oson etuvchi ko‘makdosh bo‘lib kelgan va badiiy adabiyotda ham ezgulik timsoli sanaladi. Shuning uchun ham turkiy xalqlar, jumladan o‘zbek xalq folklori qahramoni Boychiborni, yoki bo‘lmasin, buyuk yozuvchi Chingiz Aytmatovning Gulsarisini bilmagan odam yo‘q.

2. *Yo'l-yo'lakay keltirilgan jonivorlar.*

Badiiy matnlarda jonivorlar haqida yo'l-yo'lakay gap ketishi ham mumkin. Ular asardagi asosiy qahramonlarga oid qaysidir bir niyatlarning amalga oshirilishiga, qirralarining mukammal yoritilishiga xizmat qilishi mumkin bo'ladi. Masalan, Abdulla Qahhorning «Sinchalak» qissasida ham ot detali uchraydi. Undan ikki holatda foydalanilgan. Har ikki holatda ham asarning bosh qahramoni – Saida toyga mindiriladi. Zukko o'quvchi payqaydiki, Saidaning otga minish voqeasi ikki maqsadni amalga oshirish bilan bog'liq holda berilgan.

Birinchisi. Saida bilan Qalandarov o'rtasida navbatdagi kelishmovchilik yuz beradi – partbyuro sekretari kolxoz raisini yig'ilishda yuzaki ma'ruza qilganligini va buning sababi ma'ruzani boshqa bir kishi – Eshon yozib berganlikda ayblaydi. Raisda Saidaga nisbatan adovat uyg'onadi. Payt poylab, undan o'ch olish yo'lini axtaradi va bu kolxozni otda aylanib kelishni taklif qiladi.

«Soat yettilarda Umida Saidaning eshigini qoqib, rais yo'qlayotganini aytdi. Saida darrov kiyinib chiqdi. Qalandarov sada ostida odamlar bilan gaplashib o'tirgan edi, uni ko'rib to'satdan:

– Ot minganmisiz? – deb so'radi.

Saida ilgari ot mingan emas, kolxozga kelganidan beri bir oz mingan edi.

– Uncha-muncha... – dedi.

– O'rganish kerak! – dedi Qalandarov. – Kolxozchilik!.. G'o'zalarni bir ko'rib kelaylik...».

Ular uzoq muddat kolxoz dalalarini aylanishadi. Qalandarov otda, Saida asov toyda.

– Ot minish ayol kishining hunari emas, lekin siz otga ancha yarashdingiz! – deydi Qalandarov. Shundan keyin Saida uning niyatini fahmlab qoladi.

Ular brigada shiyponida to'xtashadi. Jonsarak toyni ariqning nariyog'iga qantarib qaytgan bir chol Saidaning sarg'ayib ketgan yuziga razm solib:

– Saidaxon, qizim, sizni ot urintirib qo'yibdi-ku, – dedi.

Cholning bu so'zi Saidaga alam o'tib, labini burib yig'lashga tayyor turgan yosh bolaga onasining, «voy bolaginamni kim urishdi», deganiday ta'sir qildi. Saida a'zoyi badani qizishib, lo'qillab og'riyotganini, lohas bo'lib ketayotganini endi sezdi.

Qalandarov oldiga keltirib qo'yilgan bir chinni to'la ugra oshga qalampir separ ekan, cholning so'ziga javob qildi:

– *Urinsa hech nima qilmaydi, pishadi! – dedi.*

Idoraga qaytilganda Saida tamoman kasal ahvolda edi.

Saida ertalab o‘rnidan turolmadi – og‘rimagan a‘zosi yo‘q, nazarida jindakkina isitmasi ham borga o‘xshadi».

Shunday bir paytda otasining gapi bilan doktor Kozimbek Saidani ko‘rish va davolash uchun keladi. Shu jarayonda Kozimbekda Saidaga nisbatan iliq bir munosabat paydo bo‘ladi. Muolaja qilib bo‘lgach, Kozimbek shunday deydi: *«Bugun, ertaga ham yaxshilab dam oling, ertaga kechqurun men sizga g‘alati bir dori beraman, umrbod bunaqa kasalning yuzini ko‘rmaysiz».* *Va‘dasining ustidan chiqib, bog‘ning darvozasi oldida Kozimbek oq ot minib, Saidani tavbasiga tayantirgan o‘sha ko‘k toyini jilovlab turar edi. Saida uni ko‘rib: «Voy o‘lsin!..» deb yubordi va shundoq bo‘lsa ham toyni dadil mindi».* Ma‘lum bo‘lishicha, Kozimbek hech qanday dori bermoqchi emas, Saidani otga o‘rgatmoqchi, pishitmoqchi ekan. Aslida maqsad shuning o‘zigina emas, balki shu bahonada Saida bilan bemalol gaplashib olish, uning ko‘nglini bilib, o‘ziga yaqinlashtirish edi. Ma‘lum bo‘ladiki, otga minish voqeasi har ikki holatda ikki xil vazifani ado etadi.

3. *«Alvido, Gulsari!»*

Inson va tabiat uyg‘unligi hamda uning badiiy adabiyotda aks etishi masalasida gap ketganda Chingiz Aytmatov asarlariga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Bunga buyuk yozuvchining o‘zbek tadqiqotchisi va tarjimoni Asil Rashidovning gapi asos bo‘ldi. Olimning ta‘kidlashicha, *«Chingiz Aytmatovning o‘ziga xos jihatlaridan biri animalist yozuvchi ekanligi bilan bog‘liqdir. Darvoqe, uning asarlarida burgut, it, ot – Gulsari, baliq – volida, bo‘rilar – Akbara va Toshchaynar, tuya – Qoranor, qor qoplani, Shoxdor ona bug‘u kabi ko‘plab jonivorlar obrazi yaratilganki, ular xuddi insonlardek xarakter darajasiga ko‘tarilgan. Bu obrazlar timsolida, bir tomondan, inson ruhiyatidagi murakkab ichki kechinmalar in‘ikosi o‘z aksini topgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, zamon, inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro aloqa yangicha talqin etiladi.»*⁸

Bu o‘rinda biz Chingiz Aytmatovning *«Alvido, Gulsari!»* qissasi tahlilida A.Rashidovning fikrlariga tayanamiz.⁹

Asarda sobiq Sovet totalitar tizimi sharoitida qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish (kolxozlashtirish) va Ikkinchi jahon urushidan keyingi

⁸ Рашидов А. Чингиз Айтматов олами. – Тошкент: «О‘qituvchi», 2011. -Б.146.

⁹ Рашидов А. Садоқат мадҳи. Чингиз Айтматов олами. -Б.122-137.

davrda chekka o'lkalarda yashagan xalqning ayanchli turmushi, manqurtlashtirish siyosati hikoya qilinadi.

Asarning bosh qahramoni taqdiri og'ir va fojiali bo'lgan Tanaboy mehnatkash, halol va vijdonli inson. Asarni o'qir ekanmiz Tanaboyning ayanchli hayoti tasvirida jamiyatdagi haqsizlik, adolatsizlik, vahshiylik, soxtakorlik singari yaramas illatlarga duch kelamiz va ularga qarshi qahramonning mardonavor kurashini kuzatib boramiz.

Asarning yana bir qahramoni – Gulsari ismli ot. Tanaboyning ayrilmas do'sti, quvonch-u g'amlariga sherik bo'lgan bir umrlik hamrohi. Ular bir-birlarini go'yo chuqur tushunishadi. «Alvido, Gulsari!» qissasidagi chuqur psixologizm goh Tanaboyning o'y-xayollari, goh Gulsarining xotira va kechinmalari tarzida berilishi va har gal inson ruhining chuqur qatlamlariga, jonivor olamining ichki dunyosiga kirib borishida Aytmatovning inson va uni qurshab olgan borliqni bir butunlikda berishdek yuksak mahorati yaqqol ko'zga tashlanadi», – deb yozadi A.Rashidov.

Keksa odam va qari ot jumlasini yozuvchi asarning ko'p o'rinlarida takrorlaydi va shu bilan asar ritmini saqlab turadi. Tanaboy va Gulsari taqdiridagi tutash jihatlarni eslatib boradi. Asar shunday boshlangan: «*Eski aravani keksa bir kishi haydab boradi. Saman yo'rg'a – Gulsari ham juda qari edi*». *Qari ot* – bir vaqtlar ovulning ko'rki, atrofga dong'i ketgan, butun vodiyni o'ziga maftun etgan yo'rg'a Gulsari. *Keksa kishi* – bir vaqtlar kuchini qayerga sig'dirishni bilmagan, tinib-tinchimas, g'ayratli va o'ktam Tanaboy.

Gulsarining o'limidan chuqur qayg'uga botgan Tanaboy yuragidan o'tganlari mana bunday tasvirlangan: «*Sen ajoyib ot eding, Gulsari. Sen mening ayrilmas do'stim eding, Gulsari. Sen o'zing bilan birga mening eng ezgu xotiralarimni olib ketyapsan, Gulsari. Men umrbod seni eslayman, Gulsari. Hozir o'z oldingda seni esga olayotganimning boisi shuki, sen jon beryapsan, dongdor otim Gulsari. Biz albatta sen bilan, qachonlardir u dunyoda uchrashamiz, Gulsari... Lekin men u yoqda sening tuyoqlaringning dupurini eshita olmayman. Axir u dunyoda yo'llar yo'q, u yoqda yer yo'q, o't-o'lan yo'q, u yoqda hayot yo'q. Ammo men tirik ekanman, sen o'lmaysan, chunki men seni eslab yuraman, Gulsari. Tuyoqlaringning dupuri men uchun sevimli qo'shiq bo'lib qoladi, Gulsari...*» (1, 398). Mana shunday tasvirlar davomida Gulsari mustaqil badiiy obraz darajasiga ko'tariladi.

A.Rashidov otning go'yo xayolidan kechayotganlarni shunday tasvirlaydi: «*Saman yo'rg'a o'zining tarbiyachisi va xo'jayini*

Tanaboyning qalbini, yurak sirlarini ham go‘yo tushunadi; uning qishloqdagi sevgilisi, Bibijon bilan uchrashgandagi intim munosabatlari, his-hayajonlarini sezadi. Tanaboy Bibijonni uzoqdan ko‘rishi bilanoq otni sekinlatadi va otning yoliga yengashgan holda uzoq gaplashib borishadi, bir-birlariga qalb rozini aytishadi. Ularning o‘zaro dil so‘zlari otga ham go‘yo tushunarli, ot ham quloq solib borayotganday bo‘lardi. Mazkur holat otda tabiiy instinkt hosil qilganday, Bibijonni uzoqdan ko‘rgandayoq boshini u tomonga buraveradi».

«Tanaboy oilali, bola-chaqali kishi edi. Bas, shunday ekan, Bibijon bilan ishqibozlik qilib yurishi to‘g‘ri emasligini o‘zi ham bilardi. Bu axloq qoidasiga to‘g‘ri kelmasdi. Tanaboy buni anglasa-da, Bibijonning uyiga yashirinch qatnashini kanda qila olmasdi. Ammo bir voqea sabab bo‘lib, bu uchrashuvlar barham topadi. Bu – Tanaboyning Bibijon bilan uchrashgan kechalaridan biridagi dovul turgan kecha edi. Dovulda yilqilarni arang tutib qolgan xotini Jaydar Tanaboyning qayoqlardan (Bibijonning uyidan. Muallif) bunday halloslab kelishini sezib qoladi va bola-chaqali kishiga bunday ishning munosib emasligini uqtirib, yotig‘i bilan tanbeh beradi. Shu kundan e‘tiboran Tanaboy oila oldidagi gunohini, mas‘uliyatini qalban his etadi va bu yo‘ldan uzil-kesil qaytadi».

«Yozuvchi yo‘rg‘a otning Tanaboydan olib ketilishi natijasida uning qalbida tug‘yon urgan ruhiy zilzila, ezilish va iztirob alamlarini birgina detal – qo‘bizda chalinadigan kuy, ya‘ni ona tuyaning o‘z bo‘talog‘ini yo‘qotganidagi armoni ifodalangan kuy vositasi ila badiiy inkishof etadi. Yanada aniqroq qilib aytganda, Tanaboyning Gulsaridan ayrilganidagi ruhiy holati ona tuyaning yo‘qotgan o‘z bo‘talog‘ini izlaganidagi armoniga hamohang tarzda tasvirlanadi».

Tanaboyning ruhiy olamida kechgan o‘y-xayollar inson ham tabiatning bir qismi ekanligini anglatib turadi. Tanaboy: «Ona tuyaning bo‘zlashi»ni chalib ber. Jaydar chanqovuzni oldi, uni lablariga tutdi, barmog‘ini ingichkagina po‘lat «til»ga tegizdi, unga pufladi, so‘ng nafasini ichiga tortdi, ko‘chmanchilarning qadimiy kuyi quyilib oqa boshladi. Oq bo‘talog‘ini yo‘qotgan ona tuya haqida qo‘shiq. Cho‘l-u dashtlarda u uzoq kunlar yugurib-yelib yuradi. Bo‘talog‘ini chaqiradi, qidiradi. Oqshomlari jarlik yoqalab, ertalab yalangliklarda uni o‘z orqasidan endi ergashtirib yura olmasligidan, butoqlardan barglarni birgalikda terib yeya olmasligidan, ko‘chma qumlar ustida yugura olmasligidan, bahor paytida dalalarda aylanib yura olmasligidan, uni

oppoq suti bilan emiza olmasligidan zorlanardi. ***Qaydasan, qorako'z bo'talog'im? Javob ber! Yelinimdan, tirsillab turgan yelinimdan sut tizillab oqyapti, oyoqlarimdan oqib tushyapti. Qaydasan? Javob ber! Yelinimdan, tirsillab turgan yelinimdan tizillab sut oqyapti. Oppoq sut...*** Jaydar chanqovuzni yaxshi chalardi. Tanaboy uni qizlik vaqtida shu chalishi uchun sevib qolgandi.

Asar ona tuyaning ana shu nolalari bilan yakunlanadi.

4. Bahodirning oti.

O'zbek xalq dostonlarida ot obraziga alohida e'tibor berilgan. Doston matnlarida ular asar qahramonlarining jangovar do'sti sifatida namoyon bo'ladi. U go'yo insonni tushunadi, xavf-xatarlardan xabardor qiladi, yarador egasini jang maydonlaridan olib chiqib ketadi, murod-maqсадlariga yetishiga ko'maklashadi. Shu boisdan, – deydi akad.V.M.Jirmunskiy. – dunyo eposida bahodir bilan uning oti o'rtasidagi do'stlik talqini keng tarqalgan mavzulardan biridir¹⁰.

Otning do'stligi tarannumi, ayniqsa, ko'chmanchi xalqlar folklori uchun xos bo'lgan. Ana shu jonivorlar orasida Alpomishning Boychibori va Go'ro'g'lining G'irko'gi (G'iroti) alohida mavqega ega. Bulardan tashqari xalq dostonlari matnida boshqa otlar haqida ham gap boradi. Masalan, Avazxonning Gajdimko'k, Xasanxonning Jiyronqush («Go'ro'g'li» siklidagi dostonlar), Nuralixonning o'g'li Jahongirning Qoratulpor («Nurali»), Alpomishning o'g'li Yodgorning Jiyron («Alpomish»), Ahmadbekning Bo'ztarlon («Yakka Ahmad») ismli otlari shular jumlasidandir.

Xalq og'zaki ijodining ayol qahramonlari – malikalar ham ot minishgan. Malikayi ayyorning Qoratulpor, Oqdevshohning qizi Tillaqizning Bo'ztulpor («Malikayi ayyor»), Orzigulning Qoraquloq («Orzigul») degan otlari bo'lgan.

O'zbek eposlarida otni *tulpor* deb atashgan. Uning qanoti bo'lgan. Masalan, «Alpomish» dostonida Ko'sa sinchi Boychiborni birinchi marta ko'rganida *Qo'ltig'ida to'rt yarim gaz qanoti, Asil tulpor ekan o'zbakning oti*, deydi. Go'ro'g'lining oti G'irko'k ham qanotli bo'lgan.

Boychibor chinakam ma'noda Alpomishning do'sti. Barchinoy qalmoqlar xaridor bo'lib kelganida kamsitmaydi. Ularning oldiga to'rtta shart qo'yadi. Bu shartlarning biri bo'lgan poygada birinchi bo'lib yetib kelgan ham, Alpomishni zindondan qutqargan ham Boychibor bo'ladi. Fozil shoir zindondan qutqarish voqeasini quyidagicha tasvirlagan:

¹⁰ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва, 1947. -Б.351.

*Zindon bo'lganiga yetti yil o'tdi,
Endi oldi boshdan g'am-u kulfatdi,
Bekning oti bir ag'anab turibdi,
Qo'l ochib chiltanlar duo qilibdi,
Ot quyrug'i boz qirq quloch bo'libdi.
Ot quyrug'in u zindonga solibdi,
Hakimbek beliga boylab olibdi.
Jonivor zo'r urib shu zamon tortdi,
Boychiborga pirlar berdi quvvatdi,
Hakimbek u zamon zindondan chiqdi.
Dunyoni ko'rganday bo'lib qoladi,
Hakimbek otini tavof qiladi.
Ikkovi ayrilib yetti yil o'tgan,
Ustida abzali eskirib bitgan.*

Ma'lum bo'ladiki, xalq dostonlari matnidagi ot obrazi haqiqiy ma'noda insonning hamrohi, odamlarga yaxshilik qilish va ezgulik uchun yaratilgan jonivor timsolini o'zida mujassam etadi. Biron bir badiiy asarda otning salbiy jihatlari to'g'risida gap ketmaydi. U barcha o'rinlarda ijobiy xislatlari bilan namoyon bo'ladi va inson obrazini to'ldirib boradi.

Badiiy matnlardagi har qanday jonivorlar to'g'risida ham shu gaplarni aytish mumkin. Matnda ularning birontasi shunchaki keltirilmaydi. Ular keltirilganda esa o'zlariga muayyan badiiy yuk oladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Inson va hayvonot olamining o'zaro mushtarak jihatlari bormi? Agar bor bo'lsa, uni qanday tushunasiz?

2. Badiiy matnlarda tasvirlangan qaysi jonvor yodingizda qolgan va bu obraz sizda nimasi bilan taassurot qoldirgan?

3. Adabiy asarlarda jonivorlar haqida tasodifan gap ketishi mumkinmi? Ular kichik bir detal sifatida qanday badiiy niyat ifodasiga xizmat qila oladi?

4. Chingiz Aytmatov bir yarim yasharli Gulsarining tashqi ko'rinishini qanday chizgan edi.

5. Chingiz Aytmatov asov Gulsarini minishga o'rgatish jarayonini qanday tasvirlagan?

6. Tanaboy Gulsari bilan nimalar haqida «suhbatlashadi»?

TAGMA'NOLI MATNLAR

Reja:

1. *Gapiruvchi nomlar* va sarlavha.
2. A.Qahhor sarlavhalari.
3. Epigraf nega kerak?
4. Badiiy matnda tagma'noni zimmasiga olgan jummlalar.

Tayanch soʻz va iboralar: *matn, tagma'no, gapiruvchi nomlar, antroponim, badiiy asar, ramziylik, sarlavha, sinchalak, boshsiz odam, epigraf, polifoniya, presuppozitsiya, implikatsiya, qo'shimcha ma'no, emotsional mazmun, xalq maqollari, nimkosa.*

1. «Gapiruvchi nomlar» va sarlavha.

Filologiya ilmida *gapiruvchi nomlar* degan tushuncha mavjud. Buning ma'nosi shuki, nutqda qo'llaniladigan hamda antroponimlar termini ostida birlashgan ism va familiyalar, laqab va taxalluslar o'zining asl ma'nosidan tashqari ustama ma'no ham anglatadi.¹¹

Antroponimlar o'zbek tilining barcha funksional uslublarida qo'llaniladi. Ammo so'zlashuv nutqi va badiiy matnlarda ularning uslubiy imkoniyatlari yaqqol sezilib turadi. Ayniqsa, ularning ikkinchi qismi – laqablar va taxalluslarning qo'llanishida esa obrazlilikni payqash mumkin bo'ladi. «Kishi nomlarining adabiy asarlarda ishlatilishi tabiiy hol. Garchi asar qahramonlariga qo'yilgan nomlarning hammasi to'g'risida bu gapni aytib bo'lmasa-da, ularning ayrimlari o'zlarida ma'lum stilistik yuk tashiydi. Tanlangan ism va familiyalar personajlarni baholaydi, xarakterlaydi, mashg'ul bo'lgan kasbiga, yoshiga, qayerlik ekaniga ishora qiladi. Boshqacha aytganda, ular personajlarning ijtimoiy mavqeyiga, fizionomiyasiga yoki xarakteriga moslab tanlanadi. Shuning uchun ham bunday antroponimlar tilda obrazli tarzda «gapiruvchi nomlar» deb ham yuritiladi.¹²

Badiiy matnlarda laqablar va taxalluslar¹³ asosan ramziy ma'noda bo'lib, ularning qo'llanishi o'zbek xalqi mentalitetiga mos keladi va nutqda ko'pincha komik samara beradi. Misol tariqasida N.Qobulning

¹¹ O'zbek tilshunosligida antroponimlar tilda maxsus tadqiqot obyekti bo'lgan. Qarang: Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1965; Бегматов Э. Ўзбек исмлири имлоси. – Тошкент, 1972.

¹² Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. – Самарқанд: «Зарафшон», 1991, -Б.124.

¹³ Қораев Т., Воҳидов Р. Адабий тахаллуслар ҳақида. – Тошкент. 1978; Қораев Т., Воҳидов Р. Тахаллуслар. – Тошкент, 1979.

«Kaptarlar qaytmagan kun» nomli hikoya va qissalar to‘plamidagi tilga olingan laqablarni keltirish bilan kifoyalanamiz: *Xudoyqul chag‘irko‘z*, *Sattor sergap*, *Norbek so‘qim* (Sangzor), *Mamadazim hech nima*, *Qodirqul nosfurush*, *Jumantoy tentak*, *Rahim boshmon* (Tubsiz osmon), *Safar soqov* (Kaptarlar qaytmagan kun), *Allamurod do‘m* (Azob) kabi.

Adabiy asarda personajga umuman nom berilmasligi ham mumkin. Bunda ham ma’lum stilistik maqsad ko‘zda tutilgan bo‘lishi aniq. A.Qahhor «San’atkor» hikoyasida asar qahramoni – san’atkorga nom bergan emas. Tasvirdan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, asar qahramoni o‘zini chinakam ma’noda san’atkor, ya’ni bilimli, madaniyatli, tilni, o‘z kasbini yaxshi biluvchi kishi deb hisoblaydi. Voqealar bayonida esa, buning teskarisini anglaymiz, ya’ni qahramonning madaniyatdan, san’atdan yiroq bir kimsa ekanligi ma’lum bo‘lib qoladi. A.Qahhor ham ana shu fikrni badiiy ifodalash, «san’atkor» so‘zi anglatayotgan teskari ma’noga urg‘u berish maqsadida asar qahramoniga ism qo‘ymagan ko‘rinadi.

Badiiy asarlarning sarlavhasini ham «gapiruvchi nomlar» sirasiga kiritish mumkin. Chunki o‘qiladigan asarning mazmun-mohiyatini anglab yetishda uning nomi ham muhim o‘rin tutadi. Kitobxonning kitobni qo‘lga olishi bilan birinchi navbatda qiladigan ishi uning nomlanishiga e’tibor qaratish bo‘ladi. «Asar nima uchun bunday nomlangan ekan», degan savol uning ilk savoli bo‘ladi. Unda asarga nisbatan qiziqish uyg‘onadi.

Shuning uchun, bironta ijodkor yo‘qki, o‘z ijod mahsulining nomlanishi ustida jiddiy ishlamagan bo‘lsin. Fard, ruboiy, qit’a singari kichik hajmdagi she’rlarni hisobga olmaganda, har bir nazmiy asardan tortib, katta polotnodagi nasriy asarlargacha o‘z nomlariga ega bo‘ladi va ularda, shubhasiz, asar mazmuni o‘z ifodasini topgan bo‘ladi.

Fikrlarimizni ikkinchi savol doirasida davom ettiramiz.

2. A.Qahhor sarlavhalari.

A.Qahhorning «Sinchalak» qissasi haqida so‘z yuritamiz. Asarni qo‘lga olishimiz bilan, tabiiyki, bu yerda ham bizni *sinchalak* so‘zining ma’nosi qiziqtiradi. *Sinchalak* – qushning nomi. Adabiy tildagi *chittak* – qush nomining dialektal varianti.¹⁴ Asarni o‘qir ekanmiz, uni ilk bor Qalandarovning nutqida uchratamiz: «***Sinchalak*** degan qushni *bilasizmi, oyog‘i ipday...*».

Asarning bosh qahramonlaridan biri – «Bo‘ston» kolxozining raisi raykom tomonidan kolxoz partkomligiga tavsiya etilgan Saida

¹⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Учинчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007, -Б.517.

Aliyevani ilk kunlardan oq xush ko'rmaydi. Buni quyidagi parchadan anglab olamiz: «Ikki kundan keyin raykom byurosining majlisi bo'ldi. Byuro oldidan Nosirov Saida bilan gaplashib, uning uzil-kesil roziligini oldi; keyin yana Qalandarov bilan suhbat qildi. Bu suhbatda nima gaplar bo'lganini Saida bilolmadi. Lekin Qalandarov kabinetdan rangi bo'zarib chiqdi-yu, Saidaga to'ng'illab: – **Mo'rtgina narsa ekansiz, qiynalib qolmasmikinsiz? – dedi**» (54-55). Matndagi *Mo'rtgina narsa ekansiz, qiynalib qolmasmikinsiz?* degan gapning tagida ana shu ma'no yashiringan.

Saida kolxozda partkom kotibi sifatida ish boshladi. Ammo Qalandarovning unga bo'lgan munosabati o'zgargan emas. «Anchadan keyin Qalandarov, xuddi o'zicha gapirganday dedi:

– **Kolxozda ayshingizni qilib yura berasiz. Partiya tashkilotining sekretariga ish yo'q deyish mumkin. Paxta har yili yuz! Pilla yuz! Oqsagan tarmog'imiz yo'q deyish mumkin. O'zingiz ham bilsangiz kerak?**

Saida nima deyarini bilmay qoldi. Qalandarovning bu gaplaridan: «Sen emas, sendan durustroq sekretarga ham muhtoj emasman» degan ma'no chiqar edi» (57).

Bir muddat o'tgach, Qalandarov Saidani uyiga mehmonga taklif etadi. Suhbat chog'ida xotini Hurinisoning bir gapi yoqmaydi va «Xotin kishi rahbarlik qilsa, kalavamning uchini yo'qotib qo'yaman!», deb yuboradi. Bu Saida uchun ham jiddiy ogohlantirish edi va Saida buni anglab yetadi.

Ziddiyat partiya byurosining yangi tarkibini saylashga kelganda yana keskinlashadi. Saidaning Qalandarovning «o'z roziligi bilan» nomzodi kiritilmasligiga erishgani yetmaganiday, rais tavsiya etgan Usmonjon Umarovning ham nomzodi o'tmay qoladi. Kommunistlar Ismoiljon Normatovni saylashadi.

Bundan alamzada Qalandarov Saida klub faoliyatini yaxshilash bo'yicha maslahat so'raganda piching qilib, «– **O'zingiz ishbilarmon qizsiz! Sizga bizning yordamimiz kerak emas! Muhtoj emassiz!**», – deydi (86). Suhbat davomida Qalandarov kinoya ohangini yana kuchaytiradi: «– **Siz bizdan yordam olgani emas, bizga rahbarlik qilgani kelgansiz! Rahbarsiz!.. Biz nima ish qilsak, sizning rahbarligingiz ostida qilamiz!..**» (86-87).

Qalandarov o'zi ko'rsatgan nomzodning o'tmay qolishiga toqat qilolmaydi. Suhbat jarayonida hamon g'azabidan tushmaydi. Kinoya ottenkasi yanada kuchaytiriladi: «– **Ha, siz turganda bizni hisobga**

olishning nima hojati bor! Sizday rahbar bo'lgan joyda bizdaqa odamlarni hisobdan chiqarib tashlansa ham bo'ladi...» (89).

Saida yolvorgan ohangda: «– Arslonbek aka, bunaqa gaplarning nima keragi bor», – deydi.

Battar tutoqib ketgan Qalandarovning gaplari sarkazmga aylanadi: «– Kolxozni opichlab katta qilgansiz!.. Kolxozning dardi qayerda, qitig'i qayerda ekanini yaxshi bilasiz!.. «Bo'ston»ga o'xshagan kolxozlardan o'ntasini bitta chinchalog'ingiz bilan ko'tarasiz!.. Sinchalak degan qushni bilasizmi, oyog'i ipday... Shu qush «osmon tushib ketsa ushlab qolaman» deb oyog'ini ko'tarib yotar ekan!» (89).

Anglaymizki, qachonlardir Saida uchun ishlatishni mo'ljallab qo'ygan sinchalak so'zini Qalandarov tilida ishlatish ham oson kechmagan. Unga tayyorganlik ko'rilgan. Qalandarov-Saida munosabatlarining o'ta keskinlashgan, raisning g'azabi to'lib toshgan bir lahzada bu so'z ishlatilgan. Qalandarov bu o'xshatishni Saidaga bo'lgan nafratini ifodalay oladigan eng kuchli vosita deb hisoblagan.

Ammo Saida ham bo'sh kelmay, munosib javob beradi: «– Dunyoda bunaqa jonivorlar ko'p, Arslonbek aka, – dedi, – xo'roz ham «men qichqirmasam tong otmaydi» deb o'ylar ekan...» (89). Saida bergan bu «munosib javob» boshqa masala, ammo sinchalak deyish bilan Qalandarovning yangi partbyuro kotibidan alamini olganligi aniq. Asarning «Sinchalak» deb nomlanishining birinchi sababi mana shu.

Ikkinchi sababini esa voqelarning keyingi rivojidan anglaymiz. Saidaning ishlari yurishib ketgach, shunga yarasha asta-sekin vaziyat ham, Qalandarovning muomalasi ham o'zgaradi. Rais musobaqadosh viloyatdan qaytib kelganida kolxoz faollari uni kutib olishga chiqishadi. Mashinaga o'tirishadi. «Bir oz yurilgach, Qalandarov ko'k sakvoyajdan pachoq bo'lib ketgan bir shlyapani oldi, tizzasiga kiygizib uyoq buyog'ini rostlagan bo'ldi-da, avaylab ikki barmog'i bilan bir chekkasidan ko'tarib Saidaga uzatdi.

– Qani, **sinchalakxon**, qizim, mana buni kiyib oling-chi! – dedi va shu bilan, chamasi, men seni o'shanda ham haqorat qilib emas, suyib **sinchalak** degan edim demoqchi bo'ldi».

Bular orasida bo'lib o'tgan mojarodan na Umidaning xabari bor edi, na Ismoiljonning. Shuning uchun ikkovi ham tushunolmadi: rais nima uchun shlyapa olib kelibdi, nima uchun uni sinchalak deb atayapti?

– Ayachamga g'alati ot qo'yibsizmi, Arslonbek aka? – dedi Ismoiljon.

Qalandarov Ismoiljonning savoliga e'tibor qilmay, kolxozdagi hol-ahvolni so'radi» (111).

Saidaning tashkilotchiligi, tashabbuskorligidan endi mamnun bo'la boshlagan Qalandarov gaplarining birida yana *sinchalak* so'zini ishlatadi: «– Yashang, yashang, **sinchalakxon**, – dedi ko'zlari atrofida ajin paydo bo'lib, – bolalar bebosh bo'lib ketayotgan edi, klub atrofida aylantirib qo'yibsiz» (114).

Xotin-qizlarni o'qishga jalb etish masalasida bo'lib o'tgan suhbatlarning birida ular yana kelisha olmay qolishadi. Lekin Saida avvalgi Saida emasligini Qalandarov allaqachon tushunib yetgan. Endi *sinchalak* so'zini ham unga qarata ochiqchasiga ishlatib bo'lmaydi. Ammo xayolidan ham hali olib tashlagani yo'q: «*mashina qishloqqa yaqinlashgan sayin yana ko'ngliga g'ashlik cho'ka boshladi: «Bu **sinchalakni** urolmasam, so'kolmasam, mahmadana ekan, gapiga qarshi gap topolmasam... Bunaqada obro' qolmaydi-ku!» (119). «Qalandarov o'ylanib qoldi, lekin uni bu gaplar haq ekanligi emas, Saidadan chiqqanligi ko'proq band qildi: «Bitta-ikkita gapi to'g'ri chiqib qolsa, bu **sinchalak** hovliqib ketasmikin!» (121). «Bu *sinchalak* menga bildirmay rosa tayyorlik ko'rgan ekan-da, obbo mug'ombir-ey!.. Chetdan kelgan mehmonlar oldida meni bosib ketishga bunchalik jon kuydirmasa ham bo'lar edi-ku, raisdan ham zo'r ekan deb, Hindistonga jenotdel qilib olib ketarmidi!» Go'yo Saida uning miyasiga ana shu laqab bilan o'rnatilib qolgan edi (156).*

«Uch kundan keyin Saida ustidan butun boshliq bir aybnoma yozildi. Buning mazmunini Qalandarovning o'zi aytib bergan bo'lsa ham, «uyog'ini Eshonning o'zi to'g'rilab, o'zi kelishtirib» yozib chiqdi. Qalandarov yigirma uch sahifali bu arizani o'qib kayfi uchdi: «Bu **sinchalak** yo'rg'alab yurib, sal kunda shuncha ish qilibdimi! Eshon uzun kosov deganicha bor ekan-ku. Shuncha ish bitta o'zining qo'lidan kelmaydi, aqli ham yetmaydi. Buning ustasi usta!..» (179).

Oxir-oqibat, Qalandarov Saidani tan oladi, avval uni *sinchalak* deb atagan bo'lsa, keyinchalik «kichkina nimjon bo'lsang ham, osmonni ko'targuli quvvating, g'ayrating bor ekan», deyishga majbur bo'ladi: «A'zamjon bugun saharda Arslonbekni kurortga kuzatib qo'yibdi. Kecha kun bo'yi ikkovi birga ekan. Arslonbek «Qizil O'zbekiston» gazetasining kechagi sonida chiqqan «*Sinchalak*»dan parchani o'qib, yozuvchidan xafa bo'libdi: «Men Saidaxonni o'shanda **sinchalak** degan bo'lsam, keyinroq bu xatoni o'rtoq Nosirovning oldida tuzatgan, kolxozchilarning umumiy majlisida ham

to'g'rilaganman, o'ziga qo'l berib, kichkina nimjon bo'lsang ham, osmonni ko'targuli quvvating, g'ayrating bor ekan, deganman, shuni yozsin-da, nima qiladi o'tgan gaplarni esga solib», debdi» (186).

Mana bu gaplardan keyin yozuvchining asarga nima uchun «Sinchalak» deb nom qo'yganligini to'laligicha anglab yetamiz. Tilga olinganda maydagina bir qushcha haqida tasavvur beradgan *sinchalak* so'zi yozuvchi badiiy tafakkurida metaforik mazmun kasb etib, mutlaqo yangi bir ma'no – *osmonni ko'targuli quvvati va g'ayrati bor inson* kashf etilganligining guvohi bo'lamiz. Zero, Abdulla Qahhor buyukligini tasdiq etuvchi mahorat namunalarining biri ham ana shu.

Abdulla Qahhorning «Boshsiz odam» hikoyasining qisqacha mazmuni esa shunday: Eri o'lib ikki qizi bilan qolgan Niso buvi usta Abdurahmon bilan turmush qurishga rozi bo'ladi. Vaqti kelib, usta o'g'li Farxiddinga katta qizni kelin qildi. Ma'lum sabablarga ko'ra, Niso buvi ularning farzand ko'rishini xohlamasdi.

Tumor taqdi, qaytarma suvlari ichirdi. Ammo uning aytgani amalga oshmadi. Mehrining bo'yida bo'lib qoldi. Niso buvi bolani yo'qotishning payida bo'ldi. «*U Mehrini ko'rpaga o'rab, yangi qilinayotgan kigizday yumalatdi; qorniga yostiqlik bilan urdi, ustiga chiqib o'tirdi; qo'qqisdan qattiq qo'rqitdi... Bularning hech qaysisi foyda bermadi. Niso buvi qayerdandir yangi bir chora topib keldi, kimdir qorinni silash, bolani ezib yo'q qilishni o'rgatgan. Niso buvi besh kun deganda ishining natijasini ko'rdi*». Kasalxonada olib tashlangan homilaning boshi yo'q edi. Bor gap shu.

Hikoyani shu yerigacha o'qigan o'quvchi asarning nomlanish sababini angelaydi. Boshsiz odam kim o'zi – boshi tanasidan ayri tushgan chaqaloqmi yoki uning sog'lom bola bo'lib dunyoga kelishiga tish-tirnog'i bilan qarshi turganlarmi? Hikoya muallifi ham, asar g'oyasini anglab yetgan o'quvchining ham fikri bu borada bitta – bolaning o'lik tug'ilishiga sabab bo'lgan qotillar. Bu qotillikning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan jaholat – boshsizlik. Jaholatga qarshi isyon sifatida yuzaga kelgan hikoyaning nomida ana shu teran mazmun yotadi.

Tahlilni mana shu tarzda «Ko'r ko'zning ochilishi», «O'g'ri», «Ming bir jon», «Ig'vogar», «Dahshat» hikoyalari misolida ham davom ettirish mumkin. Ularning har biri asar sujetiga mos tarzda «gapiradi», o'quvchiga asar mazmunini anglashda yo'l ko'rsatib turadi.

Ma'lum bo'ladiki, badiiy adabiyotda nomlar ham «gapiradi». V.V.Vinogradovning ta'kidlaganidek, badiiy adabiyotda ismlar,

familiyalar, laqab va taxalluslar tanlash, ularning turli janr va uslublarda struktural o'ziga xosligi, obraz hamda xarakter yaratishdagi vazifasi va shu kabi masalalar – bu badiiy adabiyot stilistikasining juda katta va murakkab mavzusidir.¹⁵

Xullas, ijodkorlar, odatda, asarning g'oyasini, o'zi ko'zda tutgan asosiy fikrni, asarni yozish bilan nima demoqchi ekanligini sarlavhaga olib chiqishga harakat qiladi. Abdulla Qahhorning «Sinchalak», «Boshsiz odam» asarlari tahlilida bunga amin bo'ldik. Aslida boshsiz – kallasi ishlamaydigan odam kim, Qalandarov mensimasdan «sinchalak» deb atagan Saida Aliyeva kim? Asarni o'qigach, sarlavha va tasvirlanayotgan voqelik o'rtasidagi bog'lanish-nechog'lik mustahkam ekanligi ma'lum bo'ladi.

3. Epigraf nega kerak?

Badiiy asarning kirish qismida, boblarning boshlanishida hadislar, maqollar, buyuk insonlarning hikmatli so'zlari keltiriladi. Bu holat poetik asarlarda ko'p kuzatiladi. *Epigraf* nomi bilan so'z va jummalarni keltirishdan muayyan maqsadlar ko'zda tutiladi. Ularning keltirilishi asarning g'oyasini juda qisqa holatda ifodalash, kichik bir jumlalarga mujassam etishdan iborat bo'lishi ham mumkin.

Shu ma'noda, «Adabiyotshunoslik terminlari izohli lug'ati»da so'z ma'nosiga berilgan izohda ham muayyan haqiqat bor. Lug'atda *epigraf* deyilganda «bir yozuvchi tomonidan o'z asarining asosiy mazmuni va temasini oldindan tushuntirish uchun ikkinchi bir yozuvchi asaridan yoki xalq og'zaki idojidan asar boshiga, alohida qism (bob)larning boshlanishiga kiritgan jumla yoki she'riy parcha»ni tushunish uqtirilgan.¹⁶ Harqalay, butun bir asarning g'oyaviy mazmunini qisqa jumlalarda berishga intilish ham ijodkor mahoratining bir ko'rinishidir.

Yana A.Qahhor asarlariga murojaat qilamiz. Adibning «To'yda aza» hikoyasida tojik xalqining *Zo'ri behuda miyon meshikanad* maqoli epigraf sifatida keltirilgan. Buning ma'nosi *behuda qilingan harakat, urinish belni sindiradi*, deganidir.

Birinchi navbatda hikoyaning sarlavhasiga ko'z yugurtirgan va asarda ifodalangan voqeani anglashga muayyan yo'nalish olgan o'quvchi ikkinchi navbatda epigrafga nazar tashlaydi. Masalan, biron bir noto'g'ri harakat bo'libdiki, u to'yning azaga aylanishi darajasidagi oqibatni keltirib chiqaribdi, degan xayolga boradi.

¹⁵ Виноградов В. В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – с. Москва, 1969. -С.38

¹⁶ Ҳомидий ва бошқ. Адабиётшунослик терминлари изоҳли луғати. -Б.252.

Biz bu hikoyaga oldingi mavzularda ham to'xtalganmiz. Ammo unda badiiy matnlarda detalning ahamiyati haqida gapirganimizda, Muxtorxon domla uylanmoqchi bo'lgan o'z talabasining semizligiga e'tiborni qaratganmiz. Hikoyaning davomida esa boshqa tafsilotlar ham bor.

Yuqorida ta'kidlanganiday, mahallaning ko'rki bo'lgan Muxtorxon domla ayoli vafot etgandan keyin ham mahalla ahli uchun shu obro'-e'tiborda edi. Ammo domla o'zining talabasiga uylanadigan bo'lgandan keyin bu obro'ga putur yetadi. Buning ustiga, imidjini o'zgartirib, *«butun mahallaga fayz kirgizib turgan soqolini oldirgani»* uni yana ham obro'sizlantiradi. Hikoyadan kichik bir parcha keltiramiz: *«Oradan ko'p o'tmay choyxo'rlardan biri qiziq bir gap topib keldi. Bu yigit domlani shaharning narigi chekkasidagi parkda ko'ribdi. Domla, boshida chamandagul do'ppi, egnida kalta va tor shim, katak ko'ylak, engini baland shimargan, bilagida kattakon tilla soat, o'zi yakka pivo ichib o'tirgan emish! Uning bunday odati yo'q edi, shuning uchun yigit hayron bo'lib bir oz qarab turibdi. Domla ikki shisha pivoning ustidan yuz gramm aroqni bitta otib o'rnidan turibdi-yu, gulchidan kattakon guldasta sotib olib, parkning orqasidagi jinko'chaga kirib ketibdi. Bu gapni eshitib odamlarning dami ichiga tushib ketdi. Ba'zi birovlarining ko'ngliga allaqanday jirkanch, domlanning sha'niga hech to'g'ri kelmaydigan gaplar keldi... Shunda mahallaning qariyalaridan Karim ota hozir ba'zi birovlarining ko'ngliga kelgan gapdan ham xunukroq bir taxminni aytib qoldi: – Xayr, ishqilib oxiri baxayr bo'lsin, – dedi, – kelinimiz yoshga o'xshaydi... Qiz bo'lmasa deb qo'rqaman!»*.

Darhaqiqat, kelin yosh edi va Muxtorxon domlanning fikri-yodi unga o'zini yosh ko'rsatish bo'lib qoladi. To'ydan bir oy o'tar-o'tmas ular kurortga boradigan bo'lishadi. Domla taksiga ikkita og'ir chamadonni o'zi olib chiqadi. Nima bo'ladi-yu yo'lda mashinaning bagajni ochilib, haligi ikkita chamadon ham otilib chiqib ketadi. Mashina qirq-ellik qadam o'tib to'xtaydi. Domla ham nimanidir isbotlamoqchi bo'ladi shekilli, shuncha masofadan chamadonlarni mashinagacha olib keladi va joylab, o'rindiqla o'tiradi. Shu o'tirganicha o'lib qoladi. Mana shu voqeadan xabardor bo'lgan kitobxon A.Qahhor yuqoridagi epigrafni nima uchun keltirganini to'laligicha anglab yetadi.

Bunday epigraflarni yozuvchining ko'plab asarlarida uchratamiz: «Ko'r ko'zning ochilishi»da: *Mulla Umar sizmisiz, To'ng'iz o'qi yermisiz? (Qo'shiq)*; «Anor»da: *Uylar to'la non, och-nahorim bolam,*

Ariqlar to'la suv, tashnayi zorim bolam (O'tmishdan); «Bemor»da: *Osmon yiroq, er qattiq* (Maqol); «O'g'ri»da: *Otning o'limi, itning bayrami* (Maqol); «Bashorat»da: *Ola qarg'a qag' etadi, O'z vaqtini chog' etadi* (Maqol); «Yillar»da: *O'tdi umrim voh darig'...* (Qadimiy qo'shiq); «Qizlar»da: *Toychalar kishnashadi ot bo'ldim deb, Kelinlar yig'lashadi yot bo'ldim deb* (Qadimiy qo'shiq); «Dahshat»da: *Xotin-qizlarning burungi zamonda ko'rgan kunini bilmaysizlar, qizlarim, aytgan bilan ishonmaysizlar!..* (To'raxon aya) kabi. Ularning har biri asar g'oyasining o'quvchi tomonidan to'la anglanishiga xizmat qiluvchi poetik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

4. Badiiy matnda tagma'noni zimmasiga olgan jumlarlar.

Filologiya ilmda *polifoniya*, *presuppozitsiya*, *implikatsiya* singari tushunchalar mavjud. Ular doirasida o'zbek olimlari tadqiqotlar ham olib borishmoqda.¹⁷ Bu manbalarga tayanib aytish mumkinki, *polifonizm* «asardagi turli fikr, kechinma va qarashlarning birdan jaranglashi, asar strukturasidagi ko'povozlilik, ko'pqatlamlilik» (A.Nurmatov, -B.8). «Tilning pragmatik vazifasini ko'rsatuvchi hodisalardan biri presuppozitsiya hisoblanadi. Presuppozitsiya gapning to'g'ri anglanishi uchun eng zarur uzvlardan biridir. Chunki bu hodisa gapning vaziyat, kontekst hamda so'zlovchi va tinglovchilarning oldindan ma'lum bo'lgan umumiy bilimlari kabi elementlarni o'z ichiga oluvchi hodisadir. Presuppozitsiya hodisasi umumlingvistik hodisa hisoblanadi. Lekin har bir tilning o'ziga xos xususiyati bo'lganidek, presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositalari ham o'ziga xos» (U.Rahimov. -B.8-9). D.Mirboboyeva esa o'z maqolasida I.Arnoldning «implikatsiya, bu – mikrokontekstda yoki muloqot vaziyatida vujudga keladigan va til birligi orqali bilvosita ifodalanmaydigan qo'shimcha ma'nodir» va V. Kuxarenkoning ««Implikatsiya» mazmuniga «matn birliklari orasidagi bilvosita bog'liqliklar tufayli vujudga keladigan qo'shimcha ma'no yoki *emotsional mazmun*» tushunchasini kiritib, ular matn va tagma'no (podtekst), alohida so'zlar orqali ifodalanadigan implitsional qo'shimcha mazmun orqali ifodalanishini ta'kidlaydi», degan fikrlarini keltirgan.

¹⁷ Misol tariqasida quyidagi ishlarni ko'rsatishimiz mumkin: Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол.фан. номз. ..дис. автореф. – Самарқанд, 1994; Нурматов А. Бадий асарда полифонизм: Филол.фан. номз. дис.автореф. – Самарқанд, 1996. Мирбобоева Д. Импликация тушунчасининг когнитив-прагматик аспекта талқин қилиниши. – Самарқанд: СамЧТИ. suvonova72@umail.uz.

Bular adabiyotshunoslik yoki tilshunoslikka oid terminlar bo'lishidan qat'i nazar, umumiy bir tushuncha ostida birlashadi. Kichik matndan tortib katta matngacha, yagona til birligidan tortib yirik polotnodagi badiiy asargacha bo'lgan matnlarning birlamchi ma'nosidan tashqari ikkilamchi ma'nosi ham bo'ladi. Bu ma'nolarni umumlashtirib, *tagma'no* deb atashimiz mumkin bo'ladi. Matnda tagma'no bir yoki bir necha bo'lishi mumkin. Bu ijodkorning mahorati bilan birgalikda kitobxonning uquviga ham bog'liq. O'quvchining muayyaan bir asardan turlicha taassurot va estetik zavq olishining sabablari ham shunda.

Tagma'noli asarlarning eng yaxshi namunalari xalq maqollari sanaladi. Ularda albatta qandaydir bir ma'rifiy-axloqiy xulosa yashiringan bo'ladi. Yana takrorlaymiz, uni uqib olish ham o'quvchining fahmiga bog'liq bo'ladi. *Kosa, kosaning tagida* – *nimkosa* maqoli aynan ana shu xalq hikmatlari jamlangan til birliklariga nisbatan aytilgan.¹⁸ Otaulining Ziyouz.uz saytiga qo'yilgan «Zargarona zarofat, teran tagma'no» maqolasida ham tagma'no haqida mulohazalar bor. Unda maqol, shohbayt, latifa va askiyalar mazmuniga yashiringan ma'nolar to'g'risida so'z yuritilgan.¹⁹

Tagma'nolilik xalq og'zaki ijodining nodir namunalari sanaladigan askiyalarning ham mohiyatini tashkil etadi. Bu aytilganlarni jamlaydigan bo'lsak, nutqda tagma'nolilik o'zbek xalqi mentalitetiga, nutqiy madaniyatiga xos bo'lgan xususiyatdir. Oddiygina *Botir keldi* gapiga e'tibor qilaylik. Umumiy ma'noda uning Botir bajargan harakat haqidagi axborotdan boshqa hech qanday ma'nosi yo'q. Botirning kimligi suhbatdoshlarga avvaldan ma'lum bo'lsa-chi? Bunday paytda gap oddiy axborot uzatish doirasidan chiqadi. Agar u biroz hayajon bilan aytilsa, Botirning suhbatdoshlarga yaqin inson ekanligi va bu tashrifdan quvonganligini sezish mumkin bo'ladi. Maboda norozilik ohangida aytilsa-chi? Buning teskarisni kuzatamiz. Botirning ular xohlamagan yoki kutmagan odam ekanligi, aytaylik, balki qarzini so'rab kelgan odam, ekanligi ma'lum bo'ladi. Gapning faqat suhbatdoshlargina ma'lum bo'lgan tagma'nosi shular.

¹⁸ Kosa, kosaning tagida – nimkosa. Bu maqol biror narsaga shama qilinganda qo'llaniladi. [Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Нега шундай деймиз. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987, -Б.146]. Shu mualliflarning «Hikmatnoma» nomi bilan nashr etilgan o'zbek xalq maqollarining izohli lug'atida shu ma'ni biroz kengaytirilgan holda «to'g'ridan to'g'ri aytilmay, yashirib qolingani bir gapni aytish bilan boshqa narsaga shama qilinadigan gapga nisbatan aytiladi», deb izohlangan. *Ҳикматнома*. – Тошкент: Ўзб.сов.энциклопедияси, 1990. -Б.218 6.

¹⁹ Maqola «Ўзбекистон адабиёти ва санъати» gazetasining 2010-yil 10-sonidan olingan.

Badiiy asarlarda esa matnoshi va ikkilamchi ma'nolari, ya'ni tagma'noli bo'lgan ko'plab so'zlar, gaplar, kichik va katta matnlarga duch kelamiz. Gap ularni anglab yetishda.

A.Qahorning «Sinchalak» qissasidan ayrim parchalarni tahlil qilamiz: *Shu choq eshik xuddi mushuk tatalaganday tiqirladi-da, sekin ochilib, Eshonning kallasi ko'rindi*. 18 (58). Nega yozuvchi Eshon ko'rindi, Eshonning boshi ko'rindi demasdan, bosh ning kalla variantini qo'llamoqda? Chunki uning salbiy ottenkasi bor. Bu tavsif asar muallifining Eshonni nafaqat kulgili bir alfozda tasvirlash, ayni paytda, o'zi ham yoqtirmayotganiga ishoradir.

Yana:

«Huriniso bu savolni eshitmagan bo'ldi.

– *Hammasi ham unib o'sdi: biri kolxoz raisi, biri rayon madaniyat bo'limining boshlig'i, biri deputat... Ha, aytganday, qaysi kuni Hakima kelgan edi, qahramon bo'lishiga o'ttiz bir tonna yetmabdi.*

Hurinisoning bu ayollar haqidagi gaplaridan: **«Men o'qitgan ayollar mana shunaqa martabalariga erishdi»**, degan iftixordan ko'ra ko'proq, **«baribir, hammasidan yana o'zim aqlli, o'zim dono»**, degan bir g'urur aks etar edi. Bu ayol, aftidan, o'sha ayollarga hasad qilganini, bir vaqtlar jamiyatda bevosita tutgan o'rnini yo'qotib qo'ygani uchun qiladigan afsus-nadomatini o'zidan ham, o'zgan ham yashirib, shu g'urur ostiga ko'mar edi. U mana shu aqlini, donoligini ko'rsatish uchun mavzudan mavzuga ko'char, ilmdan, san'atdan, siyosatdan, kolxoz xo'jaligi hayotidan qulog'iga kirib qolgan gaplar haqida o'zicha muhokama yurgizib, palapartish, ba'zan hech qovushmaydigan fikrlar aytar, **erini o'larday go'l podsho, o'zini nihoyatda quv vazir qilib ko'rsatishga harakat qilardi**» (61-62).

Gap tagidagi gap hamma vaqt ham o'quvchiga tushunarli bo'lavermasligi mumkin. Shunday paytda yozuvchining izohlari o'quvchiga yordamga keladi. Hurinisoning aytganlaridan keyingi izohlar uning nima demoqchi bo'layotganini anglashimizga ko'maklashadi. Bu dardga hamma ayollar ham chalinmagan ekanmi, deb o'ylab qolasiz.

Yozuvchi Hurinisoning takabburligini chizishda davom etadi: *«Qalandarov keldi. Huriniso eri haqida aytganlarini amalda ko'rsatmoqchi, yana «shunday odam ham menga bo'yin egadi», demoqchi bo'ldi shekilli, uni g'azabiga oldi:*

– *Kelar edingiz-da... Shu ham ishmi! Hamisha shunaqa qilasisiz!.. Qachon tashlaysiz shu fe'lingizni?! – deb shovqin soldi.*

Qalandarov hazilga oldi.

– *Tashlash kerak bo‘lgan fe‘lim ko‘p, xo‘jayin! Tuyadan «nega bo‘yning egri» deb so‘ralsa, «qayerim to‘g‘ri» degan ekan... Zerikmay o‘tiribsizlarmi, mehmonlar...»*

Internet sahifalaridan olingan va hozircha muallifi bizga noma‘lum bo‘lgan «Qodiriyning «nimkosa»lari («O‘tkan kunlar»ga yangicha nazar)» maqolasida asar chindan ham yangicha yondoshuvda tahlil etilgan va bunda xalqimizning yaqin o‘tmishdagi Islom ta‘limoti asosida yashash tarzi asos qilib olingan.

Umarali Normatov, Bahodir Karimov singari yirik o‘zbek adabiyotshunos olimlarining roman haqidagi fikrlarini keltirib, unda xilma-xil insoniy taqdir, ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-axloqiy, oilaviy-ishqiy muammolar qalamga olinganligini, biroq ular orasida yurtning, millatning taqdiri, mustaqilligi masalasi alohida ajralib turishligini ta’kidlaydi. Akademik Naim Karimovning asar g‘oyasi haqidagi quyidagi fikrini keltiradi: «Shu narsa ajoyibki, Otabek oldida turgan to‘siq uning baxtiga chang solmoqchi bo‘lgan quzg‘un faqat Homiddangina iborat emas. Bu to‘siq qanchalik makkorona tus olmasin, Otabek uni mardona yengib chiqadi. Lekin uning «ota-ona orzusi» deb atalgan boshqa bir to‘siqni hatlab o‘tishi amri mahol. U shu yerda qoqilib, mashaqqat bilan erishgan baxtidan bir umrga judo bo‘ladi. Adibning bu asarni yozishdan maqsadi xuddi shu yerda o‘z jamolini ko‘rsatadi».

Maqolada yana quyidagi fikrlarni o‘qiymiz: «Otabek... Islom dinining savob va gunoh, halol va harom borasidagi ko‘rsatmalaridan yaxshi xabardor... Otabek madrasa ko‘rgan, oq-qorani tanigan yigit esa-da, asar davomida solih bir insondan gunohni yengil sanaydigan fojir kimsaga aylana boradi. Uning solih farzandga xos bo‘lmagan katta xatolaridan biri shuki, Kumushni sevib qolgach, bundan ota-onani voqif qilish, roziliklari va duolarini olish o‘rniga xizmatkor Hasanalini sovchilikka yuborish bilan kifoyalanadi. «Xotinlaringiz o‘rtasida adolat qiling» degan ilohiy amrga qarshi o‘laroq ikkinchi xotini Zaynabga o‘ta beparvolik, qo‘rslik bilan muomala qiladi, ko‘p ishlarda adolatsizlik va zulm ko‘rsatadi. Boshiga kulfat tushishi bilan tadbir-chora topish o‘rniga ichkilikka ruju qo‘yadi. Bo‘lib o‘tgan ishlarda ota-onaga nohaq malomat qila boshlaydi. Nima sababdan ekanidan qat’i nazar, oxiri qotillikka qo‘l urishgacha ham boradi».

Maqoladan iqtiboslar keltirishda davom etamiz:

«Kitobni o‘qiganingiz sayin shu tariqa Otabek va Kumush, Yusufbek hoji va O‘zbek oyim, Homid va Usta Alim kabi romanning asosiy qahramonlari tomonidan shariat ahkomlarining qo‘pol poymol qilinishiga, hatto Alloh farz qilgan amallarning tark etilganiga, harom sanalgan ulkan gunohlarga bemalol qo‘l urilganiga guvoh bo‘lasiz. Asar musulmonlar hayotidan bo‘lgani bois, birinchi navbatda ularning eng ulug‘ ibodat – namozga bo‘lgan munosabatini olib ko‘raylik. ...romanning bir necha joyida asar bosh qahramonlari oddiy turmush tashvishlari bilan o‘ralashib yoki arziyas sabablar tufayli namozlarini osongina qoldirib yuborishaveradi. Bu ham Islom shariatini oyoqosti qilish, Allohning amrlarini inkor etishdir».

«Islomda sehrgarlik shirkka tenglashtiriladi. Ammo Yusufbek hojiday hamma ergashadigan taqvodor kishining xotini O‘zbek oyim o‘g‘lini marg‘ilonlik kelini sehrlab qo‘ygan deb astoydil ishonadi va uni xotinidan «sovutish» uchun tinimsiz sehr, jodu qiladiganlarning oldiga qatnaydi».

«Fol ochish va ochtirish ham shirkka tenglashtirilgan. Ammo Yusufbek hojiday dindor, taqvoli odamning xonadonida bu ish odatiy holga aylangan. Yusufbek hoji negadir xotinini bu gunoh ishdan man etmaydi».

«Xalqning dindan uzoqlashib, Allohning amrlaridan chekinganini, Uning qaytariqlaridan seskanmay qo‘yganini adib shunday tasvirlaydi: «Xalqimiz ta’biricha, bu zamonlar «musulmonobod» bo‘lsa-da, biroq bu tantanalik ta’birni buzib qo‘yaturg‘an ishlar ham yo‘q emas edi».

«Tarixdan yaxshi ma’lumki, musulmonlar Islomdan uzoqlashib, Qur’on va sunnatni unutishganda, Islomiy axloqdan chekinishganda hamisha mag‘lubiyatga yuz tutishgan, xo‘rlanishgan, azob-alamlarga muhtalo bo‘lishgan. Agar xalq orasida fisq kuchaysa, uning axloqi buzilsa, bu xalq mutelikka, o‘zgaga qaram bo‘lishga, istibdod va zulmga duchor bo‘lishga mahkumdir».

«Abdulla Qodiriyning jasorati va mahorati shunda ediki, u bosqinchi sovet tuzumining dahriylik siyosati avj olib turgan o‘ttizinchi yillarda ularning ko‘zini «shamg‘alat» qilib, mazkur romanida imonga, e’tiqodga qilingan suiqasdning nimalarga olib kelishiga ishora qilgan».

«Nazarimizda, bulardan shunday xulosa qilish mumkin: e’tiqodiga sodiq adib mustamlakachilar to‘rvasida kirib kelgan xudosizlik mafkurasi xalq boshida zulm kaltagini o‘ynatib turgan yillarda, o‘zi ham har qadamda tazyiq va ta’qibga uchrab turgan bir paytda fikrlarini ochiq yozib o‘tirmay, buni qahramonlarining tutgan

yo‘li va xatti-harakatlari orqali ko‘rsatmoqchi bo‘lgan. Ko‘pchilikning Islomdan chekingani, shariatga xilof yo‘l tutayotgani, musulmonlar axloqiga zid va yot ish-amallarni qilayotgani ana shu kulfatlarning asosiy sababchisi deb izohlamqchi bo‘lgan. Shu tufayli eng avvalo bir o‘zbek xonadonining, qolaversa yurt va millatning inqirozga uchrashi, mustamlakachilarga yem bo‘lishi bejizga emasliganini qalamga olishga jazm qilgan. «Birniki mingga, mingniki tumanga», deganlariday ayrim fosiq va fojirlarning kasri butun millatga urishi mumkin, demoqchi bo‘lgan...»

Maqola muallifi asardan keltirilgan bu kabi faktlar orqali «kosa tagida nimkosa» borligini, buyuk adib qalamga olgan voqealar millat inqiroziga sabab bo‘lganligini aytadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. *Gapiruvchi nomlar* atamasi nimani anglatadi?
2. *Gapiruvchi* nomlarga o‘zingiz o‘qigan bironta badiiy adabiyotdan misol keltirib, fikringizni isbotlay olasizmi?
3. A.Qahhor o‘z qissasiga nima uchun «Sinchalak» deb nom qo‘ygan?
4. A.Qahhor hikoyalarining «Boshsiz odam», «Ko‘r ko‘zning ochilishi», «O‘g‘ri», «Ming bir jon», «Ig‘vogar», «Dahshat» deb nomlanishining sabablarini tushuntirib bering.
5. Epigraf nima va u adabiy matnda qanday badiiy-estetik vazifani o‘z zimmasiga oladi?
6. *Polifoniya*, *presuppozitsiya*, *implikatsiya* tushunchalariga izoh bering.
7. *Tagma’no* atamasini qanday tushundingiz?
8. «Sinchalak»dagi tagma’noli matnlarning izohini bering.
9. A.Qodiriyning «nimkosalari»ga munosabat bildiring.
10. O‘zbek tiliga xos bo‘lgan qonuniyatlar orasida tagma’no qanday o‘rin tutadi.

O'ZBEK TILINING TASVIRIY VOSITALARI

Reja:

1. *Tasviriy vosita va ifoda tasvir vositalari* tushunchalari.
2. Troplar – ma'naviy san'atlar.
3. Stilistik figuralar – lafziy san'atlar.

Tayanch soʻz va iboralar: *tasviriy vosita, fonetik, leksik-frazeologik, grammatik, ifoda tasvir vositasi, badiiy tasvir vositalari, ma'naviy san'atlar, lafziy san'atlar, trop, metafora, o'xshatish, epitet, doimiy, metaforik, affektiv, bezak, baholovchi, metonimiya, sinekdoxa, perifraz, ironiya, antifraza, sarkazm, mubolag'a va kichraytirish (litota), allegoriya, simvol, jonlantirish, stilistik figura, takror, antiteza, oksyumoron, asindeton, polisenditon, gradatsiya, diateza, paronomoziya, ritorik so'roq va ritorik undov, ellipsis, jim qolish, takror, alliteratsiya, anafora, rifma, pallelizm.*

1. Tasviriy vosita va ifoda tasvir vositalari tushunchalari.

Tildagi barcha birliklar – fonetik, leksik-frazeologik va grammatik elementlar matnlarda tilning tasviriy vositalari degan umumiy nom ostida qo'llaniladi. Bulardan tashqari, tilda stilistikaning o'rganish obyekti hisoblanadigan va qo'llanishi badiiy matnlarga xos bo'lgan **maxsus ifoda tasvir vositalari** ham mavjud.

Badiiy adabiyot matnida uslubiy vazifani bajarishga xizmat qiluvchi tilning ifoda tasvir vositalari badiiy uslubning boshqa funksional uslublar orasidagi mavqeyini belgilovchi eng muhim alomatlardan biri sanaladi. Chunki til vositalarining majoziy, ya'ni ko'chma ma'nolarda hamda obrazli tasvir uchun turli shakllarda qo'llanish zarurati ma'lum darajada tilning barcha funksional uslublarida bor bo'lsa-da, ammo ularni badiiy uslubdagichalik bemalol, erkin, mukammal va keng doirada foydalanishning imkoniyati yo'q.

Boshqa uslublarda asosan ko'pchilikka ma'lum bo'lgan, tilda qisman turg'unlik kasb etgan tasviriy vositalarga murojaat qilinadi. Badiiy matnda esa tasviriy vositalarning shunday ko'rinishlariga duch kelamizki, ularni faqat maxsus ijodiy mehnat mahsuli bo'lgan badiiy tafakkurgina yuzaga keltirishi mumkin.

Aslida badiiy asarda qo'llangan barcha so'zlar tasviriy vositalardir. Ekspressiv qimmatga ega bo'lmagan so'zlar ham maxsus

ohang yordamida nutqqa emotsionallik bag'ishlashi mumkin: *otding*, *afsus – otding!*, *afsus!* kabi. Ammo tilga rang-barang jilo berish, ta'sirchanlikni kuchaytirish niyatida badiiy adabiyotda, ayniqsa, poeziyada **troplar** va **figuralar** nomi guruhlanadigan maxsus ifoda tasvir vositalariga murojaat qilinadi. Bu vositalar **badiiy tasvir vositalari** deb ham yuritiladi va ikki guruhga bo'lib o'rganiladi:

Ularning *troplap* deb ataluvchi qismi obraz yaratishda bevosita ishtirok etsa, ikkinchi bir qismi – *uslubiy figuralar* esa, garchi ko'chma ma'noda qo'llanilayotgan, obraz yaratayotgan til birliklari darajasida bo'lmasa ham, ana shu obrazlarning shakllanishiga, barkamol, pishiq bo'lishiga, o'quvchining matnni to'g'ri va tez tushunib olishiga ko'maklashadi. Mumtoz adabiyotimiz tarixida troplar va uslubiy figuralar *ma'naviy va lafziy san'atlar* yoki *she'riy san'atlar* deb nomlangan.

Ilmiy va badiiy manbalarda Sharq adabiyotidagi san'atlar – *ma'naviy va lafziy san'atlarning* turlari yoki ularning har ikkalasining qorishiq holatlari 120 dan ortiq ekanligi haqida ma'lumot berilgan.²⁰ Ularning har bir shoir yoki yozuvchi asarida qay darajada qo'llangani badiiy mahoratni belgilovchi o'lchovlardan biridir. Shuning uchun ham Sharq adabiyoti lingvopoetikasida lafziy, ayniqsa arab yozuviga asoslangan tillardagi harfiy san'atlar badiiy uslubni boyituvchi omillar sanaladi.

2. Troplar – ma'naviy san'atlar.

Uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan o'zbek tili va uning badiiy uslubi nutqiy ekspressiyaning juda katta xazinasiga ega. Jumladan, unda keng tarmoqli, an'anaviy troplar sistemasi mavjud. Masalan, klassik adabiyotdagi yorni madh etish bilan bog'liq bo'lgan juda ko'plab o'xshatishlarning, she'riy san'atlarning mavjudligi madaniyatimizning, san'atimizning ildizlari juda chuqur ketganligidan dalolat beradi. Ularning milliyliги va individualligi ham ana shu tarixiylik bilan mustahkam bog'langandir.

Badiiy ijod jarayonida yozuvchi his-tuyg'ularni o'zi qanoatlanadigan darajada ifodalay oladigan til birligini axtaradi. Ularni bir-birlariga chog'ishtiradi, qarama-qarshi qo'yadi, yonma-yon qo'llaydi, takror ishlatadi va hokazo. Zero, troplarning o'zi so'zlarni asl

²⁰ Исҳоқов. Ё., Навоий поэтикаси, – Тошкент, 1983. –Б.106; Зехнй Т. Санъати рухан. – Душанбе, 1967. - Б.22. Бу haqda қаранг: Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Тошкент, 1979; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. Ўзбек классик поэтикасидан қўлланма. – Ленинобод, 1972.

ma'nolaridan ko'ra ko'proq ko'chma ma'noda qo'llashga intilishning natijasidir.

Adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressevligini kuchaytirish uchun so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatishga **troplar** deyiladi.

O'zbek tili badiiy uslubining shakllanishi va taraqqiyotida adabiyotimizdagi har bir janr, har bir badiiy san'at – tasviriy vositalarning alohida o'zni va xizmati bor. Tilning taraqqiyot qonunlari bilan bog'liq ravishda troplar tarkibida (ma'nosida) ham, qo'llanish chastotasida ham ma'lum o'zgarishlar yuz berib boradi. Ijod mahsuli sifatida tilda yangi tasviriy vositalar paydo bo'ladi, faol muomalaga kiradi, ekspressivligini yo'qotishi bilan ma'nosi kengaygan til materialiga aylanib qolaveradi. Shu tariqa jarayon uzluksiz davom etadi. Agar bu vositalar faqat alohida olingan ijodkor qalamigagina mansub bo'lsa, ohori to'kilmagan holda, badiiy ijodning nodir namunasi sifatida yashayveradi.

Quyida troplar haqida qisqacha ma'lumot berib o'tamiz. Ulardan o'xshatish va metaforaga alohida to'xtalamiz.

Epitet o'zbek tilshunosligida **sifatlash** deb ham yuritiladi va badiiylikni ta'minlovchi tasviriy vositalar ichida markaziy o'rinlardan birini egallaydi.

Epitet nutq jarayonida kishilarning, predmet yoki voqea-hodisaning ma'lum sifatini alohida bo'rttirib ko'rsatadi. Shu orqali butun predmetni ham aniqlab keladi. U predmet yoki voqea-hodisaning belgisini ajratib ko'rsatish yoki o'zini aniqlab kelish bilan birga, o'sha predmet yoki voqea-hodisaga badiiy bo'yoq beradi, obrazlilikni tug'diradi. Bir so'z bilan aytganda, epitets – badiiy yoki poetik aniqlovchidir.

Epitetning dastlabki va birmuncha aniq ta'rifi qadimgi Rim klassiklari qarashlarida o'z ifodasini topgan. Faylasuf Kvintilian epitetsni nutqni boyituvchi emas, balki bezovchi vosita deb qaraydi. Uning fikricha, epitetsiz nutq yalang'och va xunuk bo'lib qoladi, me'yoridan ortiq ishlatilganda esa nutq cho'ziq yoki chalkash bo'lib ketadi. Bezak uchun asosiy imkoniyat so'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanishidir.²¹

²¹ Античные теории языка и стиля. – М.-Л., 1936. -С.223-224.

Adabiyotlarda epitetlar tasviriy, lirik, liro-epik, doimiy (an'anaviy), metaforik, baholovchi, bezak, kuchaytiruv (affektiv) deb bir necha guruhlariga bo'linadi.²²

Xalq og'zaki ijodi uchun xarakterli bo'lgan epitetlar **doimiy epitetlar**dir. Bu epitetlar xalq tomonidan, san'atkorlar, baxshilar tomonidan ko'p vaqtlardan buyon qo'llanilib kelinayotgan, yaxlit, quyma holiga kelgan an'anaviy tasviriy vositalardir. Ular qudratli hayvonlar, uchqur qushlar, umuman ijobiy yoki salbiy xususiyatlari kuchli bo'lgan predmet va jonivorlarning xususiyatlarini bildiruvchi so'zlar bo'lib, ana shu xususiyatlar insonga yoki predmetga ko'chirilgan. Shu tariqa qurol-asboblarga, xalq qahramonlariga mos sifatlar berish natijasida maydonga kelib, *er yigit, sher yurak, arslon bilak, devqomat, keskir shamshir* tarzida o'z aniqlanmishidan ajratib bo'lmaydigan holga kelib kolgan.

Bezak epitetlar deb ataluvchi yana bir turdagi tasviriy epitetlar borki, ular ham xalq og'zaki ijodiga aloqador badiiy asarlarga xos. Shu nom bilan yuritiluvchi *oltin, kumush, zar, tilla* kabi so'zlarni predmetlarga badiiy baho beruvchi doimiy epitetlarning bir ko'rinishi deyish ham mumkin: Uzangisi quyma oltin. Quyushqoni quyma oltin, Yuganining boshi oltin. Egarining qoshi oltin, Qamchisining sopi oltin (Ergash Jumanbulbul, Ravshan).

Haqiqiy epitetlar **metaforik epitetlar**dir. Ularda obrazlilik ham, baholash ottenkasi ham kuchli bo'ladi: *Hali oldindadir go'zal kunlarim, Hali lab tegmagan kulgular oldda* (A.Oripov).

Epitet haqida aytilganlarni xulosalab, ta'kidlash mumkinki, bu tasviriy vositaning qo'llanish miqdori va bundagi o'ziga xoslik asosan ijodkorning unga bo'lgan subyektiv munosabatiga bog'liq. *Gul bargin ochganda bastakor bulbul, Gul shoxin chertganda aylab oltin soz* (E.Vohidov) kabi.

Metonimiya – grek tilida *boshqacha nom berish* degan ma'noni anglatadi. Metonimiya ham so'zlarning ko'chma ma'nosiga asoslanadi. Ammo bu yerda asosan biror narsa yoki voqea-hodisaning nomi boshqa bir narsa yoki hodisaga ko'chiriladi. Bu predmet yoki voqea-hodisa ongimizda bir-biri bilan aloqador tushunchalarni anglatishi bilan o'zaro bog'langan bo'ladi: *Navoiyni o'qidim, stadion jonlandi, auditoriya kuldi* kabi.

Sinekdoxa predmetlarga nisbatan qo'llanadigan son bilan bog'liq. Jumladan, mana bunday qo'llaniladi: butun o'rnida qism: *qorin, soqol;*

²² Каримов С. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1994, -Б.23.

qism o'rnida butun: *pivo*; ko'plik o'rnida birlik: *Xaridor, sen ham sotuvchi bilan xushmuomilada bo'l*; jins o'rnida tur: *sazan o'rnida baliq*; kishi o'rnida unga tegishli narsa: *Olim buva ertasiga ertalab yo'lakda shovqin soldi: – Hoy shaytonarava! Ho kelgindi! Bu yoqqa chiq!* (A.Qahhor. «O'tmishdan ertaklar»).

Perifraz tasvir jarayonida narsa va hodisalarga bo'yoq va bezak beruvchi usul. R.Qo'ng'urov bu haqda quyidagilarni yozgan: «Kishilarning otlari yoki boshqa predmetlarning nomini to'g'ridan-to'g'ri gapirmasdan, ularni turli xil so'z yoki tasviriy iboralar vositasida bayon qilishga **perifraz** deyiladi».²³ Masalan: *O'sha kuni kechqurun raykom sekretari Rustam Qodirov «Bo'ston»ga borib, Qalandarovni shu munosabat bilan tabrikladi va kolxozchilar oldida uni: «Kolxoz dalalarining arsloni» deb atadi* (A.Qahhor. «Sinchalak»).

Ironiya badiiy va so'zlashuv uslublarida keng qo'llaniladigan stilistik usul. Bunda salbiy munosabat hayvon, it, ho'kiz, eshak, ablah, iflos, yaramas singari vulgar so'zlar bilan emas, balki muloyim, odatdagi so'z yoki iboralar, gaplar yordamida ma'lum qilinadi. Ammo bunda til birliklari o'z ma'nosida ishlatilmaydi, balki butunlay teskari ma'noni beradi.

Sh.Boshbekovning «Buyuk baxtiyorlik» deb atalgan asaridagi istehzoli o'ylariga nazar tashlaylik: *«Bizda hamma narsa buyuk. Baxtiyorligimiz ham. Menimcha, dunyoda biron mamlakat rahbari yo'qki, fuqarolari bizdek yuvosh, beozor, va eng asosiysi, bizdek sal narsaga baxtiyor bo'lib ketishni orzu qilmagan bo'lsin.*

Axir o'zingiz o'ylang, xotiningiz ikki yumaloq kirsovun topganiga o'zida yo'q shod. Hamkasbimiz bolasini bog'chaga joylashtirganidan shunaqa baxtiyorki, anchadan beri xafalashib, bordi-keldini yig'ishtirib qo'ygan qarindoshinikiga bir tog'ora somsa qilib borib keladi. Bo'sh avtobusni ko'rsak ham baxtli bo'lib ketaveramiz. U yoki bu idoraga bir borishda ishimiz bitsa ham xursandmiz. Sotuvchi jilmayib kutib olsa ham sevinib ketamiz. Mayli hech nima bermasin, hech nima olmaylik, qaytimiyam sadaqa, lekin jilmaydi-ku, arzon garovga bir dunyo narsa xarid qilgandek, shungayam ko'nglimiz ko'tarilib ketadi. Uni aytasiz, bir kilo mix olsak ham baxtli bo'p ketamiz. To'g'ri, mix jonivorning ikki tomonida ham «qalpog'i» bor, lekin topildi-ku bu zormonda. Shunga ham do'ppimizni osmonga otaveramiz. Albatta boshqa mamlakat boshliqlari havas qiladi-da.

²³ Кўнгулов Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. -Б.62.

...Hali yuqorida aytganimizdek, bizdagi boriga shukur qilib ketaveradigan fuqaroga har qanday mamlakat podsholari bosh bo'lishni orzu qilishadi. Qadimdan shunday bo'lib kelgan. Iskandar «havas qilgan», arablar, mo'g'ullar, hatto inglizlar ham «havas qilib ko'rishdi». XIX asrga kelib Urusiya «havas qilib qoldi». Lekin, ja qattiq «havas qilgan» ekan-da».

Yozuvchining bu o'rindagi kinoyasi o'zbekning sodda baxtiyorligi ustidan kulish emas, balki u achinish hissi bilan, «havas qilganlar»ga esa piching ruhi bilan sug'orilgandir.

Antifraza ironiyaning bir ko'rinishi va unda piching, kesatiq, masxaralash, istehzo, ba'zan mensimaslik ma'nolari kuchli. Lekin unda bu ma'nolar ironiyadagidek keng ko'lamda emas, balki konkret matnda, konkret so'z va iborada – teskari ma'noda qo'llangan birlikda o'z aksini topadi: *Zulfiqorovni xotini uydan haydab yuboribdi va Qalandarovning nomini aytmagan bo'lsa ham «suyangan tog'i» sha'niga qancha bayt-u g'azallar aytibdi* (A.Qahhor. «Sinchalak»).

Sarkazmni ironiyaiing eng yuqori, kulminatsion darajaga yetgan nuqtasi. Bunda endi salbiy munosabatni ifodalayotgan kulgi achchiq zaharxandaga, piching masxaralashga, g'azabga aylanadi: *Qo'lingga solmishlar tilladan zanjir, Shahzoda yigitga hurmat bu axir* (A.Oripov).

Mubolag'a va kichraytirish (giperbola va litota). Mubolag'a xalq og'zaki ijodi janriga ko'proq mos keladi. Misol: *Tandir bozor qizigan, U tushgacha aylandi. Va nihoyat bozorning Zo'r tandiri saylandi. Chertsu uch kun jaranglar, Bir umrga yetadi. Lekin uni qishloqqa Qanday olib ketadi* (E.Vohidov). Italyan faylasufi Demetriy: «Har qanday mubolag'a soxta stilistik usuldir hamda u kishida sun'iy taassurot qoldiradi», degan fikrni aytgan.

Kichraytirish mubolag'aning aksi, hamma narsani kichraytirib ko'rsatish san'atidir: *Pomir cho'qqilari biz yuksalarkan, Etik poshnasiday kichik poyadir. Sahro qyunlari biz qo'zg'alarkan, Yelpig'ichday, bo'sh shabbodadir* (G'.G'ulom).

Allegoriya orqali voqelik insondagi muayyan xislatlarning ramzi sifatida qaraladigan hayvonlar, daryolar, dengizlar, tabiat hodisalari va shu kabilarning nomiga bog'lab ifoda qilinadi. A.Oripovning «Tulki falsafasi» she'ridagi tulki obrazi allegoriyaning yorqin namunasidir:

– Ustoz, – dedi bir kun tulki tulkiga,
Nechun biz nishonmiz doim kulkiga?
O'rmonda bo'ri ham, hatto janob sher,
Bir-birin turtishib: – Tulkisan-a, der!

*Boshqalar ustidan kulmaslar nechun,
 Bu hol qorong'udir biz yoshlar uchun.
 – Uka, – dedi shunda tulkiga tulki,
 Bunday hodisotning sababi shulki.
 Kasbini eplolmay qolsa aksari
 Tulkilik qiladi hayvonar bari.
 Ko'pincha ilojsiz qolgan fursatda
 Tulkilik qiladi sher ham, albatta!
 Lekin bizning ishni eplolmas ular,
 Shu sabab o'rmonda masxara bo'lar.
 Sen-chi bunday holdan aslo o'kinma,
 Boshqalar singari chetga bekinma.
 Tulkisan, bunday chog' tulkilik qilgin,
 Tulki deb kulsalar, qo'shilib kulgin...*

Simvol. Ko'plab his-tuyg'ularni, belgi-xususiyatlarni bir so'z, bir obrazda mujassam qilish simvol (ramz)dir. Asosan badiiy uslub uchun xos. A.Oripovning «Burgut», «Miltiraydi mitti yulduz», «Tilla baliqcha», «Buloq» she'rlari simvol asosida yozilgan.

Jonlantirish. Bu ham badiiy uslubga xos usul. Ushbu tasviriy vosita yordamida predmetlarga, hodisalarga xuddi inson bilan muomala qilinayotgandek munosabat bildiriladi: «**Faust**» **yondi gullab**, «**Xamsa**» **o'tga tutashdi**. Bu savdo **jahon** bo'ylab Taraldi, tog'lar oshdi (E.Vohidov). A.Oripovning «Ohu», «Pahlavon Mahmud qabri qoshida» she'rlarida ham jonlantirish usulidan foydalanilgan.

Shu o'rinda buyuk notiq Sitseronning quyidagi gaplarini keltirish joiz: «So'zlarni ko'chma ma'nolarda qo'llash eng avvalo lug'atlardagi so'zlarning ma'no jihatdan kambag'alligidan kelib chiqqan bo'lsa, asta-sekin go'zallik va jozibadorlikka bo'lgan ehtiyoj ularning ma'nolarini kengaytira bordi. Bu esa xuddi kiyim dastavval sovuqdan himoyalaniş vositasi sifatida vujudga kelgan bo'lsa, keyinchalik esa kishi tanasini bezaydigan libosga aylanganiga o'xshaydi».²⁴

3.Stilistik figuralar – lafziy san'atlar.

Badiiy adabiyot tilida *stilistik figuralar* deb ataluvchi tasviriy vositalarning paydo bo'lishi badiiy ijod namunalarini bir qadar go'zal, jarangdor, ta'sirli qilib bayon etish zaruratidan kelib chiqqan.

Darhaqiqat, ijodkorlar nutqiy jozibadorlik uchun tinimsiz izlanishda bo'ladilar. Ularni ifodalashning yangi-yangi vositalarini izlab topishga harakat qiladilar. Ana shuning natijasi sifatida badiiy

²⁴ Античные теории языка и стиля. -С.216.

adabiyot tilidagi uslubiy figuralarning soni birmuncha ko‘p va badiiy ta’sirchanlikning yuzaga kelishidagi salmog‘i kattadir. Ilmiy adabiyotlardagi dalillarni ko‘zdan kechirish bu figuralarning antiteza, amfiteza, akroteza, apokopa, asindeton (bog‘lovchisizlik), assonans, gradatsiya (klimaks, antiklimaks), diateza, zevgma, tovushga taqlid, oksyumoron, padistola, paronomaziya, poliptoton (poliptot), parallelizm, polisenditon (ko‘pbog‘lovchilik), sanash, pitorik murojaat, ustunlar tengligi, tenglik, sinoykoza, sillepsis, segmentatsiya, uch ustunlik, kichraytirish, jim qolish, xiazm, ellipsis, inversiya kabi turlari bo‘lganliklarini va ularning ko‘plari hozirgi zamon poeziyasida, jumladan o‘zbek poeziyasida ham yashab kelayotganligini ko‘rsatadi.

Birgina takrorning o‘ttizga yaqin, masalan, alliteratsiya, anafora, akromonogramma (epanalipsis, epanafora, anadiplozis), antistrofa, antanaklasa, antonomaziya, antimetabola, metabola, naqarot, monorim, pleonazm, rifma, tautologiya, sharh, epifora, epistrofa, epanod, epanastrofa, qurshab olish, qaytalanish, halqa, bog‘lam kabi turlarining mavjudligi badiiy uslubda ifoda-tasvir imkoniyatlarining naqadar kengligidan dalolat beradi.

Uslubiy figuralar asosan poetik asarlar uchun xarakterli. Ularning ayrimlarini ko‘zdan kechiramiz.

Antiteza. Narsa va hodisalar mohiyati, insonlar xarakteri ularni bir-biriga qiyoslash asosida oydinlashadi. Shuning uchun ham, bu qiyoslash tafakkur jarayonida doimo kishilarga hamqadamdir. Antiteza usuli ham shunga asoslangan. Mumtoz adabiyotda bu usul *tazod* deb yuritilgan. «Bayonning bunday vositasi yoqimlidir, – deydi Aristotel «Ritorika» asarida, – chunki qarama-qarshilik anglash uchun qulaydir, agar ular yonma-yon tursa yana ham tushunarlidir, yana shuning uchun qulayki, bu vosita isbot qilish, ziddiyatlarni qiyoslash bo‘lganidan sillogizmga yaqinlashadi».²⁵ Misol: *Tingla, Mirzo, mana buni deydilar qiyos, Bu – Buxoro malikasi yurak ifshosi: Sen – **tubansan**, u-chi **yuksak**, sen – **xok**, u **quyosh**, Sen – **gadosan**, u tafakkur mulkin **podshosi*** (A.Oripov, «Hakim va ajal»).

Nutqqa ulug‘vorlik va rang berish ham antitezaning badiiy uslubdagi xizmatlaridandir: *Farzandlari bir **zulmat** bo‘lsa, ul zoti oliy misoli bir **oftob** edi* (O.Yoqubov. «Ulug‘bek xazinasi») kabi.

Oksyumoron antitezaning bir ko‘rinishi. Ammo oksyumaronda ikki so‘z birikma holida bo‘ladi va ulardan yangi bir matniy ma’no kelib chiqadi: *Dunyo qarshisida **ojiz jasorat** Inson bolasiga hamisha*

²⁵ Античные теории языка и стиля. -С.184.

xosdir (A.Oripov). *Barcha zahmat menga bo'lsin, Mayli doim men yashay Bu ajib totli azob-u Bu shirin qayg'u bilan* (E.Vohidov).

Oksyumoronda, odatda ma'nolariga ko'ra bir-biriga yopishmaydigan so'zlar yonma-yon ishlatiladi, lekin bu holatda badiiyat talabi deb tushunmoq lozim bo'ladi. Chunki «estetik butunlik bo'lgan badiiy asar ijodkori uchun «narsalarning qat'iy, yalang'och mohiyati» emas, balki ularning yuksak badiiy poetik ifodasi, yaxlit obrazi ahamiyatlidir. Ijodkor ana shu maqsad bilan tildan yangi-yangi imkoniyatlar izlaydi. Bunday imkoniyatlardan biri badiiy bo'lmagan nutqda o'zaro bog'lanishi chegaralangan so'zlarni bog'lash orqali turli ma'no nozikliklari, ekspressivlik, emotsionallik va shu kabilarni yuzaga keltirishdir».²⁶

Asindeton – bog'lovchisizlik badiiy uslubda emotsionallikni yuzaga keltiruvchi vositalardan biri. Nutqning bu shaklida uyushgan bo'laklar alohida qat'iyat, keskinlik va jangovarlik bilan talaffuz qilinadi. *U hammaning kasb korini, qandoq ishlashini, oilasini, fe'l-atvorinigina emas, dard-hasratini orzu-armonini, qobiliyatini, zaif tomonlarini ham juda yaxshi, xuddi o'zi ko'tarib katta qilganday bilar edi* (A.Qahhor. «Sinchalak»).

Polisenditon – bog'lovchilik. Bog'lovchisizlik usulida shakllangan gaplardan ma'noni ifodalash usuli bilan farq qiladi. Bunda uyushiq bo'laklar ohangidagi me'yor, ritm saqlanib qoladi, ammo u bog'lovchisiz gaplardagidan o'z salobati bilan, ta'kidlash ohangi bilan farq qiladi: *Farhodning «Aynul-hayot» suyini «Bahrun-najot» havzi arig'iga ochib, ko'zadin ul chashma rashahotidek ashki rudin sochib, Armaniya sori xiromi va xaloyiqning ul arig' atrofida tamosho uchun g'avg'oyi omi va parivashning parikash devzodi po'yadin qolmoq va Farhod devonavor parikash bila parivashin egniga olmoq va Armaniya tog'i sori barqdek gom solmoq va falaki kadxamdek mehr ostida yugurmak va mehrni falak ayvonig'a yetkurmak va junun bodpoyin qulla sori surmak* (Navoiy. «Farhod va Shirin»).

Gradatsiya insonlardagi narsa va hodisalardagi belgi-xususiyatlarni, harakatlarni alohida urg'u bilan ko'rsatishga intilish samarasidir. Bu yerda ham so'zlarning uyushib kelishda uyg'unlik mavjud. Farqi shundaki, ketma-ket kelayotgan so'zlarning ma'nosi o'zidan oldin kelganiga nisbatan kuchliroq bo'ladi: *Eng arriq, Eng qattiq, Eng och, qoq yerda Biz omoch surganmiz – qo'llarda kishan* (H.Olimjon).

²⁶ Абдурахмонов Х. Махмудов Н. Сўз эстетикаси.— Тошкент, 1981. -Б.40.

Nutqda soʻzlarni bu tarkibda ketma-ket berish maʼlum nuqtagacha, masalan, hissiy kulminatsiyagacha davom etadi. By *klimaks* deyiladi. Baʼzan bayonda buning aksi yaʼni *antiklimaks* yuz berishi ham mumkin.

Diateza. Bu stilistik figurada ikki inkordan bir tasdiq maʼnosi kelib chiqadi: *U qoʻshiq kuyladi, yor shaʼniga mast, Na kuldi, na qatra toʻkdi yoshni. U kuyladi magʻrur qiz boʻlsa shu vaqt Huzuriga keldi egib boshini* (A.Oripov).

Paronomoziya. Nutqda paronimlarning komik yoki obrazli tarzda yaqinlashishidan hosil boʻladigan nutq figurasi: *Devordan uzilib Tushsa plakat, Axir bitta boshga Bu ham «palakat»* (E.Vohidov). «Paronomaziya – deydi Kvintilian, – tinglovchining eʼtiborini soʻzlarning yo ohangdorligi, yo muvofiq kelishi yoki qarama-qarshi qoʻyilishi bilan uygʻotadigan va kuchaytiradigan figuradir. Uni annomatsiya ham deydilar. U turli yoʻllar – masalan, soʻz oʻzining yonidagi soʻzning kelishik qoʻshimchalari yordamida turlangan holda yoki hech oʻzgarishsiz kuchli taʼkid maqsadida takrorlash yoʻli bilan hosil qilinadi».²⁷

Ritorik soʻroq va ritorik undov (ritorik murojaat) gaplarga ekspressiv sintaksisning keng tarqalgan turlari sifatida qaraladi. **Ritorik soʻroq gaplarning** stilistik usul sifatida oʻziga xosligi shundan iboratki, bu savollarning ichida javobi ham tayyor boʻladi. Shu berilayotgan savolning teskari maʼnosida tasdiq yotadi: *Yolgʻiz menmi koʻklam chogʻi yigʻlagan? Yolgʻiz menmi har umidda aldangan?* (Choʻlpon. «Koʻklam qaygʻusi»). **Ritorik murojaatdan** esa asosan nutqqa tantanavorlik ruhini berish uchun foydalaniladi: *Ey jism, aning kuyini paydo qilakoʻr, Ey koʻngul, oʻshul kuyni maʼno qilakoʻr, Ey koʻz, sen oning yuzini tamosho qilakoʻr, Ey ashk, oning koʻyi sori oqilakoʻr* (Navoiy. Ruboiy).

Ellipsis maʼlum maqsad koʻzda tutilib, nutqda qaysidir bir boʻlakning tushirib qoldirilishi. Qisqalik uchun shunday qilinadi. Badiiy uslub uchun muallifning yoki personajning psixologik holatini ochib bera oladigan ellipsislar zarur: *Orzu qildim vafo ahlin koʻray deb topmadim, Xoh zohid, xoh fosiq, xoh soyil, xoh shoh* (Navoiy. Qitʼa). Bu hodisa badiiy uslubdan koʻra soʻzlashuv uslubiga xosdir.

Jim qolish ellipsisning bir turi. Bu usul yordamida yozuvchi va oʻquvchi oʻrtasida mustahkam psixologik aloqa oʻrnatiladi, oʻquvchi

²⁷ Античные теории языка и стиля. -С.269.

beixtiyor ijodkor hissiyotlariga sherik bo‘ladi: **Xayr endi...** *Qalbmida bir vido qoldi, Xayr endi sen ketding begunoh ohi* (A.Oripov).

Takror. Takror eng faol qo‘llaniladigan stilistik figuralardan biridir. Ammo uning boshqa funksional uslublarda ham qo‘llaniladi. U adabiyotimizda an‘anaviy xarakterga ega. Mumtoz adabiyotda uning (takror, mukarrir), iltizom, raddul-qofiya, tadbil, tarji‘band, tarji‘ot, tarsi‘, tasbig‘ (tashobehul-atrof), tasdir, uyushtirish (tansiq us-sifat, husn un-nasaq, riyoqat ul-a‘dod, ta‘tid), e‘not, qaytariq, qorishiq, hojib singari ko‘plab ko‘rinishlari mavjud bo‘lgan. Gaplar takrori raddulmatla, tovush takrori tavzi‘ san‘ati deyilgan.²⁸

Alliteratsiya nutqdagi tovush takrori: **Qaro qoshing, qalam qoshing, quyuq qayrilma qoshing qiz, Qilur qatlimga qasd qayrab, qilich qotil qaroshing qiz...** (E.Vohidov).

Anafora usulida she‘riy asarda misralar boshidagi so‘z yoki birikma takrorlanadi: **Bir o‘lkaki, tuprog‘ida oltin gullaydi, Bir o‘lkaki, qishlarida shovillar bahor. Bir o‘lkaki, sal ko‘rmasa quyosh sog‘inar. Bir o‘lkaki, g‘ayratidan asabi chaqnar. Baxt toshini chaqib, bunda kuch guvillaydi** (Oybek. «O‘zbekiston»).

Rifma (qofiya)da qo‘shimchalar, so‘z yoki so‘z birikmalar takrori. *Ohkim, vola men ul sarvi xiromondin judo, Ko‘zlarim giryondir ul gulbargi xandondin judo, Benavodur jon dog‘i ul huri rizvondin judo, He navo soz aylagay bulbul gulistondin judo. Aylamas to‘ti takallum shakaristondin judo* (Navoiy. Muxammas).

Parallelizm. Badiiy uslubda parallelizmning ayrim ko‘rinishlari uchraydi, ularni til birliklari shakliyl takroridan ko‘ra ma‘no takrori deb atash to‘g‘riroq bo‘ladi: *Bir zum odam kabi yashayin men ham, Men ham yashay bir zum bir odam kabi* (A.Oripov. «Holat»).

Shunday qilib, bu vositalar ko‘z oldimizda, avvalo, ona tilimizning keng jabhadagi semantik-uslubiy rang-barangligini badiiy adabiyot orqali namoyish qila oladigan imkoniyat sifatida namoyon bo‘ladi. Buni badiiy matnda ko‘pchilik so‘zlarning ko‘chma ma‘nolarda qo‘llanilib, ularning semantik ma‘nosida kengayish ro‘y bera borishida kuzatamiz. So‘zlar, umuman til birliklari matnda g‘ayriodatiy qurilishlarda qo‘llanilib, masalan, ma‘nolar bir-biriga zid, yoki aksincha, ma‘nolari bir-biriga yaqin ifodalar qarama-qarshi tarzda ishlatilib, favqulodda original tasvirlar va obrazlar yaratiladi. Bu narsa,

²⁸ Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Тошкент, 1979. -Б.34-56; Исмоков Ё. Навоий поэтикаси. - Б.132-160.

o‘z navbatida, troplarning ham, uslubiy figuralarning ham tildagi alohida mavqeyini belgilaydi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. *Tilning tasviriy vositalari* deganda nimani tushunasiz?
2. *Tilning ifoda tasvir vositalari* tushunchasi nimani anglatadi?
3. *Trop* nima?
4. Epitet qanday yuzaga keladi va uning qanday turlari mavjud?
5. Metonimiya va sinekdoxa hodisalarini tushuntirib bering.
6. Perifraz, ironiya, antifraza, sarkazm haqida ma’lumot bering.
7. Mubolag‘a va kichraytirish (litota), allegoriya, simvol va jonlantirish qanday vositalar sanaladi?
8. *Stilistik figura* nima?
9. Antiteza, oksyumoron, asindeton, polisenditon, gradatsiya, diateza, paronomoziya hodisalari badiiy nutqda qanday vazifalarni bajaradi?
10. Ritorik so‘roq va ritorik undov, ellipsis va jim qolish, takror, alliteratsiya, anafora, rifma, parellelizm matnda nimaga xizmat qiladi?

O'XSHATISH – OBRAZLI TAFAKKUR MAHSULI

Reja:

- 1.O'xshatish haqidagi qarashlar.
- 2.O'xshatishlarda individuallik.
3. O'xshatishning lingvistik vositalari.
4. Badiiy uslubga xoslangan o'xshatish vositalari.
5. O'xshatishlarda milliylik.

Tayanch so'z v iboralar: *o'xshatish, taqqoslash, qiyoslash, analogiya, mantiqiy kategoriya, obrazlilik, tashbih, mumtoz she'riyat, taqqoslashning ikki turi, individual-muallif, turg'un, umumxalq, originallik, xalqona, yumor, subyektiv munosabat, o'xshatishda ma'lumlik, leksik, grammatik, badiiyat o'xshatishlari, milliylik, lisoniy manzara haqidagi tasavvur.*

1.O'xshatish haqidagi qarashlar.

Inson tabiatning oliy mahsuli sifatida uning ichida hayot kechiradi va boshqa jonzoatlardan farqli o'laroq uni idrok etadi. Kuzatgan, ko'rgan, eshitgan va his qilgan narsalari haqida tegishli xulosalar chiqaradi va bu uning yashash mazmunini, tarzini belgilaydi.

Taqqoslash mantiqiy kategoriya hisoblanadi va fanda *analogiya* atamasi bilan yuritiladi. Mana shu jarayonda tabiat va jamiyatdagi narsa-hodisalarni bir-biriga qiyoslashi, taqqoslashi oqibatida olgan natijalari uning hayotida asqotadi. Umuminsoniy, umummilliy ma'naviy-axloqiy me'yorlar asosida yashashiga ko'maklashadi. Bir so'z bilan aytganda, insonning dunyoni anglashida qiyoslash-taqqoslash nihoyatda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun inson faoliyatining biron sohasi yo'qki, unda faoliyatning bu usulidan foydalanmagan bo'lsin.

Mana shu jarayonlar badiiy asarning asosiy qahramonlari faoliyatiga ham ko'chadi. Ammo ular shunchaki bir narsa-hodisani ikkinchisiga qiyoslash bosqichida qolib ketmaydi, balki yangi bosqichga ko'tariladi – obrazli tafakkur vositasiga aylanadi. Natijada badiiy tasvirning *o'xshatish* deb nomlangan yangi vositasi vujudga keladi va ular obrazlilik hamda lingvopoetik vazifalarni bajarish uchun xizmat qiladi.

O'xshatishning lingvistik tabiati, uning badiiy matnlardagi vazifasi o'zbek tilshunosligida o'rganilgan va bu tadqiqotlar davom

etmoqda. M.Mukarramovning «O‘zbek tilida o‘xshatish» (Toshkent, 1976), R.Qo‘ng‘urovning «O‘zbek tili stilistikasidan ocherklar» (Samarqand, 1975), «O‘zbek tilining tasviriy vositalari» (Toshkent, 1977), S.Karimovning «Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari» (Samarqand, 1994) asarlari shular jumlasidandir.

Badiiy tasvir vositasi sifatida u adabiyotshunoslar tomonidan ham tadqiq etilgan. Yo. Is’hoqovning o‘zbek mumtoz adabiyotidagi *tashbih* (*tashbeh*) *san’ati* borasidagi kuzatishlari bunga misol bo‘la oladi. Olimning qayd etishicha, tashbih poetik vosita sifatida adabiyotimizda qadimdan mavjud va uning tashbehi sareh (ochiq o‘xshatish), tashbehi mashrut (shartli o‘xshatish), tashbehi tafzil (chekinish yo‘li bilan o‘xshatish), tashbehi aks (teskari o‘xshatish), tashbehi muzmar (yashiringan o‘xshatish), tashbehi tavsiya (barobar o‘xshatish), tashbehi musalsal (ketma-ket o‘xshatish), tashbehi kinoyat (kinoya yo‘li bilan o‘xshatish), tashbehi mu’kad (ta’kid yo‘li bilan o‘xshatish) kabi bir necha xil ko‘rinishlari bo‘lgan.²⁹

O‘xshatish nazariyasiga oid eng keyingi mukammal tadqiqot prof. N.Mahmudov qalamiga mansubdir. U o‘zining «O‘xshatishlar – obrazli milliy tafakkur mahsuli» maqolasida bu tasviriy vositaning yuzaga kelish shart-sharoitlari, ularning turlari, badiiy adabiyot va lingvopoetikada tutgan o‘rni haqida muhim qarashlarni bayon etgan.³⁰

Maqolada taqqoslashning ikki turi farqlangan: «Agar ikki predmet yoki tushuncha ular o‘rtasidagi farqni ko‘rsatish maqsadida qiyoslangan bo‘lsa, sof qiyosiy konstruksiya shakllanadi (masalan, *yer toshdan qattiq*), qiyoslash o‘xshatish maqsadini ko‘zda tutganda esa o‘xshatish konstruksiyasi shakllanadi (masalan, *yer toshday qattiq*)».³¹

Badiiy matnlar tahlilida, albatta, o‘xshatishlarning ikkinchi turi muhimdir. Shu sababdan, N.Mahmudov nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi va ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiluvchi bu o‘xshatishlarni yana ikki turga ajratgan: 1) individual-muallif o‘xshatishlari va 2) umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar.³² Individual o‘xshatishlar ijodkor badiiy mahoratini namoyish etuvchi asosiy tasviriy vositalardir.³³

²⁹ Qarang: Исҳоқов Ё. Ташбех / Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1970. -№ 4. -Б.81-84.

³⁰ Маҳмудов Н. ва Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати – Тошкент: «Маънавият», 2013, -Б.3-18.

³¹ Ko‘rsatilgan asar. -Б.5.

³² Ko‘rsatilgan asar. -Б.5.

³³ Mavzuni yoritishda yuqorida tilga olingan manbalardan foydalanildi.

2.O‘xshatishlarda individuallik.

Badiiy matn uchun eng yaxshi o‘xshatishlar **individual o‘xshatishlardir**. Chunki ular ijodkorning badiiy tafakkuri mahsuli sifati yuzaga keladi va kutilmaganlik, favqulodda originalligi bilan obrazli-poetik vositaga aylanadi. Ayni paytda, yozuvchi badiiy mahoratining muhim ko‘rsatkichlaridan biri bo‘ladi.

Yana Abdulla Qahhor asarlariga murojaat qilamiz. «Sinchalak»da ko‘zimiz tushgan o‘xshatishlardan namunalar keltiramiz:

Odam bolasi sirkning oti emaski, qamchi qarsillaganda cho‘kkalasa... (56). Shuning uchun Saida hayron bo‘lib qoldi: «Bu odam nega **ochiq yaraday** yel o‘tsa ham jizillayotibdi? (87). Mening jiyanim Qunduzoy jinqarchaday joni bilan ketmon chopadi, uning eri, **juvoz kundaga o‘xshab yiltiramay o‘lgur** Ismat pochtachi velosipedda xat, gazeta tashiydi (99). Oldingi qatorda o‘tirgan to‘ladan kelgan bir kampir o‘rnidan turdi, bir nima demoqchi bo‘lib, tishsiz, **baliqning og‘ziga o‘xshagan og‘zini** bir-ikki rostlaganidan keyin baland tovush bilan dedi (100). Bu o‘xshatishlarni betakror o‘xshatishlar deb ayta olamiz. Chunki ularni A.Qahhordan boshqa hali hech kim qo‘llagan emas. Yoki bo‘lmasin, *Mening bilishimcha, Qalandarov toshqin suv: tegirmonni buzishi ham mumkin, yurgizishi ham mumkin* (94) misolidagi kabi odam toshqin suvga o‘xshatilishi boshqa holatlarda ham uchrashi mumkin. Ammo A.Qahhorning xulosasi g‘oyat chiroyli: *tegirmonni buzishi ham mumkin, yurgizishi ham mumkin*.

Quyidagi gapda yana bir original o‘xshatishni uchratamiz: *Uning (Eshonning) bo‘yni toshbaqaning bo‘ynini eslatar, yuzi so‘rib tashlangan husayni uzumga o‘xshar, lekin bir tomonga silliq qilib taralgan sochi oyog‘idagi amirkon tuflisidan ham qoraroq va ko‘proq yaltirar edi.* (57). Yozuvchi asarning boshqa biron yerida bu obrazning ta’rifini bermaydi. Zero bunga hojat ham yo‘q. U o‘xshatishlar yordamida shu darajada aniq chizilganki, yozuvchi bahosi va munosabati ham bilinib turibdi, o‘quvchi ham qiyinchiliksiz Eshon haqida tasavvurga ega bo‘ladi.

A.Qahhor matnlarida xalqona va, ayni paytda, yumor bilan yo‘g‘rilgan o‘xshatishlarga ko‘plab duch kelamiz: *U Saidaning «Bo‘ston»ga ketayotganini eshitib, Qalandarov to‘g‘risida gapirdi, uning militsioner bilan qilgan mojarosini juda qiziq qilib hikoya qildi, Qalandarov mundayroq mehmon kelsa, yugurdagiga: «Eshon!» der ekan, bu ikkita non bilan bir choynak choy olib kel» degani, «hoy, Eshon» desa, osh buyurgani, «Eshon, hoy» degani esa, «hovliga borib*

xotinimga ayt, nozik mehmon olib boraman», degani bo'lar ekan (56). Saida ichida: «Qalandarovning havasi zo'r-u, lekin xotining hafsalasi, tabiati **mundayroq** ekan», deb qo'ydi (60). Parchadagi mundayroq xalqchil o'xshatish. O'ziga bir talay ma'noni mujassam qila olgan o'xshatish.

Yozuvchi o'xshatishlarida albatta subyektiv munosabat ham bor: *Shu choq **eshik xuddi mushuk tatalaganday tiqirladi**-da, sekin ochilib, Eshonning kallasi ko'rindi* (58) kabi. Bu tavsif asar muallifining Eshonni nafaqat kulgili bir alfozda tasvirlash, ayni paytda, o'zi ham yoqtirmayotganiga ishoradir.

Yozuvchining mana bu o'xshatishlari o'ta sinchkovlik mahsuli va bu kabi o'xshatishlikni hamma ham payqayvermaydi: *Aroqxo'r xaloyiqning kulgisi, nasihati va dashnomi ostida aroqxo'r nomini olganidan keyin ko'cha-ko'yda tentirab yurishi, aljishi, hatto yo'l bo'yida uchib qolishi ham birovning diqqatini jalb qilmaganiday, Zulfiqorovning bu qilmishiga ham odamlar ko'nikib qolgan edi* (83).

O'xshatish haqida A.Qahhorning o'z mulohazalari ham bo'lgan: «O'quvchiga oz ma'lum bo'lgan yoki mutlaqo ma'lum bo'lmagan narsa unga juda ham ma'lum bo'lgan narsaga o'xshatilishi kerak. O'xshatish adabiy asarda juda katta o'rin tutadi, lekin u kitobxonning tez anglashiga, tasavvur qilishga yordam bermasa, hech qanday ahamiyatga ega bo'lmaydi».³⁴

Shunday qilib, ijodkorning g'oyaviy-badiiy niyatini, matnda emotsional-ekspressivlikni ro'yobga chiqaruvchi eng qulay va samarali usul bo'lganligidan o'xshatishlarga ko'plab murojaat etiladi.

3. O'xshatishning lingvistik vositalari.

O'xshatishning badiiy asar tilidagi ishtiroki yana nimalarda ko'rinadi? Bu, eng avvalo, uning yuzaga kelishiga xizmat qiladigan til vositalarining realligi va ko'pligida. Ularni tilshunoslar ikkiga bo'ladilar: leksik va grammatik vositalar.

Leksik vositalar: *kabi, singari, qadar, yanglig', bamisoli, bamisli, misoli, misli, monand, xuddi, naq, go'yo, teng, o'xshatmoq, eslatmoq, demoq, bo'lmoq, bir, aynan, o'zi, tus, ibrat, holatda, chu, andoqki* va boshqalar.

Grammatik vositalar: *-day (-dek) -dak -(tak) -dag' (-dog') -dayin, -dan, -dir, -namo, -simon,-ona, -omuz, -li, -cha, (-larcha, -chalik, -chasiga)* kabilar.

³⁴ Абдулла Қаҳҳор. Ёшлар билан суҳбат. – Тошкент: «Ёш гвардия», 1968. -Б.12.

Badiiy uslubda ushbu vositalarning hammasidan keng jabhada foydalanish mumkinligi ham o'ziga xoslikdir. Hech qaysi funksional uslubda o'xshatishdan bu darajada mahsuldor foydalanilmaydi. Boshqa uslublarda ular predmet va hodisalarni shunchaki qiyoslab, o'xshatish subyektining ma'nosini konkretlashtirish uchun xizmat qilsa, badiiy uslubda shu bilan bab-baravar, badiiy-estetik vazifani ham bajaradi.

«Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati» II tomida (123-bet) o'xshatishning mumtoz adabiyotdagi yana bir ko'rinishi so (soy) vositasi haqida ma'lumot berilgan: *suman* – yosmin guli, xushbo'y oq gul, *sumanso/sumansoy* – sumanga o'xshagan gul: *Ham subh shamomasi **sumanso** Ham shom nasimi **sunbuloso***. Mumtoz she'riyatda -ki vositasida o'xshatish, qiyoslashlar ham bo'lgan: *O'zunga ablahi nodonni aylama hamroz, **Ki** yaxshi ermas, eshak dog'i hamsabaqliqqa* (Navoiy. Qit'a). Bu kabi o'xshatish vositalarini boshqa matnlarda uchratish mushkul.

4. Badiiy uslubga xoslangan o'xshatish vositalari.

Yuqorida keltirilgan leksik vositalarning asosiy qismi badiiy uslubga tegishli ekanligi bilan xarakterlanadi. Masalan, *qadar, yanglig', misoli, misli, monand, chu, andoqki* elementlari shular jumlasidan sanaladi va she'riy asarlarda ko'p uchraydi: *Bu osmon necha ming yil Charx urib ko'rmabdi bir bora, Bahor gulzorida o'sgan Bu **yanglig'** toza gullarni* (E.Vohidov. «Do'stlaringa»), *O dono tabiat, o buyuk hakim, Hikmat ko'rmadim hech men senga **monand*** (A. Oripov. «Go'zallik») kabi.

Badiiy matnlarda qiyoslash ma'nosi ba'zan hech qanday o'xshatish vositalarisiz ham yuzaga kelishi mumkin: **Yorqin**. ...*Lekin meni, o'zingning **qilich** yo'ldoshingni, yoshlikdan sen birga qilich o'ynashib o'sgan qadrdon yo'ldoshingni o'ylamay turgandirsan* (Cho'lpon. «Yorqinoy»).

O'xshatishdan badiiy uslubda foydalanishda yana ayrim o'ziga xosliklar ko'zga tashlanadi. Masalan, asar muallifi voqealar tugunini o'z qo'lida ushlab turar ekan, bayon davomida go'yo o'zini bilmaydigan holatga solib, o'xshatish yordami bilan o'quvchini bundan keyin yuz beradigan (ayniqsa, qayg'uli) voqealarga ruhan tayyorlaydi: *Mirzo Ulug'bek ko'z yoshlarini artib, quchog'ini ochdi. Ustod bilan shogird, go'yo **abadulabad diydor ko'rishmasliklarini sezganday** unsiz yig'lashib uzoq vidolashishdi* (O.Yoqubov. «Ulug'bek xazinasi»), *Qalandar **mudhish bir narsa po'y beradiganday** yuragi achishib otning jilovini tortdi...* (O. Yoqubov. O'sha asar).

Yana bir o'ziga xoslik, badiiy asar matnida bir-birlariga mutlaqo aloqasi bo'lmagan narsa va hodisalar ham o'xshatish obyekti va subyekti sifatida ishtirok etishi mumkin. «Ulug'bek xazinasi» romanida she'r misrasi va kesilgan bosh, garchi bir-birlaridan uzoq tushunchalar bo'lsa ham, xuddi ana shunday vazifani bajargan. Sarosima va vasvasa dardiga muhtalo bo'lgan Abdulatif tush ko'radi. Tushida amir Jondor uning o'z kallasini oldiga keltirib tashlaydi. Dodlab uyg'ongan shahzoda o'ziga kelgach, nima bilandir andarmon bo'lish maqsadida javondagi qalin kitobni oladi: ...**kitobni ochganda ko'zi tushgan ilk misralar... tushida ko'rgan qonli kalladan ham dahshatli edi...** Shahzoda yuragini changallaganicha ko'zini yumdi, lekin zarhal harflar bilan bitilgan sirli misralar xuddi boyagi qonli kalladay ko'z oldidan ketmay, olovday lovillab turardi.

5. O'xshatishlarda milliylik.

O'xshatish milliy mentalitetni aks ettirishi bilan ham o'ziga xoslikka ega. Tasviriy vositaning ana shu jihatlarini payqay olgan ijodkorlar undan mahorat darajasida foydalanishgan. Masalan, G'afur G'ulom «Ulug' hind xalqiga» she'rida bu noziklikni bera olgan: **Filday ulug' xalqsan, filday chidamli, Gangday jim oquvchi qodir kuching bor.**

Bu borada adabiyotshunos olim G'aybullas-Salomning bildirgan fikrlari g'oyat ibratlidir: «Har bir xalqning o'z estetik didi borligi ma'lum. Chunonchi bir xalqning nazarida go'zallik timsoli sifatida qabul qilingan narsa boshqa xalq nazarida qo'pol, xunuk, noo'xshov ko'rinishi mumkin... *Jabinlari gul-gul-u kipriklari xor, Qaboqlari keng-keng-u og'izlari tor* baytida Navoiy Shirin va uning kanizaklari chiroyni ta'riflagan. Manglay – gulga, kiprik – tikanga qiyoslab chizilgan bu tasvir asosida kanizaklarning ajoyib portretini yaratsa bo'ladi. ...Bu baytni Aminzoda tojik tiliga o'girarkan: *Jabinho gul-gul-u chun xor mujgon, Dahantagon, vale sinafarxon*, deb «qabog'» so'zining tojik tilida mavjud emasligi tufayli, *og'iz* ning torligiga... *ko'krak* ning kengligini qarama-qarshi qo'ygan. Ammo, mantiqiy nomuvofiqlik yuz bergan: ko'krak kengligining og'iz torligiga aloqasi yo'q, bundan tashqari, Sharqda ko'krakning kengligi hech qachon go'zallik belgisi sifatida talqin etilmagan (odob bunga yo'l qo'ymaydi)».³⁵

Bunday jihatlar, milliy o'ziga xosliklar anchagina. Ayolning yurishi hindlarda filga, ozarbayjonlarda jayronga, o'zbeklarda tovsuga

³⁵ Саломов Ф. Таржима назариясига кириш – Тошкент, 1978. -Б.140-142.

qiyoslanishi o'xshatish deb ataladigan tasviriyy vositaga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishni taqozo qiladi.

Badiiy asar o'qiyotgan kitobxon ana shu kabi tasviriyy vositalarga e'tiborni qaratsa, ham asarning g'oyaviy-estetik jihatlarini anglash oson kechadi, ham uning til vositasida shakllangan olamning lisoniy manzarasi haqidagi tasavvuri kengayadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

- 1.O'xshatish nega tasviriyy vosita sanaladi?
- 2.O'xshatish haqida R.Qo'ng'urov, N.Mahmudov, Yo.Ishoqov, S.Karimov va boshqalarning fikrlarini keltiring va munosabat bildiring.
- 3.O'xshatishlarning yuzaga kelishidagi individuallikni qanday tushunasiz?
- 4.A.Qahhor o'xshatishlaridan namunalar keltiring va tahlil qilib bering.
- 5.O'xshatishning lingvistik vositalarini sanang va badiiy matnlardan misollar keltiring.
- 6.Badiiy uslubga xoslangan o'xshatishlar haqida nimalarni bilasiz?
- 7.O'xshatishlarda milliy xususiyatlar aks etishi mumkinmi?

METAFORA – OBRAZLILIK ASOSI

Reja:

1. Metafora va obrazlilik.
2. Metaforalar qo‘llanishidagi an‘anaviylik va individuallik.
3. Badiiy matnda metafora.
4. Metafora – poetik san‘at va individuallik namunasi.
5. Abdulla Qahhor metaforalari.
6. Metaforada milliylik.

Tayanch so‘z va iboralar: *badiiy adabiyot, metafora, istiora, mumtoz, metaforizatsiya, ko‘chma ma‘no, mantiqiy asos, o‘xshashlik, obrazlilik, «qisqartirilgan o‘xshatish», ikki obyekt o‘rtasidagi munosabat, an‘anaviylik, individuallik, poetik san‘at, dialektik muvofiqlik, aloqadorlik, subyektiv qarash, poetik metafora, estetiklik, milliylik.*

1. Metafora va obrazlilik.

Badiiy matnlarda *metafora* nomi bilan uchraydigan til birligi nutq jarayonida narsa-hodisalar va harakat-holatlar o‘rtasidagi qandaydir o‘xshashlikdan kelib chiqib, ularning birining nomi ikkinchisiga ko‘chishi, ya‘ni metaforizatsiyalashuvi natijasida yuzaga keladigan elementdir. Shuning uchun ham, ulardan adabiy asarlarda obrazlilik hosil qilish jarayonida keng qo‘llaniladi. Metaforazatsiya hodisasi tufayli so‘zning ma‘nosi kengayadi, polisemantik xarakter kasb etadi.

Ushbu hodisa o‘zbek tilshunosligida u yoki bu darajada o‘rganilgan.¹ She‘riy san‘at sifatida *istiora* nomi bilan adabiyotshunoslikda ham o‘rganilgan.²

Nutqda obrazlilikni yuzaga keltiradigan muhim tasviriy vosita sifatida metafora nazariyasi bilan qadimdan – antik davrlardan shug‘ullanib kelishgan. Masalan, Aristotel ko‘chma ma‘noda qo‘llangan har qanday so‘zni metafora deb qaragan. Kvintilian esa uni hamma birday foydalanaveradigan tabiat ehsoni degan. Uning fikricha,

¹ Bu haqda qarang: Аликулов Т. Полисемияларнинг ҳосил бўлиши ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, - Тошкент, 1963. -№6; Мукаррамов М. Метафора ясовчи ўхшатиш воситаларининг маънолари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1971. -№1; Миртожиев М. Лингвистик метафоралар таснифи // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1973. -№4; Усмонов С. Метафора // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1964. -№4.; Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977; Каримов С. Бадий услуб ва тилининг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1994.

² Муродий Т. Истиора // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1972. - №6; Расулов Т. Бадий асар қанотлари. – Тошкент. 1977; Шукуров Н. ва бошқ. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент, 1979 ва бoshq.

metafora nutqda alohida jilo beradigan, boyitadigan qisqargan o'xshatishdir va tavakkal qilib, dadil qo'llangan metaforalargina nutqqa alohida ko'tarinkilik bag'ishlashi mumkin. Sitseron ham metaforalarni qisqartirilgan o'xshatish deb qaragan va olingan ikki obyekt o'rtasida o'zaro moslik bo'lmasa, til bunday metaforalarni inkor qiladi, degan. Bu xususda Demetriyning fikri diqqatga sazovordir: metafora nutqqa yoqimlilik va ulug'vorlik bag'ishlaydi, ammo undan hadeb foydalanaverish kerak emas, aks holda yozilgan narsa prozaga emas, madhiya (difiramb)ga aylanib qoladi.³

Badiiy matnlarda obrazlilik uchun xizmat qiladigan metaforalar ham narsa-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanganidan mohiyatan bu ikki tasviriy vosita o'rtasida jiddiy farq yo'q.⁴ Agar bo'lsa, bu farq ularning til jihatdan rasmiylashganidadir.

2. Metaforalar qo'llanishidagi an'anaviylik va individuallik.

Badiiy matn metaforalarini ikkiga – an'anaviy va poetik metaforalarga bo'lib o'rganish kuzatiladi. An'anaviy metaforalar badiiy matnlarda ham ko'p uchraydi. Tildagi *arslon, sher, bo'ri, ilon, boyqush, G'irotd, lochin, shunqor, samandar, ajdaho, ohu, kiyik* singari metaforalarning badiiy ijodda yashab kelayotganligi, bir tomondan, adabiyotda, xususan xalq og'zaki ijodida ushbu obrazlarning o'ziga xos o'rni bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularning har bir ijodkor qalamida yangicha mazmun kasb etishi mumkinligidir.

Xalq dostonlarida:

*Sayfur degan og'alarim bor edi,
Beshovi ham ovda edi bu zamon,
Har qaysisi misli **ajdaho** edi,
Qatorda gurkirab yurgan nor edi,
Bittasi mingga barobar edi.*

(«Bahrom va Gulandom»).

Abdulla Oripovda:

*Qaynoq bir to'zon ichra gurkurar edi osmon,
Bosh ustingda o't purkar **samoning ajdahosi***

(«Qarshi qo'shig'i»).

Yoki bo'lmasin, nutqda *mustahkamlik* ma'nosida *temir* so'zini qo'llashga odatlanganmiz: *temir odam* kabi. Unga yondashuvlar esa turlicha bo'lishi mumkin.

Hamid Olimjonda:

³ Qarang: Античные теории языка и стиля. -С.174; 216-219.

⁴ Yana qarang: Степанов Ю. Французская стилистика. – М., 1965. -С.163.

*Million-million **temir qo'l***

Ixtiyorsiz

G'amgin-g'amgin yig'ladi («Dohiyning motami»).

Abdulla Oripovda:

Hayotning poyonsiz ummoni ichra

*Bor shunday g'ariblar – **temirlar** hissiz.*

Va lekin o'zlarin temirmas sira

Muhtaram inson deb atarlar esiz...

Shundaylar bo'lmasa, azaldan tuproq

Yashnardi tag'in ham go'zal va mumtoz.

Temir odam yasab yurguncha, ko'proq,

*«**Jonli temir**»lapni o'ylangiz ustoz («Temir odam»).*

Metaforik qo'llangan temir so'zi H.Olimjonda *mustahkamlik, zabardastlik* yoki *ishchilar* ma'nosini, A.Oripovda esa *qalbsizlik* yoki *hissiz, insoniy tuyg'ulardan yiroq kimsa* ma'nosini anglatib kelgan. Demak, bir holatda u an'anaviy mazmunda bo'lib, obrazlilik darajasi susaygan bo'lsa, ikkinchi holatda, *temir qo'l, jonli temir* birikmalari tarkibida alohida-alohida poetik mazmun kasb etgan.

3. Badiiy matnda metafora.

Metaforalarning badiiy uslubga xos alomat ekanligini bir xil metaforalarning ham badiiy ham so'zlashuv uslublarida qo'llanilishini taqqoslash orqali yaqqol ko'rish mumkin. Masalan, badiiy uslubda bayon qilinayotgan voqea davomida, aytaylik, yigit o'z sevgilisiga *javohirim, gavharim, yulduzim* deb bimalol murojaat qilishi mumkin. Ammo o'zbek so'zlashuv uslubida ular o'rtasida bunday balandparvoz gaplar aytilishi juda qiyin. Shuning uchun ham, sahnada rol ijro etayotgan artistning bu kabi so'zlarini eshitganda oddiy tomoshabin biroz o'ng'aysizlanib turadi.

Abdulla Oripovda:

«Zo'r karvon yo'lida yetim bo'tadek

Intizor ko'zlarda halqa-halqa yosh...»

***Sarbonim** qo'lingdan ketdimikan erk,*

***Sarbonim**, ne uchun ko'tarmaysan bosh («Alvido, ustoz!»).*

Metaforani o'zbek tili funksional uslublarining barchasida uchratish mumkin. Ammo ular ma'lum darajada obrazlilikni yo'qotgan, an'anaviy metaforalar bo'lib, boshqa uslublarda fikrni reallashtirish yoki uning ahamiyatini alohida ko'rsatadigan yordamchi vosita sifatida uchrab tursa, badiiy uslubni metaforasiz tasavvur qilib bo'lmaydi va bu uning alohida belgisi sifatida qaraladi.

4. Metafora – poetik san'at va individuallik namunasi.

Metaforalar ular yashab kelayotgan har bir milliy til qadar qadimiydir. Bunday troplar she'riy san'atlardan biri sifatida xalq og'zaki ijodida, mumtoz adabiyotda ham ilgaridan mashhur bo'lib kelgan. Mumtoz adabiyotda metafora majoz nomi bilan yuritilgan va u bilan yonma-yon «istiora» atamasi ham ishlatilgan. Uning she'riyatda juda mahsuldor san'at hisoblanganini Yo.Is'hoqov tahlil qilgan quyoshning istioraviy atamalari misolida ko'rish mumkin: *Xusravi ro'z, shahi Sharq, shohi Chin, sultoni anjum, Xusravi Xovar, sultoni chorbolishi anjum, Xusravi subh, turkixovariy, subh shunqori, isfandiyori Rum, xusravi Chin, shahi Mashriq* kabi.⁵

Poetik metaforalar muammolarini konkret material asosida nazariy, adabiy-tarixiy va individual-ijodiy tomonlarni o'zaro aloqadorlikda olib qarab o'rganish adabiy jarayonning, poetik ijodning, yozuvchi uslubi va mahoratining ko'plab tomonlarini aniqlashga imkon beradi.

Har bir yozuvchining o'z ijodiy mulki bo'lgan individual metaforalar tasviriy vositalarning eng yaxshi namunalari bo'lib, u badiiy uslubning ham o'ziga xos xususiyati sanaladi. Yozuvchi ijodida hatto bitta metaforik qo'llangan so'z butun bir matnni o'z atrofida jipslashtirishi, tayanch nuqta hisoblanib, metaforik kontekst hosil qilishi mumkin.⁶ Masalan, A.Oripovning «Ohu» she'ridagi *ohu* so'zini eslaylik.

Ma'lum bo'ladiki, narsa-hodisalar va ularni anglatadigan tushunchalar o'rtasidagi dialektik muvofiqlik va aloqadorlik so'zlarning nutqda butunlay yangi ma'nolarda qo'llanishini keltirib chiqaradi va u mutlaqo ijodkorning subyektiv qarashlariga hamda imkoniyatiga bog'liq ravishda yuzaga keladi.

Abdulla Oripovda:

*O'n oykim, so'nmishdir u tanish **na'ra**
Hamon firog'ida fig'on chekar Shosh.
Bahor kelayotir, bosh ko'tar, qara,
O surur kuychisi, dongdor zamondosh.
Beqiyos edi u **she'r lochini!**
Xayoli bamisli Ko'ragoniydek.
Gar tarix evrilsa shuhrat tojini
Unga kiygizardi Sulton Ulug'bek («Bahor»).*

⁵ Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. -Б.111.

⁶ Тарасова В.К. Словесная метафора как знак. Автореф дис. ...канд филол. наук. – Л. 1976. -С.6.

Ma'lum bo'ladiki, badiiy matnlarda poetik metafora faqatgina muhim tasviriyy vosita bo'lib qolmasdan, balki badiiy tafakkur elementiga, estetik hodisaga aylanib ketadi. U nutqni bezash doirasidan chiqib, his-tuyg'uni, fikrni obrazli ifodalash vositasi darajasiga ko'tariladi. Metafora ko'magida endi biz tasvir obyektini faqatgina «ko'rib qolmasdan», balki his qilamiz, uni go'yo o'z boshimizdan kechiramiz. U bizning hissiyotimizga, ongimizga ta'sir etish bilan birga yozuvchini ham uzundan-uzoq bayondan qutqaradi.

5. Abdulla Qahhor metaforalari.

A.Qahhor asarlarida yuzlab so'zlarning metaforik qo'llanishi kuzatiladi. Biz bu o'rinda yozuvchi qo'llagan faqatgina bir so'z – *ketmon* xususida mulohaza yuritamiz. Ushbu birlik ijodkor asarlari matnida 101 shaklda 124 marta denotativ va konnotativ ma'nolarda qo'llangan.

So'zning metaforizatsiyalashuvi jarayonini aniqlash maqsadida bu qo'llanishlarni birma-bir ko'zdan kechiramiz:

Birinchidan, o'z ma'nosida – ish quroli, dehqonchilik asbobi sifatida: *Kelajagini tasavvur qilish mumkin bo'lmasa ham, zahmatligi sezilib turgan qurilishda odamlar ketmon, kurak, metin bilan ishlar, u davrning eng zo'r texnikasi gidromonitor edi* (5,117). Bu so'z yozuvchi asarlarida 25 ta gapda denotativ ma'noda qo'llanilgan va ular asosan ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi chiqishlari, suhbatlari, publitsistik maqolalari matnlariga xos.

Ayni paytda, o'z ma'nosida qo'llash «Qo'shchinor chiroqlari» romani uchun ham tegishli ekanligini ta'kidlaymiz (12 marta). Ammo bu roman matniga xos xususiyat shundan iboratki, unda *ketmon chopmoq* (11 marta) va *ketmon urmoq* (8 marta) birikmasi faol qo'llanilgan. Bu qo'llanishda uning birikma tarkibidagi ma'nosi kengaygan. Aniq bir harakatni, ish quroli vositasida yerni ag'darish ma'nosini ifodalash doirasidan chiqib, *ishlamoq, mehnat qilmoq* ma'nolarini ham ifodalagan: *Ust-boshi yupun yigitlar, chollar quloqlarini ro'mol bilan bog'lab olib ketmon urishadi, tuproq ko'chirishadi* (2,34) – *Siz universitetga munosib emassiz, – dedi u, Saidiy «to'ngak» deb nom qo'ygan bir yigitga, – borib ketmoningizni choping!..* (1.43).

Dehqonchilik bilan shug'ullanadigan aholi orasida *ketmonga solmoq* iborasi ham mavjud bo'lib, *aniq mehnat turiga – yer chopish ishiga jalb qilmoq* ma'nosini beradi: *Ma'qul ko'rsangiz, shularni ketmonga solasiz* (3.115).

Bu birikmalar tilimizda bor iboralar va ular A.Qahhorning tildan foydalanishdagi mahoratini belgilab bera olmaydi. Bundan adib aksariyat hollarda *ketmon* soʻzidan ona tilimizda mavjud maʼnolarda foydalangan degan xulosa kelib chiqadi.

Ikkinchidan, yozuvchi bu soʻzga alohida masʼuliyat bilan qaragan holatlar ham matnlarda anchagina. A.Qahhor tomonidan ushbu soʻz ishtirokida shakllantirilgan shunday ibora va jumlar mavjudki, ular aynan yozuvchining mahoratini koʻrsatib turadi. Masalan, «Shohi soʻzana» pyesasida Mavlon brigadir tilidan Qoʻziyevga nisbatan *ketmonga tobi yoʻq* iborasi ishlatiladi: ***Ketmonga tobi yoʻq***, «paxta» desang, «taxta» deydi. (*Qoʻziyevga.*) *Shunaqami?* (4,44). Bu xuddi Oybekning «Qutlugʻ qon»ida Yoʻlchiga nisbatan qoʻllangan *Bilaman, kishanga tobing yoʻq* gapidagi *kishan* soʻziga oʻxshab ketadi va u bilan bir xil badiiy-estetik qimmatga teng.

Uchinchidan, *adabiyotning ketmon davri* iborasi esa mutlaqo A.Qahhorga xos boʻlgan favqulodda obrazli qiyoslashning samarasidir: *Shunday mulohaza qilib qaralsa, oʻsha vaqtda adabiyotimiz ham ketmon davrini boshdan kechirayotgan ekan: Markazqoʻmning aprel qaroridan keyin hamma yozuvchilar «Sovet adabiyoti qurilishi maydoniga» toʻplangan boʻlsa ham, poeziya eski traditsiyalarni yorib oʻtib, hayotga endi yaqin kelgan, roman, hikoya, ocherk va boshqa janrlar hali tugʻilmagan, tugʻilganlari ham hali yoʻrgakda edi* (5,117).

Toʻrtinchidan, mana bu *Paxtachilikni mashinalashtirishdan birdan-bir maqsad koʻp va arzon paxta yetishtirishgina emas, qishloqni ketmondan, yaʼni tong qorongʻisidan shom qorongʻisigacha mehnat qilish majburiyatidan ozod qilishdir* (5,134) gapidagi *ketmon* qanday maʼnoda qoʻllanilgan? Savolga javobni yozuvchining oʻzi berib qoʻyibdi: bu – birinchidan, *tong qorongʻisidan shom qorongʻisigacha mehnat qilish majburiyati*, ikkinchidan esa matnda *ketmon* – yangi zamonda eskicha mehnat qilishning ramzi.

Beshinchidan, *Urushga ketgan yigitlarning ketmonini qoʻlidan olgan, ogʻir qiyinchilik sharoitida matonat, mehnatda oʻrnak koʻrsatgan, qalbining quvvati bilan ayollarga madad berib, bolalarning boshini silab ishga solgan Ergash aka, Hamro bobo, Husayn ota, Saidahmad bobo singari qariyalarning nomi hech qachon oʻchmaydi* (4,241). *Ketmonini qoʻlidan olmoq* iborasining maʼnosi dabdurstdan olib qaralganda aniq reallashmasligi mumkin. Matnda undan *boshqa birovning* (bu oʻrinda *frontga ketgan yigitlarning*) *oʻrnini bosmoq* maʼnosi anglashilib turibdi.

Oltinchidan, xalqimizda noshud, biror bir ishning uddasidan chiqa olmaydigan kimsalar haqida *ketmonga ketmondasta bo'lmaydi* degan ibora mavjud. A.Qahhor uni ijodiy qayta ishlagan: – *Tilimni qichitma, jo'jaxo'roz! Aytmadimmi, kuzda qiyqillab stolning tagiga kirib ketasan, deb... Eh-e, sening xo'roz bo'lishingga hali o'n to'rt protsent bor! Havoni qara, shov etib yomg'ir yog'sa nima qilasan, o'n to'rt protsent paxtangni lunjingga sho'r paxta qilib bog'laysanmi?.. Kelasi yil mening brigadamga o'ta qol. **Bironta eski ketmonga dasta qilib qo'yaman!..*** (4,226). Bu qayta ishlash iboraga ham ijobiy ottenka bergan, ham muloyim yumorni shakllantirgan.

Yettinchidan, umuman mehnat qilish, ishlash ma'nosida: *U qaytib o'zining «Paxtachilik» kolxozida ketmonini chopib yura turdi, lekin o'zini ulug' poxodda biron anglashilmovchilik orqasida bo'linmasidan keyinda qolgan jangchiday sezar edi* (3,3).

Sakkizinchidan, mehnatning turi ma'nosida: *Ro'zimatmi? Ro'zimat ketmonda...* (2,102).

To'qqizinchidan, *qo'l mehnati* ma'nosida: – *Kolxoz dehqonning ham qo'liga mashinaning qulog'ini berib qo'yibdi-ku, hozirning o'zida ketmonga qancha ish qoldi?* (3,129). *Bunda konservator tanqid qilina yotiptimi, ketmon maqtalayotiptimi?* (5,137).

Mana bu gaplarda ham adibning mehnat qilmoq sememasi atrofida ketmon so'ziga katta ijtimoiy ma'no yuklaganini kuzatamiz: *Tezroq urushni tamom qilib qaytmasak bo'lmaydi, ketmonni chollarning qo'liga berib kelganmiz* (3,42). *Bir ketmon urib, tahsin va ofarin umidida atrofga qaragan odam shu bilan ikkinchi ketmon urishdan ojiz ekanini ko'rsatadi.* (5,226). *Men hamma ishni ketmon bilan bitiraman* (2,52). *Shu choqqacha hamma ishni ketmon bilan bitira olmayapsiz-ku?* (2,52). *Ketmon chopish-u daromad olishdan boshqasini bilmaydigan, kolxozning hamma ishiga kuyib-pishib bosh qo'shmaydigan kolxozchining yaxshi otdan nima farqi qoladi?* (2,52) kabi.

Yozuvchining «Sinchalak» qissasida ketmon ga daxldor ba'zi gaplarga duch kelamizki, bu A.Qahhorning ushbu so'zni qo'llashdagi yuksak badiiy mahoratidan dalolatdir: *Shu yaqin yillarda dalada ketmon qolarmikin? – dedi Saida* (3,129). – «*Qizil tong*» kolxozi shu yaqin yillarda ketmonni yo'qotish payiga tushgan deyishadi, bizda hali bu gapning uchi ham chiqqan emas (3,165). Bu gaplarda ketmon nafaqat ijtimoiy ma'no, balki, siyosiy ahamiyat ham kasb etadi.

A.Qahhorning *ketmon* soʻzidan badiiy-estetik obrazning yuzaga kelishiga xizmat qiladigan turli xil tasviriy vositalarni yuzaga keltirishda foydalanganligi ham kuzatamiz. Masalan, bu birlik oʻxshatish usulini amalga oshirishda ishtirok etadi: *Bu kishining ketmon urishi qorni toʻq qoʻzining xashak titishiga oʻxshaydi* (2,104). *Vagondan eng keyin tushgan va miltigʻini tigʻidan ushlab, ketmonday yelkasiga qoʻyib shoshmasdan kelayotgan Ahmadjon...* (3,4).

Ushbu soʻz yordamida metonimiya hosil qilingan: *Oʻroq mavsumi oʻtgan, ketmon mavsumiga hali uzoq edi* (3,229). Epitetli birikma tarkibida ham ishtirok etgan: *U kattakon, ketmon nusxa shapkasini stulga qoʻyib, bir quchoq material bilan minbarga chiqdi, enlik kamarini tortib bogʻlab, «mana endi soʻzlash payti keldi» deganday majlis ahliga bir nazar tashladi-yu soʻz boshladi* (1,309).

Aytilganlar Abdulla Qahhor qalamida metaforizatsiyalashgan *ketmon* soʻzi oʻziga xos ijtimoiy-siyosiy va badiiy-estetik maʼno kasb etganligi haqida xulosa chiqarishimizga imkon beradi.

6. Metaforada milliylik.

Badiiy adabiyot tilining ajralmas aʼzosi boʻlgan metaforalarning qoʻllanishidagi oʻziga xoslik haqida yana shuni aytish mumkinki, ular har bir tilda urf-odatlar, jugʻrofiy muhit, fan va madaniyatning, iqtisodiy va xoʻjalik taraqqiyotining darajasiga bogʻliq ravishda milliy xarakter ham kasb etadi. Qozoq adibi M.Avezovning quyidagi gaplariga eʼtibor beraylik: «Qozoqlarda metaforalar koʻpincha (xalq bezagida shu tarzda yaqqol ifodalangan) hayvonot olami bilan bogʻlangan, oʻzbeklar esa oʻsimliklar dunyosi bilan bogʻliq boʻlgan ohanglarni odat qilgan».⁷

Tomas Foster taʼkidlaydiki, «Biz shu paytgacha nimani muhokama qilgan boʻlsak, oʻz kuchida qoladi: badiiy asardagi aniqlik va jismoniylik, koʻrlik yoki koʻra olmaslik, zulmat yoki yorugʻlik deyarli hamma vaqt oʻzda metaforani yashirgan boʻladi hamda bilish yoki bilmaslikni, tushunish yoki adashishni anglatadi».⁸

Xulosamiz shuki, asarni sinchikib oʻqigan oʻquvchi har qadamda yozuvchining metaforik tafakkur qilishiga sherik boʻladi U yaratgan frazeologizmlar, favqulodda soʻz va iboralar ustida bosh qotiradi. Badiiy matnni mutolaasida estetik olamni idrok etish sari boriladigan yoʻl ham shuning oʻzidir.

⁷ Аvezов М., Фетисов М. Особенности развития литератур социалистических наций // Коммунист, 1959, № 12. -С.75.

⁸ Томас Фостер. Искусство чтения. -С.204.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. *Metafora* atamasiga izoh bering.
2. *Badiiy adabiyotda obrazlilik* deganda nimani tushunasiz.
3. Metafora yuzaga kelishining mantiqiy asosi nima?
4. Metafora badiiy adabiyot tarixida qanday o'rganilgan?
5. Antik davr notiqalarining metafora haqidagi fikrini sharhlang.
6. Metaforalarning qo'llanishidagi an'anaviylik va individuallik nimani anglatadi?
7. Badiiy matnda metaforalarning xizmati nimadan iborat?
8. Poetik metaforalar haqida gapirib bering.
9. A.Qahhorning *ketmon* so'ziga qo'llagan qo'shimcha ma'nolarni gapirib bering.
10. *Metaforaning milliyligi* deganda nimani angadingiz?

PEDAGOGNING NUTQIY MADANIYATI

Reja:

1. *Axloq, kasb axloqi, pedagogik axloq* tushunchalari.
2. *Pedagogik muloqot* tushunchasi.
3. Pedagog muloqotida nutq madaniyati va notiqlik san'atining tutgan o'rni.
4. N.Mahmudov pedagog nutqi madaniyati haqida.

Tayanch soʻz va iboralar: *axloq, kasb axloqi, pedagogik axloq, mehnat turi, axloqiy dasturlar, axloqiy meʼyorlar, oʻqituvchi, murabbiy, muloqot, pedagogik muloqot, fikriy aniqlik, shaxs tarbiyasi, notiqlik, ravonlik, goʻzallik, loʻndalik, talaba-yoshlar, omma, chiniqtirish, tarbiyalash, qalbga yoʻl topish, ragʻbatlantirish, ish va soʻz birligi, tajriba, bilim, savodxonlik, loqaydlik, ishontirish, rohatlantirish, hayajonlantirish, nutqiy vaziyat, nutqni boyitish, nutqni bezash, ortiqchalik, tejamkorlik, ohang, ifodalilik, vaqt, tashqi koʻrinish, raso nutq, dars, soʻz, shaxsiy fazilat, pedagogik mahorat omillari, til, terminologiya, ifodalilik, badiiy nutq, nutqning tovush tomoni, nutq texnikasi.*

1. Axloq, kasb axloqi, pedagogik axloq tushunchalari.

Axloq – ijtimoiy hayotning hamma sohalarida insonni tartibga solib turadigan talablar, meʼyorlar va qoidalar yigʻindisidir. Ezgulik, yaxshilik, adolat singari umuminsoniy tamoyillar ana shu hayot tarzining asosiy omillari hisoblanadi. Axloqiy munosabatlar insonning jamiyatga, mehnatga va odamlarning bir-birlariga munosabatlarining negizidir. Ana shu munosabatlar yuksak darajada taraqqiy etgan jamiyatda inson qadri baland boʻladi. Binobarin, bunday jamiyatda bunyodkorlik va yaratuvchilikka boʻlgan intilish kuchli boʻladi.

Afsuski, jamiyatda mutlaq, abadiy va oʻzgarmas axloq mavjud emas. Ideal axloqli jamiyatga boʻlgan intilish bor. Axloq tarixan oʻzgaruvchan va nisbiy mustaqillikka ega boʻlgan ijtimoiy hodisa boʻlganligidan, uning bu xususiyatlari umuminsoniy axloqning tarkibiy qismlaridan biri – kasb axloqida ham namoyon boʻladi.

Jamiyat rivoji tarixida ijtimoiy mehnat taqsimotining (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdogarlik va boshqa kasblarning) paydo boʻlishi mehnatning bir turi bilan band boʻlgan kishilar guruhlarining kasb-hunar jihatidan ajralib chiqishiga va shunga

muvofiq ravishda turli xil mutaxassisliklarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Alohida mehnat turlari va bu mehnatni tashkil etish usullarining paydo bo'lishi u bilan shug'ullanadigan kishilarda nafaqat jismoniy ko'nikmalar, balki ruhiy moslashuvlarni keltirib chiqardi. Shu tarzda jamiyatda mehnat psixologiyasi vujudga keldi va u muayyan kasb bilan mashg'ul kishilarning ruhiyatiga ham ta'sir ko'rsatdi. Har bir kasb doirasida odamlar mustaqil harakat qilishlariga imkoniyat yaratildi va asta-sekinlik bilan har bir ixtisoslik doirasida kasb axloqi shakllanib bordi. O'z navbatida, mehnat jarayonida ishtirok etayotganlarning o'ziga xos xatti-harakatini muvofiqlashtiruvchi xulq-atvor me'yorlari va har bir mehnat turining tabiatiga mos tarzda axloqiy dasturlar yuzaga keldi.

Ishlab chiqarishning tobora rivojlanib borishi, fan va texnika inqilobi ijtimoiy mehnat taqsimotini yanada chuqurlashtirdi. Bu jarayonning uzluksiz davom etishi natijasida muayyan ijtimoiy vazifani bajarishga yo'naltirilgan yangi-yangi faoliyat turlari vujudga keldi. Bunga mos tarzda mehnat ahlida shakllangan burch va majburiyatlar muayyan axloqiy qoidalar va xulq-atvor me'yorlarida o'z aksini topib bordi.

Jamiyatning har bir kasb-hunarga, ixtisosga beradigan bahosi ikki asosiy omil – kasb-hunar vakillarining jamiyat rivojiga qo'shgan moddiy va ma'naviy-axloqiy hissasi bilan o'lchanadi va baho beriladi. Masalan, o'qituvchilik ixtisosiga qarab – pedagog axloqi; tibbiyot ixtisosiga qarab – shifokor axloqi; huquqni muhofaza qilish ixtisosiga qarab – yurist axloqi; qurolli kuchlar ixtisosligiga qarab – harbiylik axloqi va hokazolar.

Barcha kasbdagi insonlar uchun insonparvarlik va xushmuomalalik, xushfe'llilik va odoblilik, oddiylik va kamtarlik, halollik va rostgo'ylik, samimiylilik va o'zaro hurmat singari umumaxloqiy me'yorlar mavjud. Jamiyat tomonidan qabul qilingan ana shu umuminsoniy axloq qoidalarining ma'lum kasb egasi tomonidan amalda qanday bajarilishini ko'rsatuvchi me'yorlar kasb axloqining mazmunini tashkil etadi.

Jamiyat taraqqiyotining poydevori bo'lgan ilm-u ma'rifat o'rgatuvchi o'qituvchi-murabbiylar axloqi esa barcha kasb egalari axloqidan o'zining ta'lim tarbiyaga yo'naltirilganligi bilan alohida ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, «bugungi kun o'qituvchisi universal mutaxassis, ham o'rgatuvchi, ham o'rganuvchi bo'lishi, ya'ni, o'z ustida tinimsiz ishlashi, doimo izlanib yashashi kerak. Eng muhimi, o'qituvchi chinakam vatanparvar inson bo'lishi zarur. Qalbida o'z kasbiga, Vataniga mehr va sadoqat kuchli bo'lgan o'qituvchigina haqiqiy vatanparvar shaxsni tarbiyalay oladi».⁹

2. Pedagogik muloqot tushunchasi.

Muloqot – insonlarning bir-birlari bilan axborot almashish jarayoni. Ilmiy manbalarda uning kommunikativ, interaktiv va perseptiv jihatlari borligi aytiladi. Muloqotning kommunikativ jihati deyilganda, suhbatdoshlarning o'zaro axborot almashuvi, interaktiv jihati deyilganda, ularning ekstralingvistik omillar yordamida bir-birlariga o'zaro ta'sir o'tkazishi, perseptiv jihati deyilganda suhbat jarayonida bir-birlarini anglashga intilishi nazarda tutiladi.

Pedagogik muloqot esa ana shu muloqot turlaridan biri bo'lib, pedagogik faoliyat jarayonida yuzaga keladi. «Pedagogik muloqotda ta'lim psixologiyasi, tarbiyaning psixologik asoslari, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari, o'qituvchi psixologiyasi, maktablarda ta'lim-tarbiya jarayonlarini boshqarish muhim o'rinni egallaydi».¹⁰

A.Xoliqov «Pedagogik mahorat» o'quv qo'llanmasining «O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi» deb nomlangan 6-bobida pedagogik muloqotda muomala madaniyati masalasini tahlil qilgan. Muallifning ta'kidlashicha, o'quvchining intellektual rivojlanishida o'qituvchining muloqot madaniyati va muomalasi muhim ahamiyatga ega. O'quvchi ma'naviy muhitining shakllanishi o'qituvchining yuksak axloq namunasi orqali namoyon bo'ladi. Pedagogik muloqotda o'qituvchining eng yaxshi fazilatlari va xatti-harakatlari o'quvchining ideali sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, muallif buning aksi – o'qituvchi subyekti bilan, o'quvchi obyektiga o'rtasidagi qattiq avtoritar intizom o'zaro muloqot madaniyatiga salbiy ta'sir etishi mumkinligini ham aytadi. O'qituvchining shirinsuxanligi, ochiq chehrali bo'lishi, samimiy muomalasi muloqotda ijobiy natijalarga erishish kalitidir, deydi u. O'qituvchining muloqot madaniyati bunda o'qituvchi mahoratining uchta jihatiga alohida e'tibor qaratiladi: hayotiy tajribasi; pedagogik

⁹ Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ўқитувчи ва мураббийларига байрам табриги, 2019 йил 28 сентябрь.

¹⁰ Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2006. -Б.6.

faoliyat jarayonida egallagan ko'nikma va malakasi; muayyan o'quvchilar jamoasi bilan muomalada bo'lish tajribasi.¹¹

S.Xo'janazarova va M.Oripovalar esa «O'qituvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning pedagogik asoslari» nomli maqolasida masalaga ilmiy-metodik jihatdan yondashib, o'qituvchilarning o'quvchilar bilan muloqot madaniyati individual uslublarini shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olishligini ko'rsatadi:

1. O'qituvchilarning o'quvchilar bilan muloqot qilish madaniyatining individual shaxsiy xususiyatlarini o'rganishi o'quvchilar shaxsiy xususiyatlarini mustaqil tahlil qilish, har tomonlama tavsif berish o'qituvchilarning muloqotni to'g'ri tashkil etishi asosida amalga oshadi.

2. Shaxsiy muloqotda ro'y beradigan kamchiliklarni aniqlash va darhol ularga barham berish choralari izlab topish: muloqotda qo'pollik, mensimaslik va boshqa salbiy holatlarni yengish.

3. O'qituvchilar o'zlari uchun muloqot madaniyatining qulay bo'lgan uslublarini ishlab chiqishga doir faoliyatni olib borish va o'z-o'zini kuzatish bilan yutuq va kamchiliklarini taqqoslash.

4. O'zining muloqot madaniyati uslublariga mos keluvchi milliy an'ana va ma'naviyatimizga xos jihatlardan unumli foydalanish.

5. Muloqot madaniyatida pedagogik faoliyat qonuniyatlaridan chetga chiqmaslik, bu uslubni mustahkamlash.¹²

Darhaqiqat, ustoz-shogird tizimining mukammal ishlashida o'qituvchi xarakteridagi bir qator ijobiy sifatlar, jumladan, o'z o'quvchi-talabasi bilan bo'ladigan muloqot madaniyatining ahamiyati sezilarli darajada ekanligini kuzatamiz.

Xuddi boshqa kasblarda bo'lgani kabi o'qituvchi kasb axloqining ham zamonaviy ta'lim sifatini tubdan yaxshilash talablaridan kelib chiqadigan o'ziga xos xususiyatlari bor, albatta. Birinchi navbatda, u talaba-yoshlarni jamiyat taraqqiyotiga bog'liq bo'lgan eng kerakli bilimlar bilan qurollantirmog'i va bu bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatmog'i zarur. Buning uchun o'qituvchining o'zi o'qitayotgan fan yo'nalishida zamonaviy bilimlarga ega bo'lmog'i, ulardan o'qish-o'qitish jarayonida eng ma'qul ta'lim metodlarini qo'llagan holda foydalanmog'i lozim bo'ladi.

¹¹ Холиқов А. Педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. – Тошкент: «ИQTISOD-MOLIYA», 2010, -Б.82-85.

¹² <https://cyberleninka.ru/article/n/ituvchilarda-muloqot-madaniyatini-shakllantirishda-zamonaviy-tehnologiyalardan-foydalanishning-pedagogik-asoslari>.

O'qituvchi uchun bundan-da murakkab bo'lgan ikkinchi masala bor. Bu – uning umuminsoniy odob-axloqda o'z talaba-o'quvchilariga namuna bo'lish masalasidir. Nutqiy muloqot madaniyati ham ana shu namunaviylik tarkibida qaraladi. Hozirgi sharoitda xalqimizning til madaniyatiga e'tibor qilishlari, mahalliychilik, shevachilik illatlaridan voz kechib, imlo va talaffuzda o'zbek adabiy tili me'yorlariga rioya qilgan holda ish yuritishlari ham ko'p jihatdan pedagog-murabbiylarning namunaviy faoliyatiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Shu ma'noda qaysi fan o'qituvchisi bo'lishidan qat'i nazar uning chuqur bilim berishi muomala madaniyatiga ham bog'liq ekanligini his qilgan holda ish olib borishi zarur. Shundagina u talaba-yoshlarni orqasidan ergashtira olishi va ilm-fanga havas uyg'ota oladi.

Zero, o'qituvchilarning jamiyatimizda tutgan o'rni yosh avlodga bilim berish barobarida ulara Vatanga muhabbat, umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash, mehnatsevarlik, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, mehr-oqibat tuyg'usini shakllantirish bilan belgilanadi. Bunga esa olijanob axloqiy fazilatlar hamda yuksak muomala va nutqiy madaniyat bilan erishish mumkin bo'ladi.

3 Pedagog muloqotida nutq madaniyati va notiqlik san'atining tutgan o'rni.

Insoniyatning tabiatni, borliqni o'zlashtirish va o'zgartirish jarayonida yaratgan moddiy, ma'naviy boyliklari hamda bu boyliklarni qayta tiklash va bunyod etish yo'llari va usullari majmui sanaladigan madaniyat odamzod turmush tarzining mazmunini belgilab beradi.

Binobarin, har bir xalq va millatning, hatto alohida olingan bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni uning madaniy saviyasiga bog'liq. Madaniyat inson faoliyatining ham mahsuli, ham sifat ko'rsatkichi sanaladi. Faqat insongagina xos bo'lgan odamgarchilik fazilati ham, piravord natijada madaniyat mahsulidir. Shuning uchun jamiyatdan tashqaridagi madaniyatni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ilg'or jamiyat va davlat bo'lishning muhim omili ham madaniyat omilidir. Bu – ishlab chiqarish madaniyati, boshqarish madaniyati, rejalashtirish madaniyati, turmush madaniyati, xizmat ko'rsatish madaniyati, ekologiya madaniyati, bola tarbiyasi madaniyati va hokazo.

Ana shu umuminsoniy madaniyatlar tizimida insonning ma'naviy qiyofasini yaqqol ko'rsatib turadigan muomala madaniyati ham bor. Necha ming yillar davomida shakllangan va sayqal topgan bu madaniyat avloddan avlodga o'tib kelayotgan bebaho qadriyatdir.

Muomala madaniyatida ta'lim-tarbiya jarayonining o'rni hech narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydigan darajada yuqori ekanligini hammamiz yaxshi bilamiz. Yuksak ong mahsuli sanaladigan ta'lim-tarbiya ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omil ekan, uning muomala madaniyati takomilidagi xizmatlarini ham inkor etish mumkin emas.

Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur.

O'qituvchining faoliyati faqat ta'lim berish bilangina chegaralanib qolmaydi. Ayni paytda, u tarbiya jarayonining ham faol ishtirokchisi hisoblanadi. Keyingi paytlarda mamlakatimizda ta'limning barcha bo'g'inlarida o'qish-o'qitish va ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid qarashlarning ko'payib ketgani, yagona bir tizim holiga keltirilmagani bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqarayotgani kabi ustoz-shogird munosabatlarini ham murakkablashtiradi va ko'p masalalar o'qituvchining bilim va iste'dodi, mas'uliyat va kommunikativ mahoratiga bog'liq bo'lib qoladi. Har qanday muloqotning axborot uzatish jarayoni ekanini inobatga olsak, bunda o'qituvchining muomala madaniyati birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayonni til omilisiz tasavvur qilish mutlaqo mumkin emas. Chunki til va nutq madaniyati ham umuminsoniy va milliy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Til madaniyati tushunchasi til tizimining madaniylik darajasini, ya'ni uning qanchalik ishlanganligi, me'yorlashganligini ko'rsatsa, talaffuz, urg'u, so'z qo'llash, grammatika, uslubshunoslik qoidalarini o'z ichiga olgan nutq madaniyati og'zaki yoki yozma adabiy til me'yorlarini puxta egallashni, shuningdek, muloqot jarayonida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanishni ko'zda tutadi.

2019-yilning 21-oktabr kuni bo'lib o'tgan o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday degan edi: «Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan

e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak. Bu olijanob harakatni barchamiz o'zimizdan, o'z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak». Shunday ekan, pedagogik mahorat doirasida nutq va til madaniyatini puxta egallash boshqa kasb egalaridan ko'ra o'qituvchi-murabbiylarga ko'proq zarur bo'ladi.

M.Hamdamaova «Pedagogning kasbiy rivojlanish pog'onalari. O'qituvchining pedagogik mahorati va kompetentligi» maqolasida *pedagogik mahorat* tushunchasiga izoh bergan va uning tarkibiy qismlari haqida mulohaza yuritgan. «Agar ilgari *pedagogik mahorat* bilim, ko'nikma va malakadan iborat ikki komponentli tuzilma deb qabul qilingan bo'lsa, bugungi kunda u kamida to'rtta komponentni, ya'ni bilimlar tizimi, maxsus qobiliyat, pedagogik texnika va shaxsning insonparvarlik yo'nalishini o'z ichiga olgan», – deydi muallif. Pedagogik mahorat quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: *pedagogik texnika, pedagogik muomala, pedagogik ijod, pedagogik qobiliyat, pedagogik madaniyat, pedagogik takt* kabi.¹³

Darhaqiqat, pedagogning kasbiy mahorati oldiga qo'yiladigan talablar ijtimoiy hayotdagi boshqa kasb egalari mahorati talablaridan tubdan farq qiladi.

Bu yerda o'z kasbini sevish va puxta bilim egasi bo'lishdan tashqari samimiyat va mehribonlik, fidoyilik va jonkuyarlik, ijodkorlik va yangilikka intiluvchanlik kabi umuminsoniy omillar yetakchilik qiladi. Pedagogik mahorat aynan ana shu fazilatlarning o'qituvchi-murabbiyda bo'lishligini ko'zda tutadi.

Bundan tashqari, pedagogika ilmida *texnologik madaniyat* tushunchasi ham bor. Bunda har bir pedagogning o'z ish usuli, muomala madaniyati, xullas, kasbiy-pedagogik faoliyatining mazmunini ochib beradigan ko'nikmalari anglashiladi va u, ayni paytda, layoqatlilik darajasini belgilaydigan muhim omil sanaladi.

Tan olishimiz kerak, muloqot madaniyati bizga ajdodlardan milliy qadriyat sifatida meros bo'lgan va har kim uni imkoniyat va ehtiyoj darajasida o'zlashtirib kelinayotgan, shu paytgacha ta'lim tizimida maxsus o'qitilgan emas edi. Endi esa uni tizim holatiga keltirib o'rganishga ehtiyoj paydo bo'ldi. Natijada muloqot madaniyati sirlarini

¹³ <https://videouroki.net/blog>.

tadqiq etish va uni ommalashtirish pedagogik-didaktik va filologik ta'lim dasturlaridan o'rin egallamoqda.

Notiqlik san'ati ham pedagog-murabbiylar egallashi zarur bo'lgan sa'natdir. Chunki kasb mas'uliyati muttasil talaba-yoshlar bilan, xalq ommasi bilan muloqotda bo'lishni taqozo qiladi. O'qituvchi va murabbiylarning turli majlislarda va mitinglarda, yubiley tantanalari, to'y va marosimlarda, xullas xalq hayotiga tegishli barcha tadbirlarda ishtirok etishiga to'g'ri keladi.

Oldimizda esa yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifa turibdi. Aslida nutq madaniyatini egallash degan gap – yuksak milliy madaniyatga ega bo'lish degan gap. Millatni, elni, xalqni qadrlagan kishigina uning madaniyatini qadrlaydi va oqibatda o'zi ham e'zoz topadi.

4. N.Mahmudov pedagog nutqi madaniyati haqida.

Prof. Nizomiddin Mahmudovning nutq madaniyatiga oid muhim qarashlari uning oliy ta'lim tizimi uchun yozilgan «O'zbek nutqi madaniyati» darsligida bayon etilgan.¹⁴

O'qituvchi nutqining raso bo'lishida muallif chuqur mulohaza yuritgan madaniy nutqning to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, soflik, boylik, jo'yalilik, ifodalilik singari kommunikativ sifatlarning har biri boshqa kasb egalarinikiga o'xshamagan tarzda namoyon bo'ladi.

Buning sababi nimada? Sababi shundaki, «har qanday ta'limning asosiy va yetakchi shakli darsdir, shuning uchun ham pedagogika fani uning samaradorligini oshirishning yo'llarini tinimsiz izlaydi, xilma-xil metodlar, usullar, vositalar ishlab chiqadi». Bugungi kunda ta'lim jarayoniga yangi-yangi pedagogik texnologiyalar, zamonaviy texnik vositalarning jadal joriy etilayotgani ham shundan. Bu yangiliklarni inkor etmagan holda muallif «Ammo dars deyiladigan murakkab jarayonning mukammalligi hamda natijadorligini ta'minlashda o'qituvchining pedagogik mahorati va shaxsiy fazilatlari ko'zgusi bo'lmish uning so'zi favqulodda muhim rol o'ynaydi», «o'qituvchining birlamchi va asosiy quroli nutq» degan qat'iy fikrlarni bayon etadi¹⁵.

N.Mahmudovning bu qarashlari mazmun birlamchiligi va shaklning ikkilamchiligi haqidagi dialektika qonuniyatiga to'la mosdir. Darsning tashkil etilishi qanchalik rang-barang bo'lmasin, qanday metod va pedagogik texnologiyalardan foydalanmasin, bu jarayonda til omili birlamchiligicha qolaveradi. Binobarin, o'qituvchining

¹⁴ Махмудов Н. Ўзбек нутқи маданияти. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.

¹⁵ Махмудов Н. Ko'rsatilgan asar. –B.32

mahoratining asosiy quroli til bo‘lib qolaveradi. «Ta’sirchan nutqi bilan o‘quvchi diqqatini butun dars davomida tutib tura olmasa, o‘qituvchining pedagogik mahorati haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas»¹⁶, deydi u.

Muallif fikricha, o‘qituvchi o‘z fanini yaxshi bilishi, mavzu doirasida darsga jiddiy tayyorgarlik ko‘rishi kerak. Uning sinfga kirganda aytadigan gapi aniq va ravshan bo‘lishi lozim. Agar shunday qilmasa, uning nutqi noaniq, mujmal bo‘ladi, o‘quvchi uni tinglamaydi¹⁷.

Fanni yaxshi bilishning shartlaridan biri uning terminologiyasini yaxshi bilishdir. Fanni chuqur bilmasdan turib, uning terminlarini yetarli darajada bilish mumkin bo‘lmagani kabi, sohaga oid terminlarning mazmun-mohiyatini anglamasdan fanni ham mukammal tushunib bo‘lmaydi. Demak, fan terminologiyasini yaxshi bilgan o‘qituvchigina o‘z nutqida ularni o‘rinli qo‘llashda yanglishmaydi¹⁸.

Darslikda ta’lim jarayonidagi yana bir muhim jihatga – ifodalilikka e’tibor qaratiladi: «O‘qituvchi dars mavzusini tushuntirar ekan, o‘z nutqining ifodaliligiga e’tibor bermasa, ifodalilikni ta’minlaydigan vositalardan foydalanmasa, nutqi quruq, shirasiz, jozibasiz bo‘ladi va natijada bunday nutq o‘quvchi diqqatini torta olmaydi». «Ifodalilik, ayniqsa, chinakam badiiy nutqning benihoya zaruriy sifatlaridandir. Zotan, ta’kidlab o‘tilganidek, aynan badiiy nutqda tilning estetik vazifasi birinchi planga chiqadi, butun ko‘lami bilan namoyon bo‘ladi. Bu vazifaning amalga oshishida esa aynan nutqning ifodalilik sifati favqulodda muhim o‘rin tutadi»¹⁹.

Dars berish jarayonida ifodalilik o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi. Buning uchun ham o‘qituvchidan nutqning tovush tomoniga jiddiy ahamiyat berish talab etiladi. Chunki «o‘qituvchining ovozi, talaffuzi, diksiyasi, umuman, tirik nutqi hamisha o‘quvchilar, ayniqsa, kichik sinflardagi o‘quvchilar uchun o‘ziga xos etalon, namuna vazifasini bajaradi. O‘qituvchining tirik nutqidagi kattadir, kichikdir, har qanday nuqson o‘quvchi nazaridan chetda qolmaydi, darhol uning diqqatini tortadi»²⁰.

Demak, o‘qituvchi nutqining ifodali va ta’sirli bo‘lishi til bilimini mukammal egallash barobarida, uning nutq texnikasini yaxshi

¹⁶ Махмудов Н. Ko‘rsatilgan asar. –B.32-33

¹⁷ Махмудов Н. Ko‘rsatilgan asar. –B.91.

¹⁸ Махмудов Н. Ko‘rsatilgan asar. –B.110.

¹⁹ Махмудов Н. Ko‘rsatilgan asar. –B.164.

²⁰ Махмудов Н. Ko‘rsatilgan asar. –B.179.

o'zlashtirishiga ham bog'liq. Shu sababdan «o'qituvchi o'zining nutq texnikasini takomillashtirish borasida doimiy qayg'urishi, fonetika, fonologiyaga oid bilimlardan umumiy tarzda bo'lsa-da, xabardor bo'lishi, kerak bo'lganda, o'z nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradigan mashqlardan muttasil foydalanib borishi maqsadga muvofiq. Chunki tugal nutq texnikasisiz o'qituvchining, har bir nutq tuzuvchining og'zaki nutqi madaniyatini aslo raso deb bo'lmaydi», degan fikrni bildiradi²¹.

Ijtimoiy hayotning biron bir jabhasida, biron bir kasb doirasida olib borilayotgan faoliyatni tilsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, albatta. Ammo muallifning qayd etishicha, «ularning boshida o'qituvchilik turadi. Qaysi fan mutaxassisi bo'lishidan qat'i nazar, o'qituvchi tildan mohirona foydalanish hadisini olmagan, demakki, chinakam madaniy nutq malakasini egallamagan bo'lsa, darsdagi nutqi o'tmas, nochor va rangsiz bo'lsa, uning bilimi qanchalik chuqur va tugal bo'lmasin, qirq besh daqiqalik fursat uning o'zi uchun ham, o'quvchi sho'rlik uchun ham benihoya og'ir azob. Ona tilida puxta, lo'nda va shirador nutq tuza olish malakasi va mahorati matematika o'qituvchisi uchun ham, ona tili o'qituvchisi uchun ham birday zaruriy fazilatdir. O'qituvchi go'zal, o'zni ham, so'zni ham qiynamaydigan, ravon va ohorli ifodalarga boy nutqi bilan o'quvchilarni mahliyo etib, materialni bayon qilmog'i lozim. Boshqacha qilib aytganda, o'qituvchining raso madaniy nutqi o'quvchida havas va hayrat uyg'otishi, unga namuna bo'lishi, ayni paytda bu nutq materialni o'quvchi tomonidan oson o'zlashtirilishi uchun eng qulay vosita vazifasini bajarishi kerak»²².

Bu o'rinda N.Mahmudovning «O'qituvchi nutqi madaniyati» kitobida aytilgan pedagogik mahorat doirasida eng zarur bo'lgan ikki omil – til bilimini puxta egallash va nutqiy texnika sirlarini yaxshi bilish doirasidagi ayrim mulohazalargina keltirildi. Muallifning zamonaviy o'qituvchi nutqi madaniyatiga oid bildirgan batafsil fikrlari bilan kitobning o'zini o'qish orqali tanishish mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham kitob «Nutq madaniyati va mutolaa san'ati» kursidan ta'lim olayotgan talabalarga eng zaruriy adabiyot sifatida tavsiya etilmoqda.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. *Axloq, kasb axloqi, pedagogik axloq* deganda nimalarni tushunasiz?

²¹ Махмудов Н. Ko'rsatilgan asar. –B.183.

²² Махмудов Н. Ko'rsatilgan asar. –B.18.

2. Kasb axloqiga xos bo'lgan xususiyatlarni sanab bering.
3. Shavkat Mirziyoyevning o'qituvchilar va murabbiylar haqidagi fikrlarini keltiring.
4. *Madaniyat, til madaniyati va nutq madaniyati* tushunchalarini izohlang.
5. Pedagog nutqining o'ziga xos jihatlari nimada?
6. Zamonaviy ta'lim pedagogik muloqot oldiga qanday talablarni qo'yadi?
7. Pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish uchun nimalarga ahamiyat beriladi?
8. Prof. N.Mahmudov nutq rasoligi uchun o'qituvchi qanday omillarga e'tibor qaratish lozimligini aytgan?

ISTIQLOL VA O‘ZBEK NUTQI MADANIYATI

Reja:

1. Mamlakatimizda mustaqillik arafasi va mustaqillikning ilk davridagi til siyosati.
2. Globallashuv va til siyosatining ayrim masalalari.
3. Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida til siyosati.
4. Til va nutq madaniyati xalq ma’naviyatining ko‘zgusi.

Tayanch so‘z va iboralar: *til siyosati, davlat tili, millatparvarlik, millatchilik, milliy ong, milliy tafakkur, davlat ramzi, istiqlol, xalqaro muloqot vositasi, tilni ilmiy o‘rganish, til va alifbo, jahon kommunikatsiya tizimi, lotin yozuvi, o‘zbek alifbosi, rasmiy muloqot, sheva elementlari, globallashuv, tillarning yiriklashuvi, tillarning yo‘qolish xavfi, yangilanayotgan O‘zbekiston, ona tiliga bo‘lgan yangicha munosabat, ikki yozuvlilik, o‘zbek tilini rivojlantirish konsepsiyasi, davlat dasturi, nazariya, amaliyot, til madaniyati, nutq madaniyati.*

1. Mamlakatimizda mustaqillik arafasi va mustaqillikning ilk davridagi til siyosati.

O‘zbekiston Respublikasining keyingi davrdagi til siyosati 1989-yildan boshlanadi va u Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov nomi bilan bog‘liq. Uning til siyosatiga oid ilk qarashlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1989 - yil 21-oktabrda bo‘lib o‘tgan sessiyasida so‘zlangan nutqida o‘z ifodasini topgan va bu ma’ruza «Til elni birlashtirishi kerak», degan nom bilan «O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» (Toshkent, 2011) asariga kiritilgan.

I.Karimovning mamlakatimiz birinchi rahbari sifatida ish boshlagan ilk davrida qabul qilingan muhim hujjatlardan biri til haqida bo‘lgan. Bu vazifa 1989- yilning 21-oktabrida Respublika Oliy Sovetining o‘n birinchi sessiyasida «O‘zbekiston SSRning davlat tili haqida» deb nomlangan Qonunni qabul qilish bilan amalga oshirilgan.

O‘sha tahlikali damlarida bu Qonundan o‘zining g‘arazli maqsadlari yo‘lida foydalanishga urinuvchilar, O‘zbekistonda yashovchi millatlar o‘rtasida nizo chiqarishga harakat qiluvchilar ham bo‘lgan. Buni o‘z vaqtida payqagan I.Karimov sessiyada otashin nutq so‘zlab, bu g‘arazgo‘ylarga qaqshatqich zarba bergan edi: «Shu o‘rinda

bir masalaga aniqlik kiritishimiz kerak. Bu ham bo'lsa, o'zbek tilini qaror toptirish va rivojlantirish haqidagi shiorlar ostiga yashiringan holda mahalliy aholini rus tilida gapiradigan aholiga nisbatan qarshi qo'yayotgan, shuni o'zlariga maqsad qilib olgan kimsalarning harakatlari to'g'risida gaplashib olishdan iboratdir. Bunday harakatlarga, eng avvalo, siyosiy kaltabin, aytishim kerakki, ochiqdan-ochiq xudbinlik yo'liga o'tib olgan kishilar qo'l urmoqdalar. Ular xalqlar o'rtasiga nifoq solib, o'zlarining nopok niyatlariga erishmoqchi bo'lyaptilar». «O'z ona tilini bilmagan odam o'zining shajarasini, o'zining ildizini bilmaydi, kelajagi yo'q odam; kishi tilini bilmaydigan uning dilini ham bilmaydi, deb juda to'g'ri aytishadi. Lekin ona tilimizni bilish yo'lidagi intilishlarimizni, harakatlarimizni rus tiliga qarama-qarshi qo'yish, rusiyzabon birodarlarimiz bilan aloqani uzish mutlaqo noto'g'ri bo'lar edi».

Mana shu mulohzalari bilan I.Karimov ko'z o'ngimizda tilning ijtimoiy mohiyatini chuqur anglagan zukko siyosatchi va murabbiy sifatida namoyon bo'ladi. Oradan o'tgan o'ttiz yildan ortiq davr bu fikrlarning qanchalik hayotiy bo'lganligini ko'rsatdi. 1995-yilda Qonun qaytadan ko'rib chiqildi. Uning ayrim moddalari olib tashlandi, ayrimlariga esa o'zgartishlar kiritildi. Eng muhimi, I.Karimovning vaziyatni to'g'ri baholay olishi va qat'iyati tufayli millatchilik yoki davlat til ustuvorligi negizida nizolarning kelib chiqishiga yo'l qo'yilmadi.

Darhaqiqat, I.Karimov yangi davrdagi ona tilimizning himoyachisi, homiysi va g'amxo'ri sifatida maydonga chiqdi.¹ Uning ona tilimiz haqidagi nazariy fikrlari keyinchalik uning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida o'z ifodasini topdi.

Asarda o'tgan asrning keyingi o'n yilliklarida, ayniqsa, mustaqillikka erishish arafasida va uning dastlabki yillarida mamlakatimiz hayoti uchun tahdid solib turgan kuchlarni tahlil qilar ekan, I.Karimov quyidagi fikrlarni bildirgan edi: «O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q». «Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidai qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim, deb o'ylayman». «Lekin ana shunday dahshatli davrda ham har qanday zulm va istibdodga qaramasdan, xalqimiz

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2011.

o'zini, o'zligini yo'qotmadi. Tilini va dinini, iymon-e'tiqodini saqlab qoldi».

Shundan so'ng kitobda muallifning til haqidagi qarashlari bayon etilgan. Jumladan, unda shunday fikrlar bor:

«Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir».

«Qariyb bir yarim asrlik qaramlikdan so'ng mamlakatimizda o'zbek tili davlat tili deb e'lon qilindi. Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo'lmish ona tilimiz o'zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo'ldi. Bu Vatanimiz tarixida tom ma'nodagi buyuk voqea edi».

«1992-yil 7-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilanib, mustahkamlab qo'yildi. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog'i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollaridan biriga aylandi».

«Istiqlol yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda. Ayniqsa, davlat tilining xalqaro miqyosda ham faol muloqot vositasiga aylanib borayotgani e'tiborlidir».

«Shu borada o'zbek tilining kompyuter va internet, aniq fanlar, tibbiyot, iqtisodiyot kabi maxsus termin va tushunchalarni talab qiladigan sohalarda ham keng qo'llana boshlagani uning imkoniyatlari nechog'lik katta ekanini ko'rsatadi.

Holbuki, bundan yigirma yil oldin oddiygina ariza yoki ma'lumotnomani ham o'zbek tilida yozishning imkoni yo'q edi. Bugun bu haqda gapirsangiz, ko'pchilik yoshlarning ishonishi qiyin. Chunki hozirgi paytda oliy hokimiyat idoralaridan tortib mahalliy boshqaruv idoralarigacha ish yuritish ona tilimizda amalga oshirilmoqda».

«Biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot

texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz».

«Ma'lumki, o'zbek tili asrlar davomida arab yozuvi asosida rivojlanib kelgan. 1929-yilda ma'rifatparvar ziyolilarimizning sa'y-harakatlari bilan lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosi ishlab chiqildi va joriy etildi. Afsuski, hukmron mafkuraning sobiq SSSR hududidagi barcha xalqlar madaniyatini «yagona sovet madaniyati» degan sun'iy g'oya ostida birlashtirishga qaratilgan siyosati tufayli bu ijobiy tajriba nihoyasiga etmasdan qolib ketdi».

«Tabiiyki, mustaqillikka erishganimizdan so'ng xalqimiz ma'naviy hayotidagi boshqa ko'plab muammolar qatori til va alifbo masalasi ham biz uchun kun tartibidagi dolzarb vazifaga aylandi. Ayniqsa, ona tilimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va nufuzini yuksaltirish, mamlakatimizning jahon kommunikatsiya tizimiga integratsiyalashuvini ta'minlash, farzandlarimiz uchun chet tillar, axborot texnologiyalarini har tomonlama puxta egallash borasida qulay imkoniyatlar yaratish kabi bir-biridan muhim vazifalar bu masalani kechiktirmasdan hal qilishni talab etar edi. Shu maqsadda 1993-yil 2-sentabrda yurtimizda «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi».

«Ayni vaqtda jamiyatimizda til madaniyatini oshirish borasida hali ko'p ish qilishimiz lozimligini ham unutmasligimiz zarur. Ayniqsa, ba'zan rasmiy muloqotlarda ham adabiy til qoidalariga rioya qilmaslik, faqat ma'lum bir hudud doirasida ishlatiladigan sheva elementlarini qo'shib gapirish holatlari uchrab turishi bu masalalarning hali-hanuz dolzarb bo'lib qolayotganini ko'rsatadi. Bu haqda so'z yuritganda, bobomiz Alisher Navoiyning «Tilga e'tiborsiz – elga e'tiborsiz» degan so'zlarida naqadar chuqur hayotiy haqiqat mujassam ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz».²

Ona tilimizga davlat tili maqomini berish masalasi hali O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritmagan bir paytda kun tartibiga qo'yilganini inobatga olsak, bu chinakam ma'noda ma'naviy jasorat edi. Qabul qilingan Qonunda vaziyatga bog'liq tarzda

² Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: «Маънавият», 2008, -Б.4, 9, 16, 52-56.

muayyan kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lishidan qat’i nazar, o‘z davri uchun juda katta ijtimoiy-siyosiy voqea edi.

2. Globallashuv va til siyosatining ayrim masalalari.

Bugun jahonda yuz berayotgan global jarayonlar dunyodagi barcha mamlakatlar va xalqlarning hayotiga u yoki bu darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayrim iqtisodiy va harbiy jihatdan kuchli davlatlarning jahonga hukmronlik qilish istagi bilan endigina o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan xalqlarning dunyo hamjamiyatidan o‘zlariga munosib o‘rnini topish yo‘lidagi intilishlari o‘rtasida ziddiyat vujudga kelmoqda.

Globallashuv jarayoni tillar taraqqiyotida ham kuzatilmoqda. Ingliz tilining xalqaro va ilmiy-texnika tili sifatida dunyoni qamrab olayotgani buning dalilidir. Mana shunday murakkab sharoitda dunyodagi boshqa tillarning, masalan, son jihatdan nisbatan kam aholi gaplashadigan tillarining taqdiri qanday bo‘ladi, degan savol o‘rtaga qo‘yilmoqda.

Aytish mumkinki, hozirgi paytda tillar kommunikatsion tarmoqlar globallashuvi, «katta» tillarning yanada yiriklashuvi, «kichik» tillarning tobora qo‘llanish ko‘lami chegaralana boruvi va oxir oqibatda yo‘qolish xavfi paydo bo‘lgan bir vaziyatda yashamoqda.

Ayrim ijtimoiy tarmoqlardagi ma’lumotlarida «katta» tillardan biri bo‘lgan ingliz tilining globallashuvi va buning ingliz tili funksional sferasi qamroviga jiddiy ta’sir ko‘rsatayotganligi xususida so‘z boradi.³

Ba’zi olimlar 150-200 yildan keyin Yer yuzining barcha aholisi shakli o‘zgargan, soddalashgan ingliz tilida gaplashadigan bo‘ladi, degan fikrni bildirsalar, boshqa birlari bu tilning dunyoviy ahamiyatini inkor etmagan holda uning hech qachon barcha odamlar so‘zlashadigan yagona til bo‘lmasligini, kam sonli xalqlar o‘z tili, madaniyati va an’analariining yo‘q bo‘lib ketishiga yo‘l qo‘ymasligini aytadilar. Uchinchi bir guruh olimlar ingliz tilining hukmronlik davri 2030-yilgacha davom etishi, keyin esa xitoy tili dunyo maydoniga chiqishi haqidagi farazlarini ilgari suradilar.⁴

Buning aksi o‘laroq, yuzaga kelgan vaziyat dunyo xalqlari o‘rtasida ozchilikni tashkil etadigan millatlar va elatlarni ma’lum ma’noda tashvishga solmoqda. Masalan, «Buryat tili va madaniyati

³ http://www.volsu.ru/RES_C/VGI/nauchnye/autoreferat...

⁴ Английский язык - язык будущего. Дата индексирования: 27.06.2007. 61 Kb - <http://forum.nov.ru/archive/index.php/t26750.html>

globalizatsiya sharoitida» deb nomlangan konferensiyada qayd etilishicha, buryat tili qizil kitobga yozilgan va u yo‘q bo‘lish arafasida.⁵

Bu masalalar, globallashuv va til siyosati boshqa xalqlarni ham tashvishga solayotganligini keyingi yillarda bo‘lib o‘tgan boshqa anjumanlar misolida ham ta’kidlash mumkin. Qozonda 2003-yil oktabr oyida 13 mamlakat vakillari ishtirok etgan «Globalizatsiya va milliy mustaqillik. Tillar forumi»,⁶ 2003-yilning sentabr-oktabr oylarida Yalta shahrida bo‘lib o‘tgan «Funksional lingvistika: globallashuv davrida rus va ukrain tillarining amalda bo‘lishi», 2004-yilning may oyida Moskva gumanitar-iqtisodiyot institutida «Inson va etnosning til tarzi»,⁷ 2007-yilning mart oyida Qrimda «Ukraina russhunosligi va globalizatsiya davrida dunyoning kichik xalqlari tili va madaniyatini saqlab qolish muammolari»⁸ mavzularida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiya va forumlar ana shundan dalolat beradi.

Qrimda bo‘lib o‘tgan forum rezolyutsiya qabul qilgan. Rezolyutsiyada qayd etilishicha, til taraqqiyoti va rivoji g‘oyatda murakkab jarayon bo‘lib, u millatning va bu millat yashayotgan mamlakatning taqdiri bilan chambarchas bog‘liq hamda u milliy yaxlitlik va milliy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Shuning uchun ham mayda tillarga bo‘lgan munosabatlarning bir yo‘nalishida ularni unifikatsiya qilishga, ya’ni umumiy bir me’yorga keltirishga harakat qilinadi, qo‘llanish doirasi tobora qisqartirilib, yo‘qolish darajasiga olib boriladi.

Ikkinchi bir yo‘nalishda esa, til xalq tarixiy-madaniy turmushining tarkibiy qismi sifatida har bir millat tabiiy huquqi va talabini qondira borib, tilning yaratuvchisi va avloddan-avlodga yetkazuvchisi sifatida amal qiladi va taraqqiy etadi.

Bu ikki yo‘nalish o‘rtasidagi qarama-qarshilik vaqti-vaqti bilan keskinlashadi, ma’lum bir kuchlar o‘z manfaatlarini ko‘zlab o‘rtaga tushadi, sof tilga oid qonuniyatlar va talablar esa chetda qolib ketadi.

Xuddi mana shunday jarayonni o‘zbek tili ham o‘z boshidan kechirayotgan edi. Ammo XX asrning oxirida sobiq SSSR hududida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar «sovetlar makonida» hukmron bo‘lgan til siyosatini parchalab tashladi. O‘zbekiston hududida

⁵ БГТРК. Все новости Забайкалья. Дата индексирования: 30.06.2007. 39 Kb - <http://www.bgtrk.ru/ru/mod.php?name=news&go=dat&fi...>

⁶ <http://e-kazan.ru/news/date.htm?datetime=22-10-200...>

⁷ <http://psycholing.narod.ru/konf-berezin1.htm>.

⁸ <http://www.rusk.ru/st.php?idar=104792>.

yashaydigan o'zbeklardan boshqa millatlar huquqlarini himoya qilish davlat konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida «O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi», deb aniq va ravshan belgilab qo'yildi.⁹

Bu esa o'zbek tili, O'zbekiston hududida yashovchi barcha millatlar va elatlar tili taqdiriga, ularning kelajagiga bo'lgan mutlaqo yangicha qarash va munosabat edi.

Ammo oradan o'ttiz yildan ortiq o'tgan davrda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar o'zbek tili va uning kelajagi to'g'risida yana ham jiddiy o'ylab ko'rishni taqozo etayotir.

Mustaqillik yillarida o'zbek tilining boyish yo'llarini ilmiy tahlil etish, uning rivoji va taraqqiyotiga chet tillarning ta'siri haqida fikr yuritish va bunda butun jahonda kechayotgan axborot almashish jarayonidagi globallashuvini e'tiborga olishga zarurat sezilayotir. Chunki mustaqillik sharoitida o'zbek tili o'ziga xos taraqqiyot bosqichini boshidan kechirmoqda, uning ijtimoiy ahamiyati ortib bormoqda, funksional jihatlariga e'tibor kuchaymoqda.

Hozirgi davrda o'zbek tili taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatayotgan omillardan biri mamlakatimizda chet davlatlar bilan olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy aloqalardir. Bu esa O'zbekiston Respublikasining globallashuv jarayoniga jiddiy aralash va sherik ekanligidan, bu jarayondan chetda emasligidan dalolat beradi.

Ingliz tilining globallashuvi jahondagi ko'plab tillarning, jumladan, mustaqillik yillarida o'zbek tilida ham baynalminal leksikaning ko'payishiga olib olib keldi. Bu holat bir vaqtlar lotin tilining jahon tillariga ta'siri qay darajada kuchli bo'lganligini eslatadi. Tilimizga kirib kelgan *biznes, immitatsion modellash, konsepsiya, ierarxiya, kontrakt, korporatsiya, kollegial, konsorsium, konsern, menejment, menejer, market, marketing, monitoring, injenering, impichment, killer, konsalting, provayder, reket, sammit, spiker, senator, reyting, test* kabi ijtimoiy-iqtisodiy va kompyuter, *fayl, sayt, chat, prosessor* kabi ayrim texnikaviy terminlarni eslaylik.¹⁰

Bugun o'zbek tili o'z ichki manbalaridan ko'ra tashqi manbalar hisobiga boyib borayotganligini ham globalizatsiya jarayoni bilan

⁹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: «Ўзбекистон», 1992. – Б.9.

¹⁰ Ana shunday so'zlarning katta bir guruhi Y. Hamroyevaning 2007-yilda «Yangi asr avlodi» nashriyotida chop etilgan «O'zbek tilining o'zlashma so'zlar o'quv-izohli lug'ati»da juda yaxshi ko'rsatib berilgan.

bog'lash mumkindir. Avvallari tilimizda *anti-*, *pre-*, *ultra-*, *ekstra-*, *-izm*, *-ist* singari lotincha so'z yasovchi grammatik ko'rsatkichlar faol bo'lgan bo'lsa, bugun ular o'z o'rnini *mega-*, *super-*, *-ir*, *-ing* kabi qo'shimchalarga bo'shatib bermoqda. To'g'ri, ular o'zbekcha so'z yasayotgan emas, ammo baynalminal so'zlar tarkibida kirib kelmoqda. Lekin bu o'zbek tilining mutlaqo chet tillar ta'siriga tushdi degan gap ham emas. O'zlashtirilayotgan har bir til birligi o'zbek tili qonun-qoidalariga, talaffuz me'yorlariga moslashtirilgan holda qabul qilinmoqda.

Aytilganlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, bugun tilimiz taraqqiyotda kechayotgan jarayonlarga obyektiv munosabatda bo'lishimiz, uning pragmatik ahamiyatiga va uning ana shu jihatlarini tadqiq etishga ko'proq diqqatimizni qaratishimiz, mustaqillik davrida yuz bergan lingvistik jarayonlarni ilmiy tahlil etishimiz va obyektiv xulosalar chiqarishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Ana shunday qilingandagina ona tilimizning boy va madaniy tillardan biri ekanligini amalda isbotlagan, uning umri boqiy bo'lishiga, jahonga yuz tutishiga, dunyo tillari o'rtasidagi mavqeyini yanada mustahkamlashga xizmat qilgan bo'lamiz.

3. Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida til siyosati.

«Davlat tili haqida»gi Qonun qabul qilinganidan buyon oradan o'ttiz yildan ortiq vaqt o'tganiga qaramasdan, uning to'liq ijrosini ta'minlash qiyinchilik bilan kechmoqda. Buning muayyan sabablari bor, albatta.

Keyingi yuz yillikda xalqimiz ijtimoiy hayotida rus tilining ta'siri juda katta bo'lganligi, ilmiy tadqiqotlarni rus tilini bilmasdan turib olib borish amalda mumkin bo'lmagani, Respublika miqyosida ish yuritish aksariyat shu tilda bo'lganligi, hatto mustaqillik yillarida ham xalqaro til sifatida mavqeni saqlab turganligi asosiy sabablardan biridir.

Mustaqillikdan keyingi yillarda davlat boshqaruvida faoliyat olib borayotgan kadrlarning ma'lum qismi sobiq Ittifoq davrida rus tilida savod chiqarganligini ham ana shu omillar sirasiga kiritish mumkin. Buning ustiga, ko'pchilik odamlarimizdagi loqaydlik va mas'uliyatsizlik ham til haqidagi qonunlar ijrosining to'la ta'minlanmasligiga olib keldi.

Agar shunday bo'lmaganda, shuncha yil davomida ish yuritishda ikki yozuvlilik davom etib kelmagan bo'lardi. Bu esa, xalqning savodxonlik darajasiga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ona tilimizga bo'lgan tazyiqlarning hamon davom etayotgani esa achinarlidir. O'tgan yilning 1-may kuni vesti.uz saytida bir guruh rus tili tarafdorlari «Russkiy yazik nam ne chujoy» nomli murojaatida O'zbekistonda rus tiliga rasmiy til maqomini berish, buning uchun mamlakat qonunchiligiga zarur o'zgartirish kiritishni taklifi bilan chiqishdi. Bu murojaat xalqning jiddiy noroziligiga sabab bo'ldi va ommaviy axborot vositalari, matbuot hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali Vatanimiz va xalqimiz taqdiriga befarq bo'lmagan yuzlab insonlar chiqish qilishib, taklifga qarshi keskin va qat'iy fikrlar bildirdilar.

Harqalay, «Davlat tili haqida»gi Qonun ijrosi yuzasidan juda ko'p xayrli ishlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramasdan, keyingi yillarda ona tiliga bo'lgan munosabatda vaziyat yaxshi emas edi. Ikki xil – ham kirill, ham lotinga asoslangan yozuvlarning baravar amal qilib kelayotgani, davlat idoralarida ish yuritishning ham rus, ham o'zbek tillarida davom etayotgani, ta'limning quyi bo'g'inlarida ona tili saboqlariga e'tiborning susayib ketgani, ayrim sheva vakillarida boshqa shevada gaplashuvchilarga nisbatan bepisandlik, behurmatlik va mahalliychilik kayfiyatining tobora kuchayib borgani, hatto rus yoki ingliz tilini o'rganib olgan ayrim kimsalarning o'zini boshqalardan ustun ekanligini ko'rsatish maqsadida uylarida ham o'sha tillarda gapira boshlagani, balalarini rus maktabalariga berayotgani ona tilimizga bo'lgan munosabatda yoqimsiz bir manzarani paydo qilgan edi.

Xayriyatki, sog'lom fikrlaydigan insonlar ham kam emas edi. Ular imkon bo'lishi bilan chiqishlar qilishar, vujudga kelgan vaziyatga kuyunchalik bilan munosabat bildirishar edilar. Bu jarayon hozirda ham davom etmoqda.

Yillar o'tib, tilga bo'lgan munosabatda yana ijobiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqilikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona-Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim», degan shoirni o'rta tashladi va o'zbek tilining nafaqat mamlakat ichida, balki uning tashqarisida ham obro'sini ko'tarish yo'lida keskin choralar ko'ra boshlandi.

Mamlakatimiz birinchi rahbarining 2019-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgani munosabati bilan o'tkazilgan tantanali marosimda so'zlagan nutqi ona tiliga bo'lgan munosabatda tub burilish bo'ldi. Nutqda belgilab berilgan vazifalarni amalda

bajarishga jiddiy kirishildi. Jumladan, Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi, Departament qoshida Atamalar komissiyasi ish boshladi. Har yili 21-oktabrni sana o'zbek tili bayrami kuni sifatida nishonlash haqida Qonun qabul qilindi. Eng muhimi, «2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi», «2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish bo'yicha davlat dasturi», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbek tilining davlat tili sifatida qo'llanilishini kengaytirish, rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha 2019-2020-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi» loyihalari ishlab chiqildi va umumxalq muhokamasiga havola etildi.

2018-yilning 15-mayida Vazirlar Mahkamasining «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini keng joriy etish va yanada takomillashtirish bo'yicha Harakatlar rejasi» tasdiqlangan bo'lsa, 2019-yilning mart oyida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan «Davlat tili to'g'risida»gi yangi Qonun loyihasini ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruh tashkil qilindi. Ishchi guruhga mamlakatning yetakchi olim va mutaxassislari jalb qilindi. Ishchi guruh tomonidan 7 bob, 29 moddadan iborat «Davlat tili to'g'risida»gi Qonuni loyihasi ishlab chiqildi. Jumladan unda 1995-yilda qabul qilingan «Davlat tili haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 2-, 7-, 8-, 10-, 13-, 16-, 18-, 19-, 20-, 21-, 22-, 24- moddalariga o'zgartirish kiritish ko'zda tutilgan.

Davlat tili haqidagi yangi qonun loyihasining muhokamaga qo'yilishi munosabati bilan o'zbek tilining mavqeyini yanada mustahkamlash yuzasidan juda ko'plab taklif va mulohazalar bayon etilmoqda. Yo'l qo'yilayotgan sustkashliklar yuzasidan tanqidiy fikrlar bildirilmoqda.

Adliya vazirligi tomonidan davlat tilida ish yuritishni ta'minlamaganlik uchun mansabdor shaxslarga javobgarlik belgilashni nazarda tutuvchi qonun loyihasi e'lon qilindi. Agar ushbu qonun qabul qilinsa, davlat tilida ish yuritmagan mansabdorlar javobgarlikka tortilishi mumkin. Ayni paytda, Adliya vazirligi O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 42-moddasiga: «Davlat organlari va tashkilotlarida ish yuritishda davlat tili haqidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etmaslik, mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh

baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi» degan to‘ldirish kiritishni taklif etgan.

Yaqin o‘n yillikka mo‘ljallangan o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi va bu muhim hujjatni amalga oshirishga qaratilgan Davlat dastri yangilanayotgan O‘zbekistonda til siyosatini amalga oshirishda izchillikni ta‘min etishga, til va nutq madaniyatining yanada yuksalishiga olib keladi.

4. Til va nutq madaniyati xalq ma‘naviyatining ko‘zgusi.

Har qanday tilni nazariy jihatdan o‘rganish uni amaliyotga tatbiq etish bilan bog‘liq holda kechadi. Til hodisalari haqida muayyan xulosalarga kelishda uning amaliy jihatlari yuzasidan olib borilgan kuzatishlar, tajribalar asqotadi. Ayni paytda, tildan foydalanishning amaliy jihatlari ham kelingan ana shu nazariy xulosalarga tayanadi.

Shuning uchun ham tilni ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganishdan maqsad nima, degan savolga, odatda, uni amaliyotda qo‘llash qoidalarini va madaniyatini o‘rganish deb javob beriladi. Tilning amaliyotda qo‘llanishi keng qamrovli jarayon va u inson faoliyatining ajralmas qismi sanaladi.

Insonning insonligini tasdiqlovchi va uning jamiyatda tutgan o‘rnini, mavqeyini belgilovchi muhim omillardan biri uning axloqiy, madaniy saviyasi sanalar ekan, tilni bilishi va undan foydalanish uquvi ham ana shu madaniy saviya ichida qaraladi. Hayotda odamlar ko‘p, ammo ularning madaniylik darajasi turlicha. Xalq uchun, millat uchun til bitta, ammo undan foydalanish darajasi har kimda har xil. Ya‘ni tildan foydalanish ham uning madaniy saviyasiga bog‘liq bo‘ladi. Mana shu ma‘noda tildan foydalanishning ham o‘z madaniyati va tartib-qoidalarini bor.

Jamiyat taraqqiy etgani sari til ham boyib va rivojlanib boraveradi. Binobarin, insonning tildan foydalanish imkoniyati ham shunga qarab kengayib ketaveradi. Tildan foydalanishdagi funksional imkoniyatlar mana shu tarzda paydo bo‘ladi.

Milliy til madaniyatining rivojlanib, takomillashib borishi nutq madaniyatining ham sayqal topib borishiga sabab bo‘ladi. Qaysi millatning bilim va madaniy saviyasi yuqori bo‘lsa, bu til va nutq madaniyatida ham o‘z ifodasini topadi.

Yana bir narsa e‘tiborliki, til va nutq madaniyatining rivoji ma‘lum ma‘noda xalqning yashash tarziga, davlatchilik siyosatiga ham bog‘liq. Qayerda talab va ehtiyoj kuchli bo‘lsa, ular o‘sha yerda rivoj topgan. O‘zbek xalqining sobiq Ittifoq davridagi turmush tarzini olib

qaraylik. Nutqiy madaniyat, ayniqsa, notiqlik san'atini ommaviy rivojlantirishga ehtiyoj kuchli bo'lmagan. Madaniy-ma'rifiy rivojlanish «shaklan milliy, mazmunan sotsialistik» shiori niqobi ostida bo'lgan va butun Ittifoq xalqiga rus xalqi madaniyati va urf-odatlarini singdirishga harakat qilingan. Ma'lum ma'noda bunga erishilgan ham. Kommunistik mafkura hukmronligi sharoitida barcha mafkuraviy kuchlar bitta siyosiy partiya – kommunistik partiya g'oyalarini xalq ongiga singdirishga safarbar etilgan. Binobarin, notiqlik san'ati faqat bir joyda – kommunistik targ'ibot jarayonida kerak bo'lgan va u bilan sanoqli kishilar shug'ullanishgan. Davrning o'z siyosatchilari va o'z notiqdari bo'lgan. Itoatkor aholining asosiy qismi esa paxta xom ashyosini etishtirish bilan band bo'lishgan.

Shu o'rinda o'zbek nutq madaniyati masalalarining ilmiy tadqiqi va ta'lim jarayonida o'qitilishi tarixiga bir nazar tashlashga to'g'ri keladi. O'zbek til ilmi tadqiqi markazi va muvofiqlashtiruvchisi hisoblanadigan O'zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti qoshida Nutq madaniyati sektori 1966 - yilda tashkil etilgan. Shungacha o'zbek tilshunosligida bu masala bilan hech kim maxsus shug'ullanmagan. Oliy ta'lim tizimida alohida fan sifatida o'qitilmagan. 1969 - yilda o'zbek tili nutq madaniyati masalalariga bag'ishlab birinchi marta respublika konferensiyasi tashkil etilgan. Ana shu konferensiyaning ochilishida O'zFA vitse-prezidenti akademik Ibrohim Mo'minov kirish nutqi so'zlagan. Jumladan, u shunday degan: «Hurmatli o'rtoqlar! Ulug' Oktabr sotsialistik revolyutsiyasi yaratib bergan tarixiy sharoit tufayli, Kommunistik partiyamiz doimo og'ishmasdan amalga oshirib kelgan lenincha milliy siyosat tufayli SSSRdagi barcha elat va millatlar qatori o'zbek xalqining ham sotsialistik milliy madaniyati, milliy tili beqiyos darajada rivoj topdi, gullab yashnadi».¹¹

Konferensiya ishi o'zbek tilida olib borilgan. Ammo o'sha yillarda ommaviy tadbirlar va yig'ilishlarda loaqal bitta boshqa millat vakili ishtirok etsa ham majlisni rus tilida olib borish taomilga kirgan edi. Faqat har yili bir marta o'tkaziladigan qishloq xo'jaligi xodimlari qurultoyida mamlakatimizning birinchi rahbari Sharof Rashidovning ma'ruzasi o'zbek tilida bo'lganligini va butun Respublikaga radio orqali eshittirilganini eslaymiz. Mana shundan ham o'zbek tiliga, uning

¹¹ Nutq madaniyatiga oid masalalar. Ўзбек тили нутқ маданиятига бағишланган I Республика тилшунослик конференцияси материаллари. – Тошкент: Фан, 1973. -Б.5.

nutqi madaniyatiga bo'lgan munosabatning ham qanchalik siyosiylashganini bilsa bo'ladi.

O'tgan asrning 60-yillarida Samarqand davlat universiteti o'zbek va tojik filologiyasi fakulteti talabasi bo'lganmiz va u paytlarda bizga o'zbek tili nutqi madaniyati yoki uslubshunosligidan darslar tinglagan emasmiz.

Ammo ta'kidlash joizki, Til va adabiyot instituti qoshida tashkil etilgan Nutq madaniyati sektori o'zbek tilshunosligi fani rivojiga o'z yo'nalishida munosib hissa qo'shdi. O'zbek nutqi madaniyatining ilmiy tadqiq etilishi, nazariy asoslarining ishlab chiqilishida va ommaviy tus olishida yo'l boshchilik vazifasini o'tadi. Bu borada Sektorning birinchi mudiri bo'lgan filologiya fanlari doktori Sobirjon Ibrohimov va u kishining shogirdi filologiya fanlari doktori Ernst Begmatovning xizmatlari nihoyatda katta bo'ldi. Bu olimlar nashr etgan kitoblar, tashkil etgan ilmiy anjumanlari, respublika bo'yicha tayyorlagan shogirdlari o'zbek nutqi madaniyati va stilistikasining fan sifatida shakllanishiga, bu borada ilmiy tadqiqotlar ko'lamining kengayishi va ta'lim tizimida o'qitilishiga asosiy sabab bo'ldi.

Mustaqillikdan keyingi davr o'zbek nutqi madaniyatiga bo'lgan talab va ehtiyojning ortganligi, o'z navbatida, unga bo'lgan munosabatning ham jiddiy o'zgarganligi bilan xarakterlanadi. Chunki, avvallari chet el xalqlari bilan muloqotimiz nihoyatda chegaralangan va faqat rus tili orqali bo'lgan bo'lsa, endi bu yo'nalishda to'la erkinlikka erishilgan va muloqotni ona tilimizda olib borishga ham imkoniyat paydo bo'lgan edi.

Mamlakat miqyosida ommaviy tadbirlarning o'zbek tilida olib borila boshlagani, ish yuritishda asta-sekinlik bilan davlat tiliga o'tilishi, oliy ta'lim tizimida fundamental va aniq fanlarni o'zbek tilida o'qitishning yo'lga qo'yilishi, e'tiqod erkinligi berilib, islom dinining xalqimiz orasida yana keng yoyila boshlagani o'zbek nutqi madaniyatiga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirgan omillar edi. Uni puxta egallashga va notiqlik san'atiga bo'lgan ehtiyoj, ayniqsa, pedagogika va boshqaruv tizimida yaqqol sezila boshladi.

Ushbu masalarni ijobiy hal etish borasidagi harakatlar ham tezlashdi. Oliy filologik ta'lim tizimida o'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati alohida fan sifatida o'qitila boshladi. Nutq madaniyatini o'qitish oliy ta'limning barcha yo'nalishlari o'quv dasturlariga kiritildi. Turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonida kasb etikasi va estetik madaniyati doirasida nutq madaniyatini

o'qitishga ham ma'lum soatlar ajratiladigan bo'ldi. Xullas, bu borada ko'plab ijobiy ishlarni amalga oshirish yo'lga qo'yildi.

Ammo bu sohada erishganlarimiz hamon talabga javob bermaydi. Keyingi o'n yilliklarda nutq madaniyati va notiqlik san'ati nazariyasi va amaliyotiga oid yaratilgan tadqiqotlar tahlil qilinib, ulardan tegishli xulosalar chiqarilishi va bu fanlar nazariyasiga oid qarashlar umumlashtirilishi lozim. Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida «O'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati» va «O'zbek notiqlik san'ati» fanlarini o'qitishni yagona tizim holatiga keltirish va bu jarayon darsliklar va o'quv qo'llanmalarining yangi avlodi bilan ta'minlanishi zarur bo'ladi.

Til va nutq madaniyati bilan birgalikda notiqlik mahorati sirlarini o'rgatish ona tili ta'lim tizimidan mustahkam o'rin olishi shart va zarur. Chunki ishlab chiqarish, ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligi ma'lum ma'noda soha egalarining notiqlik mahoratiga ham bog'liqdir. Fan o'qituvchilarning malaka oshirish tizimi yo'lga qo'yilishi kerak. Notiqlik san'ati mahorati o'rgatiladigan kurslar, to'garaklar tashkil etilishi, uni egallashning yo'llari ko'rsatiladigan va har bir kasb va mutaxassislik yo'nalishlari uchun alohida metodik qo'llanmalar yaratilishi lozim.

Shu ma'noda tilshunos olim Rahimboy Jumanioyovning fidoyiligi tahsinga loyiqdir. U tashkil etgan Notiqlik akademiyasi, yozayotgan kitoblari, O'zbekiston teleradiosi orqali olib borayotgan ko'rsatuvlari va eshittirishlari, omma oldidagi chiqishlari ibrat namunasidir. Bu tashabbus mamlakat bo'ylab yoyilishi zarur. Bugun filologik oliy o'quv yurtlari o'quv rejasiga nutq madaniyati, notiqlik san'ati, mutolaa san'ati singari predmetlarning kiritilishi ijobiy hodisa. Ammo bu predmetlarni o'qitadigan o'qituvchilarning ko'pchiligi hali talablar darajasidagi nutqiy malakaga ega emasligi tashvishlanarlidir.

Mamlakatimizda mustaqillikning qo'lga kiritilishi bilan unga bog'liq tarzda mafkura ham o'zgardi. Milliy istiqlol g'oyasi deb nomlangan mustaqillik mafkurasi bilan bugungi kunda bir necha siyosiy partiyalar shug'ullanmoqda. Shunday bo'lishiga qaramasdan, xalqimiz bu g'oyaning tub mohiyatini hali to'laligicha anglab yetgani yo'q. Buning muayyan sabablari bor, albatta. Boshqa sabablar tahlilini soha mutaxassislariga qoldirib, o'zimizga ma'lum bo'lgan sabablar to'g'risida gapiramiz. Bu – istiqlol g'oyasi targ'ibotining talablar darajasida emasligidir.

Mafkura sohasida kuchli bilimga ega bo'lishdan tashqari uni ommaga yetkazish mahoratining yetishmasligi bu boradagi asosiy kamchiliklardan biri bo'lib qolmoqda. Hozirgi paytda xalqimizga rivojlanishimizning harakatlar strategiyasini, milliy ma'naviyatimizning tub mohiyatini, Prezidentimiz boshlab berayotgan yangi-yangi tashabbuslarning tub mohiyatini ommaga yetkazib bera oladigan, o'z sohalarining bilimdonlari bo'lgan notiqalar nihoyatda zarur.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Mustamlaka davri til siyosatini gapirib bering.
2. Globallashuv o'zbek tilining taraqqiyot darajasiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin?
3. «Davlat tili haqida»gi Qonunning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati nimadan iborat?
4. Islom Karimovning til haqidagi qarashlari.
5. Milliy ong va milliy tafakkur til orqali namoyon bo'ladi, degan fikrni qanday tushunasiz?
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tili haqida nima deyilgan?
7. «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonun haqida gapirib bering.
8. Til rivojiga globallashuv siyosatining ta'sirini qanday tushunasiz?
9. Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida ona tiliga munosabat qanday bo'lmoqda?
10. «O'zbek tilini rivojlantirish konsepsiyasi»da qanday muammolarni hal etish ko'zda tutilgan?
11. O'zbek tili va nutq madaniyatini rivojlantirish borasida oldimizda qanday vazifalar turibdi?

XOTIMA

XXI asrga kelib insoniyat yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'ydi. Raqamli texnologiyalarning mamlakatimizga jadal suratlar bilan kirib kelayotgani, shubhasiz, o'zbek xalqi hayotiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Global axborot oqimini internet, mobil aloqalar orqali qabul qilish insoniyat uchun eng qulay, arzon va tejamli vositaga aylandi. Istalgan adabiyotni dunyoning narigi chekkasida bo'lsa ham, bir zumda olishga imkoniyat yaratildi. Ammo u asl manba ozuqasini bera olmasligi aniq. Xohlaymizmi yo'qmi, mana shu ma'noda virtual olamning kitob mutolaasiga salbiy ta'siri sezilib qolmoqda.

Xalqaro va respublika miqyosidagi siyosiy yoki ilmiy-amaliy anjumanlar va ish yuritishning, ta'lim tizimi va axborot almashishning onlayn va mediaaloqa rejimida yo'lga qo'yilayotgani insonlararo muloqotning mutlaqo yangi tartibi sifatida baholanmoqda.

Insoniyatning turmush tarzida yuz berayotgan bu kabi inqilobiy o'zgarishlar uning ruhiyatiga ham ta'sir qilmasdan qolmaydi. Binobarin, uning muloqot madaniyatida ham, kitob o'qishga bo'lgan munosabatida ham muayyan o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu munosabatlar an'anaviylik tamoyillaridan tashqariga chiqib, noan'anaviylik kasb etadi, cheklanishlar, odamlarning ruhiy olamida esa o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Mana shunday murakkab bir sharoitda insonlarning o'zaro muloqotida nutq madaniyati va kitob mutolaasi madaniyatini yanada rivojlantirishga talab va ehtiyoj qanday bo'ladi?

Texnika qanchalik rivojlanmasin, uning muallifi bo'lgan inson o'zi yaratgan texnikaning vintiga aylanib qolishi mumkin emas. Har qanday sharoitda ham u o'z tafakkur olami, his-tuyg'ulari va milliyligiga ega hazrati inson bo'lib qolishi kerak.

Kitob esa dunyoni idrok qilish va anglashda, ilmiy tafakkur va ma'naviyat rivojida, badiiy-estetik zavq olishda, inson uchun makon va zamonda chegaralanmagan tengsiz bilim manbai va berganlari uchun hech narsa talab qilmaydigan va hech qaysi axborot vositasi o'rnini bosa olmaydigan beminnat va sodiq hamrohdur.

Muloqotning esa yuksak insoniy fazilatlar, milliy madaniyat va qadriyatlarga to'yingan bo'lishi odamlarning o'zini inson sifatida, ma'lum bir millatning vakili sifatida his qilishi va mamnuniyat bilan hayot kechirishining eng qulay va yoqimli vositasidir.

Bu esa muomala madaniyatining va kitobga boʻlgan muhabbatning yuksak ma'naviy qadriyat sifatida hech qachon zavol topmasligi va o'z qimmatini yo'qotmasligiga umid bag'ishlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston o‘qituvchi va murabbiylariga bayram tabrigi, 2019-yil 28-sentabr.
2. Karimov S. va boshq. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: O‘zbekiston, 2003. –192 b.
3. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2006. -119 b.
4. Абдулла Қаҳҳор. Ёшлар билан суҳбат. – Тошкент: «Ёш гвардия», 1968, -Б.12.
5. Абдурахмонов Ғ., Мамажонов С. Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2002. -352 б.
6. Адамов Е.А. Выдющиеся ораторы древнего мира и средних веков. Из истории ораторского искусства. - М.: изд-во «Знание», 1961. -40 с.
7. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн учинчи том. – Тошкент: Фан, 1997. – 113 б.
8. Античные теории языка и стиля. – М.: ОГИЗ, 1936. -340 с.
9. Апресян Г.З. Ораторское искусство. – М.: изд-во МГУ, 1972. -256 с.
10. Асқарова М. Республика мактабларида она тили ўқитиши ва нутқ маданияти/ Нутқ маданиятига оид масалалар. Илмий мақолалар тўплами. - Тошкент: Фан, 1973. -Б.75-76.
11. Бакиров М.Х. Искусство красноречия древнейших и средневековых тюрков. - Казань, Казанский федеральный университет, Россия, 420021, г. ул. Татарстан, д.2, mileuscha@mail.ru.
12. БГТРК. Все новости Забайкалья. Дата индексирования: 30.06.2007. 39 Kb - <http://www.bgtrk.ru/ru/mod.php?name=news&go=dat&fi...>
13. Бегматов Э. Нутқ одоби. – Ўқитувчилар газетаси, 1969 йил 25 май.
14. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М. Адабий норма ва нутқ маданияти. – Тошкент: Фан, 1983. – 152 б.
15. Бобоев Т. Адабиётшуносликка кириш курси бўйича ўқув-методик қўлланма. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1979. -Б.68-69.

16.Васильев Л.С. Риторика и дискуссии. Древний Китай. Том 3: Период Чжаньго (V–III вв. до н.э.). <https://history.wikireading.ru/337762>

17.Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Богатырский эпос «Алпамыш». Узбекский народный героический эпос. – Москва: ОГИЗ, 1947. -С.61-112.

18.Иномхўжаев С. Нотиқлик санъати асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. -180 б.

19.Исҳоқов. Ё., Навоий поэтикаси, – Тошкент, 1983. –Б.106.

20.Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: «Маънавият», 2008.

21.Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1994.

22.Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд: «Зарафшон», 1991. – 124 б.

23.Каримов С. Ўзбек тилининг фонетик стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2016. -164 б.

24.Каримов С. Тил таълими ва меъёр. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2002. -267 б.

25.Каримов С. ва б. Юристинг нутқ маданияти. – Тошкент: «Зарқалам», 2004. – 130 б.

26.Махмудов Ш.А., Никулина Т.Г. Письменная речь как форма речетворческой деятельности, 2012. <https://cyberleninka.ru/article/n/pismennaya-rech-kak-forma-rechetvorcheskoy-deyatelnosti>

27.Махмудов Н. Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изохли луғати – Тошкент: «Маънавият», 2013. - Б.3-18.

28.Махмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. -188 б.

29.Морозова А. Техника речи. Москва; 2013. http://www.litres.ru/pages/biblio_book/?art=9022287&lfrom.

30.Мўминов С. Сўзлашиш маданияти. – Фарғона, 1997;

31.Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фан. д-ри. ..дисс. – Тошкент, 2000.

32.Никольская С.Т. Техника речи (Методические рекомендации и упражнения для лекторов.) – М.: «Знание», 1978. - 80 с.

33. Носиров П. Ўзбек нутқ маданияти. Ўқув қўлланма. - Тошкент: «ЎАЖБНТ» маркази, 2004. -197 б.
34. Нурматов А. Бадиий асарда полифонизм: Филол.фан. номз.. дис.автореф. – Самарқанд, 1996. -21 б.
35. Нутқ маданиятига оид масалалар. Ўзбек тили нутқ маданиятига бағишланган I Республика тилшунослик конференцияси материаллари. – Тошкент: Фан, 1973, -Б.5.
36. Расулов Р., Ҳусанов Н., Мўйдинов Қ. Нутқ маданияти ва нотиклик санъати. – Тошкент: «Iqtisol-moliya», 2006. -132 б.
37. Рашидов А. Чингиз Айтматов олами. – Тошкент: «O‘qituvchi», 2011. -146 б.
38. Тожиев Ё., Маллабоев М. Ўзбек нутқи маданияти ва услубияти асослари. Оммабоп қўлланма. I-қисм. – Тошкент, 2006. - 132 б.
39. Тожиев Ё., Ҳасанова Н., Ҳожиматов Ҳ., Йўлдошева О. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. – Тошкент, 1994. - 132 б.
40. Томас Фостер. Искусство чтения. – Москва: «Манн, Иванов и Фербер», 2015. -292 с.
41. Холиқов А. Педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. – Тошкент: «IQTISOD-MOLIYA», 2010. -312 б.
42. Шукуров Н. ва б. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент, 1979.
43. Ўринбоев Б., Ўринбоева Д. Ўзбек тилининг сўзлашув услуби. – Тошкент, Фан, 1991.
44. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977.
45. Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1992. -160 б.
46. Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний. Ахлоқи муҳсиний – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2011. – 376 б.
47. <http://e-kazan.ru/news/date.htm? Date time =22-10-200...>
48. <http://psycholing. narod.ru/konf-berezin1.htm>.
49. <http://www.artofeast.ru/iskusstvo-kitaia/oratory-kitaia.html>
50. <http://www.confuzio.ru/most.php>
51. <http://www.orator.ru/konfucy.html>
52. <http://www.rusk.ru/st. php?idar=104792>.
53. <http://www.volsu.ru/RES C/VGI/nauch nye /autoreferat...>

54. <https://cyberleninka.ru/article/n/ituvchilarda-mulo-ot-madaniyatini-shakllantirishda-zamonaviy-tehnologiyalardan-foydalanishning-pedagogik-asoslari>.
55. <https://scicenter.online/kultura-rechi-stilistika-scicenter/yazyik-rech-kultura-rechi-osnovnyie-kachestva-167512.html>.
56. <https://studfile.net/preview/2775298/page:7/>
57. https://studme.org/167877/ritorika/ritorika_antichnosti
58. <https://vesninagroup.com.ua/tsitaty-ob-oratorskom-iskusstve.html>
59. <https://videouroki.net/blog>.
60. <https://works.doklad.ru/view/apCxUcJrb34/3.html>
61. <https://works.doklad.ru/view/fsFgJYCjOH8.html>.
62. https://www.gramota.net/articles/issn_1993-5552_2008_2-2_98.pdf

MUNDARIJA

<i>t/r</i>	<i>Mavzular nomi</i>	<i>bet</i>
	So‘zboshi	3
1	«Nutq madaniyati va mutolaa san’ati» faniga kirish.	5
2	Notiqlik san’ati – ritorika tarixidan.	11
3	G‘arbda – antik dunyo va O‘rta asrlarda notiqlik san’ati	18
4	Sharqda – qadimgi Sharq va O‘rta Osiyoda notiqlik san’ati.	27
5	Adabiy til me’yorlari va nutq madaniyati.	44
6	O‘zbek tilining me’yoriy ko‘rinishlari.	52
7	Nutqning kommunikativ sifatlari.	67
8	O‘zbek nutqi madaniyatining asosiy xususiyatlari.	73
9	Nutq texnikasi va kinesika.	86
10	Nutq shakllari va turlari.	98
11	O‘zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati.	110
12	Kitob tanlash – dunyoqarash, did va ruhiy ehtiyoj belgisi.	123
13	Badiiy matnda kutilgan va kutilmagan detallar.	132
14	Inson – tabiatning bir bo‘lagi.	145
15	Badiiy tasvirga aralashgan jonivorlar.	158
16	Badiiy asarda tagma’noli matnlar.	165
17	Tilning tasviriyl vositalari.	179
18	O‘xshatish obrazli tafakkur mahsuli.	191
19	Metafora – obrazlilik asosi.	198
20	Pedagogning nutqiy madaniyati.	207
21	Istiqlool va o‘zbek nutqi madaniyati.	218
	Xotima	233
	Foydalanilgan adabiyotlar	235

SUYUN KARIMOV

NUTQ MADANIYATI VA MUTOLAA SAN'ATI

O'QUV QO'LLANMA

Muharrir
Musahhih
Texnik muharrir

J.Bozorova
L.Xoshimov
B.Egamberdiyev

ISBN 978-9943-6648-5-2

2020-yil 24 noyabrda tahririy-nashriyot bo'limiga qabul qilindi.
2020-yil 22 defabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.
Qog'oz bichimi 60x84._{1/16}. "Times New Roman" garniturasini.
Offset qog'ozi. Shartli bosma tabog'i – 15,0.
Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 357

SamDU tahririy-nashriyot bo'limida chop etildi.
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.

